30. (a4-g15-13) Guli Dilfuzaga: «Pulimdan 5000 so'm olsang, sening puling menikidan 1000 so'm ko'p bo'ladi», – dedi. Dilfuza esa Guliga: «Sen mening pulimdan 2000 so'm olsang, pulim senikining yarmidan 1000 so'm ko'p bo'ladi», – dedi. Dilfuzanining qancha puli bor?
A) 17000 B) 22000
C) 26000 D) 13000

31. (a4-g17-13) Otaning yoshi uch nafar farzandlari yoshlari yig'indisidan 12 ga katta. Necha yildan keyin farzandlar yoshlarining yig'indisi otaning yoshiga teng bo'ladi?
A) 12 B) 8 C) 6 D) 4

32. (a4-g20-13) Matematika xonasida o'quvchilar partalariga 2 tadan o'tirsa, 7 ta o'quvchi joysiz qoladi. 3 tadan o'tirsa, 2 ta parta bo'sh qoladi. Agar o'quvchilar partaga 4 tadan o'tirishsa, yana nechta o'quvchiga joy yetarli bo'ladi?
A) 19 B) 7 C) 15 D) 12

33. (a5-g4-13) Tayoq 24 ta teng bo'lakka bo'lindi. Agar shu tayoq 30 ta teng bo'lakka bo'linganda bo'laklar 6 sm qisqaroq bo'lardi. Tayoqning uzunligi necha m?
A) 9 B) 7,2 C) 9,6 D) 6

34. (a5-g6-13) a yil oldin Nargiz x yoshda bo'lsa, b yildan keyin necha yosh bo'ladi?
A) $x + a - b$
B) $x - a + b$
C) $x - a - b$
D) $a + x + b$

35. (a5-g7-13) Durdona ikki yil oldin, Shoira ikki yil keyin tug'ilganida, Durdona Shoiradan 1,5 marta katta bo'lar edi. Agar ularning hozirgi yoshlari yig'indisi 35 ga teng bo'lsa, Shoiraning yoshi nechada?
A) 12 B) 16 C) 20 D) 21

36. (a5-g8-13) Uch o'quvchining o'rtacha balli 72,6 ga teng, boshqa ikki o'quvchining o'rtacha balli 76,1ga teng. Bu besh o'quvchining o'rtacha balli nechaga teng?
A) 74,0 B) 73,4
C) 74,35 D) 75,2

37. (a5-g11-12) 81 yoshli ota o'g'lining yoshida bo'lganida uning yoshi o'g'lining yoshidan 2 marta katta edi. O'g'ilning hozirgi yoshini toping.
A) 27 B) 39 C) 45 D) 54

38. (a5-g16-11) Ikki shamdan uzuni 12 soatda, qisqasi 15 soatda yonib bo'ladi. Bu shamlar bir vaqtda yoqilgach besh soatdan so'ng ularning uzunliklari teng bo'lib qoldi. Shamlarning yonmasdan oldingi uzunliklari nisbatini toping.
A) 2 B) $\frac{13}{8}$ C) $\frac{9}{7}$ D) $\frac{8}{7}$

39. (a5-g18-14) Ko'p qavatli uyning 4-qavatigacha bo'lgan masofa 12 metr. Shu uyning 12-qavatigacha bo'lgan masofa necha metr?
A) 48 B) 44 C) 36 D) 33

40. (a5-g22-12) Otaning yoshi uch nafar farzandi yoshlari yig'indisidan 24 ga ortiq. Necha yildan so'ng otaning yoshi farzandlari yoshlari yig'indisiga teng bo'ladi?
A) 8
B) 12
C) aniqlab bo'lmaydi
D) 24

41. (a6-g5-11) 20 metr balandlikdan tashlangan koptok har safar avvalgi balandligining 0,8 qismiga ko'tariladi. Koptok yerga uchinchi urilishidan so'ng qanday balandlikka ko'tariladi?
A) 12,8 B) 10,24
C) 8,192 D) 16

42. (a6-g10-12) Bunyodkor va Paxtakor klublarining 11 tadan o'yinchilari va 3 ta hakam maydonga tushgach, har bir klub o'yinchisi raqib o'yinchilari hamda hakamlar bilan qo'l berib so'rashdilar. Agar o'yinchilar o'z klubi a'zosi bilan qo'l berib so'rashmagan hamda hakamlar ham o'zaro so'rashmagan bo'lsalar, jami so'rashishlar soni nechta bo'lgan?
A) 154 B) 308
C) 187 D) 196

43. (a6-g11-14) Alining soati har soatda 2 daqiqa ortda qoladi. Valiniki esa har soatda 1 daqiqa oldinlab ketadi. Agar ular 24-may soat 10:00 da soatlarini to'g'rilab olishgan bo'lsa, qachon ularning soatlari bir xil vaqtni ko'rsatadi (ikkalasida ham strelkali soat)?
A) 13-iyun soat 10:00
B) 3-iyun soat 10:00
C) 4-iyun soat 10:00
D) 14-iyun 10:00

44. (a6-g19-17) Ozoda sinf ro'yxatida 13-o'rinda, orqadan sanaganda 17-o'rinda. Ozoda o'qiydigan sinfda nechta o'quvchi mavjud?
A) 30 B) 31 C) 29 D) 28

45. (a6-g19-24) Malohat Gulhayodan 12 yosh katta. 8 yil oldin Malohat Gulhayodan 3 marta katta bo'lgan bo'lsa, ularning hozirgi yoshlari yig'indisini toping.
A) 24 B) 32 C) 36 D) 40

46. (a6-g21-9) 90. Bu besh o'quvchining o'rtacha balini hisoblang.
A) 80,8 B) 82,(3)
C) 78,2 D) 84

47. (a6-g24-29) 4 yil avval Alining yoshi Muxtorning yoshidan ikki marta katta edi. 6 yildan keyin Alining yoshi Muxtornikidan 8 ga ortiq bo'ladigan bo'lsa, Muxtorning hozirgi yoshini toping.
A) 20 B) 12 C) 24 D) 16

48. (a6-g25-9) Ikkita ikki xonali sonlarning ko'paytmasi 1296 ga teng. Shu sonlardan birining oxirgi raqami 8 dan 6 ga o'zgartirilsa, ko'paytma 1242 ga teng bo'ladi. Ko'paytuvchilarni toping.
A) 16 va 81
B) 72 va 18
C) 48 va 27
D) 24 va 54

49. (a6-g26-12) Abdullo Ziloladan 12 yosh katta. 12 yil oldin Abdullo Ziloladan 3 marta katta bo'lgan bo'lsa, ularning hozirgi yoshlari yig'indisini toping.
A) 48 B) 32 C) 24 D) 40

60. Qismlarda doir masalalar

1. (a1-g3-27) Bir qarzdor avval qarzining 1/3 qismini, keyinroq qolgan qismining yarmini to'ladi. Qarzdor yana 300 so'm to'lab, qarzidan to'la qutildi. Uning qarzi necha so'm bo'lgan?
A) 1200 B) 1000
C) 800 D) 900

2. (a1-g5-14) Kasrning qiymati $\frac{3}{5}$ ga teng. Agar kasrning suratiga 15, maxrajiga 5 qo'shilsa, uning qiymati $\frac{9}{10}$ ga teng bo'lib qoladi. Kasrning maxraj va surati ayirmasini toping.
A) 4 B) 10 C) 16 D) 14

3. (a1-g13-15) Guruhdagi o'quvchilar ichida qizlar sonining barcha o'quvchilar soniga nisbati 3/7 ga teng. Guruhga 5 qiz va 5 bola kelgandan so'ng barcha o'quvchilar soni 38 ta bo'ldi. Dastlab o'g'il bolalar soni nechta edi?
A) 12 B) 16 C) 28 D) 38

4. (a3-g2-15) Abror pulining $\frac{2}{5}$ qismini kitob do'konida sarfladi, qolgan pulining $\frac{2}{3}$ qismiga do'stlari bilan restoranda ovqatlandi, undan qolganining $\frac{7}{10}$ qismiga esa onasi uchun sovg'a sotib oldi. Shundan so'ng unda 15000 so'm pul qolgan bo'lsa, u restoranda qancha sarflagan?
A) 100000 B) 80000
C) 250000 D) 35000

5. (a3-g8-13) $\frac{4}{3}$ va 108 sonlari orasiga uchta musbat son shunday qo'yilganki, u sonlar berilgan sonlar bilan birgalikda geometrik progressiya hosil qiladi. Qo'yilgan sonlar yig'indisini toping.
A) 56 B) 52 C) 49 D) 48

6. (a3-g20-13) Nozima uy ishiga berilgan savollarning $\frac{1}{6}$ qismini o'rtoqlaridan so'rab yechdi. Qolgan qismining $\frac{3}{5}$ qismini o'qituvchisidan so'rab yechdi. Qolgan 52 ta savolni o'zi mustaqil yechdi. Nozimaga nechta savol uy ishiga berilgan?
A) 108 B) 138
C) 144 D) 156

7. (a4-g1-14) Hovuzdagi suvning 5/9 qismini nasos yordamida 6 minutda chiqarish mumkin. Nasos 0,15 soat ichida hovuzdagi suvning qancha qismini chiqarish mumkin?
A) $\frac{5}{6}$ B) $\frac{6}{15}$ C) $\frac{5}{15}$ D) $\frac{7}{30}$

8. (a4-g3-13) To'rt kishi do'kondan 6000 so'mlik savdo qilishdi. Birinchi kishi qolgan uch kishi to'lagan pulning yarmini to'ladi. Ikkinchi kishi qolgan uch kishi to'lagan pulning uchdan birini to'ladi. Uchinchi kishi qolgan uch kishi to'lagan pulning to'rtdan birini to'ladi. To'rtinchi kishi necha pul to'lagan?
A) 1000 B) 1200
C) 1300 D) 1400

9. (a4-g3-14) Traktorning orqa g'ildiragining radiusi old g'ildiragi radiusidan 8/7 marta katta. Traktor 168 m yo'l yurganda, old g'ildirak orqa g'ildirakdan 10 ta ko'p aylangan bo'lsa, old g'ildirakning diametri necha sm? ($\pi = 3$)
A) 80 B) 40 C) 35 D) 70

10. (a4-g5-12) Yuk mashinasi yuki bilan birgalikda a kg. Yukning chorak qismi tushirilgach, massasi b kg ga teng bo'lib qoldi. Yuksiz mashinaning massasi quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) $\frac{4b-a}{3}$ B) $4b-3a$
C) $4a-b$ D) $3b-4a$

11. (a5-g1-13) Bir sinfning 5 dan 2 qismi qizlardan iborat. Shu sinfga yana 2 ta o'g'il bola qo'shilgach qizlar sinfning 8 dan 3 qismini tashkil qildi. Dastlab sinfda nechta o'quvchi bo'lgan?
A) 80 B) 32 C) 30 D) 40

12. (a5-g13-12) Tashkilotdagi ishchilarning 2/3 qismi ayollar. Erkak ishchilarning 3/5 qismi oilali va 12 nafari uylanmagan bo'lsa, tashkilotda nechta ishchi ishlamoqda?
A) 90 B) 72 C) 60 D) 50

13. (a6-g6-13) Malika maktabga borish uchun uyidan chiqdi, yo'lning $\frac{4}{9}$ qismini bosib o'tgach matematika kitobini unutganini sezib qolibdi. Malika uyga borib kitobini olib qaytib, maktabga o'z vaqtida yetib borishi uchun endi u o'z tezligini necha marta oshirishi kerak?
A) $\frac{13}{5}$ B) $\frac{13}{9}$ C) $\frac{14}{5}$ D) $\frac{9}{5}$

14. (a6-g7-12) A miqdor pul 12 ta odamga bo'lib berilishi kerak edi. Bu odamlardan 3 tasi kelmay qolgani sababli pul boshqalarga teng miqdorda bo'lib berildi. Shu holda har bir odamning oladigan ulushi A ning qancha qismi miqdorida ortgan?
A) $\frac{1}{36}$
B) $\frac{1}{4}$
C) $\frac{1}{72}$
D) $\frac{1}{108}$

61. To'g'ri va teskari proporsionallikka doir masalalar

1. (a1-g2-13) To'rtta sonning yigindisi 102 ga teng. Agar birinchi va ikkinchi sonning nisbati 3:2 kabi, ikkinchi va uchinchi sonning nisbati 2:5 kabi, uchinchi va to'rtinchi sonlarning nisbati 5:7 kabi bo'lsa, to'rtinchi va birinchi sonlarning ayirmasini toping.
A) 12 B) 42 C) 32 D) 24

2. (a2-g16-14) a va b sonlari 3 va 4 ga to'g'ri proporsional. b va c sonlari 2 va 5 sonlariga teskari proporsional. Bu uch sonning yig'indisi 86 ga teng bo'lsa, b ni toping.
A) 36 B) 40
C) 30 D) 20

3. (a3-g1-14) a va b sonlari 4 va 7 sonlariga proporsional. a va c sonlari esa 5 va 8 sonlariga teskari proporsional. Bu uch sonning yig'indisi 81 ga teng. b sonini toping.
A) 24 B) 42 C) 15 D) 9

4. (a3-g8-14) To'rtta sonning yig'indisi 161 ga teng. Ulardan dastlabki uchtasi 4; 5 va 8 to'g'ri sonlariga proporsional. Ikkinchi va to'rtinchi sonlar esa 6 va 5 ga teskari proporsional. Uchinchi sonni toping.
A) 72 B) 64
C) 48 D) 56

5. (a3-g18-15) Uchta sonning yig'indisi 188 ga teng. Bu sonlardan birinchisining ikkinchisiga nisbati 4:9, ikkinchisining uchinchisiga nisbati 6:7 bo'lsa, bu sonlardan kattasini toping.
A) 72 B) 84
C) 32 D) 96

6. (a4-g2-13) Yig'indisi 231 ga teng bo'lgan 4 ta sondan ilk uchtasi 2; 3 va 4 sonlariga teskari proporsional. Oxirgi ikkitasi esa 10 va 8 sonlariga to'g'ri proporsional. Bu sonlardan eng kattasining qiymatini toping.
A) 97,5 B) 82,5
C) 90 D) 75

7. (a4-g7-14) Dilnoza to'rtta son o'yladi. Ulardan ilk uchtasi 9; 7 va 12 sonlariga to'g'ri proporsional. Oxirgi ikkitasi 5 va 3 sonlariga teskari proporsional. Agar bu sonlarning yig'indisi 288 ga teng bo'lsa, Dilnoza o'ylagan to'rtinchi sonni toping.
A) 54 B) 72
C) 42 D) 120

8. (a5-g22-13) To'rt sondan ilk uchtasi 7; 5 va 9 sonlariga to'g'ri proporsional. Ikkinchi va to'rtinchi sonlar 9 va 15 sonlariga teskari proporsional. Agar bu sonlarning yig'indisi 72 ga teng bo'lsa, to'rtinchi sonni toping.
A) 27
B) 21
C) 21
D) 9

62. Masshtabga doir masalalar

1. (a4-g25-13) Sayyohlar xaritada 21 sm ga teng bo'lgan masofani bosib o'tishlari kerak. Xaritaning masshtabi 1:3 000 000 va sayyohlar mashinasining o'rtacha tezligi 70 km/soat bo'lsa, ular bu masofani necha soatda bosib o'tadilar?
A) 9 B) 7 C) 3,5 D) 4,5

2. (a6-g5-12) Mahmudjonga dadasi sovg'a qilgan globusning masshtabi 1:40000000. Agar yerning radiusi 6400 km bo'lsa, globusning ekvatori uzunligi necha sm bo'ladi?
A) 16π B) 32π
C) 64π D) 48π

3. (a6-g15-21) Sayyohlar xaritada 15 sm ga teng bo'lgan masofani bosib o'tishlari kerak. Xaritaning masshtabi 1:1500000 va sayyohlar mashinasining o'rtacha tezligi 90 km/soat bo'lsa, ular bu masofani necha soatda bosib o'tadilar?
A) 3 B) 2,5
C) 3,5 D) 2

4. (a6-g20-12) Sayyohlar xaritada 14 sm ga teng bo'lgan masofani bosib o'tishlari kerak. Xaritaning masshtabi 1:2000000 va sayyohlar mashinasining o'rtacha tezligi 80 km/soat bo'lsa, ular bu masofani necha soatda bosib o'tadilar?
A) 3,5 B) 2,5
C) 3 D) 2

63. Tenglamalar va tenglamalar sistemasi yordamida yechiladigan masalalar

1. (a1-g8-17) Bir necha sonning arifmetik o'rtachasi ularning soniga teng. Agar bu sonlarning har biriga 2 qo'shilsa, ularning arifmetik o'rtachasi 10 ga teng bo'lib qoladi. Nechta son borligini aniqlang.
A) 10 B) 8 C) 6 D) 12

2. (a1-g9-14) 2 ta tufli, 3 ta futbolka va 4 ta paypoq 67000 so'm turadi. 2 ta tufli, 4 ta futbolka va 6 ta paypoq 92000 so'm bo'lsa, 1 ta tufli, 1 ta futbolka va 1 ta paypoq necha so'm turadi?
A) 18000
B) 20000
C) 21000
D) 40000

3. (a1-g15-14) Kasrning surati maxrajidan 5 ga kam. Agar kasrning maxrajiga 7 qo'shilsa uning qiymati 0,5 ga teng bo'lib qoladi. Shu kasrning suret va maxrajlari yig'indisini toping.
A) 39 B) 29 C) 37 D) 45

4. (a1-g16-13) To'rtta sonning yigindisi 128 ga teng. Agar birinchi va ikkinchi sonning nisbati 1:3 kabi, ikkinchi va

uchinchi sonning nisbati 3:5 kabi, uchinchi va to'rtinchi sonlarning nisbati 5:7 kabi bo'lsa, to'rtinchi va birinchi sonlarning ayirmasini toping.
A) 48 B) 56
C) 32 D) 16

5. (a2-g6-14) 640 so'mni 3 so'mlik va 5 so'mlik pullar yordamida to'lov amalga oshirildi. Bunda pullarning umumiy soni 138 ta. To'lovda necha 5 so'mlik bor?
A) 113 B) 63
C) 25 D) 72

6. (a2-g8-16) (G'iyosiddin Al-Koshiy masalasi) Do'konda uch xil tovar sotilmoqda. Birining 20 tasi 1 dinor, ikkinchisining 30 tasi 1 dinor, uchinchisining 60 tasi 1 dinor turadi. Xaridor har bir tovar turidan bir xil miqdorda sotib olib hammasi uchun 1 dinor to'ladi. U har bir tovar turidan nechtadan olgan?
A) 10 B) 5 C) 6 D) 3

7. (a2-g14-12) Bir sotuvchi donasi 70 so'mdan olgan daftarlarining to'rtdan birini 80 so'mdan, qolganini 100 so'mdan sotib, 11000 so'm foyda qildi. Sotuvchi nechta daftar sotgan?
A) 440 B) 400
C) 444 D) 420

8. (a2-g15-15) Mahmudjon Javohirga 1200 so'm bersa, Mahmudjonning puli Javohirning pulidan 2 marta ko'p bo'ladi. Agar ularning pullari yig'indisi 6000 so'm bo'lsa, Mahmudjonning necha so'm puli bor?
A) 4800
B) 3600
C) 5200
D) 4500

9. (a2-g19-15) Xo'jayin bir kishini 1 yilga yollab, unga 18 so'm pul va bir chakmon berishga kelishibdi, lekin u 7 oy ishlaganidan so'ng ketmoqchi bo'lib xo'jayindan hisob-kitob qilishni so'rabdi. Xo'jayin unga 8 so'm pul bilan chakmon beribdi. Chakmon necha so'm turadi?
A) 3 B) 9 C) 6 D) 12

10. (a3-g3-16) Do'konda uch xil mahsulot sotilmoqda. Birining 12 tasi 1000 so'm, ikkinchisining 18 tasi 1000 so'm, uchinchisining 9 tasi 1000 so'm turadi. Xaridor har bir tovar turidan bir xil miqdorda sotib olib hammasi uchun 1000 so'm to'ladi. U har bir tovar turidan nechtadan olgan?
A) 10 B) 6 C) 4 D) 3

11. (a3-g4-15) Ayol sut va qatiq sotib olib, qatiq ivitadi. Yangi ivitilgan qatiqning 10% i qatiq, qolgan qismi sut. Agar bu ayol sutning litrini 3000 so'mdan, qatiqning litrini 3500 so'mdan sotib olsa, bu ayolga qatiqning litri necha so'mga tushadi?
A) 3250 B) 3100
C) 3050 D) 2950

12. (a3-g8-15) 214 betlik kitobni Ahmad uch kunda o'qib tugatadi. U birinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda 1,4 marta kam, ikkinchi kuni esa uchinchi kunga qaraganda 24 bet kam kitob o'qidi. Ikkinchi kuni Ahmad necha bet kitob o'qigan?
A) 74 B) 50 C) 94 D) 70

13. (a3-g12-15) Mahmudjon Javohirga 600 so'm bersa, Mahmudjoning puli Javohirning pulidan 3 marta ko'p bo'ladi. Agar ularning pullari yig'indisi 6000 so'm bo'lsa, Mahmudjonning necha so'm puli bor?
A) 5100 B) 3600
C) 4800 D) 4500

14. (a3-g20-14) Korxonada ishlaydigan ayollarning soni erkaklar sonidan 3 marta ko'p. Agar ayollarning o'rtacha yoshi 30, erkaklarning o'rtacha yoshi 42 yosh bo'lsa, korxonadagi umumiy xodimlarning o'rtacha yoshi nechaga teng bo'ladi?
A) 36 B) 39
C) 33 D) 32

15. (a4-g8-15) Bunyod Shuhratga 800 so'm bersa, Shuhratning puli Bunyodning pulidan 2,5 marta ko'p bo'ladi. Agar ularning pullari yig'indisi 7000 so'm bo'lsa, Shuhratning necha so'm puli bor?
A) 4200
B) 3600
C) 2800
D) 3400

16. (a4-g9-13) Murod bilan Ilhomning pullari yig'indisi x so'm. Murod Ilhomga y so'm bersa, ularning pullari miqdori tenglashadi. Murodning necha so'm puli bor?
A) $\frac{x+3y}{2}$ B) $\frac{x+y}{2}$
C) $\frac{x-y}{2}$ D) $\frac{x+2y}{2}$

17. (a4-g11-3) Ikki musbat ketma-ket juft sonlarning kvadratlarining farqi 132 ga teng. Bu sonlarning kattasini toping.
A) 38 B) 40 C) 34 D) 32

18. (a4-g11-30) Bir fermada 1800 ta qo'y, 1200 ta sigir va 600 ta echki bor. Agar bu hayvonlar doira shaklidagi grafikda ko'rsatilsa, qo'ylarni ko'rsatuvchi bo'lakning burchagi necha gradus bo'ladi?
A) 60 B) 90
C) 180 D) 120

19. (a4-g13-21) Bir maktabning o'quvchilari soni 1100 ta bo'lib, har yili 20 tadan kamaymoqda. Ikkinchi maktabda esa 800 ta o'quvchi bo'lib, har yili 40 tadan ortmoqda. Necha yildan keyin har ikkala maktablardagi o'quvchilar soni tenglashadi?
A) 15 B) 10 C) 5 D) 8

20. (a4-g23-14) Yaxshi qurimagan sovunning 5 tasi 1 kg keladi. Qurigandan so'ng esa 8 tasi 1 kg bo'ladi. Yaxshi qurimagan sovunning kilosini 3000 so'mdan sotib olib, qurigandan so'ng 6400 so'mdan sotgan tijoratchi 16000 so'm foyda qilishi uchun necha dona sovun sotishi kerak?
A) 160 B) 80 C) 40 D) 10

21. (a5-g2-14) Bir odam litrini 120 so'mdan sotib olgan spirtini sotib 8800 so'm foyda ko'rdi. Agar u shu spirtga 10 litr suv qo'shib sotganida 10800 so'm foyda qilar edi. Sotuvchi necha litr spirt sotib olgan?
A) 100 B) 110
C) 200 D) 160

22. (a5-g9-13) O'zidan oldin kelgan barcha natural sonlar yig'indisining 2/51 qismiga teng bo'lgan sonni toping.
A) 50 B) 52
C) 102 D) 100

23. (a5-g9-14) Do'konda ko'ylaklar 25$, shimlar 40$ dan sotilmoqda. Do'kon omborida mavjud ko'ylaklar va shimlarning umumiy qiymati 1880$. Oy oxiriga qadar ko'ylaklarning yarmi, shimlarning uchdan bir qismi sotilib va jami 760$ tushumga ega bo'lingan bo'lsa, omborda yana nechta shim qolgan?
A) 9 B) 12 C) 15 D) 18

24. (a5-g10-12) 10 dona qalamni a so'mga sotib olib, sakkiztasini $a + 3$ so'mga sotayotgan sotuvchi har bir qalamdan 200 so'mdan foyda ko'rmoqda. a nechaga teng?
A) 8015 B) 8000
C) 7985 D) 7975

25. (a5-g14-12) Sotuvchi idishga meva solib sotmoqda. U idishini to'ldirib tortganida 8 kg keldi. U idishning teng yarmini mevaga to'ldirib tortganida esa 5 kg keldi. Agar sotuvchi mevaning kilogramini 2100 so'mdan sotsa, idish to'la meva necha so'm bo'ladi? (Sotuvchi idishni o'zida olib qoladi va faqatgina meva uchun pul oladi)
A) 12600 B) 10500
C) 8400 D) 9450

26. (a5-g17-15) 3 kg olma, 7 kg apelsin va 6 kg no'xat 7860 so'm turadi. 1 kg olma, 5 kg apelsin va 4 kg no'xat esa 5440 so'm turadi. 1 kg olma, 1 kg apelsin va 1 kg no'xat necha so'm bo'ladi?
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 1210
C) 2660
D) 2420

27. (a5-g17-27) Kartoshkali pirojki tayyorlanmoqda. Narxi 2000 so'm bo'lgan un 25 dona pirojkiga yetadi. Kilosi 2400 so'mdan olingan kartoshka esa 20 dona pirojkiga yetadi. Har bir

pirojki uchun 100 so'mlik yog' va boshqa mahsulotlar ishlatiladi. Agar shu pirojki 500 so'mdan sotilsa, bu pirojkidan necha foiz foyda qilinadi?
A) 66,(6) B) 40
C) 60 D) 33,(3)

28. (a5-g19-13) 300 kg qog'ozning kilosi 5000 so'mdan olindi. 900 kg esa 4500 so'mdan olindi. Sotuvchi bu qog'ozlarni aralashtirib pachkali qog'oz hosil qildi va bu pachka 2,5 kg ni tashkil etdi. Agar sotuvchi qog'ozning pachkasini 13500 so'mdan sotsa, jami necha so'm foyda qiladi?
A) 1 050 000
B) 930 000
C) 1 230 000
D) 845 000

29. (a5-g20-12) Fermer xo'jaligida yetishtirilgan 200 kg olma kilosi 2250 so'mdan olindi. Bu olmalar supermarketda 5 kg lik yashiklarga joylangan holda kilosi 3500 so'mdan sotilmoqda. Yashiklarning har biriga ketgan xarajat – 1500 so'm. Kamida nechta yashik olma sotilganda (olma va yashik uchun) ketgan xarajatlar qoplanadi?
A) 25 B) 29 C) 30 D) 35

30. (a5-g24-12) Guruhdagi 12 ta bolaning o'rtacha balli 79,6 ga teng. Bu guruhga yana ikki nafar bola qo'shilgach, guruhning o'rtacha balli 80,3 bo'lib qoldi. Bu ikki yangi o'quvchining o'rtacha balli nechaga teng?
A) 88,7 B) 81
C) 92,6 D) 84,5

31. (a6-g2-12) Sotuvchi 1-xaridorga tuxumlarning yarmini va bitta tuxum, 2-xaridorga qolgan tuxumlarning yarmini va yana bir tuxum, 3-xaridorga qolgan tuxumlarning yarmini va yana bitta tuxum sotganidan keyin unda 14 ta tuxum qoldi. Sotuvchi bozorga nechta tuxum olib kelgan?
A) 122 B) 126
C) 62 D) 63

32. (a6-g5-13) Abdulla 1200 so'mga ruchka sotib olib, 1800 so'mga sotdi, keyin shu pulning 1500 so'miga sotib olgan ruchkasini 2000 so'mga sotdi, oxirgi bosqichda esa mavjud pulning 1800 so'miga sotib olganini 2500 so'mga sotdi. Umumiy holda Abdulla bu uch savdodan umumiy necha foiz foyda qildi?
A) 358,(3) B) 108,(3)
C) 200 D) 150

33. (a6-g6-12) Korxonadagi ustalar kuniga 14200 so'mdan, shogirdlar 9500 so'mdan maosh olishadi. Agar har bir ustaning 3 tadan shogirdi bo'lib, ularga 3 kunda ja'mi 896700 pul ajratilsa, korxonada ja'mi nechta ishchi mavjud?
A) 20 B) 28 C) 36 D) 40

34. (a6-g23-9) Kilogrami 20 so'mdan olingan apelsinning 3 kilogramidan 1 kilogramm sharbat olinib, 72 so'mdan sotiladi. Apelsinning kilosining narxi 5 so'm arzonlashsa, foyda foizi o'zgarmasligi uchun sharbatning narxi avvalgi narxidan qanchaga kam bo'lishi kerak?
A) 18 B) 16
C) 15 D) 12

64. Ishga oid masalalar

1. (a1-g6-15) Ikki jo'mrak hovuzni 10 va 15 soatda to'ldiradi. Hovuzning yarmi to'lgunga qadar ikki jo'mrakni ochib qo'yib, yarmi to'lgandan so'ng ikkinchi jo'mrak yopib qo'yilsa, hovuzning to'lishi uchun hammasi bo'lib necha soat vaqt ketadi?
A) 6 B) 8 C) 9 D) 12

2. (a1-g11-15) Hovuzga ikki jo'mrak ulangan. Bu jo'mraklardan birinchisi bo'sh hovuzni 6 soatda, ikkinchisi esa 12 soatda to'ldiradi. Agar birinchi jo'mrak ochilib, hovuzning yarmi to'lgandan so'ng ikkinchi jo'mrak ochilsa, hovuz jami necha soatda to'ladi?
A) 7 B) 9 C) 8 D) 5

3. (a2-g1-15) Bir ishni Ali bilan Vali 12 kunda, Vali bilan G'ani 8 kunda, Ali bilan G'ani 6 kunda tugatishadi. Bu ishni Ali yolg'iz o'zi necha kunda tugatadi?
A) 24 B) 18 C) 16 D) 48

4. (a2-g5-15) Bir ishni Iqbol 6 soatda, Muzaffar 9 soatda tugatadi. Ikkalasi birga ish boshlab, ishni yarmini tugatgandan keyin Muzaffar ketib qolsa, ishni tugashi uchun hammasi bo'lib necha soat vaqt ketadi?
A) 3,6 B) 5,4
C) 2,8 D) 4,8

5. (a2-g9-15) Hovuzga ikki jo'mrak ulangan. Bu jo'mraklardan birinchisi bo'sh hovuzni 6 soatda, ikkinchisi esa 12 soatda to'ldiradi. Agar birinchi jo'mrak ochilib, hovuzning yarmi to'lgandan so'ng ikkinchi jo'mrak ochilsa, hovuz necha soatda to'ladi?
A) 7 B) 9 C) 8 D) 5

6. (a2-g12-12) Hovuzni ikki jo'mrak 3 va 5 soatda to'ldirishadi. Pastdagi teshikdan esa suv 2 soatda oqib chiqib ketadi. Agar uchala jo'mrak birdan ochilib, kuniga 5 soatdan ishlab turib, keyin yopib qo'yilsa, dushanba kuni ishni boshlagan hovuz qaysi kuni to'ladi?
A) payshanba
B) juma
C) shanba
D) yakshanba

7. (a2-g17-14) 15 ga yerni 6 ta traktor 8 soatda ag'darsa, 25 ga yerni 10 soatda ag'darish uchun shunday traktorlardan nechta kerak bo'ladi?
A) 4 B) 5 C) 9 D) 8

8. (a2-g21-16) Mehnat unumdorligi bir xil bo'lgan 24 ta ishchi ishni 15 kunda tugatishadi. Mehnat unumdorligi shunday ishchilar shu ishni 8 kunda tugatishgan bo'lsa, u yerda nechta ishchi ishlagan ?
A) 45 B) 5 C) 36 D) 48

9. (a3-g2-14) Ma'lum bir ishni 12 ta ishchi 15 soatda bajara oladi. Xuddi shu ishning 1/3 qismini bajarish uchun 10 ta ishchi necha soat ishlashi kerak?
A) 4 B) 10 C) 8 D) 6

10. (a3-g5-15) Uchta ishchi bir devorni 8 soatda oqlaydi. Agar ularga usta yordamlashsa, 4 kishi birgalikda shu devorni 6 soatda oqlashadi. Uchta ishchi 2 soat ishlaganidan keyin ularga usta yordamlashsa, ular birgalikda hamma ishni jami necha soatda tugatishadi?
A) 7,5 B) 6,5 C) 5 D) 4,5

11. (a3-g11-14) Ikki jo'mrakdan biri hovuzni 10, ikkinchisi 15 soatda to'ldiradi. Hovuzning yarmi to'lgunga qadar ikki jo'mrak ochib qo'yib, yarmi to'lgandan so'ng ikkinchi jo'mrak yopib qo'yilsa, hovuzning to'lishi uchun hammasi bo'lib necha soat ketadi?
A) 5 B) 8 C) 3 D) 12

12. (a3-g13-15) Hovuzni ikki jo'mrak to'ldiradi. Ulardan biri 6 soatda, ikkinchisi 12 soatda to'ldiradi. Hovuzning yarmi to'lgunga qadar faqat birinchi jo'mrak ochib qo'yilib, yarmi to'lgandan so'ng ikkinchi jo'mrak ham ochilsa, hovuz jami necha soatda to'ladi?
A) 5 soat 40 daqiqa
B) 5 soat
C) 6 soat
D) 4 soat 20 daqiqa

13. (a3-g14-15) Hovuzning o'rtasida suvni chiqarib tashlaydigan quvur o'rnatilgan. Bu quvur to'la hovuzni 6 soatda yarmigacha bo'shatadi. Hovuzga esa 2 ta quvurdan suv kelib ulardan biri bo'sh hovuzni 9 soatda, ikkinchisi esa 18 soatda to'ldiradi. Agar hamma quvurlar bir vaqtda ochilsa, hovuz necha soatda to'ladi?
A) 18 B) 9
C) to'lmaydi D) 12

14. (a3-g15-14) To'rtta ishchi bir devorni 6 soatda oqlaydi. Agar ularga usta yordamlashsa, 5 kishi birgalikda shu devorni 3 soatda oqlashadi. To'rtta ishchi 3 soat ishlaganidan keyin ularga usta yordamlashsa, ular ishni jami necha soatda tugatishadi?
A) 4,5 B) 4 C) 5 D) 5,5

15. (a3-g21-13) Bir ishchi bir miqdor ishni 30 kunda tugatadi. Agar shu ishchi har kuni 2 soatdan kamroq ishlaganida ish yana 10 kunga kechikardi. Bu ishchi kuniga necha soatdan ishlagan?
A) 10 B) 6 C) 7 D) 8

16. (a3-g21-14) Hovuzning ustiga o'rnatilgan jo'mrak 8 soatda to'ldiradi, ostidagi jo'mrak esa 12 soatda bo'shatadi. Ikki jo'mrak ochib qo'yilganidan 6 soatdan keyin ostdagi jo'mrak yopildi. Hovuz to'lishi uchun umumiy holda necha soat vaqt ketadi?
A) 6 B) 8 C) 15 D) 12

17. (a3-g22-13) Usta tikuvchi bir shimni 1 kunda, shogirdi uch kunda tikib bo'ladi. Usta shogird birgalikda 20 ta shimni necha kunda tikib bo'lishadi?
A) 12 B) 15 C) 16 D) 20

18. (a3-g23-14) Bitta hovuzni 2 ta jo'mrak 7 va 8 soatda to'ldiradi. Uchinchi jo'mrak 4 soatda bo'shatadi. Avval birinchi va ikkinchi jo'mrak ochildi. Hovuzning 3/7 qismi to'lgach, uchinchi jo'mrak ochildi. Hovuzning to'lishi uchun hammasi bo'lib necha soat ketgan?
A) 1,6 B) 3,4
C) 16,6 D) 33,6

19. (a4-g10-14) 5 kishi bir ishni bajaryapti. Birinchi, ikkinchi va uchinchi ishchi birga ishlashsa hamma ish 7,5 soatda bajariladi. Birinchi, uchinchi va beshinchi ishchi birga ishlaganda 5 soatda; birinchi, uchinchi va to'rtinchi ishchi birga ishlaganda 6 soatda; ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi ishchi birga ishlaganda 4 soatda bajara oladi. Agar hamma ishchilar birga ishlashsa, shu ishni qancha vaqtda tugatar edilar?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 1,5

20. (a4-g11-1) Bir ishni Ali, Vali va G'ani a kunda tugatishadi. Shu ishni Ali yolg'iz o'zi $3a$ kunda, Vali esa $4a$ kunda tugatsa, Vali bilan G'ani birgalikda necha kunda tugatishadi?
A) $2,4a$ B) $1,5a$
C) $1,(3)a$ D) $6a$

21. (a4-g19-13) Ikki jo'mrakdan suv oqmoqda. Ulardan biridan ikkinchisiga qaraganda 3 marta tezroq suv oqmoqda. Bu ikki jo'mrak birgalikda bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldirsa, tezroq oqayotgan jo'mrakning o'zi bosh hovuzni necha soatda to'ldiradi?
A) 48 B) 24 C) 12 D) 16

22. (a4-g20-14) Bir ishni Abdurahmon 12 kunda, Sardor 16 kunda bajaradi. Ikkalasi birgalikda to'rt kun ishlagach, Sardor ketib qoldi. Qolgan ishni Abdurahmon necha kunda tugatadi?
A) 7 B) 5 C) 3 D) 4

23. (a4-g22-14) 28 ga yerni 8 ta traktor 12 soatda ag'darsa, 35 ga yerni 20 soatda ag'darish uchun shunday traktorlardan nechta kerak bo'ladi?
A) 4 B) 5 C) 9 D) 6

24. (a5-g6-14) Bir ishni Ahmad bilan Mahmud 12 kunda, Mahmud bilan Ali 8 kunda, Ahmad bilan Ali bo'lsa 6 kunda tugatishadi. Bu ishni Ahmadning bir o'zi necha kunda tugatadi?
A) 9,6 B) 24 C) 18 D) 16

25. (a5-g12-13) Zoir ma'lum bir ishni 18 kunda, Abdulla 13,5 kunda bitirishadi. Ular ishning uchdan bir qismini tugatgach, yordamga Mustafo yetib keldi va uchovlon ishni 3 kunda tamomlashdi. Mustafoning bir o'zi bu ishni necha kunda bitiradi?
A) 9,2 B) 4,8
C) 10,8 D) 7,5

26. (a6-g1-12) Bir quvur hovuzni 6 soatda to'ldiradi, ikkinchi quvur esa 8 soatda bo'shatadi. Ikkala quvur birgalikda ma'lum vaqt ochib qo'yildi (bo'sh hovuzga). Shundan keyin birinchi quvur yopildi. Agar ikkinchi quvur hovuzni bir soatda bo'shatgan bo'lsa, dastlab quvurlar birgalikda necha soat ochiq turgan?
A) 3 B) 4 C) 6 D) 12

27. (a6-g22-23) Ofisda ishlayotgan kotiblardan biri kompyuterda 1 daqiqada 50 ta so'z kiritadi, ikkinchisi esa 1 daqiqada 40 ta so'z kiritadi. 12000 so'zdan iborat matnning yarmini birinchi kotib kiritgandan keyin qolganini ikkinchi kotib kiritgan bo'lsa, ular jami qancha vaqt sarflaganlar?
A) 5 soat 20 daqiqa
B) 4 soat 30 daqiqa
C) 6 soat
D) 3 soat 30 daqiqa

65. Prosentlarga doir masalalar

1. (a1-g2-14) Uy bekasi kilosi 280 so'mdan yong'oq sotib oldi. Yong'oqlar qobig'idan tozalangach, umumiy og'irligining 70% i qoldi. Uy bekasi 1 kg tozalangan yong'oq uchun necha so'm sarflagan?
A) 84 B) 196
C) 400 D) 350

2. (a1-g3-25) O'yingohga kirish chiptasining narxi 50 so'm. Chipta narxi arzonlashgandan so'ng tomoshabinlar 60%, chipta sotishdan tushum 30% ortdi. Chipta narxi necha so'mga arzonlashgan?
A) $\frac{325}{8}$ B) 10
C) 40 D) $\frac{75}{8}$

3. (a1-g5-15) Tuxumfurush 150 so'mdan 100 ta tuxum sotib oldi. Tuxumlardan 20 tasi sinib qoldi. Sotuvchi singan tuxumlarni 175 so'mdan, butunini 200 so'mdan sotdi. Bu tijoratda sotuvchi necha foiz foyda qilgan?
A) 25% B) 27,(6)%
C) 30% D) 33,(3)%

4. (a1-g9-15) Stadionga kirish narxi 50 so'm edi. U yerda narxlar arzonlashtirilgach muxlislar soni 50%, pul tushumi esa 25% ortdi. Narx necha so'mga arzonlashgan.
A) $8\frac{1}{3}$ B) 9 C) 10 D) $7\frac{1}{2}$

5. (a1-g10-16) Massasi 400 g va konsentratsiyasi 12% bo'lgan eritmaning konsentratsiyasi 32% bo'lishi uchun qancha suv bug'lanishi kerak?
A) 150
B) 200
C) 250
D) 300

6. (a1-g11-16) O'quvchilarning 66% i matematikani yaxshi o'zlashtirgan. 74% i esa, ingliz tilini yaxshi o'zlashtirgan. O'quvchilarning necha foizi ham matematika ham ingliz tilini yaxshi o'zlashtiradi? (O'quvchilar ikki fandan kamida birini yaxshi o'zlashtirgan deb hisoblansin)
A) 30 B) 25
C) 10 D) 40

7. (a1-g12-28) Shrbat belgilangan narhdan 40% chegirma bilan sotilsa, 20% zarar qilinadi. Bu zarar 600 so'm ekanligi ma'lum. Sharbat chegirma qilinmasdan sotilganda necha so'm foyda qilinadi?
A) 1000
B) 600
C) 1200
D) 800

8. (a1-g13-16) Mahsulotning supermarketdagi narxi uning bozordagi narxidan 20% qimmat. Mahsulotning supermarketdagi narxi 10% ga arzonlashdi. Shundan so'ng uning supermartketdagi narxi 540 so'm bo'ldi. Mahsulotning bozordagi narxini toping.
A) 480 B) 500
C) 540 D) 580

9. (a1-g16-14) Uy bekasi kilosi 270 so'mdan yong'oq sotib oldi. Yong'oqlar qobig'idan tozalangach, umumiy og'irligining 60% i qoldi. Uy bekasi 1 kg tozalangan yong'oq uchun necha so'm sarflagan?
A) 45
B) 450
C) 162
D) 276

10. (a1-g17-14) Do'kon egasi narxlarni 25% arzonlatsa, mol sotishida 40% ortish bo'lishini taxmin qilmoqda. Agar do'konchining taxmini to'g'ri chiqsa, kirimi qanday o'zgaradi?
A) 4% ortadi
B) 4% kamayadi
C) 5% ortadi
D) 5% kamayadi

11. (a2-g2-30) 25 so'mlik tanga 4 marta dumalaganda bosib o'tgan masofani 100 so'mlik tanga 3 marta dumalaganda bosib o'tadi. Agar 25 so'mlik tanga 100 so'mlik tanganing ustiga qo'yilsa, 25 so'mlik tanga yuzasining necha foizi ochiq qoladi?
A) 52% B) 56,25%
C) 43,75% D) 62,5%

12. (a2-g3-9) Bir sonning 20% ortig'i shu sonning 20% kamidan necha foiz ko'p?
A) 20 B) 40 C) 50 D) 60

13. (a2-g4-16) Ho'l meva har kuni o'z miqdorining 20% iga kamayadi. 1 tonna meva 2 kundan so'ng necha kg ga aylanib qoladi?
A) 580 B) 640
C) 710 D) 600

14. (a2-g6-15) Bir sonning 20% ko'pi shu sonning 20% kamidan necha foiz ko'p?
A) 20 B) 40 C) 50 D) 60

15. (a2-g7-14) Sinfdagi o'quvchilarning 54% i rus tilini, 48% i ingliz tilini biladi. 16% i esa ikkala tilni ham bilmaydi. Guruhdagi o'quvchilarning necha foizi faqatgina ingliz tilini biladi?
A) 18 B) 30 C) 36 D) 84

16. (a2-g9-16) O'quvchilarning 66% i matematikani yaxshi o'zlashtiradi. 74% i esa ingliz tilini yaxshi o'zlashtiradi. O'quvchilarning necha foizi ham matematika, ham ingliz tilini yaxshi o'zlashtiradi (o'quvchilar ikki fandan kamida birini yaxshi o'zlashtirgan deb hisoblansin)?
A) 30 B) 25 C) 10 D) 40

17. (a2-g11-30) 10 so'mlik tanga 5 marta dumalaganda bosib o'tgan masofani 50 so'mlik tanga 2 marta dumalaganda bosib o'tadi. Agar 10 so'mlik tanga 50 so'mlik tanganing ustiga qo'yilsa, 50 so'mlik tanga yuzasining necha foizi ochiq qoladi?
A) 80% B) 75%
C) 84% D) 88%

18. (a2-g14-14) Mahsulot *a* so'mga sotilsa 20% foyda olinadi. Agar *b* so'mga sotilsa 20% zarar qilinadi. Bunga ko'ra *a* va *b* qaysi sonlarga proporsional?
A) 2 va 3 B) 3 va 5
C) 3 va 2 D) 5 va 3

19. (a2-g15-16) Ho'l meva har kuni o'z miqdorining 10% iga kamayadi. 1 tonna meva 3 kundan so'ng necha kg ga aylanib qoladi?
A) 700 B) 650
C) 810 D) 729

20. (a2-g18-15) Do'konda narxlar 10% ga orttirildi. Keyin savdo bo'lmagani sababli 5% arzonlashtirildi. Do'kondagi narxlar dastlabki narxga nisbatan qanday o'zgargan?
A) 5% ortgan
B) 4% ortgan
C) 4,5% ortgan
D) 5,5% ortgan

21. (a2-g19-14) O'quvchi 30 ta savoldan 22 tasini to'g'ri topdi. Unga yana 22 ta savol berilganda nechtasini to'g'ri qilsa, umumiy ko'rsatkichi 75% bo'ladi?
A) 17 B) 21 C) 16 D) 14

22. (a2-g20-15) Bir do'konning xaridorlari soni birinchi yili 10%, ikkinchi yili esa 20% ortdi. Uchinchi yil mahsulot sifati tushib ketgani sababli bu do'konning xaridorlari soni 25% ga kamaydi. Oxirgi holatda bu do'konning xaridorlari soni haqidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri.
A) 2% ortgan
B) 1% kamaygan
C) boshidagi bilan bir xil
D) 1% ortgan

23. (a2-g21-15) Guruhdagi o'quvchilarning 20% i uy vazifasini bajarmadi. 24 ta o'quvchi esa uy ishini chala bajardi. Agar uy ishini bajarmagan o'quvchilarning uy ishini to'liq bajargan o'quvchilarga nisbati 3:8 bo'lsa, guruhda nechta o'quvchi ta'lim oladi?
A) 56 B) 90
C) 100 D) 72

24. (a2-g23-14) Bir son ketma-ket ikki marta 20% dan orttirilgach, 216 soni hosil bo'ldi. Bu son qanchaga ortgan?
A) 66 B) 150
C) 155 D) 61

25. (a3-g7-13) Mol belgilangan narxdan 20% chegirma bilan sotilsa, 15% zarar qilinadi. Bu zarar 600 so'm ekanligi ma'lum. Mol chegirma qilinmasdan oldingi narxini toping.
A) 4250 B) 4350
C) 4400 D) 5000

26. (a3-g9-14) Sotuvchi 40% li spirtning litrini 1000 so'mdan sotib olib, unga suv qo'shib 20% li spirtga aylantirmoqda va litrini yana 1000 so'mdan sotmoqda. Bu ishda sotuvchi necha foiz foyda qiladi (qo'shilgan suvni tekin deb hisoblang)?
A) 50 B) 100
C) 200 D) 75

27. (a3-g10-16) Avtomobil radiatori 4 litr sig'imga ega. U 20% li antifriz eritmasi bilan to'ldirilgan. Ushbu eritmaning qanchasi bo'shatilib, o'rniga 100% li antifriz quyilsa, uning konsentratsiyasi 30% bo'ladi?
A) 0,8 B) 0,4
C) 0,5 D) 0,3

28. (a3-g10-30) 10 so'mlik tanga 5 marta dumalaganda bosib o'tgan masofani 25 so'mlik tanga 3 marta dumalaganda bosib o'tadi. Agar 10 so'mlik tanga 25 so'mlik tanganing ustiga qo'yilsa, 25 so'mlik tanga yuzasining necha foizi ochiq qoladi?
A) 60%
B) 64%
C) 72%
D) 80%

29. (a3-g12-16) Ho'l meva har kuni o'z miqdorining 20% iga kamayadi. 1 tonna meva 3 kundan so'ng necha kg ga aylanib qoladi?
A) 526 B) 400
C) 512 D) 600

30. (a3-g14-14) Spirtning 30% li eritmasining 1 litri 240 so'm bo'lsa, sof spirtning 1 litri necha pul turadi (suv tekin deb hisoblansin)?
A) 750 B) 625
C) 1000 D) 800

31. (a3-g15-15) Jumaniyozboy ulgurji bozordan kilosi 2000 so'mdan va 3000 so'mdan bo'lgan ikki xil guruch sotib olib, ularni 3:2 nisbatda aralashtirdi. Bu aralash guruchning kilosini qanchadan sotsa, unga 40% foyda tegadi?
A) 3080 B) 3640
C) 3400 D) 3360

32. (a3-g16-14) O'quvchi berilgan 56 ta savoldan 30 tasini yechdi. Bulardan 10 tasini noto'g'ri yechdi. O'quvchi qolgan savollardan nechtasini to'g'ri yechsa, umumiy savollarning 75% ini to'g'ri yechadi?
A) 26 B) 18 C) 24 D) 22

33. (a3-g17-13) Hovuzning quvuri suvni chiqarib tashlamoqda. Birinchi kuni to'la hovuz suvining 30% ini, ikkinchi kuni qolgan qismining 30% ini bo'shatdi. Ikki kundan so'ng hovuzning necha foizida suv qoladi?
A) 40 B) 49 C) 51 D) 60

34. (a3-g18-14) Yozgi haroratda har kuni idishdagi suvning 10% i bug'lanadi. Agar idishda 1 litr suv bo'lsa, 3 kundan so'ng necha ml suv qoladi?
A) 700 B) 769
C) 729 D) 690

35. (a3-g23-13) O'yinchoqning narxi 1000 so'm edi. U yerda narxlar arzonlashtirilgach, xaridorlar soni 50%, pul tushumi esa 25% ortdi. Narx necha so'mga arzonlashgan?
A) 200 B) $\frac{200}{3}$
C) $\frac{500}{3}$ D) $\frac{2500}{3}$

36. (a4-g1-15) O'quvchi 50 ta savoldan 38 tasini to'g'ri topdi. Unga yana 22 ta savol berilganda nechtasini to'g'ri bajarsa, umumiy ko'rsatkichi 75% bo'ladi?
A) 14 B) 20 C) 16 D) 18

37. (a4-g2-14) Spirtning 36% li eritmasining 1 litri 900 so'm bo'lsa, sof spirtning 1 litri necha pul turadi (suv tekin deb hisoblansin)?
A) 1620 B) 1250
C) 3240 D) 2500

38. (a4-g4-13) Maktabda 140 ta qiz, 260 ta o'g'il bola o'qiydi. Qizlarning 80%, o'g'il bolalarning 70% i yaxshi baho olib o'qishadi. Maktabdagi o'quvchilarning necha foizi yaxshi bahoga o'qishadi?
A) 75 B) 73,5
C) 74,5 D) 72

39. (a4-g6-13) Sevara test sinovida Odildan 6 ta test ko'proq yechdi. Sevaraning foiz ko'rsatkichi Odilnikidan 24% ga ko'p va ularning o'rtacha foiz ko'rsatkichlari 80% bo'lsa, Sevara nechta savolni to'g'ri topgan?
A) 23 B) 17 C) 46 D) 34

40. (a4-g8-16) Ho'l meva massasi har kuni o'z miqdorining 20% iga kamayadi. 1 tonna meva 3 kundan so'ng necha kg ga aylanib qoladi?
A) 526 B) 400
C) 512 D) 600

41. (a4-g12-16) $y = |8 - x| - |x + 2|$ funksiyaning grafigi koordinatalar tekisligining qaysi choraklaridan o'tadi?
A) I va II
B) I, II va III
C) III va IV
D) I, II va IV

42. (a4-g14-12) Shakarning miqdori 50% bo'lgan 150 gr sharbatda shakarning miqdori 37,5% bo'lishi uchun necha gr suv qo'shish kerak?
A) 50 B) 30
C) 120 D) 100

43. (a4-g15-14) Qaysi sonning 5% idan 5 ta ortig'i shu sonning 7% iga teng?
A) 250 B) 200
C) 500 D) 750

44. (a4-g16-14) 20% li tuzli suvga 240 litr suv quyilganda undagi tuzning miqdori 12% bo'ldi. Dastlab tuzli suv necha litr bo'lgan?
A) 360 B) 320
C) 240 D) 600

45. (a4-g17-12) 20% foyda bilan sotilayotgan tovar 10% chegirma bilan sotilib, 320$ foyda qilindi. Tovar chegirma qilinmasdan sotilsa qancha foyda keltiradi?
A) 4000 B) 640
C) 960 D) 800

46. (a4-g18-13) a dona ko'ylakni b so'mga olgan sotuvchi ko'ylaklarni 20% foyda bilan sotmoqda. c so'm puli bor odam nechta ko'ylak olishi mumkin?
A) $\frac{6ac}{5b}$ B) $\frac{ac}{6b}$
C) $\frac{bc}{5a}$ D) $\frac{5ac}{6b}$

47. (a4-g19-14) 80% lik $0{,}5a$ litr spirtli eritmaga 50% lik a litr spirtli eritma aralashtirildi va ustiga $0{,}5a$ litr toza suv qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning necha foizi spirt?
A) 42 B) 45 C) 30 D) 40

48. (a4-g23-13) Sinfdagi o'quvchilarning 80% i ingliz tilini, 60% i nemis tilini biladi. Sinfdagi barcha o'quvchilar kamida bu ikki tildan birini bilsa va faqatgina bitta chet tilini biladigan o'quvchilar soni 15 ta bo'lsa, sinfda nechta o'quvchi bor?
A) 40 B) 50 C) 25 D) 20

49. (a4-g24-13) 13 ta daftar va 11 ta kitobning puliga 18 ta daftar va 8 ta kitob olish mumkin. Daftarning narxi kitob narxining necha foizini tashkil etadi?
A) 66,(6) B) 60
C) 50 D) 75

50. (a5-g7-14) Uy bekasi bodomning kilosini 4000 dan sotib olib, uni tozalagach, og'irligining 35% i chiqindiga chiqib ketadi. Ayol bu savdodan 30% foyda qilishi uchun tozalangan bodomning kilosini necha puldan sotishi kerak?
A) 5200 B) 6000
C) 8000 D) 3380

51. (a5-g9-15) 250 ml lik Palmolive shampunining 10% i zaytun yog'idan iborat. Shampunning qancha qismi (ml) to'kib tashlanib, o'rniga yog' quyilsa, yog'ning miqdori 15% bo'ladi?
A) $13\frac{8}{9}$ B) $10\frac{7}{9}$
C) $15\frac{2}{9}$ D) $14\frac{5}{9}$

52. (a5-g10-13) a litrlik tuzli suvdagi tuz miqdori b % ni tashkil etadi. Bu suvning yarmi to'kilib, o'rniga 20% li tuzli suv quyilgach, yangi eritmadagi tuz miqdori 40% ni tashkil etdi. b nechaga teng?
A) 60 B) 40
C) 50 D) 20

53. (a5-g11-13) Ishchi maoshining 25% ini tushlik qilishga sarflaydi. Agar oshxonadagi ovqatning narxi o'zgarmasdan, ishchining oyligi 20% orttirilsa, oyligining necha foizini tushlikka sarflaydi?
A) 16 B) $\frac{50}{3}$
C) 20 D) $\frac{125}{6}$

54. (a5-g15-13) Yoz fasli kelgani sababli suvga bo'lgan talab 30% ga, uning narxi 20% ga ortdi. Shu holda suv qadoqlaydigan korxonaning tushumi necha foizga ortgan?
A) 50% B) 4%
C) 56% D) 10%

55. (a5-g18-22) Tijoratchi olgan molining yarmini 10% foyda bilan, to'rtdan bir qismini 40% zarar bilan sotdi. Tijoratchi bu ishdan zararsiz chiqish uchun qolgan molni necha foiz foyda bilan sotishi lozim?
A) 25 B) 20 C) 40 D) 50

56. (a5-g21-13) Mahsulotning supermarketdagi narxi uning bozordagi narxidan 25% qimmat. Mahsulotning supermarketdagi narxi 15% ga arzonlashdi. Shundan so'ng uning supermarketdagi narxi 680 so'm bo'ldi. Mahsulotning bozordagi narxini toping.
A) 722,5 B) 640
C) 625,6 D) 580

57. (a5-g23-13) Bozorboy ulgurji bozordan kilosi 2000 so'mdan va 3000 so'mdan bo'lgan ikki xil guruch sotib olib, ularni 3:2 nisbatda aralashtirdi. Bu aralash guruchning kilosini qanchadan sotsa, unga 50% foyda tegadi?
A) 4500 B) 4000
C) 3600 D) 4200

58. (a5-g24-13) Taksi haydovchisi topgan pulining 40% ini mashina ijarasiga ajratadi. Bir necha yildan so'ng mashinaning ijara haqi tugab, mashina haydovchining o'ziga qoldi. Shu holda haydovchining daromadi necha foiz ortadi?
A) 40% B) 33,(3)
C) 25 D) 66,(6)

59. (a5-g25-12) 8 dona qalam 2500 so'm turadi. Agar qalam 20% arzonlatilsa, 2500 so'mga nechta qalam olish mumkin?
A) 12 B) 9 C) 15 D) 10

60. (a6-g1-13) Qurut tarkibida 6% suv bo'ladi. Agar qurut tayyorlanadigan suzma tarkibida 53% suv bo'lsa, 10 kg qurut olish uchun necha kg suzma kerak?
A) 40 kg B) 20 kg
C) 17 kg D) 23 kg

61. (a6-g2-2) Kasrlarni o'sish tartibida joylashtiring.
$x = \frac{23}{29}$; $y = \frac{76}{100}$; $z = \frac{43}{49}$
A) $z < x < y$ B) $z < y < x$
C) $y < x < z$ D) $y < z < x$

62. (a6-g4-13) Uy bekasi 45000 so'mdan bodom sotib olib, uni tozalab sotmoqda. Tozalash jarayonida bodomning massasi 40% ga kamayadi. Uy bekasi tozalangan bodomni necha so'mdan sotsa, foydasi 20% ni tashkil etadi?
A) 90000 B) 75000
C) 72000 D) 84000

63. (a6-g9-12) A guruhdagi o'quvchilar B guruhdagi o'quvchilardan 50% ortiq. C guruh A guruhdan 50% ga kam. B guruh C guruhning necha foizini tashkil etadi?
A) 133,(3) B) 75
C) 300 D) 33,(3)

64. (a6-g16-11) Yoz fasli kelgani sababli suvga bo'lgan talab 30% ga, uning narxi 20% ga ortdi. Shu holda suv qadoqlaydigan korxonaning tushumi necha foizga ortgan?
A) 50% B) 4%
C) 56% D) 10%

65. (a6-g17-12) Xosiyat imtihonda Baxtinurdan 8 ta ko'p savol to'g'ri yechdi. Xosiyatning bali Baxtinurnikidan 20% ko'p. Ularning o'rtacha balli 85% bo'lsa, Baxtinur nechta savolni to'g'ri topgan?
A) 40 B) 30
C) 38 D) 34

66. (a6-g18-16) Bodomfurush bodomning kilosini 30000 so'mdan olib, uning chaqilgan mag'zi kilosini 72000 so'mdan sotmoqda. Agar bodom vaznining 40% i po'choqqa chiqib ketsa, bodomchi bu ishdan necha foiz foyda qiladi?
A) 56 B) 100
C) 44 D) 140

67. (a6-g21-18) TEAM ingliz tili o'rgatish markazida o'qishning narxi 40%, o'quvchilar soni 20% ortgan bo'lsa, umumiy tushum necha foizga ortadi?
A) 60 B) 48
C) 28 D) 68

68. (a6-g22-17) Uzum tarkibida 15% shakar bor. Uzumdan mayiz qilinganda (quritilganda) uning vazni 70% ga kamayadi. Mayizning necha foizi shakardan iborat bo'ladi?
A) 50% B) 8%
C) 40% D) 80%

69. (a6-g26-13) 400 so'mdan olingan 100 ta tuxumdan 20 donasi sinib qoldi. Sotuvchi umumiy savdodan 20% foyda ko'rishi uchun butun tuxumlarni necha so'mdan sotishi lozim?
A) 600 B) 750
C) 800 D) 500

66. Harakatga doir masalalar

1. (a1-g1-3) Kater va teploxod bir-biriga tomon harakatlanmoqda. Ular orasidagi masofa 780 m. Katerning tezligi teploxodnikidan 60% ga ortiq. Agar ular 15 soniyadan keyin uchrashishgan bo'lsa, katerning tezligini toping.
A) 20 B) 32 C) 10 D) 16

2. (a1-g4-15) Tramvay tezligini har soatda 10 km/s ga orttirib manzilga 3 soatda yetib bordi. Agar shu manzilga tezligini har soatda 10 km/s ga kamaytirib yursaydi, 5 soatda yetib borardi. Tramvayning manzili necha km?
A) 225 B) 245
C) 265 D) 285

3. (a1-g7-17) Ferrari avtomobili o'zidan 120 km oldinda 170 km/soat tezlik bilan ketayotgan Honda mototsiklini 3 soatda quvib o'tishi uchun qanday tezlikda harakatlanishi kerak?
A) $183\frac{1}{3}$ km/soat
B) 210 km/soat
C) 250 km/soat
D) 290 km/soat

4. (a1-g10-15) Uzunligi 400 m bo'lgan poyezd balandligi 40 m bo'lgan ustun yonidan 40 soniyada o'tib ketgan bo'lsa, poyezdning tezligi necha m/s?
A) 10 B) 11
C) 12 D) 13

5. (a1-g12-30) Avtomobil yo'lga chiqqanidan ikki soat o'tgach spidometrga qarab atigi 112 km bosib o'tganligini aniqlandi. Haydovchi chamalab ko'rib, agar shu tezligi bilan yuradigan bo'lsa, manzilga 30 min kechikib borishini aniqladi. Shuning uchun tezlikni orttirdi va muddatidan 30 min oldin yetib keldi. Agar boshlang'ich nuqtadan manzilgacha masofa 280 km bo'lsa, avtomobilning tezlikni oshirgandan keyingi tezligini toping.
A) 60 B) 80
C) 72 D) 84

6. (a1-g15-15) 160 km/soat tezlik bilan harakatlanayotgan «Nexia» avtomobili o'zidan 200 km oldinda ketayotgan «Jaguar» avtomobilini 2 soatda quvib o'tgan bo'lsa, «Jaguar» qanday tezlikda harakatlangan?
A) 75 km/soat
B) 80 km/soat
C) 60 km/soat
D) 100 km/soat

7. (a2-g1-14) Ikki avtomobilning orasidagi masofa 280 km. Agar ular bir-birlariga qarab harakatlansalar 2 soatdan keyin, bir tomonga harakatlansalar 14 soatdan keyin uchrashishadi. Tezroq yurayotgan avtomobilning tezligi necha km/soat?
A) 90 B) 70
C) 80 D) 100

8. (a2-g3-10) Agar avtomobil tezligini $2x$ km/soat ga kamaytirilsa, masofani 10 soatda bosib o'tadi. $3x$ km/soat ga orttirsa, 4 soatda bosib o'tdi. Masofa necha x km?
A) $4\frac{1}{3}$ B) $22\frac{2}{3}$
C) $33\frac{1}{3}$ D) $11\frac{2}{99}$

9. (a2-g7-15) Jamol aka Qorasuvdan Navoiyga taksida 20 minutda, avtobusda 1 soatda yetib keladi. Agar avtobusning o'rtacha tezligi 25 km/soat bo'lsa, taksining o'rtacha tezligini toping.
A) 125 B) 50
C) 90 D) 75

10. (a2-g8-17) 72 km/soat bilan harakatlanayotgan Nexia avtomashinasi o'zidan 12 km oldinda 57 km/soat tezlik bilan ketayotgan Matiz avtomobilini necha minutda quvib o'tadi?
A) 24 B) 36 C) 48 D) 42

11. (a2-g10-15) Uzunligi 500 m bo'lgan poyezd balandligi 50 m bo'lgan ustun yonidan 50 soniyada o'tib ketgan bo'lsa, poyezdning tezligi necha m/s?
A) 10 B) 11 C) 12 D) 13

12. (a2-g16-15) Uzunligi 1 km bo'lgan poyezd 15 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. 20 m/s tezlik bilan ketayotgan avtomashina bu poyezddan qancha vaqtda o'tib ketadi?
A) 2 daqiqa 40 soniya
B) 3 daqiqa
C) 2 daqiqa 30 soniya
D) 3 daqiqa 20 soniya

13. (a2-g22-15) Abdurahmon tepalikka ko'tarilishda 30 km/s tezlik bilan, pastga tushishda esa 70 km/s tezlik bilan harakatlanib 5 soatda borib qaytdi. Abdurahmon tepalikka necha soatda ko'tarilgan?
A) 3,5 B) 3 C) 2 D) 1,5

14. (a2-g23-15) Odam ma'lum bir masofani 120 qadamda bosib o'tadi. Agar odam qadam uzunligini 10 sm qisqartirsa, 150 qadamda bosib o'tmoqda. Masofa necha metr?
A) 54 B) 60 C) 75 D) 90

15. (a3-g1-15) Tezliklari nisbati 2 ga teng bo'lgan ikki jism bir tomonga harakatlanmoqda. Orqadagi jism oldindagi jismga 15 daqiqada yetib oldi. Oradagi masofa shuncha bo'lib, bu jismlar bir-biriga qarab harakatlansa, necha soniyadan so'ng uchrashadi?
A) 7,5 B) 30 C) 5 D) 45

16. (a3-g3-17) 68 km/soat bilan harakatlanayotgan Nexia avtomashinasi o'zidan 9 km oldinda 53 km/soat tezlik bilan ketayotgan Matiz avtomobilini necha minutda quvib o'tadi?
A) 24 B) 36
C) 32 D) 42

17. (a3-g6-15) Avaz oqimga qarshi suzib 200 m masofani 4 minutda, oqim yo'nalishida suzib 300 m ni 2,5 minutda bosib o'tdi. Avazning turg'un suvdagi tezligini toping (m/s da).
A) $\frac{17}{12}$ B) $\frac{4}{3}$
C) $\frac{25}{9}$ D) $\frac{7}{6}$

18. (a3-g6-30) Nexia avtomashinasi g'ildiragining radiusi 30 sm. G'ildirak 1 sekundda 12 marta aylanayotgan bo'lsa, mashina qanday tezlikda harakatlanmoqda? ($\pi = 3$ deb olinsin)
A) 10,8 m/s
B) 14,4 m/s
C) 21,6 m/s
D) 24 m/s

19. (a3-g11-15) Azim aka Qoratoshdan Navoiygacha avtobusda 10 minutda, piyoda 0,5 soatda yetib keladi. Agar avtobusning o'rtacha tezligi 60 km/soat bo'lsa, Azim akaning piyoda yurgandagi o'rtacha tezligini toping.
A) 30 km/soat
B) 20 km/soat
C) 12 km/soat
D) 40 km/soat

20. (a3-g17-14) A nuqtadan B nuqtaga $2v$ tezlik bilan ketgan avtobus qaytishda $3v$ tezlik bilan yurdi. Umumiy yo'lga 7 soat vaqt ketgan bo'lsa, avtobus A dan B ga necha soatda yetib borgan?

A) 3 soat 48 minut
B) 4 soat 20 minut
C) 3 soat 40 minut
D) 4 soat 12 minut

21. (a3-g19-15) Yangi tezyurar poyezd Toshkentdan Buxoroga borishda 144 km/soat o'rtacha tezlik bilan, qaytishda esa o'rtacha 135 km/soat bilan harakatlandi. Qaytishda poyezd borishdagiga qaraganda 15 minut ko'p vaqt sarflagan bo'lsa, har gal u qancha masofa bosib o'tgan?
A) 510 B) 540
C) 534 D) 504

22. (a3-g22-14) 30 km/soat tezlik bilan ketayotgan poyezd uzunligi 7 km bo'lgan tunneldan 15 minutda o'tib ketgan bo'lsa, poyezdning uzunligi necha metr?
A) 500 B) 400
C) 300 D) 250

23. (a3-g24-13) Bosit viloyatdan Toshkentga yo'lga tushganidan ikki soat o'tgach, spidometrga qarab atigi 112 km bosib o'tganligini aniqladi. U chamalab ko'rib, agar shu tezligi bilan yuradigan bo'lsa, belgilangan vaqtdan 30 minut kechikib borishini bildi. Shuning uchun tezlikni orttirdi va Toshkentga muddatidan 30 minut oldin yetib keldi. Agar viloyatdan Toshkentgacha bo'lgan masofa 280 km bo'lsa, Bositning mashinasi dastlabki va keyingi tezliklari yig'indisini toping.
A) 100 B) 120
C) 140 D) 84

24. (a4-g5-13) Sohildagi A va B nuqtalar orasidagi masofa 192 km. Qayiqqa A nuqtadan B nuqtaga 16 soatda yetib borib, 32 soatda ortga qaytib kelsa, qayiq tezligining oqim tezligiga nisbatini toping.
A) 3 B) 2 C) 1,75 D) 4

25. (a4-g7-13) Dilnoza buvisini ziyorat qilish maqsadida yo'lga chiqdi. Uning hisobiga ko'ra buvisining uyiga 30 daqiqada yetib borishi kerak edi. Lekin avtobus u o'ylagan o'rtacha tezlikdan 10 km/soat sekinroq yurgani sababli Dilnoza buvisining uyiga 35 daqiqada yetib bordi. Avtobus o'rtacha qanday tezlik bilan harakatlangan?
A) 80 B) 60 C) 70 D) 35

26. (a4-g9-14) Tezligi 80 km/soat bo'lgan mashina A nuqtadan, tezligi 50 km/soat bo'lgan mashina B nuqtadan bir-biriga qarab harakatlanib, 3 soatda uchrashishadi. Agar bu mashinalar A va B nuqtadan bir tomonga (tezligi katta mashina orqaroqda) harakatni boshlashganida necha soatdan keyin uchrashishar edi?
A) 8 B) 11 C) 13 D) 16

27. (a4-g18-14) Salohiddin Umidjondan 1,5 marta tezroq suzadi. Umidjon 15 daqiqa suzib, 5 daqiqa dam oladi. Salohiddin bir soat davomida tinimsiz suzib, 1500 metr suzdi. Bu vaqt davomida Umidjon necha metr suzgan?
A) 800 B) 1000
C) 750 D) 600

28. (a4-g24-12) Abdulloh 50 metr masofani suzib bo'lgach, Muhammad suzishni boshladi. Ular 500 metrlik marraga bir vaqtda yetib kelishdi. Shu suzishda davom etishsa, Abdulloh 700-metrini suzib bo'lganida Muhammad necha metr suzgan bo'ladi?
A) 675 B) 727,(77)
C) 777,(7) D) 775

29. (a5-g4-14) Avtomobil 850 km lik masofaning asfalt qilinmagan qismini 50 km/soat tezlik bilan, asfaltlangan qismini 100 km/soat tezlik bilan jami 12 soatda bosib o'tdi. Yo'lning necha km asfalt qilinmagan?
A) 450 B) 350
C) 400 D) 500

30. (a5-g5-14) A va B nuqtalar orasidagi masofa a km. Ikki ulov AB chiziq bo'yicha bir yo'nalishda ayni vaqtda harakat boshladilar. A dan harakatlana boshlagan ulovning tezligi B dan harakat boshlagan ulovning tezligidan b ($b > 1$) marta katta. A dagi ulov B dagi ulovga yetib olganida, B nuqtadan qancha uzoqlikda bo'lishadi?

A) $\frac{ab}{b+1}$ B) $\frac{a}{b+1}$

C) $\frac{ab}{b-1}$ D) $\frac{a}{b-1}$

5. (a2-g21-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning C o'tkir burchagidan AB katetga tushirilgan mediananing uzunligi $3\sqrt{2}$ ga teng. Agar AB katetning uzunligi 6 ga teng bo'lsa, bu uchburchakning gipotenuzasi uzunligini toping.
A) $3\sqrt{5}$ B) 3 C) 5 D) $3\sqrt{3}$

6. (a3-g15-26) To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti 16 ga va unga tushirilgan medianasi $4\sqrt{13}$ ga teng. Gipotenuza uzunligini toping.
A) 18 B) 20 C) 25 D) 32

7. (a3-g20-21) x va y to'g'ri burchakli uchburchakning o'tkir burchaklari. $\operatorname{tg}x \cdot \operatorname{ctg}y = \frac{1}{4}$ bo'lsa, $\cos y$ ni toping.

A) $\frac{2}{\sqrt{5}}$ B) $\frac{1}{\sqrt{5}}$
C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{2}{\sqrt{3}}$

8. (a4-g2-25) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 6 ga teng. Agar shu uchburchakning katetlaridan biri 10 ga teng bo'lsa, ikkinchisini toping.
A) 15 B) 12,5 C) 8 D) 7,5

9. (a4-g6-25) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning AC gipotenuzasidan D nuqta olingan. AD = 1, DC = 3 va $BD = \sqrt{3}$ bo'lsa, BC tomon uzunligini toping.
A) $2\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{3}$
C) $\frac{3\sqrt{3}}{2}$ D) 2

10. (a4-g13-35) To'g'ri burchakli uchburchakda o'tkir burchaklarining medianalari uzunliklari 9 va 12 ga teng. Gipotenuzaning uzunligini toping.
A) $6\sqrt{5}$ B) $3\sqrt{5}$ C) 9 D) 15

11. (a4-g17-26) To'g'ri burchakli uchburchakning to'g'ri burchagidan tushirilgan balandlik 4 ga teng. Gipotenuza qiymatining katetlar qiymatlari ko'paytmasiga nisbatini toping.
A) 0,25 B) 0,5 C) 2 D) 4

12. (a6-g4-21) Ikkita katetdan teng uzoqlikda joylashgan hamda gipotenuzada yotgan nuqta gipotenuzani $\frac{480}{7}$ sm va $\frac{360}{7}$ sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchakning katetlari yig'indisini toping.
A) 142 B) 168 C) 216 D) 192

117. To'g'ri burchakdan tushirilgan balandik, katetlarning gipotenuzadagi proyeksiyalari

1. (a1-g7-25) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandlik 9 ga teng. Shu balandlik bilan kichik katet orasidagi burchak 30° ga teng. Uchburchakning katta katetini toping.
A) $\frac{9\sqrt{3}}{2}$ B) $3\sqrt{3}$
C) 18 D) $9\sqrt{3}$

2. (a1-g13-25) ABC to'g'ri burchakli uchburchakda AH gipotenuzaga tushirilgan balandlik. AB katet uzunligi $4\sqrt{3}$ ga AH balandlik esa $4\sqrt{2}$ ga teng. Ushbu uchburchakda AD mediananing uzunligi necha sm?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 8

3. (a2-g2-27) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandlik uni 16:25 nisbatda bo'ladi. Bu uchburchakning katetlari nisbatini toping.
A) 16:25 B) 4:5
C) 2:5 D) 3:4

4. (a3-g14-25) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 6 ga teng. Agar shu uchburchakning katetlaridan biri 10 ga teng bo'lsa, ikkinchisini toping.
A) 8 B) 4 C) 7,5 D) 12,5

5. (a3-g16-25) To'g'ri burchakli uchburchakning o'tkir burchaklaridan biri ikkinchisidan 2 marta kichik. Agar gipotenuzaga tushirilgan balandlik 4 ga teng bo'lsa, gipotenuzani toping.
A) $\frac{16\sqrt{3}}{3}$ B) $4\sqrt{3}$
C) $\frac{8\sqrt{3}}{3}$ D) 8

6. (a3-g17-25) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandlik gipotenuzani 4:1 nisbatda bo'ladi. Bu uchburchak katta katetining kichik katetiga nisbatini toping.
A) 16 B) 4 C) 2 D) 8

7. (a4-g12-26) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 12 ga, medianasi esa 13 ga teng. Uchburchakning kichik katetini toping.
A) $8\sqrt{7}$ B) $2\sqrt{26}$
C) $9\sqrt{3}$ D) $4\sqrt{13}$

8. (a4-g15-26) To'g'ri burchakli uchburchakning A to'g'ri burchagi uchidan BC tomonga AD mediana va AH balandlik tushirildi. Agar AB = 8 va AC = 6 bo'lsa, HD kesma uzunligini toping.
A) 3,6 B) 1,8 C) 1,4 D) 2,5

9. (a4-g23-26) To'g'ri burchakli uchburchakning A to'g'ri burchagi uchidan BC tomonga AD mediana va AH balandlik tushirildi. Agar AB = 8 va AC = 6 bo'lsa, HD kesma uzunligini toping.
A) 3,6 B) 1,8 C) 1,4 D) 2,5

10. (a5-g11-21) To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 8 va 10 ga teng. Gipotenuzaga tushirilgan AH balandlik va AD mediana tushirilgan. HD masofani toping.
A) $\frac{9}{\sqrt{41}}$ B) $\frac{3}{\sqrt{41}}$
C) $\frac{7\sqrt{41}}{8}$ D) $\frac{\sqrt{41}}{6}$

11. (a6-g13-34) Gipotenuzaga tushirilgan balandlik gipotenuzada o'zi ajratgan kesmalarning biridan 6 sm uzun, ikkinchisidan 9 sm qisqa. Uchburchakning kichik kateti uzunligini toping.
A) $6\sqrt{13}$ B) 18
C) $9\sqrt{13}$ D) 39

118. Sinuslar teoremasi

1. (a1-g6-26) ABC teng tomonli uchburchakning B uchidan AC tomonda joylashgan D nuqtaga kesma o'tkazildi. Hosil bo'lgan BDC uchburchakning DC tomoni 4 ga teng va DBC burchak 15° bo'lsa, |AB| = ?
A) $4\sqrt{3}$ B) $6\sqrt{3}+3$
C) $8\sqrt{3}-4$ D) $4\sqrt{3}+8$

2. (a3-g21-25) ABC uchburchakning A burchagi 120°, C burchagi 45° ga teng. A uchidan chiqarilgan bissektrisa BC tomonni D nuqtada kesadi. AD kesma uzunligining CD kesma uzunligiga nisbatini toping.
A) $\frac{\sqrt{6}}{3}$ B) $\frac{\sqrt{6}}{2}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

3. (a5-g7-25) ABC uchburchakda A burchak 75° va B burchak 60°. Agar AB tomon uzunligi 6 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.
A) $2\sqrt{6}$ B) $2\sqrt{3}$
C) $3\sqrt{6}$ D) $4\sqrt{3}$

4. (a5-g13-22) ABC uchburchakda C burchak to'g'ri. AD BC tomonga tushirilgan kesma. BD = 6, ADC burchak 50° va AC = 6sin50° bo'lsa, ABC burchakni toping.
A) 50° B) 65° C) 25° D) 30°

5. (a6-g9-21) ABC uchburchakning BC tomoni l. A burchak 2α ga va C burchak α ga teng. AB tomonni toping.
A) $\frac{l\sin\alpha}{2\cos 2\alpha}$ B) $\frac{l\sqrt{3}}{3}$
C) $\frac{l}{2\cos\alpha}$ D) $2l\cos\alpha$

119. Kosinuslar teoremasi

1. (a1-g1-21) ABD uchburchakning BD tomonidan C nuqta tanlab olingach tomoni 2 ga teng ABC muntazam uchburchak hosil bo'ldi. Agar CD 1 ga teng bo'lsa, AD tomon uzunligini toping.
A) $\sqrt{3}$ B) $\sqrt{5}$ C) 3 D) $\sqrt{7}$

2. (a1-g16-29) Uchburchakning a, b va c tomonlari orasida $a^2 = b^2 + c^2 + bc$ munosabat o'rinli bo'lsa, uzunligi a ga teng bo'lgan tomon qarshisida yotgan burchakni aniqlang.
A) 60° B) 120°
C) 30° D) 150°

3. (a3-g11-26) ABC teng tomonli uchburchakning B uchidan AC tomonda joylashgan D nuqtaga kesma o'tkazildi. Hosil bo'lgan BDC uchburchakning DC tomoni 4 ga teng va DBC burchak 15° bo'lsa, $|AB| = ?$
A) $4\sqrt{3} + 8$ B) $6\sqrt{3} + 3$
C) $8\sqrt{3} - 4$ D) $4\sqrt{3}$

4. (a4-g20-20)



Yuqoridagi rasmda ABCD kvadrat va BCE teng tomonli uchburchak bo'lsa, sinα ning qiymatini toping.
A) $\frac{\sqrt{2+\sqrt{3}}}{4}$ B) $\frac{\sqrt{2+\sqrt{3}}}{2}$
C) $\frac{\sqrt{2-\sqrt{3}}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{2-\sqrt{3}}}{4}$

5. (a4-g24-25) ABC uchburchakda BC = AB = 15. AC tomondan D nuqta olingan. CD = 13 va AD = 5 bo'lsa, BD kesma uzunligini toping.
A) $5\sqrt{10}$ B) $4\sqrt{5}$
C) $5\sqrt{5}$ D) $4\sqrt{10}$

6. (a6-g10-22) Rasmga ko'ra AB = 8, AD = DC = 12 va BD = 10. AC kesma A burchakni teng bo'lakka bo'ladi. Shu kesma uzunligini toping.



A) $9\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{2}$
C) $9\sqrt{3}$ D) $15\sqrt{2}$

7. (a6-g15-9) ABC uchburchakda A burchak 15° va B burchak 55° bo'lsa, uchburchak tomonlari orasida qanday munosabat mavjud bo'ladi?
A) $c^2 = 2b^2 + ab$
B) $c^2 = b^2 + 4ab$
C) $2c^2 = b^2 + 3ab$
D) $c^2 = ab + b^2$

8. (a6-g22-28) ABC uchburchakda $|AB| = 4$ sm, $|AC| = 9$ sm. Uchburchakning AC tomoniga BD kesma tushirilganda ABD teng tomonli uchburchak hosil bo'ldi. D nuqtadan BC tomongacha bo'lgan masofani toping.
A) $\frac{10\sqrt{3}}{\sqrt{61}}$ B) $\frac{10\sqrt{3}}{\sqrt{21}}$
C) $\frac{5}{2}$ D) 2

120. Uchburchak bissektrisalarining xossasi

1. (a1-g2-28) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tushirilgan bissektrisasi gipotenuzani 5 va 12 ga teng kesmalarga ajratadi. Bu uchburchakning kichik katetini toping.
A) 10 B) $\frac{85}{13}$ C) $\frac{66}{13}$ D) $\frac{17}{13}$

2. (a1-g3-6) To'g'ri burchakli uchburchakning katetiga tushirilgan bissektrisa katetni 10 va 26 ga teng kesmalarga ajratadi. Shu uchburchakning perimetrini toping.
A) 72 B) 108
C) 84 D) 90

3. (a2-g10-27) Uchburchakning tomonlari 4, 6 va 9 ga teng. Shu uchburchakning katta tomoniga tushirilgan bissektrisaning shu tomondan ajratgan kesmalari uzunliklarining ayirmasi modulini toping.
A) 3,3 B) 2,7 C) 2 D) 1,8

4. (a2-g13-30) ABC uchburchakda AD bissektrisa. BD = 9, DC = 12, AC – AB = 4 bo'lsa, ABC uchburchakning perimetrini toping.
A) 45 B) 49
C) 57 D) 50

5. (a3-g5-26) Uchburchakning ikki tomoni 20 va 24 ga teng. Bu tomonlar orasidagi burchak 60° ga teng bo'lsa, uchinchi tomonga tushirilgan bissektrisa uzunligini toping.
A) $\frac{120}{11}$ B) $\frac{240}{11}$
C) $\frac{60\sqrt{3}}{11}$ D) $\frac{120}{11}\sqrt{3}$

6. (a3-g7-34) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri doimo to'g'ri?
A) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzaga tushirilgan bissektrisasi gipotenuzaning yarmiga teng.
B) Aylananing vatari uning radiusidan katta bo'la olmaydi.
C) Ikki vektor yig'indisining uzunligi ularning modullari ayirmasidan kichik bo'la olmaydi.
D) Fazodagi ikki nuqtadan faqat bitta tekislik o'tkazish mumkin.

7. (a3-g14-26) ABC uchburchakning A uchidan AD mediana chiqarildi. Keyin CAD uchburchakda AD tomonga C uchdan CN bissektrisa chiqarilgan. AB, BC va AC tomonlar mos ravishda 10, 12 va 8 ga teng bo'lsa, DN kesma uzunligini toping.
A) $\frac{6\sqrt{46}}{7}$ B) $\frac{5\sqrt{46}}{7}$
C) $\frac{3\sqrt{46}}{7}$ D) $\frac{10\sqrt{46}}{7}$

8. (a3-g19-26) Katetlari 8 va 6 ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning kichik katetiga tushirilgan bissektrisa gipotenuzaga tushirilgan medianani qanday uzunlikdagi kesmalarga ajratadi?
A) $\frac{25}{11}$ va $\frac{40}{11}$ B) 3 va 2
C) $\frac{35}{13}$ va $\frac{30}{13}$ D) $\frac{25}{13}$ va $\frac{40}{13}$

9. (a3-g22-25) Uchburchakning tomonlari 6, 4 va 5 ga teng. 5 ga teng tomonga tushirilgan bissektrisa uzunligini toping.
A) $\sqrt{14}$ B) $\sqrt{17}$
C) $3\sqrt{2}$ D) 4

10. (a4-g17-25) B uchi to'g'ri bo'lgan ABC uchburchakning C o'tkir burchagidan CD bissektrisa chiqarilgan. CDB uchburchakning D uchidan BC tomonga DE bissektrisa chiqarilgan. BE = 2 va EC = 4 bo'lsa, AD kesma uzunligini toping.



A) 6 B) $4\sqrt{3}$ C) 8 D) $6\sqrt{3}$

11. (a4-g18-26) ABC uchburchakning B burchagi to'g'ri. C uchidan chiqqan bissektrisasi AB tomonni D nuqtada kesib o'tadi. BDC uchburchakning D uchidan chiqqan bissektrisa BC tomonni E nuqtada kesib o'tadi. BE = 2, EC = 4 bo'lsa, AD kesma uzunligini toping.
A) $2\sqrt{3}$ B) $4\sqrt{3}$ C) 4 D) 6

12. (a4-g19-31) ABC uchburchakning C uchidan CD bissektrisa chiqarilgan. AD = 6, AC = 12. ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana AB tomonga E nuqtada urinadi. Agar ABC uchburchakning perimetri 42 ga teng bo'lsa, DE kesma uzunligini toping.
A) 0,5 B) 2 C) 1,5 D) 1

13. (a4-g25-25) ABC uchburchakning BC tomoniga AD bissektrisa o'tkazilgan. Agar $|AC| = |BC|$ va $< ADC = 105°$ bo'lsa, ACB burchakning kattaligini toping.
A) 30° B) 35° C) 40° D) 50°

14. (a5-g6-25) ABC uchburchakda AN bissektrisa. AN = NC. ANC burchak 80° bo'lsa, ABC burchakni toping.
A) 50° B) 60° C) 40° D) 30°

15. (a5-g23-22) ABC uchburchakda AN A burchak bissektrisasi. HN chiziq esa AB tomonga perpendikulyar. AH = 6, AN = 10 va NC = 17 bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.
A) 21 B) 9 C) 18 D) 24

16. (a6-g8-21) Katetlari 24 sm va 18 sm bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning kichik burchagi bessiktirisasi uzunligini toping.
A) 15 B) $8\sqrt{10}$
C) $32\sqrt{\pi}$ D) 30

17. (a6-g12-22) Uchburchakning ikki tomoni 3 va 1 ga, uchinchi tomonga chiqarilgan bissektrisa $0{,}75\sqrt{3}$ ga teng. Bu ikki tomon orasidagi burchak kotangensini toping.
A) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ B) $-\frac{1}{\sqrt{3}}$
C) $\sqrt{3}$ D) $-\sqrt{3}$

18. (a6-g14-16) ABC uchburchakning A uchidan a tomonga AK va B uchidan b tomonga BL bissektrisalar o'tkazilgan va ular O nuqtada kesishadi.
AO:OK = 3:2 bo'lsa, $\frac{BO}{OL} = ?$
A) $\frac{5b+2a}{2}$ B) $\frac{5a+2b}{2b}$
C) $\frac{5a-2b}{2b}$ D) $\frac{3a+2ab}{ab}$

19. (a6-g19-25) ABC uchburchakning B uchidan BD bissektrisa chiqarilgan. BC = 20, AD = 6. DC + AB = 22 (AB > DC) bo'lsa, BD bissektrisa uzunligini toping.
A) $4\sqrt{5}$ B) $2\sqrt{13}$
C) $3\sqrt{10}$ D) $6\sqrt{5}$

20. (a6-g26-21) ABC uchburchakning B uchidan BD bissektrisa chiqarilgan. BC = 24, AD = 7. DC + AB = 26 (AB > DC) bo'lsa, BD bissektrisa uzunligini toping.
A) $3\sqrt{21}$ B) $2\sqrt{56}$
C) $6\sqrt{7}$ D) $2\sqrt{28}$

121. Uchburchak medianasining xossalari

1. (a1-g8-26) ABC uchburchakning medianalari kesishish nuqtasi G nuqtada joylashgan. BGC burchak 90° ga teng. Agar AG kesma uzunligi 12 sm bo'lsa, BC tomon uzunligini toping.
A) 12 B) 9 C) 18 D) 24

2. (a1-g10-27) Tomonlarining uzunliklari 6, 8 va 10 ga teng bo'lgan uchburchakning kichik tomoniga tushirilgan medianasi uzunligini toping.
A) 5 B) $2\sqrt{13}$
C) $\sqrt{73}$ D) 3

3. (a1-g14-26) ABC uchburchakda G medianalar kesishish nuqtasidan o'tuvchi EF to'g'ri chiziq BC asosiga parallel. Agar BC = 9 bo'lsa, EG kesmaning uzunligi necha sm?
A) 3 B) 4 C) 2,5 D) 6

4. (a2-g7-26) ABC uchburchakning AB, AC va BC tomonlari mos ravishda 5, 6 va 7 ga teng. AC tomonga BN bissektrisa va BM medianalar o'tkazilgan. MN kesma uzunligini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{7}{11}$
C) $\frac{5}{12}$ D) $\frac{7}{12}$

5. (a2-g22-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakda AH gipotenuzaga tushirilgan balandlik. AB katet uzunligi $4\sqrt{7}$ ga, AH balandlik esa $4\sqrt{3}$ ga teng. Ushbu uchburchakda AD mediana uzunligini necha sm?
A) 4 B) 8 C) 6 D) 7

6. (a3-g5-25) Uchburchakning burchaklari 1, 3 va 4 sonlariga proporsional. Agar uchburchakning katta tomoni 16 ga teng bo'lsa, shu tomonga tushirilgan mediana uzunligini toping.
A) 4
B) 8
C) 12
D) aniqlab bo'lmaydi.

7. (a3-g17-26) ABC uchburchakning A uchidan tushirilgan balandlik va mediana bir chiziqda yotadi. Uchburchakning AB tomoni 5 ga, BC tomoni 8 ga teng bo'lsa, ushbu uchburchakning bissektrisalari va medianalari kesishish nuqtalari orasidagi masofani toping.
A) 0,(3) B) 0,5 C) 0,25 D) 0,2

8. (a3-g23-25) ABC to'g'ri burchakli uchburchakda AH gipotenuzaga tushirilgan balandlik. AB katet uzunligi $4\sqrt{3}$ ga AH balandlik $4\sqrt{2}$ ga teng. Ushbu uchburchakda AD mediananing uzunligi necha sm?
A) 4 B) 5 C) 6 D) 12

9. (a4-g2-26) Uchburchakning ikki medianasining uzunligi 18 va 13,5 ga teng va ular o'zaro perpendikulyar. Uchinchi mediana uzunligini toping.
A) 18 B) 15 C) 17,5 D) 22,5

10. (a4-g10-26) Uchburchakning uchlaridan tushgan medianalar $m_a = 6$, $m_b = 9$ va $m_c = 12$ bo'lsa, AB tomon uzunligini toping.
A) $2\sqrt{10}$ B) $2\sqrt{5}$
C) 5 D) $4\sqrt{3}$

11. (a4-g13-11)



Yuqoridagi chizmada $\angle A = 90°$, AB = AC. G uchburchakning medianalari kesishish nuqtasi. GF = FB va EF = 4 bo'lsa, AE = ?
A) $\frac{6\sqrt{10}}{5}$ B) $\frac{\sqrt{5}}{5}$
C) $\frac{4\sqrt{5}}{5}$ D) $\frac{12\sqrt{10}}{5}$

12. (a4-g16-25) Tomonlari uzunliklari 70, 240 va 250 bo'lgan uchburchakning eng kichik medianasi uzunligini toping.
A) 125 B) $\sqrt{58825}$
C) $\sqrt{19300}$ D) 120

13. (a4-g21-25) Tomonlari uzunliklari 35, 120 va 125 bo'lgan uchburchakning eng kichik medianasi uzunligini toping.
A) 62,5 B) $\frac{\sqrt{58825}}{2}$
C) $\sqrt{3815}$ D) 60

14. (a4-g25-31) ABC uchburchakning A uchidan chiqqan medianasi uchburchakka tashqi chizilgan aylanani D nuqtada kesadi. |AC| = |DC| = 6 bo'lsa, BC tomon uzunligini toping.
A) $3\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{2}$ C) 6 D) 12

15. (a5-g5-25) To'g'ri burchakli uchburchakda to'g'ri burchak uchidan chiqarilgan mediana 6 ga teng va gipotenuza bilan 60° burchak hosil qiladi. Kichik katet uzunligini toping.
A) 6 B) $6\sqrt{3}$
C) 3 D) $4\sqrt{3}$

16. (a5-g5-26) ABC uchburchakda AB = 12, AC = 8. AN bissektrisa va BM mediana P nuqtada kesishadi. $\frac{AP}{PN}$ nisbatni toping.
A) 1,5 B) 1,(6)
C) 2,25 D) 3

17. (a5-g14-22) ABC uchburchakning A uchidan AD mediana chiqarilgan. B uchidan chiqarilgan bissektrisa AC tomonni A uchidan boshlab 9:32 nisbatda bo'lsa, AD medianani A uchdan boshlab qanday nisbatda bo'ladi?
A) 9:16 B) 9:64 C) 9:8 D) 9:2

18. (a5-g18-29) Tomonlari 10, 14 va 16 bo'lgan uchburchakning kichik medianasi uzunligini toping.
A) $\sqrt{201}$ B) $\sqrt{295}$
C) $\sqrt{129}$ D) $\sqrt{84}$

19. (a6-g7-22) ABC uchburchakning AD medianasiga parallel KM kesma uchburchakning yuzini 1:7 nisbatda bo'ladi. Agar KM = 4 bo'lsa, AD mediana uzunligini toping.
A) 8 B) $4\sqrt{3}$
C) $4\sqrt{7}$ D) $8\sqrt{2}$

20. (a6-g7-27) ABC uchburchak. $\vec{m}$ BC tomonga tushirilgan mediana. Agar AC tomon $\vec{b}$ ga teng bo'lsa, $\overrightarrow{AB}$ quyidagilardan qaysi biriga teng?

A) $\frac{\vec{b}+\vec{m}}{2}$ B) $\frac{\vec{b}-\vec{m}}{2}$

C) $2\vec{m}-\vec{b}$ D) $2\vec{m}+\vec{b}$

21. (a6-g11-21) ABC uchburchakda m_a median A uchidan chiqarilgan medianani ifodalaydi. $m_a = 11$, $m_b = 10$ va $m_c = 7$ bo'lsa, BC tomon uzunligini toping.

A) $\frac{2\sqrt{177}}{3}$ B) $\frac{4\sqrt{60}}{3}$

C) $\frac{2\sqrt{393}}{3}$ D) $\frac{20\sqrt{5}}{3}$

22. (a6-g12-4) To'g'ri burchakli uchburchakning o'tkir burchaklaridan chiqqan medianalar orasidagi burchakni toping.

A) 45°
B) 120°
C) 90°
D) aniqlab bo'lmaydi

23. (a6-g12-36) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to'g'ri?

A) Ixtiyoriy uchburchakning medianasi uning balandligidan katta yoki teng, bissektrisasidan kichik yoki teng bo'ladi.
B) Yig'indisi birga teng vektorlar birlik vektorlari deyiladi.
C) $a + b = 1$ bo'lsa, $a^3 + b^3 + ab$ ning eng kichik qiymati 0,5 ga teng.
D) x va y butun sonlar, agar $3x + 17y$ 19 ga bo'linsa, $43x + 75y$ ham 19 ga bo'linadi.

24. (a6-g17-22) ABC uchburchakda B to'g'ri burchak. AB = 15 va AC = 17 bo'lsa, AD mediana uzunligini toping.

A) 8,5 B) $\sqrt{241}$

C) $\sqrt{229}$ D) $\sqrt{74}$

25. (a6-g19-7) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga AH balandlik tushirilgan. AB = 30, AC = 40 bo'lsa, AHC uchburchakning A uchidan chiqarilgan medianasi uzunligini toping.

A) 24 B) $6\sqrt{13}$

C) 16 D) $8\sqrt{13}$

26. (a6-g25-6) To'g'ri burchakli uchburchakning katetlariga tushirilgan medianalari $\sqrt{52}$ va $\sqrt{73}$ ga teng. Gipotenuzani toping.

A) 5 B) 10

C) $5\sqrt{5}$ D) 15

122. Uchburchak balandligi

1. (a1-g12-31) Uchburcakning o'tmas burchagini tashkil qiluvchi tomonlari 7 va 10 sm ga teng. Shu uchburchakning katta tomoni nechta butun qiymat qabul qila oladi?

A) 13 B) 4 C) 6 D) 9

2. (a1-g14-25) ABC uchburchak. AH BC tomonga tushirilgan balandlik. $|AC| = 13$, $|BH| = 4$ va $|HC| = 12$ bo'lsa, $|AB| = ?$

A) 5 B) 3

C) $\sqrt{41}$ D) 17

3. (a2-g6-25) ABC uchburchakning C uchidan CD balandlik tushirilgan va ACD burchak α ga teng. Agar $\frac{|AD|}{|DB|} = \frac{\sqrt{3}}{4}$, $|BC| = 4$ va $\cos\alpha = \frac{4}{5}$ bo'lsa, uchburchakning CD balandligining uzunlgini toping.

A) $2\sqrt{2}$ B) 1 C) 2 D) $\frac{1}{\sqrt{2}}$

4. (a2-g6-26) Tomonlari 5, 6, 7 sm ga teng bo'lgan uchburchakning 7 sm li tomoniga tushirilgan balandligi nechaga teng?

A) $\frac{6\sqrt{6}}{7}$ B) $\frac{12\sqrt{6}}{7}$

C) $2\sqrt{6}$ D) $6\sqrt{6}$

5. (a2-g8-28) Yuzasi 30 sm^2 bo'lgan uchburchakning barcha tomonlari ko'paytmasi 600 ga teng bo'lsa, uning barcha balandliklari ko'paytmasini toping.

A) 240 B) 450 C) 180 D) 360

6. (a2-g23-25) Uchburchakning ichki burchaklari 1, 2 va 3 sonlariga proporsional. Katta tomonga tushirilgan balandlik 6 ga teng bo'lsa, kichik tomon uzunligini toping.

A) 12 B) $2\sqrt{3}$

C) $4\sqrt{3}$ D) $6\sqrt{3}$

7. (a3-g3-28) Yuzasi 30 sm^2 bo'lgan uchburchakning barcha tomonlari ko'paytmasi 375 ga teng bo'lsa, uning barcha balandliklari ko'paytmasini toping.

A) 144 B) 288 C) 432 D) 576

8. (a3-g8-26) Uchburchakning 12 ga teng balandligi uning asosi uzunligini 7:18 nisbatda bo'ladi. Shu balandlikka parallel va uchburchakning yuzini teng ikkiga bo'ladigan to'g'ri chiziq kesmasining uzunligini toping.

A) 9 B) 10 C) 6,5 D) 11

9. (a3-g16-26) ABC uchburchakning A uchidan BC tomonga uzunligi AB tomoga teng AD kesma o'tkazilgan. DC kesma uzunligi 2 ga, AD kesma 10 ga va BC tomonga tushirilgan balandlik 6 ga teng. Uchburchakning AC tomon uzunligini toping.

A) 10 B) 6

C) $2\sqrt{34}$ D) $\sqrt{68}$

10. (a3-g21-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlari mos ravishda 6, 7 va 8 ga teng. A uchdan chiqarilgan bissektrisa, B uchidan chiqarilgan balandlikni B uchidan boshlab qanday nisbatda bo'ladi?

A) $\frac{13}{8}$ B) $\frac{32}{17}$ C) $\frac{21}{13}$ D) $\frac{3}{2}$

11. (a4-g11-10)



Rasmda berilgan uchburchakda $x = ?$

A) $\sqrt{2}$
B) $2\sqrt{2}$
C) $\sqrt{3}$
D) $2\sqrt{3}$

12. (a4-g19-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlari mos ravishda 8, 14 va 10 ga teng. AB tomonga CH balandlik tushirilgan bo'lsa, AH kesma uzunligini toping.

A) $4\sqrt{6}$ B) 6

C) 10 D) 2

13. (a5-g4-25) ABC uchburchakning BC tomoniga AD mediana va AH balandlik tushirilgan. AD = 7, BH = 2·HD = 2 bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) $2\sqrt{13}$ B) $4\sqrt{6}$

C) 8 D) $7\sqrt{2}$

14. (a5-g16-22) ABC uchburchakda AD A to'g'ri burchakdan tushirilgan mediana. BE esa ADB uchburchakda AD tomonga tushirilgan balandlik. Agar AB = 24 va AC = 32 bo'lsa, BE kesma uzunligini toping.

A) 14,4 B) 24

C) 19,2 D) 16

15. (a5-g20-21) Teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan bissektrisa shu tomonni asosdan boshlab 3:5 nisbatda ajratsa, shu tomonga tushgan balandlik uni qanday nisbatdagi kesmalarga ajratadi?

A) 9:25 B) 3:4

C) 9:41 D) 5:16

16. (a5-g22-22) ABC uchburchakning A uchidan tushirilgan balandlik 12 ga teng. B va C burchaklar mos ravishda 76° va 37° ga teng. ($\sin 37° = 0{,}6$ va $\operatorname{tg} 76° = 4$) bo'lsa, BC tomon uzunligini toping.

A) $3 + \frac{48}{\sqrt{17}}$

B) 23,2

C) $3 + \frac{12}{\sqrt{17}}$

D) 19

17. (a6-g10-21) ABC uchburchakning AD balandligi hamda BC tomoni 12 ga va $\operatorname{tg}B = 3\operatorname{tg}C$ bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) 13 B) 25 C) 17 D) 15

123. Uchburchak turi

1. (a1-g9-28)



Yondagi shaklda muntazam oltiburchak keltirilgan. Oltiburchakning ichiga muntazam uchburchak chizilgan. Rasmga qarab, bo'yalgan soha yuzasining uchburchak yuzasiga nisbatini toping.

A) $\frac{6}{5}$ B) $\frac{4}{3}$ C) $\frac{7}{4}$ D) $\frac{5}{3}$.

124. Uchburchak yuzasi

1. (a1-g3-36) ABC uchburchakning BC asosiga parallel EF to'g'ri chiziq uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan o'tadi. Agar BEFC to'rtburchakning yuzi 30 sm^2 bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 54 B) 66 C) 48 D) 60

2. (a1-g4-27) ABD uchburchakning A uchidan BD tomonga AC chiziq o'tkazilgan. $\angle CAB = 90°$, $|AB| = c$, $|AC| = b$, $|BC| = a$ va $|CD| = d$. Berilganlardan foydalanib ACD uchburchakning yuzini toping.

A) $\frac{5^2}{7^3}$ B) $\frac{bcd}{2a}$

C) $\frac{(a+b)d}{2a}$ D) $\frac{abd}{2bc}$

3. (a1-g6-27) ABC uchburchakning AB tomonida D nuqta va BC tomonida E nuqta olindi. 3AD = 5BD va 6EC = 5BE bo'lsa, ABC uchburchak yuzining BDE uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 88:25 B) 44:9
C) 30:18 D) 25:18

4. (a1-g7-26)



ABC uchburchakning yuzi 15 sm^2 $|AB| = |AD|$, $|BD| = 2\cdot|DC| = 4$ sm bo'lsa, $|AD|$ necha sm?

A) $\sqrt{29}$ B) $\sqrt{21}$
C) $\sqrt{26}$ D) $\sqrt{19}$

5. (a1-g8-27) ABC teng yonli uchburchakning A burchagi 90°. Uning AB tomonida E nuqta, BC tomonidan F nuqta olingan. $|EA| = 2|EB|$ va EF kesma BC tomonga perpendikulyar. EFC uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{3}{8}$ B) $\frac{5}{6}$ C) $\frac{5}{18}$ D) $\frac{7}{6}$

6. (a1-g9-27) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri 11 ga teng bo'lib, tomonlarining uzunligi butun sonlardan iborat bo'lsa, bu uchburchakning yuzasi nechaga teng?
A) 330 B) 440
C) 550 D) 660

7. (a1-g11-27) Uchburchakning ikkita medianasi o'zaro perpendikulyar va har birining uzunligi 6 sm dan. Uchburchakning yuzini toping.
A) 24 B) 18 C) 16 D) 12

8. (a1-g17-26) Teng yonli uchburchakning yon tomonlari 6 ga teng. Medianalar kesishish nuqtasidan asosigacha bo'lgan masofa 1 ga teng. ABC uchburchakning yuzini toping.
A) $6\sqrt{3}$ B) $9\sqrt{3}$
C) 6 D) 9

9. (a1-g17-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakning ichidan G nuqta olib, o'sha nuqtadan to'rtburchakning uchlariga chiziqlar tortildi. Hosil bo'lgan DGC, AGD va AGB uchburchaklarning yuzlari mos ravishda 9, 15 va 10 ga teng. BGC uchburchakning yuzini toping.
A) 4 B) 6 C) 10 D) 12

10. (a2-g1-26) ABC uchburchakning B uchidan chiqqan mediana AC tomonni E nuqtada kesib o'tadi. A uchidan chiqarilgan AD kesma BE medianani F nuqtada kesib o'tadi va BF = 2FE tenglikni qanoatlantiradi. ABC uchburchakning yuzi BFD uchburchakning yuzidan necha marta katta?
A) 4 B) 6 C) 8 D) 12

11. (a2-g4-27) ABC uchburchakning ichidan olingan bir nuqtadan tomonlarga parallel chiziqlar o'tkazildi. Hosil bo'lgan uchta kichik uchburchaklarning yuzalari mos ravishda 8, 18 va 32 ga teng. ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 116 B) 232 C) 162 D) 324

12. (a2-g5-26) Uchburchakning ikkita medianasi o'zaro perpendikulyar va har birining uzunligi 9 sm dan. Uchburchakning yuzini toping.
A) 54 B) 40,5 C) 27 D) 63

13. (a2-g6-29) To'g'ri to'rtburchakning kichik tomoni 7 ga teng. Diagonallari 60° burchak ostida kesishadi. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.
A) $49\sqrt{3}$ B) $56\sqrt{3}$
C) 63 D) 56

14. (a2-g7-27) Gipotenuzasi 7 ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning ichiga tomoni 4 ga teng bo'lgan muntazam uchburchak shunday chizilganki, muntazam uchburchakning ikki uchi gipotenuzada, uchinchi uchi esa to'g'ri burchakda yotadi. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzini toping.
A) $3\sqrt{3}$ B) $7\sqrt{3}$
C) $\frac{14}{\sqrt{3}}$ D) $\frac{21\sqrt{3}}{4}$

15. (a2-g7-34) Muntazam ABC uchburchakning AB tomoni orqali o'tkazilgan tekislikdagi proyeksiyasi teng yonli ABD teng yonli uchburchakdan iborat. Agar uchburchak tekislik bilan 30° burchak hosil qilgan va tomoni 8 ga teng bo'lsa, ABD uchburchak yuzini toping.

A) $\frac{63^{31}}{63\ 27}$ B) 24

C) $16\sqrt{3}$ D) 12

16. (a2-g9-27) Uchburchakning ikkita medianasi o'zaro perpendikulyar va har birining uzunligi 6 sm dan. Uchburchakning yuzini toping.
A) 24 B) 18 C) 16 D) 12

17. (a2-g11-27) ABC uchburchakning A uchidan AN bissektrisa tushirilgan. AB va AC tomonlari mos ravishda 8 va 13 ga teng. ABN uchburchakning yuzi 12 ga teng bo'lsa, ANC uchburchakning yuzi nechaga teng?
A) 26 B) 31,5 C) 34 D) 19,5

18. (a2-g13-21) Uchburchak burchaklaridan biri 60°, unga tashqi chizilgan aylana radiusi $\frac{7}{\sqrt{3}}$ ga, ichki chizilgan aylana radiusi $\sqrt{3}$ ga teng. Uchburchakning yuzini toping
A) $8\sqrt{3}$ B) $20\sqrt{3}$
C) $5\sqrt{3}$ D) $10\sqrt{3}$

19. (a2-g14-23) Katetlari a, b va gipotenuzasi c bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakda $(a + c + b)(b + a - c) = 42$ bo'lsa, uchburchakning yuzasini toping.
A) 21 B) 12 C) 10,5 D) 12,5

20. (a2-g15-27) Burchaklari nisbati 1:5:6 kabi bo'lgan uchburchakning katta tomoni 6 sm. Shu uchburchakning katta tomoni unga tushgan balandligi va medianasi bilan chegaralangan qismi yuzini toping.

A) $\frac{3\sqrt{3}}{4}$ B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$

C) $\frac{2\sqrt{3}}{9}$ D) $\frac{9\sqrt{3}}{8}$

21. (a2-g16-26) ABC uchburchakning AB tomonidan D, AC tomonidan E nuqta shunday olindiki, natijada ADE burchak ACB burchakka teng bo'ldi. $\frac{AD}{AC} = \frac{3}{5}$.

Agar BDEC to'rtburchakning yuzi 80 ga teng bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 45 B) 105 C) 125 D) 110

22. (a2-g17-25) Bir to'g'ri chiziq o'zaro perpendikulyar bo'lgan ikki to'g'ri chiziqning birini 36° da kesib o'tsa, ikkinchisi bilan hosil qilgan o'tmas burchakni toping.
A) 114° B) 66° C) 156° D) 126°

23. (a2-g18-26) Yuqoridagi rasmda $BE = DC = 2ED$, $AG = \frac{1}{2}FC = \frac{1}{3}GF$.

ABC uchburchakning yuzasi S bo'lsa, bo'yalgan sohaning yuzini toping.



A) $\frac{1}{2}S$ B) $\frac{7}{30}S$
C) $\frac{2}{3}S$ D) $\frac{11}{30}S$

24. (a2-g19-26) ABC uchburchak tomonlarining o'rtalaridan uch nuqta olinib hosil qilingan uchburchakning yuzi 24 ga teng. ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 96 B) 72 C) 120 D) 144

25. (a2-g21-27) ABC uchburchakning AB asosiga parallel, AC va BC tomonlarni M va N nuqtalarda kesuvchi chiziq o'tkazildi. ABC uchburchakning yuzi 36 ga teng. Agar AB kesma MN kesmadan 3 marta uzun bo'lsa, ABNM to'rtburchakning yuzini toping.
A) 32 B) 24 C) 27 D) 9

26. (a2-g23-26) ABC uchburchakning A uchidan BC tomonga uzunligi AB tomonga teng AD kesma o'tkazilgan. DC kesma uzunligi 3 ga, BD kesma 12 ga teng. Agar uchburchakning yuzi 60 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.
A) 10 B) 5
C) $5\sqrt{5}$ D) $\sqrt{145}$

27. (a3-g1-26) To'g'ri burchakli uchburchakning uzunligi 14 va 18 ga teng katetlariga tushirilgan medianalari uni uchta uchburchakka va to'rtburchakka ajratadi. To'rtburchakning yuzini toping.
A) 42 B) 63 C) 64 D) 48

28. (a3-g2-26) To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 15 va 20 ga teng. Gipotenuzaga tushirilgan mediana va balandlik orasidagi kesimning yuzasini toping.
A) 21 B) 16 C) 20 D) 30

29. (a3-g4-26) ABC uchburchakning B uchidan AC tomoniga shunday chiziq o'tkazildiki, natijada ACB burchak, ABD burchakka teng bo'lib qoldi. AB = 7, AD = 4 va ABC uchburchakning yuzi 98 ga teng bo'lsa, BDC uchburchakning yuzini toping.
A) 32 B) 49 C) 56 D) 66

30. (a3-g6-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi AB. BC katetga AL bissektrisa tushirilgan. CL = 4 va AB + AC = 14 bo'lsa, ABC uchburchak yuzini toping.
A) 14 B) 21 C) 28 D) 24

31. (a3-g7-26) ABC uchburchakda F AC tomondan, D AB tomondan, E esa BC tomondan olingan nuqtalar. Bu uchburchakda: $|DB| = 3|DA|$, $|EC| = |EB|$ va $|FC| = 4|FA|$ bog'lanishlar mavjud. Agar ABC uchburchakning yuzi 60 sm^2 bo'lsa, DEF uchburchakning yuzasi necha sm^2?
A) 10,5 B) 7,5 C) 9 D) 15

32. (a3-g7-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning ichidan P nuqta olindi. PAB, PBC va PCD uchburchaklarning yuzi mos ravishda 12; 16 va 18 ga teng bo'lsa, PAD uchburchakning yuzini toping.
A) 10 B) 14 C) 22 D) 32

33. (a3-g8-31) To'g'ri burchakli uchburchakka aylana ichki chizilgan. Shu aylana urinish nuqtasidan uning katetlaridan birini to'g'ri burchak uchidan boshlab hisoblaganda uzunliklari 6 va 14 bo'lgan kesmalarga ajratadi. Uchburchakning yuzini hisoblang.
A) 150 B) 300 C) 420 D) 210

34. (a3-g9-25) To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzaga tushirilgan balandligi gipotenuzani nisbati 2 ga teng bo'lgan bo'laklarga bo'ladi. Agar balandlik $4\sqrt{2}$ ga teng bo'lsa, shu uchburchakning yuzini toping.
A) 48 B) $48\sqrt{2}$
C) $24\sqrt{2}$ D) 24

35. (a3-g10-27) ABC uchburchakning A uchidan AN bissektrisa tushirilgan. AB va AC tomonlari mos ravishda 6 va 9 ga teng. ABN uchburchakning yuzi 15 ga teng bo'lsa, ABC uchburchakning yuzi nechaga teng?
A) 30 B) 22,5 C) 45 D) 37,5

36. (a3-g12-27) Burchaklari nisbati 1:5:6 kabi bo'lgan uchburchakning katta tomoni 4 sm. Shu uchburchakning katta tomoni unga tushgan balandligi va medianasi bilan chegaralangan qismi yuzini toping.
A) $\sqrt{3}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $\frac{1}{2}$ D) 1

37. (a3-g17-28) To'g'ri to'rtburchakning katta tomoni 9 ga teng. Diagonallari 120° burchak ostida kesishadi. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.
A) $81\sqrt{3}$ B) $18\sqrt{3}$
C) $36\sqrt{3}$ D) $27\sqrt{3}$

38. (a3-g22-26) ABC uchburchakning A burchagi 90°. AC tomondan D nuqta olingan. AD = 6 va DC = 8 va BDC burchak 135° bo'lsa. BDC uchburchakning yuzini toping.
A) 24 B) 18 C) 42 D) 36

39. (a3-g22-31) To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 48 ga teng va bu uchburchak aylanaga tashqi chizilgan. To'g'ri burchak uchidan aylanaga urinish nuqtasigacha bo'lgan masofa 4 ga teng bo'lsa ABC uchburchakning yuzasini toping.
A) 72 B) 96 C) 84 D) 48

40. (a3-g23-26) Uchburchak ABC da D bissektrisalarning kesishish nuqtasi, AB = 5, AC = 6, BC = 7 bo'lsa, ABDC to'rtburchakning yuzini toping.
A) $2\sqrt{6}$ B) $\frac{7\sqrt{6}}{3}$
C) $\frac{11\sqrt{6}}{3}$ D) $4\sqrt{6}$

41. (a4-g1-26) ABC uchburchakning yuzi 48 sm^2 $|AB| = |AD|$ $|BD| = 3$. $|DC| = 12$ sm bo'lsa, $|AD|$ necha *sm*?



A) $3\sqrt{6}$ B) $6\sqrt{2}$ C) 6 D) $3\sqrt{5}$

42. (a4-g4-26) ABC uchburchakning AB va AC tomonlari mos ravishda 4 va 8 ga teng. A burchagi 135°. K va L nuqtalar AC va BC tomonlarning o'rta nuqtalari bo'lsa, BKL uchburchakning yuzini toping.
A) $8\sqrt{2}$ B) $4\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

43. (a4-g4-31) ABC uchburchakning A burchagi to'g'ri. AB = 6 va AC = 8. Bu uchburchakka ichki chizilgan aylana tomonlarga K, L va m nuqtalarda urinadi. KLM uchburchakning yuzini toping.
A) 3,2 B) 3,6 C) 4,2 D) 4,8

44. (a4-g5-26) Burchaklari nisbati 1:5:6 kabi bo'lgan uchburchakning katta tomoni 6 sm. Shu uchburchakning katta tomoni unga tushgan balandligi va medianasi bilan chegaralangan qismi yuzini toping.
A) $\frac{3\sqrt{3}}{4}$ B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$
C) $\frac{2\sqrt{3}}{9}$ D) $\frac{9\sqrt{3}}{8}$

45. (a4-g7-26) ABC uchburchak AB asosiga parallel chizilgan, yon tomonini C uchidan boshlab 2:4:5 nisbatda bo'luvchi to'g'ri chiziqlar yordamida 3 bo'lakka bo'lingan. O'rtadagi bo'lakning yuzasi 80 ga teng bo'lsa, uchburchakning yuzini toping.
A) 220 B) 320
C) 287,5 D) 302,5

46. (a4-g8-27) Burchaklari nisbati 1:5:6 kabi bo'lgan uchburchakning katta tomoni 6 sm. Shu uchburchakning katta tomoni unga tushgan balandligi va medianasi bilan chegaralangan qismi yuzini toping.

A) $\frac{5\sqrt{3}}{6}$ B) $\frac{9\sqrt{3}}{8}$ C) $\frac{9}{2}$ D) 3

47. (a4-g9-26) ABC uchburchakning AC tomoni 12 ga teng. Shu uchburchakning BH balandligidan D nuqta olindi va ABCD to'rtburchakning yuzi 48 ga teng bo'lib qoldi. BD kesma uzunligini toping.

A) 12 B) 8 C) 6 D) 4

48. (a4-g10-28) ABCD trapetsiyada AD va BC asoslar. F diagonallar kesishish nuqtasi. $3|BF| = 5|FD|$. $S_{(BFC)} - S_{(AFD)} = 64$ bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.

A) 100 B) 256 C) 232 D) 160

49. (a4-g14-30) Tomoni 1 ga teng bo'lgan ABCD kvadratning AD tomoni o'rtasidan F va DC tomon o'rtasidan E nuqtalar olingan. BEF uchburchakning yuzasini toping.

A) $\frac{5}{8}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{3}{8}$

50. (a4-g16-26) ABC ucbhurchakning BC asosiga parallel EF to'g'ri chiziq uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan o'tadi. Agar BEFC to'rtburchakning yuzi 25 sm^2 bo'lsa, AEF uchburchakning yuzini toping.

A) 3,125 B) 20
C) 8 D) 45

51. (a4-g17-35) Kubning pastki asosidagi uchlari ABCD ustki uchlari A'B'C'D'. Agar kubning tomoni a ga teng bo'lsa, A'BD uchburchakning yuzini toping.

A) $a^2\sqrt{3}$ B) $\frac{3a^2}{4}$

C) $\frac{3a^2}{2}$ D) $\frac{a^2\sqrt{3}}{2}$

52. (a4-g19-25) Perimetri 21 ga teng bo'lgan uchburchakning ichidagi O nuqta barcha tomonlardan 4 sm masofada joylashgan. Uchburchakning yuzini toping.

A) 84 B) 42 C) 28 D) 56

53. (a4-g20-25) Balandliklari 9, 12, 7,2 bo'lgan uchburchak yuzasini toping.

A) 36 B) 54 C) 72 D) 27,8

54. (a4-g21-26) ABC uchburchakning BC asosiga parallel EF to'g'ri chiziq uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan o'tadi. Agar BEFC to'rtburchakning yuzi 55 sm^2 bo'lsa, AEF uchburchakning yuzini toping.

A) 11 B) 44 C) 32 D) 99

55. (a4-g22-26) ABC uchburchakda AB:BC = 3:5. BC tomon o'rtasidagi D nuqtadan B burchak bissektrisasiga parallel qilib AC tomonga DE kesma tushirildi. CDE uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) 5:32 B) 9:25
C) 5:16 D) 4:25

56. (a4-g25-26) ABC uchburchakda DE o'rta chiziq (DE//BC). C uchidan CD kesma tushirildi. Agar CDE uchburchakning yuzasi 9 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.

A) 45 B) 27 C) 36 D) 18

57. (a5-g1-25) Tomonlarining uzunliklari a, $a-7$ va $a+1$ bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini toping.

A) 24 B) 30 C) 60 D) 12

58. (a5-g1-26) ABC uchburchakning BC tomonidan D va E nuqtalar, AC tomonidan F nuqta olindi. BD = DE = EC va AF = CF. ABD, ADF va FEC uchburchaklarning yuzlari yig'indisi 30 ga teng bo'lsa, ADF uchburchak yuzini toping.

A) 12 B) 18 C) 9 D) 6

59. (a5-g2-26) ABC uchburchakning medianalari kesishish nuqtasi g dan AC tomonga parallel GD va BC tomonga parallel GE chiziqlar o'tkazildi. D va E AB tomonda yotadi. Agar ABC uchburchakning yuzasi 18 ga teng bo'lsa, GDE uchburchakning yuzasini toping.

A) 2 B) 8 C) 4,5 D) 1

60. (a5-g2-35) ABCD – kubning ostki qismi, A'B'C'D esa – ustki qismi. Kubning tomoni 6 ga teng bo'lsa, ACD' uchburchakning yuzini toping.

A) $27\sqrt{3}$ B) $13,5\sqrt{3}$

C) $18\sqrt{3}$ D) $36\sqrt{3}$

61. (a5-g3-29) ABCD tomoni 16 ga teng kvadrat. E AD tomonning, F CD tomonning o'rta nuqtalari. CE va AF chiziqlar g nuqtada kesishadi. AEG uchburchakning yuzini toping.

A) $\frac{64}{3}$ B) 32

C) $\frac{32}{3}$ D) 16

62. (a5-g4-26) ABC uchburchakning BC asosiga parallel EF to'g'ri chiziq uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan o'tadi. Agar BEFC to'rtburchakning yuzi 48 sm^2 bo'lsa, AEF uchburchakning yuzini toping.

A) 22,6 B) 32
C) 38,4 D) 86,4

63. (a5-g6-26) ABC uchburchakda BC tomonga AN kesma tushirilgan. N nuqtadan AB va AC tomonlarga tushirilgan perpendikulyarlarning har biri 6 ga teng. AB + AC = 21 bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.

A) 126 B) 84 C) 63 D) 91

64. (a5-g6-35) ABCD to'g'ri burchakli parallelepipedning pastki asosi, A'B'C'D esa mos ravishda ustki asosi. E nuqta esa, DD' tomondan olingan nuqta. Parallellipeped asosining tomonlari k, $2k$, balandligi $3k$ ga teng bo'lsa, BB'E uchburchak yuzasini toping.

A) $\frac{\sqrt{13k^2}}{2}$ B) $\frac{3\sqrt{5k^2}}{2}$

C) $\sqrt{10k^2}$ D) aniqlab bo'lmaydi

65. (a5-g7-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakda BD bissektrisa. D nuqtadan AB tomonga parallel o'tkazilgan chiziq BC gipotenuzani E nuqtada kesib o'tadi. Agar AB = 12 va BC = 20 bo'lsa, BDE uchburchak yuzini toping.

A) 18,5 B) 24 C) 16 D) 22,5

66. (a5-g8-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlaridan mos ravishda F, D va E nuqtalar olingan. 2BF = FA, DC = 3BD va AE = EC bo'lsa, AFDE to'rtburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping

A) $\frac{13}{24}$ B) $\frac{7}{12}$ C) $\frac{8}{15}$ D) $\frac{5}{12}$

67. (a5-g9-26) Uchburchakning 9 va 6 ga teng medianalari orasidagi burchak 120° ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) 36 B) $12\sqrt{3}$
C) 24 D) $18\sqrt{3}$

68. (a5-g11-22) ABC uchburchakning AB tomonidan E nuqta olingan. ED AH balandlikka parallel va EC chiziq AH balandlikni F nuqtada kesib o'tadi. FC = 2EF. ED = 9, AF = 8 va BC = 12 bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.

A) 84 B) 168 C) 81 D) 162

69. (a5-g13-21) ABC uchburchakning medianalari g nuqtada kesishadi. BC tomondan L nuqta shunday tanlab olindiki, GL AC tomonga parallel bo'lib qoldi. Agar GLC uchburchakning yuzi 3 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzini toping.

A) 54 B) 27 C) 36 D) 18

70. (a5-g13-24) ABCD parallelogramning AB tomonidan E nuqta olindi. CE kesmadan esa F nuqta tanlab olindi. AE = EB, 3CF = 2CE tengliklar berilgan va paralellogrammning yuzi 96 ga teng bo'lsa, CFB uchburchak yuzini toping.

A) 9,6 B) 12,8 C) 16 D) 8

71. (a5-g15-7) ABC uchburchakda AB = 7 va AC = 9 ABC uchburchakning A uchidan AD bissektrisa chiqarilgan. BAD uchburchakning B uchidan BE mediana chiqarildi. (E nuqta AD kesmada) BED uchburchak yuzini ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{7}{18}$ B) $\frac{3}{14}$ C) $\frac{7}{32}$ D) $\frac{9}{32}$

72. (a5-g15-20) Katetlari a, b va gipotenuzasi c bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakda $(a + c + b)(b + a - c) = 72$ bo'lsa, uchburchakning yuzasini toping.
A) 18 B) 72 C) 36 D) 27

73. (a5-g18-9) Uchburchakning balandliklari 6, 6 va 15 ga teng bo'lsa, ushbu uchburchakning yuzini toping.
A) $\frac{90}{\sqrt{6}}$ B) $\frac{36}{\sqrt{15}}$
C) $\frac{225}{2\sqrt{6}}$ D) $\frac{270}{3\sqrt{5}}$

74. (a5-g19-21) Uchburchakning burchaklaridan 37°. Bu burchak qarshisidagi tomon uzunligi a ga teng. Uchburchakning yuzi quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) berilganlar yetarli emas
B) $\frac{a^2 \sin^2 37^\circ}{2}$
C) $\frac{a^2 \sin 37^\circ \cdot \operatorname{tg} 37^\circ}{2}$
D) $\frac{a^2 \cos^2 37^\circ}{2}$

75. (a5-g20-22) Tomonlari 5, 7 va 8 sm bo'lgan uchburchakning medianalar kesishgan nuqtasidan tomonlarga parallel kesmalar o'tkazildi. Uchburchak ichida hosil bo'lgan uchburchakchalardan birining yuzasini toping.
A) $\frac{10\sqrt{3}}{9}$ B) $\frac{5\sqrt{3}}{6}$
C) $\frac{9\sqrt{2}}{10}$ D) $\frac{20\sqrt{3}}{27}$

76. (a5-g24-22) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlari mos ravishda 12, 10 va 18 ga teng. AH balandlik va AD mediana bo'lsa, AHD uchburchakning yuzini toping.
A) $4\sqrt{2}$ B) $10\sqrt{2}$
C) $8\sqrt{2}$ D) $36\sqrt{2}$

77. (a6-g2-22) ABC uchburchakda AB = BC = 6 va B burchak 120° ga teng. H balandliklarning kesishish nuqtasi bo'lsa, HAC uchburchak yuzini toping.
A) $12\sqrt{3}$ B) $18\sqrt{3}$
C) 36 D) $27\sqrt{3}$

78. (a6-g3-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana AB tomonga D nuqtada, AC tomonga F nuqtada urinadi. A – to'g'ri burchak. BD = 3 va FC = 4 bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 6 B) 12 C) 24 D) 18

79. (a6-g4-22) ABC uchburchakning BC tomonidan D, AB tomondan E nuqta olingan. AD va CE chiziqlar K nuqtada kesishadi. Agar BD = 4DC, AE = 2BE va ABC uchburchakning yuzi 330 ga teng bo'lsa, KDC uchburchak yuzini toping.
A) 10 B) 6 C) 24 D) 32

80. (a6-g5-22) ABC uchburchakda G og'irlik markazi DAC tomonda yotadi va GD AB ga parallel. Agar ABGD to'rtburchakning yuzi 36 ga teng bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) 72 B) 108 C) 81 D) 96

81. (a6-g6-22) ABC uchburchakning medianalari G nuqtada kesishadi. ABG uchburchakning medianalari T nuqtada kesishadi. Bu nuqtadan AB ga parallel BC tomonni D, AC tomonni E nuqtada kesuvchi chiziq o'tkazilgan. Agar ABDE to'rtburchakning yuzi 34 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzini toping.
A) 162 B) 272
C) 204 D) 170

82. (a6-g10-25) Radiuslari 3 va 12 ga teng aylanalar M nuqtada tashqi uringan. Ularning umumiy urunmasi aylanalarga K va L nuqtalarda uringan bo'lsa, KML uchburchak yuzini toping.
A) 36 B) 28,8 C) 24,4 D) 32

83. (a6-g12-14) ABCDEF muntazam oltiburchak. CD tomondan K, DE tomondan L nuqta olindi. 2CK = KD va 2DN = 3NE. Agar oltiburchakning yuzi 90° ga teng bo'lsa, AKN uchburchak yuzini toping.
A) 36 B) 32 C) 40 D) 35

84. (a6-g12-17) Tomonlari 3, 4 va 5 sonlariga proporsional ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana tomonlariga D, E va F nuqtalarda urinadi. ABC uchburchak yuzining DEF uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 1,25 B) 2,5 C) 1,(3) D) 5

85. (a6-g15-11) Muntazam ABC uchburchakning AB tomoni orqali o'tkazilgan tekislikdagi proyeksiyasi teng yonli ABD uchburchakdan iborat. Agar uchburchak tekislik bilan 60° burchak hosil qilgan va tomoni 6 ga teng bo'lsa, ABD uchburchak yuzini toping.
A) $3\sqrt{3}$ B) $4,5\sqrt{3}$
C) $9\sqrt{3}$ D) 12

86. (a6-g15-29) ABC uchburchakda DE o'rta chiziq (DE||BC). C uchidan CD kesma tushirildi. Agar CDE uchburchakning yuzasi 7 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.
A) 35 B) 28 C) 21 D) 14

87. (a6-g16-6) ABC uchburchakda AB = 7 va AC = 9 ABC uchburchakning A uchidan AD bissektrisa chiqarilgan. BAD uchburchakning B uchidan BE mediana chiqarildi. (E nuqta AD kesmada) BED uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{7}{18}$ B) $\frac{3}{14}$ C) $\frac{7}{32}$ D) $\frac{9}{32}$

88. (a6-g16-18) Katetlari a, b va gipotenuzasi c bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakda $(a + c + b)(b + a - c) = 72$ bo'lsa, uchburchakning yuzasini toping.
A) 18 B) 72 C) 36 D) 27

89. (a6-g18-13) ABC uchburchakning B burchagi to'g'ri. AD BC tomonga o'tkazilgan mediana va DE kesma AC tomonga perpendikulyar. Agar DE = 6 va AB = 18 bo'lsa, DEC uchburchak yuzini toping.
A) 27 B) $7,2\sqrt{5}$
C) 36 D) $10,8\sqrt{5}$

90. (a6-g22-19) ABCD kvadratning tomoni 24 ga teng. DC tomonida E va F nuqtalar olindi, |DE| = |EF| = |FC|. AF va BE kesmalar tushirilganda ular G nuqtada kesishdi. EFG uchburchak yuzini toping.
A) 36 B) 24 C) 12 D) 18

91. (a6-g23-10) ABC uchburchakda $\cos(2A - B) + \sin(A + B) = 2$ va AB = 24 bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) $36\sqrt{3}$
B) aniqlab bo'lmaydi
C) 144
D) $72\sqrt{3}$

92. (a6-g26-22) ABC uchburchakning BC tomoniga tushirilgan AD kesma BD ga teng. AC = 15, CD = 7 va AD = 10 bo'lsa, ABC uchburchak yuzini toping.
A) $\frac{84\sqrt{6}}{17}$ B) $\frac{204\sqrt{6}}{7}$
C) $52\sqrt{6}$ D) $\frac{75\sqrt{6}}{4}$

93. (a6-g26-24) ABCD to'g'ri to'rtburchakning ichidan P nuqta olindi. $S_{ABP} = 36$, $S_{BPC} = 24$ va $S_{APD} = 30$ ga teng bo'lsa, DPC uchburchakning yuzini toping.
A) 20 B) 28 C) 30 D) 18

125. O'xshash uchburchaklar

1. (a1-g15-27) ABC uchburchakning BC tomoniga shunday AD kesma tushirildiki, natijada ABC burchak DAC burchakka teng bo'ldi. Agar BD = 5 va DC = 4 bo'lsa, AC kesma uzunligini toping.
A) $\sqrt{20}$
B) 9
C) 6
D) aniqlab bo'lmaydi

2. (a4-g5-25) ABC uchburchakning AB tomonidan D AC tomonidan E nuqtalar olingan. DE chiziq BC asosga paralallel. AD = 4, DB = AE, EC = 1 va BC = 8 bo'lsa, DE kesma uzunligini toping.
A) $\frac{15}{2}$ B) $\frac{9}{2}$ C) $\frac{16}{3}$ D) $\frac{18}{5}$

3. (a4-g6-26) ABC uchburchakning AB tomonidan D va E, AC tomonidan F va K nuqtalar olingan (D va F nuqtalar A uchiga yaqin). AD = DE = EB va AF = FK = 2KC bo'lsa, EKFD to'rtburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{4}{15}$ B) $\frac{1}{3}$
C) $\frac{2}{5}$ D) $\frac{6}{23}$

4. (a5-g17-32) Ushbu rasmda 4BD = BC va 2AF = FD bo'lsa, BK ning KA ga nisbatini toping.



A) $\sqrt{241}$ B) $\frac{5}{3}$ C) $\frac{4}{3}$ D) $\frac{8}{3}$

5. (a6-g1-22) ABC uchburchakning AB va AC tomonlari mos ravishda 13 va 7 sonlariga proporsional. AD bissektrisasi 8 ga teng. AD bissektrisaga parallel va uchburchak yuzini teng ikkiga bo'luvchi kesma uzunligini toping.

A) $\frac{8\sqrt{130}}{13}$ B) $\frac{8\sqrt{130}}{10}$
C) $\frac{80}{13}$ D) 10,4

6. (a6-g22-11) 1,7 m li odamning soyasi 51 sm bo'lgan paytda, soyasi 20 m bo'lgan binoning balandligini toping.
A) 60 m B) 120 m
C) 80 m D) 66(6) m

126. O'xshash uchburchaklarning yuzalari. Yuzalar nisbati

1. (a3-g9-26) ABC uchburchakning BC tomonidan D nuqta olingan va AD kesma o'tkazilgan. B uchining bissektrisasi AD kesmani E nuqtada kesib o'tadi. Agar BC = 15; AB = 7 va 2BD = 3DC shartlar berilgan. BEA uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{2}{5}$ B) $\frac{21}{80}$ C) $\frac{7}{40}$ D) $\frac{12}{35}$

2. (a3-g13-26) Uchburchakning asosiga parallel to'g'ri chiziq uchburchakni yuzalari 7:42 nisbatda bo'luvchi bo'laklarga bo'ladi. Shu chiziq yon tomonni uchburchak uchidan boshlab qanday nisbatda bo'ladi?

A) $\frac{1}{\sqrt{6}}$ B) $\frac{1}{\sqrt{7}}$
C) $\frac{1}{7}$ D) $\frac{1}{6}$

3. (a3-g18-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlaridan mos ravishda E, F va G nuqtalar olingan. AE = EB, BF = 2FC va CG = 3GA bo'lsa, EGF uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{11}{24}$ B) $\frac{5}{12}$ C) $\frac{7}{24}$ D) $\frac{1}{4}$

4. (a3-g20-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlaridan mos ravishda D, E va F nuqtalar olingan. AD = 3DB, BC = 5BE, CA = 3CF bo'lsa, DEF uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{23}{60}$ B) $\frac{7}{25}$ C) $\frac{11}{60}$ D) $\frac{5}{12}$

5. (a3-g24-25) ABC uchburchakning A uchidan BC tomonga tushirilgan AD chiziq BC tomonni teng ikkiga bo'ladi va BC tomonning yarmiga teng. Agar AB va AC tomonlar mos ravishda 8 va 5 ga teng bo'lsa, BC tomon nechta butun qiymat qabul qila oladi?
A) 0 B) 1 C) 9 D) 10

6. (a3-g24-26) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlaridan mos ravishda D, E va F nuqtalar olindi. 2AD = 3DB, EC = 3BE va AF = FC bo'lsa, DEF uchburchak yuzining ABC yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{2}{5}$ B) $\frac{11}{40}$ C) $\frac{9}{20}$ D) $\frac{13}{20}$

7. (a4-g3-28) ABC uchburchakda BC tomonga AD to'g'ri chiziq tushirilgan, $< BAD = x$, $< ABD = y$ va $< ACB = x + y$, $|AB| = 9$, $|BD| = 5$ va $|DC| = 4$ bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.
A) 8 B) 6 C) 6,4 D) 7,2

8. (a4-g24-26) ABC uchburchakning AB tomonidan F, BC tomonidan D nuqta, AC tomonidan E nuqta olindi. $\frac{BF}{FA} = \frac{1}{2}$, $\frac{BD}{DC} = \frac{5}{2}$ va $\frac{AE}{EC} = \frac{1}{3}$ bo'lsa, DEF uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{4}{9}$ B) $\frac{8}{21}$ C) $\frac{11}{23}$ D) $\frac{7}{16}$

9. (a5-g3-26) ABC uchburchakning AB asosiga parallel, AC va BC tomonlarni M va N nuqtalarda kesuvchi chiziq o'tkazildi. ABC uchburchakning yuzi 64 ga teng. Agar AB kesma MN kesmadan 4 marta uzun bo'lsa, ABMN to'rtburchakning yuzini toping.
A) 56 B) 54 C) 60 D) 48

10. (a5-g10-26) ABC uchburchakning A uchidan AD mediana chiqarildi. AD mediana o'rtasi E nuqta. D nuqtadan AC tomonga BE ga parallel DF chiziq o'tkazildi. BED uchburchak yuzining DFC uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 0,5 B) 1,5
C) 0,(6) D) 1,(6)

11. (a5-g25-22) ADC va AFC uchburchaklarning AF va DC tomonlari E nuqtada kesishadi. AC tomondan B nuqta olingan va AD, BE va CF kesmalar o'zaro parallel. Agar AD = 12 va FC = 4 bo'lsa, BE kesma uzunligini toping.
A) 2 B) 3 C) 2,5 D) 1,5

12. (a6-g20-21) ABC uchburchakning AB tomonida D nuqta va BC tomonida E nuqta olindi. 3AD = 5BD va 6EC = 5BE bo'lsa, ABC uchburchak yuzining BDE uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 88:25 B) 44:9
C) 30:18 D) 25:18

13. (a6-g21-4) ABC uchburchakda AB = 6 va BC = 9. B uchidan AC tomonidan BE bissektrisa o'tkazildi. E nuqtadan BC tomonga parallel ED chiziq o'tkazildi. BED uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{4}{25}$ B) $\frac{6}{25}$ C) $\frac{8}{27}$ D) $\frac{15}{64}$

14. (a6-g23-7) ABC uchburchakning AB tomonidan N, BC tomonidan D va E nuqtalar olindi. Natijada 2AB = 5AN, 3DE = 2BC tenglik o'rinli bo'ldi. N nuqtani D va E nuqtalar bilan tutashtirishdan hosil bo'lgan uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{3}{5}$
C) $\frac{2}{5}$ D) aniqlab bo'lmaydi

15. (a6-g24-8) Uchburchakning 10 ga teng balandligi uning asosi uzunligini 7:25 nisbatda bo'ladi. Shu balandlikka parallel va uchburchakning yuzini teng ikkiga bo'ladigan to'g'ri chiziq kesmasining uzunligini toping.
A) 7 B) 8 C) 5,5 D) 9

16. (a6-g25-13) ABC uchburchakning A uchidan BC tomonga AD kesma o'tkazildi. BD:BC = 7:10 bo'lsa, AD kesma uchburchakdan ajratgan yuzalari nisbatini toping.
A) 49:100 B) 7:10
C) 49:9 D) 7:3

3-bob. To'rtburchaklar

127. To'rtburchak xossalari

1. (a2-g1-25) ABCD to'rtburchakning AB, BC, CD va DA tomonlari mos ravishda 4, 11, 9 va 3 ga teng. Quyidagilardan qaysi biri AC kesmaning uzunligiga teng bo'la olmaydi?
A) 7 B) 11 C) 9 D) 8

2. (a2-g1-29) ABCD kvadratning DC tomonidan E nuqta olindi. DE = 2 va BE = 10 bo'lsa, ABED to'rtburchakning yuzini toping.
A) 40 B) 64 C) 36 D) 48

3. (a2-g5-28) Tomoni 5 sm va bir diagonali 6 sm ga teng bo'lgan rombning o'tmas burchagidan tushirilgan balandlik uni uchburchak va to'rtburchakka ajratadi. Hosil bo'lgan to'rtburchakning perimetrini toping
A) 18,4 sm B) 16,2 sm
C) 17,6 sm D) 19,2 sm

4. (a3-g18-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakning katta tomoni 20 ga teng. To'rtburchakning B uchidan AC diagonalgacha bo'lgan eng qisqa masofa 12 ga teng bo'lsa, shu to'rtburchakning yuzini toping.
A) 300 B) 240 C) 150 D) 120

5. (a3-g20-28) To'g'ri to'rtburchakning bir uchidan chiqqan bissektrisa diagonalni 8 va 10 ga teng kesmalarga ajratadi. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.
A) $\frac{1680}{9}$ B) $\frac{3240}{41}$
C) $\frac{6480}{41}$ D) $\frac{840}{9}$

6. (a4-g1-27) Qavariq to'rtburchakning tomonlari o'rtalarini tutashtirganda qanday geometrik jism hosil bo'ladi?
A) kvadrat
B) to'g'ri to'rtburchak
C) romb
D) parallelogram

7. (a4-g3-30) Ixtiyoriy to'rtburchakning diagonallari bir-biriga perpendikulyar. Shu to'rtburchak tomonlarining o'rtalarini tutashtirganda qanday geometrik jism hosil bo'ladi?
A) kvadrat
B) to'g'ri to'rtburchak
C) trapetsiya
D) parallelogramm

8. (a4-g7-25) ABCD to'rtburchak. BAD burchak 58°, BCD burchak 63°, DBA burchak 62° va ADC burchak 120° bo'lsa, quyidagi kesmalardan eng uzunini ko'rsating.
A) BD B) AD C) AB D) BC

9. (a4-g10-29) ABCD qavariq to'rtburchakning B burchagi to'g'ri. AB = 5, BC = 12, CD = 15 va AD = 14 bo'lsa, shu to'rtburchakning yuzini toping.
A) 120 B) 96
C) 114 D) 84

10. (a4-g15-29) ABCD qavariq to'rtburchakning D burchagi 60°, C burchagi 150° va B burchak to'g'ri. Agar DC = 6 va AD = 20 bo'lsa, AB tomon uzunligini toping.
A) 9 B) 12 C) 15 D) 13

11. (a4-g16-29) ABCD kvadratning DC tomonidan E nuqta olindi. |DE| = 3 sm va |BE| = 15 sm bo'lsa, ABED to'rtburchakning yuzasini toping.
A) 36 B) 72 C) 90 D) 144

12. (a4-g19-29) ABCD qavariq to'rtburchakda AB = AD = 10, BC = CD = 5. AC diagonal 9 ga teng. BD diagonal uzunligini toping.
A) $\frac{4\sqrt{14}}{3}$ B) $\frac{8\sqrt{14}}{3}$
C) $2\sqrt{14}$ D) $4\sqrt{14}$

13. (a4-g21-29) ABCD kvadratning DC tomonidan E nuqta olindi. |DE| = 3 sm va |BE| = 15 sm bo'lsa, ABED to'rtburchakning yuzasini toping.
A) 36 B) 72 C) 90 D) 144

14. (a5-g4-29) AECD trapetsiya, BEC muntazam uchburchak va ABCD parallelogram. DE kesma BC tomonni F nuqtada teng ikkiga bo'ladi. Agar BE = 4 bo'lsa, ABFD to'rtburchakning yuzini toping.
A) $5\sqrt{3}$ B) $6\sqrt{3}$
C) $8\sqrt{3}$ D) $7\sqrt{3}$

15. (a6-g3-21) O'xshash uchburchaklarning perimetrlari mos ravishda 12 va 27 ga teng. Agar katta uchburchakning yuzi 243 ga teng bo'lsa, kichigining yuzini toping.
A) 108 B) 48 C) 72 D) 144

16. (a6-g21-6) ABCD qavariq to'rtburchak. AD = 2, AB = 3 va BC = 5. To'rtburchakning diagonallari perpendikulyar bo'lsa, DC tomon uzunligini toping.
A) $2\sqrt{5}$ B) $3\sqrt{2}$
C) $2\sqrt{6}$ D) $5\sqrt{2}$

17. (a6-g25-21) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 12 va 8 ga teng. AB va BC tomonlaridan M va K nuqtalar shunday olindiki, natijada, DM va DK chiziqlar D burchakni teng uchga bo'ldi. DMBK to'rtburchak yuzini toping.
A) $96-35\sqrt{3}$ B) $96-\frac{104\sqrt{3}}{3}$
C) $96-32\sqrt{3}$ D) $96-\frac{124\sqrt{3}}{3}$

128. Kvadrat, kvadrat xossasi

1. (a2-g7-28) ABCD kvadratning AB tomonidan E nuqta shunday tanlab olindiki, u AB tomonni A uchidan boshlab 5:7 nisbatda bo'ldi. Agar DE kesma uzunligi 26 ga teng bo'lsa, kvadratning tomonini toping.
A) 20 B) 23 C) 14 D) 24

2. (a2-g15-29) ABCD kvadratning B uchidan AD tomonga BE chiziq o'tkazilgan. AE = 2ED BCED to'rtburchakning yuzi 96 ga teng bo'lsa, kvadratning tomoni nechaga teng?
A) 12 B) 15 C) 18 D) 8

3. (a2-g18-29) Kvadrat tomonlarining o'rtalarini tutashtirishdan hosil bo'lgan to'rtburchakning yuzi 40 ga teng. Shu kvadratning bir uchidan qarama-qarshi tomon o'rtasigacha bo'lgan masofani toping.
A) $2\sqrt{5}$ B) $4\sqrt{5}$
C) 20 D) 10

4. (a2-g20-29) Kvadrat shaklidagi tunukadan eni 4 ga teng bo'lgan qismi qirqib olindi. Agar qolgan qismining yuzi 45 ga teng bo'lsa, kvadratning tomonini aniqlang.
A) 8 B) 5 C) 9 D) 6

5. (a2-g22-29) Tomoni 12 sm bo'lgan kvadrat tomonlarining o'rta nuqtalarini birlashtirib yangi kvadrat yasaldi. Ichma-ich kvadratlar yasash cheksiz davom ettirilsa, kvadratlarning perimetrlari yig'indisini toping.
A) $12\left(2+\sqrt{2}\right)$ B) $36\left(2+\sqrt{2}\right)$
C) $48\left(2+\sqrt{2}\right)$ D) $54\left(2+\sqrt{2}\right)$

6. (a3-g4-29) ABCD kvadratning A uchidan BC tomonga AE chiziq o'tkazilgan. BE = 3EC AECD to'rtburchakning yuzi 90 ga teng bo'lsa, kvadratning tomoni nechaga teng?
A) 12 B) 15 C) 18 D) 8

7. (a3-g6-28) Kvadratning ikki qarama-qarshi tomoni 3 sm ga uzaytirilib, qolgan ikki tomoni esa 2 sm ga qisqartirilganda perimetri dastlabki kvadratning perimetridan 20% ortiq bo'lgan to'g'ri to'rtburchak hosil bo'ldi. Dastlabki kvadrat perimetrini toping.
A) 10 B) 14 C) 5 D) 15

8. (a3-g12-29) ABCD kvadratning A uchidan BC tomonga AE chiziq o'tkazilgan. BE = 3EC AECD to'rtburchakning yuzi 90 ga teng bo'lsa, kvadratning tomoni nechaga teng?
A) 12 B) 15 C) 18 D) 8

9. (a3-g23-29) Katetlari 10 va 6 bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakka bu uchburchak bilan umumiy to'g'ri burchakka ega bo'lgan kvadrat ichki chizilgan. Kvadratning perimetrini toping.
A) 8 B) 16 C) 15 D) 7,5

10. (a4-g8-29) ABCD kvadratning A uchidan BC tomonga AE chiziq o'tkazilgan. BE = 2,5EC AECD to'rtburchakning yuzi 126 ga teng bo'lsa, kvadratning tomoni nechaga teng?
A) 14 B) 9 C) 18 D) 7

11. (a4-g9-28) ABCD kvadratning AD tomoni o'rtasidan E, DC tomoni o'rtasidan F nuqta olingan. AF va EC chiziqlar G nuqtada kesishadi. Agar kvadratning tomoni 16 ga teng bo'lsa, EGA uchburchak yuzini toping.
A) 21,(3) B) 10,(6)
C) 32 D) 16

12. (a5-g5-29) Kvadrat yuzasining son qiymati uning perimetrining son qiymatiga teng. Shu kvadrat diagonali uzunligini toping.

A) $8\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{2}$

C) $4\sqrt{2}$ D) 8

13. (a5-g7-29) Tomoni 10 ga teng bo'lgan ABCD kvadratning BC tomondan E, CD tomondan F nuqta olindi. Agar DF = FC va BE = EF bo'lsa, CE kesma uzunligini toping.

A) 6,25 B) 3,75 C) 8 D) 6

14. (a5-g16-23) ABCD kvadratning AB tomonidan F, AD tomonidan E va DC tomonidan K nuqta olindi. DE = DK va AE = AF. DEK uchburchakning yuzi 49 ga, AEF uchburchakning yuzi esa 64 ga teng. Kvadratning tomoni necha sm?

A) $15\sqrt{2}$ B) 30

C) 15 D) $30\sqrt{2}$

15. (a6-g2-24) ABCD kvadratning BC va CD tomonlarida T va K nuqtalar olingan. BAT burchak ham CKT burchak ham 30° ga teng bo'lsa, AKD burchakning qiymatini toping.

A) 15° B) 60° C) 75° D) 45°

16. (a6-g3-24) ABCD kvadratning AD tomonidan K nuqta olindi. KD = 0,75AD. Agar kvadratning tomoni 5 ga teng bo'lsa, B nuqtadan CK chiziqqacha bo'lgan masofani toping.

A) 2 B) 2,4 C) 1,2 D) 4

17. (a6-g13-11) Ikki kvadratning yuzalari yig'indisi 1285 sm^2. Diagonallarining ko'paytmasi esa 1116 sm^2. Kvadratlar perimetrlari ayirmasini toping.

A) 52 B) 13 C) 60 D) 15

129. Kvadrat yuzasi

1. (a1-g16-30) Kvadrat yuzini 1,44 marta oshirish uchun uning tomoni necha marta oshirilishi kerak?

A) 1,44 B) 1,24 C) 1,2 D) 1,4

2. (a4-g3-25) ABCD kvadratning C uchidan BD diagonaliga 5 sm uzunlikdagi CE chiziq tushirilgan. Agar $EB = 3\sqrt{2}$ bo'lsa, bu kvadratning yuzasi necha sm^2?

A) 49 B) 64 C) 36 D) 25

3. (a4-g13-27) Rasmdagi tomonlari *a* va *b* bo'lgan kvadratlarning perimetrlari yig'indisi 48 ga teng. Bo'yalgan sohaning yuzasi 96 ga teng bo'lsa, $a - b = ?$



A) 8 B) 10 C) 12 D) 6

4. (a4-g24-29) Muntazam uchburchakning perimetri kvadratning perimetriga teng bo'lsa, kvadrat yuzining uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{3\sqrt{3}}{4}$ B) $\sqrt{3}$

C) $\frac{\sqrt{3}}{4}$ D) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$

5. (a5-g4-28) ABCD kvadrat, DC tomondan E, AB tomondan F nuqta olindi. EF//AD. Kvadratning tomoni *x* ga teng va DE = *a* bo'lsa, $\frac{S_{EFBC}}{S_{EFAD}} = ?$

A) $\frac{x^2 - ax}{a}$ B) $\frac{x^2 + a}{ax}$

C) $\frac{x}{a} - 1$ D) $\frac{x}{a} + 1$

6. (a5-g4-30) Radiusi 16 ga teng bo'lgan doira kvadratga tengdosh. Kvadratning perimetrini toping.

A) 32π B) 64π

C) $32\sqrt{\pi}$ D) $64\sqrt{\pi}$

7. (a5-g11-24) ABCD kvadratning diagonallari O nuqtada kesishadi. Kvadrat yuzini ABOCD beshburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{5}{2}$ B) $\frac{4}{3}$ C) 2 D) $\frac{3}{2}$

8. (a6-g11-22) ABCD kvadratning AD tomonidan olingan E nuqta tomonni teng ikkiga bo'ladi. AB tomondan F nuqta olingan va BF = 2AF tenglik o'rinli. BE va FC chiziqlar G nuqtada kesishadi va GBF uchburchakning yuzi 6 birlik bo'lsa, kvadratning yuzi necha birlik?

A) 48 B) 72 C) 144 D) 96

9. (a6-g24-22) ABCD kvadratning BC tomonidan K, CD tomonidan M nuqta olindi. BK = 2KC va CM = 2MD. ABK va CKM uchburchaklar yuzlari yig'indisining kvadrat yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{5}{12}$ B) $\frac{7}{18}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{4}{9}$

130. To'g'ri to'rtburchak, perimetri, xossalari

1. (a2-g14-16) Quyidagi rasmda ABCD to'g'ri to'rtburchak va $|AB| = |BE| = 2|EC|$ bo'lsa, $tgx = ?$



A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 3 D) $\frac{3}{2}$

2. (a2-g17-27) ABCD paralellogramning A o'tkir burchagi bissektrisasi DC tomonni D uchidan boshlab 6 va 3 ga teng kesmalarga ajratadi. Bissektrisa uzunligi 10 ga teng bo'lsa, parallelogram o'tkir burchagi sinusini toping.

A) $\frac{\sqrt{11}}{6}$ B) $\frac{5\sqrt{11}}{18}$

C) $\frac{7}{18}$ D) $\frac{5}{6}$

3. (a3-g3-29) Sinf devoriga eni bo'yidan 1,5 m uzun bo'lgan yozuv taxtasi osilgan. Devorning eni bo'yining 0,75 qismiga teng va taxta bo'yidan 2,5 m katta. Devorning taxta bilan qoplanmagan qismining yuzasi 11 m^2 bo'lsa, yozuv taxtasi bo'yining qiymatini toping.

A) 0,5 m B) 1 m

C) 1,5 m D) 2 m

4. (a3-g9-29) Tomoni 6 ga teng bo'lgan kvadratga tengdosh to'g'ri to'rtburchakning diagonali $2\sqrt{82}$ ga teng. Shu to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.

A) 40 B) 26 C) 24 D) 36

5. (a4-g6-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning ichidan AB tomonga parallel EF kesma o'tkazildi. EA va FB A va B burchaklar bissektrisalari. Agar AB = 13 va $EA = 4\sqrt{2}$ bo'lsa, EF kesma uzunligini toping.

A) 4 B) 9 C) 5 D) 8

6. (a4-g17-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakning B uchidan DC tomonga BE chiziq o'tkazilgan. A uchidan BE kesmaga perpendikulyar AF kesma o'tkazilgan (F BE kesmada yotadi). DE = 2, EC = 8 va AD = 6 bo'lsa, AF kesma uzunligini toping.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

7. (a4-g22-28) Tomonlari 3:4 nisbatda bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydoni 48 sotix. Katta tomonga parallel qilib 0,5 m oraliqlar bilan ariqlar qazib chiqildi. Yer maydoni chekkalariga ariq qazilmagan bo'lsa, ariqlarning umumiy uzunligini toping.

A) 9600 m B) 9520 m

C) 9440 m D) 9680 m

8. (a5-g2-30) Rasmdagi shtrixlangan sohaning yuzasi yarim doiralar yuzalari yig'indisiga teng bo'lsa, to'rtburchak enining bo'yiga nisbatini toping.



A) π B) $\frac{\pi}{2}$ C) $\frac{\pi}{4}$ D) $\frac{3\pi}{4}$

9. (a5-g7-34) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 9 va 15 ga teng.

Bu to'rtburchakning AB tomonidan o'tuvchi tekislikdagi proyeksiyasi kvadratdan iborat bo'lsa, to'rtburchak va tekislik orasidagi burchak sinusini toping.

A) 0,5 B) 0,6 C) 0,8 D) $\frac{\sqrt{3}}{2}$

10. (a5-g14-24) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 14 va 8 ga teng. To'rtburchakning CD tomonidan E va AB tomonidan F nuqtalar olindi. Agar EC = 4 va FBCE to'rtburchakning yuzi 44 ga teng bo'lsa, FE kesma uzunligini toping.

A) $\sqrt{113}$ B) $8\sqrt{2}$
C) $\sqrt{73}$ D) 8

11. (a5-g21-24) To'g'ri to'rtburchakning tomonlari a va b ga teng. a tomon 1 birlik qisqartirilganda yuza o'zgarmasligi uchun b tomon qancha birlik orttirilishi lozim.

A) $\frac{ab}{a-1}$ B) $\frac{b}{a-1}$
C) $\frac{b-1}{a}$ D) $\frac{a}{b-1}$

12. (a6-g17-24) ABCD to'g'ri to'rtburchakning B uchidan DC tomonga BE chiziq o'tkazilgan. A uchidan BE kesmaga perpendikulyar AF kesma o'tkazilgan (FBE kesmada yotadi). DE = 10, EC = 15 va AD = 20 bo'lsa, AF kesma uzunligini toping.
A) 25 B) 20 C) 50 D) 10

131. To'g'ri to'rtburchak yuzi

1. (a2-g3-30) To'g'ri to'rtburchakning kichik tomoni 7 ga teng. Diagonallari 60° burchak ostida kesishadi. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.

A) $49\sqrt{3}$ B) $56\sqrt{3}$
C) $42\sqrt{3}$ D) $48\sqrt{3}$

2. (a2-g8-29) Sinf devoriga eni bo'yidan 1,5 m uzun bo'lgan yozuv taxtasi osilgan. Devorning eni bo'yidan 2 m va taxta bo'yidan 4 m katta. Devorning taxta bilan qoplanmagan qismi yuzasi 12,5 m^2 bo'lsa yozuv taxtasi bo'yining uzunligini toping.
A) 0,5 m B) 1 m
C) 1,5 m D) 2 m

3. (a2-g10-28) Rasmdagi paralellogramning asoslari teng bo'laklarga bo'lingan. Bo'yalgan soha yuzining parallelogramm yuziga nisbatini toping.



A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{5}$ C) $\frac{1}{10}$ D) $\frac{2}{5}$

4. (a2-g13-23) Agar to'g'ri to'rtburchakning bo'yi enidan 49 metr uzun bo'lsa va diagonali 61 m bo'lsa, uning yuzini toping.
A) 1200 B) 600
C) 660 D) 1320

5. (a2-g14-20) ABCD va NQCL kvadratlar berilgan. QM va BD diagonallar mos ravishda $\sqrt{106}$ va $14\sqrt{2}$ ga teng bo'lsa, PNLD to'rtburchakning yuzasi uning perimetridan nechaga ortiq?



A) 45 B) 31 C) 17 D) 28

6. (a2-g19-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning DC tomonidan E nuqta olindi. Agar |EC| = 3 va ABED to'rtburchakning yuzasi BCE uchburchakning yuzasidan to'qqiz marta katta bo'lsa, |ED| = ?
A) 9 B) 12 C) 10 D) 15

7. (a3-g1-28) Agar to'g'ri to'rtburchakning bo'yi enidan 31 metr uzun bo'lsa va diagonali 41 m bo'lsa, uning yuzini toping.
A) 540 B) 90 C) 360 D) 180

8. (a3-g1-29) O'lchamlari 24 m × 18 m bo'lgan zalni tomoni 30 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi plitkalardan nechtasi bilan qoplash mumkin?
A) 4800 B) 14400
C) 7200 D) 9000

9. (a3-g13-29) To'g'ri to'rtburchaknning perimetri 32 ga teng. Bu to'rtburchak yuzasining eng katta qiymati nechaga teng?
A) 256 B) 60 C) 64 D) 240

10. (a3-g21-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakning perimetri 24 sm. AB tomondan E nuqtada shunday tanlab olinganki, DEA burchak 75° va DCE burchak 30° ga teng. DCE uchburchak yuzini toping.
A) 144 B) 72 C) 32 D) 16

11. (a3-g22-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning CD tomonidan E nuqta olingan. CE kesmaning uzunligi 2 sm. Agar ABED to'rtburchakning yuzi BEC uchburchakning yuzidan 4 marta katta bo'lsa, DE kesma uzunligini toping.
A) 2 B) 5 C) 4 D) 3

12. (a4-g18-29) To'g'ri to'rtburchakning bir tomoni ikkinchi tomonidan 31 sm ga uzun. Diagonali esa 41 sm ga teng. To'g'ri to'rtburchakning yuzasini toping (sm^2).
A) 420,25 B) 210
C) 360 D) 200

13. (a4-g24-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB tomonidan E nuqta olindi. AE = 2EB va EBCD to'rtburchakning yuzi 36 ga teng bo'lsa, ABCD to'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.
A) 72 B) 64 C) 96 D) 54

14. (a5-g1-28) Perimetri 156 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning bo'yi 13 sm qisqartirilib, eni 13 sm uzaytirilsa, kvadrat hosil bo'ladi. To'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.
A) 1044 B) 840
C) 754 D) 1352

15. (a5-g3-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AC diagonaliga BE perpendikulyar o'tkazilgan. AE = 8, $BC = 2\sqrt{5}$ bo'lsa, to'rtburchakning yuzini toping.
A) $20\sqrt{5}$ B) 40
C) $16\sqrt{5}$ D) 80

16. (a5-g6-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakda E nuqta DC tomonda joylashgan va AE bisssektrisa. CE = 6 va ADE uchburchakning yuzi 32 ga teng bo'lsa, to'g'ri to'rtburchak yuzasini toping.
A) 48 B) 96 C) 56 D) 112

17. (a5-g9-28) Samsung kompaniyasi diagonallari teng bo'lgan ikki turdagi suyuq kristalli televizorlarni ommaga taqdim etdi. Birinchisining eni bo'yidan ikki marta katta, ikkinchisining eni va bo'yi nisbati 5:3 bo'lsa, ularning yuzalari nisbatini toping.
A) 1:1 B) 18:5
C) 68:75 D) 72:81

18. (a5-g10-31) Rasmdagi to'g'ri to'rtburchakning perimetri 60 ga teng. Shtrixlangan soha yuzini toping.



A) $54 - 13{,}5\pi$ B) $54 - 9\pi$
C) $216 - 54\pi$ D) $216 - 36\pi$

19. (a5-g22-24) Parallelogramm tomonlari 45 va 17 ga teng. Uning katta tomoniga yopishgan burchaklarining bessektrissalari qarama-qarshi tomonni uch qismga ajratadi. Shu qismlarning kichigini toping.
A) 14 B) 28
C) 12,5 D) 11

20. (a5-g25-24) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB tomonidan olingan E va F(E A ga yaqin) nuqtalar shu tomonni teng uchga bo'ladi. DF va CE kesmalar K nuqtada kesishadi. AEKD to'rtburchak yuzining DKC uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{7}{9}$ B) $\frac{9}{16}$ C) $\frac{13}{27}$ D) $\frac{19}{21}$

21. (a6-g6-23) To'g'ri to'rtburchak tomonlarining o'rtalari tutashtirilib boshqa to'rtburchak yasaldi. Bu to'rtburchakning o'rtalari tutashtirilib, uchinchi to'rtburchak yasaldi. Birinchi to'g'ri to'rtburchakning yuzi uchinchi to'rtburchakning yuzidan necha marta katta?
A) 2 B) 4 C) 8 D) 16

22. (a6-g18-8) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AC diagonalidan M va N nuqtalar shunday tanlab olindiki, natijada 3,5MN = AC tenglik o'rinli bo'ldi. Agar DMN uchburchakning yuzi 16 ga teng bo'lsa, to'g'ri to'rtburchak yuzini toping.
A) 56 B) 112 C) 40 D) 80

132. Parallelogramm va uning xossasi

1. (a1-g13-28) ABCD parallelogramm. A va B burchaklarning bissektrisalari CD tomonda kesishadi. Agar |AB| = 14 sm bo'lsa, BC ning uzunligi necha sm?
A) 3,5 B) 7 C) 14 D) 28

2. (a1-g14-28) ABCD parallelogramning DC tomoniga A uchidan AE, B uchidan BF bissektrisalar chiqarilgan. Agar |AB| = 12 va |EC| = 3 sm bo'lsa, FE masofa qancha?
A) 9 B) 5 C) 6 D) 3

3. (a2-g6-28) Paralellogramm o'tmas burchagining bissektrisasi qarshisidagi tomonni o'tkir burchakdan boshlab 6 va 7 sm ga teng kesmalarga ajratadi. Bissektrisa ajratgan to'rtburchakning yuzi 20 sm^2 ga teng bo'lsa, paralellogramning o'tmas burchagi tangensini toping.

A) $\frac{1}{2\sqrt{2}}$ B) $-\frac{2\sqrt{2}}{3}$

C) $\frac{1}{3}$ D) $-\frac{\sqrt{2}}{4}$

4. (a2-g12-25) Paralellogramm o'tmas burchagining bissektrisasi qarshisidagi tomonni o'tkir burchakdan boshlab 4 va 3 sm ga teng kesmalarga ajratadi. Bissektrisa ajratgan to'rtburchakning yuzi 15 sm^2 ga teng bo'lsa, paralellogramning o'tmas burchagi tangensini toping.

A) $\frac{3}{7}\sqrt{7}$ B) $-\frac{4}{7}\sqrt{7}$

C) $\frac{4}{3}$ D) $-\frac{3}{7}\sqrt{7}$

5. (a2-g14-31) ABCD parallelogramning A uchi bissektrisasi BC tomonni B uchidan boshlab 3:2 nisbatda bo'ladi. Parallelogramm perimetrini AB tomonga nisbatini toping.

A) $\frac{18}{3}$

B) 5,(3)

C) $\sqrt[3]{x^2-4x+3} > x-3$

D) 16,(3)

6. (a2-g16-28) ABCD paralellogramning DC katta tomoni 8 ga teng. C o'tmas burchakdan AB tomonga CE balandlik tushirilgan. AE = 5 va AECD to'rtburchakning yuzi 26 sm^2 bo'lsa, paralellogramning perimetri necha sm?
A) 24 B) 26 C) 32 D) 36

7. (a2-g17-26) ABC uchburchakda AB:BC = 3:5. BC tomon o'rtasidagi D nuqtadan B burchak bissektrisasiga parallel qilib AC tomonga DE kesma tushirildi. CDE uchburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 5:32 B) 9:25
C) 5:16 D) 4:25

8. (a2-g18-28) Parallelogramning tomonlari 8 va 6 ga teng. Agar parallelogramning yuzi $24\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, parallelogramning tomonlariga tushirilgan balandliklari orasidagi burchakni toping.
A) 75° B) 60° C) 30° D) 45°

9. (a3-g5-29) ABCD parallelogramning AB tomonidan E nuqta olindi. 2AE = 3EB bo'lsa, ABCD parallelogram yuzining AECD to'rtburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{10}{7}$ B) $\frac{5}{4}$ C) $\frac{5}{3}$ D) $\frac{5}{2}$

10. (a3-g13-27) Quyidagi mulohazalardan qaysilari to'g'ri?
1) Parallelogramning ixtiyoriy ikki qo'shni burchaklari bissektrisalari 90° burchak ostida kesishadi; 2) Ixtiyoriy to'rtbuchakka ichki aylana chizish mumkin; 3) Bir tomonga yo'nalmagan vektorlarning yig'indisi bu vektorlar modullari yig'indisidan kichik bo'ladi; 4) Tekislikka perpendikulyar to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel; 5) Sharning ixtiyoriy tekislik bilan kesganda ellips hosil bo'ladi.
A) 1; 3; 4 B) 2; 4; 5
C) 1; 2; 5 D) 2; 3; 4

11. (a4-g5-29) ABCD parallelogramning AB va BC tomonlari mos ravishda 13 va 7 ga teng. D burchak bissektrisasi AB tomonni E nuqtada kesadi. EB kesma uzunligini toping.
A) 10 B) 7 C) 6 D) 3

12. (a4-g6-29) ABCD parallelogramning D uchidan chiqarilgan bissektrisa AB tomonni K nuqtada kesib o'tadi. A burchak 60°, DC = 8 va BC = 3 bo'lsa, DKBC to'rtburchak yuzini toping.

A) $\frac{25\sqrt{3}}{4}$ B) $\frac{39\sqrt{3}}{4}$

C) $\frac{35\sqrt{3}}{4}$ D) $8\sqrt{3}$

13. (a4-g7-28) Parallelogramning tomonlari 7 va 18 ga teng. Katta tomonga yopishgan ikki qo'shni burchak bissektrisalarining qarama-qarshi tomondan ajratgan kesmalardan eng kichigini toping.
A) 7 B) 11 C) 4 D) 2

14. (a4-g13-30) ABCD parallelogramm. A va B burchaklarning bissektrisalari CD kesmada kesishadi. Agar |AB| = 14 sm bo'lsa, BC ning uzunligi necha sm?
A) 3,5 B) 7 C) 14 D) 28

15. (a4-g14-27) Parallelogramning diagonallari 14 va 18 ga, tomonlari nisbati 4:7 kabi. Shu parallelogramning perimetrini toping.
A) 40 B) 44 C) 42 D) 48

16. (a4-g22-27) ABCD parallelogramning A o'tkir burchagi bissektrisasi DC tomonni D uchidan boshlab 6 va 3 ga teng kesmalarga ajratadi. Bissektrisa uzunligi 10 ga teng bo'lsa, parallelogramm o'tkir burchagi sinusini toping.

A) $\frac{\sqrt{11}}{6}$ B) $\frac{5\sqrt{11}}{18}$

C) $\frac{7}{18}$ D) $\frac{5}{6}$

17. (a5-g5-31) Parallelogramga ichki va tashqi aylana chizish mumkin. Shu aylanalardan kattasining uzunligi kichigining uzunligidan necha marta katta?
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 2
C) $\sqrt{2}$
D) $\sqrt{3}$

18. (a6-g9-24) Parallelogramning tomonlari 3:1 nisbatda bo'lib, uning katta tomoni uchlaridan chiqarilgan bissektrisalar parallelogramdan tashqarida kesishadi. Agar parallelogramning yuzi S bo'lsa, uning tashqarisidagi uchburchak yuzini toping.

A) $\frac{S}{12}$ B) $\frac{S}{2}$ C) $\frac{S}{3}$ D) $\frac{S}{6}$

19. (a6-g10-23) Parallelogramm diagonallari yig'indisi 12 ga teng bo'lsa, uning turli ikki tomoni kvadratlari yig'indisining eng kichik qiymatini toping.
A) 72 B) 24 C) 36 D) 48

20. (a6-g15-15) Parallelogramning dioganallari 14 va 18 ga teng, tomonlari nisbati esa 4:7 kabi. Shu parallelogramning perimetrini toping.
A) 40 B) 44 C) 42 D) 48

21. (a6-g18-2) AKCM to'g'ri to'rtburchak yuzining ABCD parallelogramm yuziga nisbati 0,8 ga teng. Parallelogramning o'tkir burchagi kosinusini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 0,2
C) 0,4
D) 0,6

22. (a6-g20-7) Parallelogramning A, B va C uchlari tekislikdan 5, 6 va 11 ga teng masofalarda joylashgan. D uchi tekislikdan qanday masofada joylashgan?
A) 10 B) 0 C) 12 D) 8

23. (a6-g24-2) ABCD parallelogramning AB va AD tomonlari mos ravishda 12 va 5 ga teng. B uchidan chiqarilgan bissektrisa, CD tomonni E nuqtada kesib o'tsa, EC kesma uzunligini toping.
A) 5 B) 7 C) 8,5 D) 3,5

133. Parallelogramm yuzi

1. (a1-g2-30) Parallelogramning tomonlari mos ravishda 20% va 10% ga oshirildi. Bu parallelogramning yuzi necha foiz ortgan?
A) 32 B) 15 C) 25 D) 40

2. (a1-g5-29)



Rasmdagi parallelogramning asoslari teng bo'laklarga bo'lingan. Bo'yalgan soha yuzining parallelogramm yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{5}$ C) $\frac{1}{10}$ D) $\frac{2}{5}$

3. (a1-g7-28) Tomonlari 6 va 7 ga teng bo'lgan parallelogramning yuzi 21 ga teng. Parallelogramning o'tkir burchagini toping.
A) 75° B) 60° C) 30° D) 45°

4. (a1-g11-29) ABCD parallelogramning BC tomonidan E nuqta olindi. 2BE = 3EC. Agar ABE uchburchakning yuzi 15 ga teng bo'lsa, parallelogramning yuzi nechaga teng?
A) 10 B) 75 C) 30 D) 50

5. (a1-g12-21) ABCD parallelogramning AB tomonidan E nuqta olindi. Parallelogramm yuzining CDE uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 2
C) 3
D) 4

6. (a1-g15-29) Rasmdagi paralellogramning yuqori asosi teng 5 bo'lakka, ostki asosi teng 6 bo'lakka bo'lingan. Bo'yalgan soha yuzining parallelogram yuziga nisbatini toping.



A) $\frac{3}{5}$ B) $\frac{5}{12}$ C) $\frac{8}{15}$ D) $\frac{5}{6}$

7. (a1-g17-33) Paralellogramning tomonlari $\vec{a}$ (3; 1) va $\vec{b}$ (2; 4) vektorlardan iborat. Bu paralellogramning yuzini toping.
A) 16 B) 20 C) 18 D) 10

8. (a2-g2-29) Perimetrlari teng bo'lgan romb va kvadratning yuzalari nisbati $\sqrt{3}:2$ ga teng. Romb katta diagonalining tomoniga nisbatini toping.
A) $\sqrt{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}+1}{2}$
C) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$ D) $\sqrt{3}$

9. (a2-g3-22) ABCD parallelogramm berilgan. AB tomondan E nuqta olingan. |AE| = |EB|, |EB| = |BC| = 5 va |EC| = 6 bo'lsa, shu paralellogramning yuzini toping.
A) 36 B) 42 C) 24 D) 48

10. (a2-g4-29) ABCD paralellogramning AB tomonidan E nuqta, AD tomonidan F nuqta olindi. AE AB tomonning uchdan biriga, AF kesma esa AD tomonning uchdan biriga teng. Agar AEF uchburchakning yuzi 6 ga teng bo'lsa, paralellogramning yuzi nechaga teng?
A) 48 B) 54 C) 24 D) 108

11. (a2-g9-29) ABCD paralellogramning BC tomonidan E nuqta olindi. 2BE = 3EC. Agar ABE uchburchakning yuzi 15 ga teng bo'lsa, paralellogramning yuzi nechaga teng?
A) 10 B) 75 C) 30 D) 50

12. (a2-g23-29) ABCD parallelogramning CD tomonidan F nuqta shunday tanlab olindi. CF = 2FD. Agar AFB uchburchakning yuzi 18 bo'lsa, ABCD parallelogramning yuzini toping.
A) 54 B) 36 C) 108 D) 72

13. (a3-g7-29) Rasmda DFGC parallelogramm. Uchburchakning BC asosi 12 ga teng. Parallelogramning DF tomoni A uchidan tushgan balandlikni A uchidan boshlab 3 va 5 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Parallelogramning yuzini toping.



A) 18 B) 27 C) 22,5 D) 13,5

14. (a3-g11-28) ABCD parallelogramning AB tomonidan E, AD tomonidan F nuqta olindi. 3AE = 2EB, AD = 4AF. Agar parallelogramning yuzi 200 ga teng bo'lsa, AEF uchburchakning yuzini toping.
A) 10 B) 40 C) 25 D) 20

15. (a3-g15-27) Tomonlari m va n ga teng ($n < m$) bo'lgan parallelogramm o'tmas burchagining bissektrisasi undan yuzasi S ga teng bo'lgan uchburchak ajratadi. Parallelogramm yuzasini toping.
A) $\frac{2(m-n)S}{n}$ B) $\frac{2(m-n)S}{m}$
C) $\frac{2mS}{n}$ D) $\frac{2nS}{m}$

16. (a3-g16-29) ABCD parallelogramning AB va BC tomonlaridan E va F nuqtalar tanlab olindi. Agar 3AE = AB va BF = FC, BFE uchburchakning yuzi 24 ga teng bo'lsa, ABCD parallelogramning yuzini toping.
A) 72 B) 96 C) 1.9 D) 144

17. (a3-g17-29) ABCD parallelogram berilgan. AB tomondan E nuqta olingan. |AE| = |EB|, |EB| = |BC| = 5 va |EC| = 6 bo'lsa, shu parallelogramning yuzini toping.
A) 36 B) 42 C) 24 D) 48

18. (a3-g24-29) ABCD parallelogramning AB tomonidan E va F nuqtalar (E A nuqtaga yaqin), CD tomondan G va H nuqtalar (G C nuqtaga yaqin) olingan. GC = DH = 2HG va AE = EF = 3FB tengliklar berilgan. EFGH to'rtburchakning parallelogramm yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{9}{20}$ B) $\frac{7}{20}$ C) $\frac{17}{35}$ D) $\frac{11}{35}$

19. (a4-g1-29) ABCD parallelogramm AB tomonidan E nuqta olingan. |AE| = |EB|, |EB| = |BC| = 10 va |EC| = 16 bo'lsa, ABCD parallelogramm yuzini toping.
A) 192 B) 96 C) 384 D) 144

20. (a4-g17-28) ABCD parallelogramning DE bissektrisasi AB tomonni teng ikkiga bo'ladi. DE = 5, DC = 13 bo'lsa, parallelogramm yuzini toping.
A) 30 B) 48 C) 60 D) 72

21. (a5-g2-28) ABCD parallelogramning AB tomonidan P va Q nuqtalar, DC tomonidan S va R nuqtalar olingan. 5PQ = 2AB va 3SR = 2CD. PQRS to'rtburchakning yuzi 20 ga teng bo'lsa, parallelogramning yuzini toping.
A) 30 B) 32,5 C) 48 D) 37,5

22. (a5-g7-28) ABCD parallelogramning D burchagi 105°. BE esa AD tomonga tushirilgan balandlik va AE = 2DE. Agar DC = 16 bo'lsa, parallelogramm yuzini toping.
A) 192 B) 108 C) 90 D) 96

23. (a5-g10-29) Rasmda PB AP ga perpendikulyar. DL = 2·LB. AL = 6, va PB = 4. Parallelogramning yuzini toping.



A) 48 B) 36 C) 72 D) 60

24. (a5-g12-24) ABCD parallelogram ng AB tomonidan F va g nuqtalar, BC tomonidan E nuqta olingan. $\frac{FG}{AB}=\frac{3}{5}$ va BE = 3CE. Agar EFG uchburchakning yuzi 18 bo'lsa, parallelogramning yuzini toping.
A) 64 B) 72 C) 96 D) 80

25. (a5-g24-23) ABCD parallelogramning BC tomonidan T nuqta olindi. ATD uchburchakning yuzi 64 ga teng bo'lsa, parallelogramning yuzini toping.
A) 96 B) 128 C) 192 D) 256

26. (a6-g3-23) ABCD parallelogramning DC tomonidan F va E nuqta olindi (FD ga yaqin), AB tomondan esa K nuqta olindi. 2FE = 3DF = 6EC. KFE uchburchak yuzining parallelogram yuziga nisbatini toping.
A) 0,5 B) 0,25 C) 0,(3) D) 0,(6)

27. (a6-g8-12) Doniyor o'lchamlari 8, 12 va 15 sm bo'lgan g'istlardan kub yasamoqchi. Eng kichik hajmdagi kub yasash uchun necha dona g'isht kerak bo'ladi?
A) 120 B) 1200
C) 600 D) 6000

28. (a6-g20-5) ABCD parallelogramning AB tomonidan N, CD tomonidan K nuqtalar olindi. AB = 1,25AN = 2,5KC. AK va DN chiziqlar O nuqtada kesishadi. AON uchburchak yuzining parallelogram yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{9}{56}$ B) $\frac{1}{7}$ C) $\frac{8}{35}$ D) $\frac{9}{28}$

29. (a6-g21-23) Parallelogramning tomonlari a va b ga teng ($a < b$). Parallelogramm o'tkir burchagining bissektrisasi undan yuzasi S ga teng uchburchak ajratadi. Parallelogramm yuzasini toping.
A) $\frac{2bS}{a}$ B) $\frac{2aS}{b}$
C) $\frac{2(b-a)S}{a}$ D) $\frac{2(b-a)S}{b}$

30. (a6-g23-21) ABCD parallelogramning AC diagonalidan K nuqta olindi. 3CK = AC bo'lsa, parallelogramm yuzi BKD uchburchak yuzidan necha marta katta?
A) 12 B) 6 C) 5 D) 10

134. Romb. Romb xossasi

1. (a1-g5-31) Rombning bir uchi aylana markazida, qolgan uchlari aylanada yotadi. Agar aylananing radiusi 12 sm bo'lsa, rombning balandligini toping.
A) 9 B) 12
C) $6\sqrt{3}$ D) $4\sqrt{3}$

2. (a1-g6-29) Rombning o'tmas burchagidan tushirilgan balandligi uni yuzalari mos ravishda 3,36 sm^2 va 20,64 sm^2 bo'lgan uchburchak va to'rtburchakka ajratadi. Balandlik 4,8 sm ga teng bo'lsa, rombning perimetrini toping.
A) 10 sm B) 20 dm
C) 0,4 m D) 0,2 m

3. (a1-g12-11) Tomoni 6 ga teng bo'lgan muntazam uchburchak tomoni $3\sqrt{2}$ ga teng bo'lgan rombga tengdosh. Rombning tomonlari orasidagi burchakni toping.
A) 45° B) 60° C) 90° D) 30°

4. (a1-g14-29) Tomoni 6 sm bo'lgan ABCD rombning A o'tkir burchagi 60°. Bu rombning CD tomonidan E nuqta, AB tomonidan F nuqtalar shunday tanlab olindiki, natijada |DE| = |FB| = 2sm bo'lib qoldi. EF kesma uzunligini toping.
A) $\sqrt{7}$ B) $2\sqrt{7}$
C) $3\sqrt{7}$ D) $4\sqrt{2}$

5. (a1-g17-28) Diagonallari uzunliklari yig'indisi 34 ga, perimetri 52 ga teng bo'lgan rombning balandligini toping.
A) $\frac{17}{2}$ B) $\frac{120}{13}$
C) 12 D) 5

6. (a3-g2-27) Tomoni 20 ga teng bo'lgan rombning yuzasi 240 ga teng. Uning kichik diagonalini toping.
A) $6\sqrt{5}$ B) $4\sqrt{10}$
C) $12\sqrt{10}$ D) 12

7. (a3-g6-27) Rombning balandligi 5 ga, diagonallari ko'paytmasi 90 ga teng. Uning perimetrini toping.
A) 16 B) 32 C) 28 D) 36

8. (a3-g9-28) Rombning diagonallari 24 va 10 ga teng. Uning balandligini toping.
A) $\frac{120}{13}$ B) $\frac{60}{13}$
C) $\frac{240}{13}$ D) $\frac{120}{17}$

9. (a3-g10-29) Perimetrlari teng bo'lgan romb va kvadratning yuzalari nisbati 1:2 ga teng. Romb katta diagonalining kvadrat diagonaliga nisbatini toping.
A) $\frac{\sqrt{3}-1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}+1}{2}$
C) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$ D) $\sqrt{3}$

10. (a3-g11-27) Rombning o'tmas burchagidan tushirilgan balandligi uni yuzalari mos ravishda 3,36 sm^2 va 20,64 sm^2 bo'lgan uchburchak va to'rtburchakka ajratadi. Balandlik 4,8 sm ga teng bo'lsa, rombning perimetrini toping.
A) 10 sm B) 20 dm
C) 0,4 m D) 0,2 m

11. (a3-g14-29) Rombning kichik diagonaliga parallel to'g'ri chiziq uning yuzini 3:4 nisbatda bo'ladi. Shu chiziq uning tomonini o'tkir burchak uchidan boshlab qanday nisbatda bo'ladi?
A) 36:1 B) $\sqrt{6}:(\sqrt{7}-\sqrt{6})$
C) $(\sqrt{3}-2):2$ D) $\sqrt{6}:\sqrt{7}$

12. (a3-g19-27) Tomoni 25 ga teng bo'lgan rombning bir diagonali 30 ga teng. Uning diagonallari kesishgan nuqtadan tomonigacha bo'lgan masofani toping
A) 12 B) 15 C) 10 D) 8

13. (a3-g20-30) Quyidagi mulohazalardan qaysilari noto'g'ri?
1) Rombning diagonallari 90° burchak ostida kesishadi.
2) Aylananing vatari uning radiusidan kichik bo'la olmaydi.
3) Ikki vektorning ayirmasi ular qarama-qarshi yo'nalganda eng kichik qiymatga erishadi.
4) Tekislikdagi kesishuvchi chiziqlarga perpendikulyar bo'lgan chiziq tekislikka ham perpendikulyar
5) Teng yonli trapetsiyaning katta asosi atrofida aylantirishdan kesik konus hosil bo'ladi.
A) 1; 3; 5 B) 2; 3, 4
C) 3, 4; 5 D) 2, 3; 5

14. (a4-g2-29) Rombning kichik diagonaliga parallel o'tkazilgan to'g'ri chiziq uning yuzini 5:2 nisbatda bo'ladi. Shu chiziq uning tomonini o'tmas burchak uchidan boshlab qanday nisbatda bo'ladi?
A) 25:4 B) $\sqrt{3}:(\sqrt{2}-1)$
C) $2:\sqrt{7}$ D) $(\sqrt{7}-2):2$

15. (a4-g4-28) Rombning tomoni $a + 1$ ga, diagonallaridan biri $2a$ ga teng bo'lsa, uning ikkinchi diagonalini toping.
A) $2\sqrt{2a+1}$ B) $2a+1$
C) $2\sqrt{a+1}$ D) $\sqrt{2a+1}$

16. (a4-g7-29) ABC uchburchakning AB tomonidan D, BC tomonidan E, AC tomonidan F nuqtalar shunday tanlab olindiki, natijada ADEF tomoni 5 ga teng romb hosil bo'ldi. Agar BD = 3 bo'lsa, FC kesma uzunligini toping.
A) 8,(3) B) 12,5
C) 8 D) 10

17. (a4-g7-36) Asosi rombdan iborat parallelepipedning katta diagonali kichik diagonalidan 2 marta katta. Agar rombning kichik diagonali parallelepiped balandligiga teng bo'lsa, rombning katta diagonalining kichik diagonaliga nisbatini toping.
A) $\sqrt{3}$ B) 2 C) $\sqrt{5}$ D) $\sqrt{7}$

18. (a4-g12-27) Tomoni 10 ga teng bo'lgan rombning ichidan olingan nuqtadan barcha tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi 16 ga teng. Rombning kichik diagonalini toping.
A) $4\sqrt{5}$ B) $5\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{10}$ D) 6

19. (a4-g25-27) Rombning balandligi 6 ga, diagonallari ko'paytmasi 84 ga teng. Uning perimetrini toping.
A) 14 B) 32 C) 28 D) 21

20. (a5-g8-29) Rombning ixtiyoriy nuqtasidan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi 18 ga teng. Rombning balandligini toping.
A) 18
B) 4,5
C) 9
D) aniqlab bo'lmaydi

21. (a5-g17-33) Tomoni 9 sm va yuzasi 72 sm^2 bo'lgan rombning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi necha sm ga teng?
A) 8 B) 16 C) 12 D) 24

22. (a6-g1-24) ABCD rombning A burchagi 66°. AD tomondan E nuqta shunday tanlab olindiki, natijada BE kesma AD tomonga teng bo'lib qolibdi. ECD burchakning qiymatini toping.
A) 18° B) 11° C) 9° D) 12°

23. (a6-g20-28) Rombning o'tmas burchagidan tushirilgan balandligi uni yuzalari mos ravishda 3,36 sm^2 va 20,64 sm^2 bo'lgan uchburchak va to'rtburchakka ajratadi. Balandlik 4,8 sm ga teng bo'lsa, rombning perimetrini toping.
A) 10 sm B) 20 dm
C) 0,2 m D) 0,4 m

135. Romb yuzi

1. (a2-g11-29) Perimetrlari teng bo'lgan romb va kvadratning yuzalari nisbati 1:2 ga teng. Romb kichik diagonalining kvadrat diagonaliga nisbatini toping.

A) $\frac{\sqrt{3}-1}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}+1}{2}$

C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{3}$

2. (a2-g13-24) Rombning o'tkir burchagi 45°, balandligi $\sqrt{8}$ ga teng bo'lsa, rombning yuzini toping.
A) 4 B) 5
C) $4\sqrt{8}$ D) $10\sqrt{2}$

3. (a2-g19-29) Rombning perimetri 104 ga, diagonallarining yig'indisi 68 ga teng. Rombning yuzini toping.
A) 480 B) 360 C) 120 D) 540

4. (a3-g8-28) Rombning uchidan tushirilgan balandligi uning tomonini o'tkir burchagi uchidan boshlab hisoblaganda 6 va 4 ga teng kesmalarga bo'ladi. Rombning yuzini toping.
A) 20 B) 40 C) 48 D) 80

5. (a5-g19-24) Diagonallaridan biri ikkinchisidan uch marta katta bo'lgan rombning tomoni 20 ga teng. Shu rombning yuzini toping
A) 120 B) 240 C) 400 D) 320

6. (a6-g5-23) ABCD – tomoni 14 ga teng bo'lgan romb. Shu rombning A o'tmas burchagidan AH balandlik tushirilgan va CH = 6 bo'lsa, AH balandlik va AC diagonal orasidagi burchak tangensini toping.

A) $\frac{2\sqrt{33}}{11}$ B) $\frac{\sqrt{33}}{11}$

C) $\frac{3}{7}$ D) $\frac{4}{\sqrt{33}}$

7. (a6-g7-23) ABCD rombning diagonallari O nuqtada kesishadi. O nuqtadan BC tomonga AB ga parallel OK kesma o'tkazildi. Agar COK uchburchakning yuzi S bo'lsa, rombning yuzini toping.
A) 4S B) 8S C) 12S D) 16S

8. (a6-g7-26)



Rasmdagi eng kichik aylananing radiusi *r* ga bo'lsa, to'g'ri to'rtburchak yuzini toping.
A) $24r^2$
B) B) $4\left(4\sqrt{2}+2\right)r^2$
C) C) $4\left(2\sqrt{2}+3\right)r^2$
D) $12r^2$

136. Qavariq ko'pburchak

1. (a1-g1-14) Bir uchidan 9 ta diagonal chiqadigan qavariq ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisi nechaga teng?
A) 1980° B) 1620°
C) 1800° D) 2160°

2. (a1-g4-26) Quyidagi shaklda AE ⊥ ED, AD ⊥ DC va AB ⊥ BC. |BC| = |CD| = |DE| = 2 va |AB| = 3 bo'lsa, AE tomon uzunligini toping.



A) $\sqrt{5}$ B) $\sqrt{7}$
C) 3 D) $2\sqrt{3}$

3. (a1-g5-26)



Rasmda berilganlardan foydalanib eng uzun kesmani toping.
A) BD B) BC C) DC D) AB

4. (a1-g8-28) Ketma-ket uchlari ABCDE bo'lgan muntazam ko'pburchakning AB va DE tomonlarini davom ettirganda 108° burchak ostida kesishadi. Ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 18 B) 15 C) 12 D) 10

5. (a1-g11-28) Muntazam o'n ikki burchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 70° B) 45° C) 30° D) 60°

6. (a1-g13-29) *n* tomonli va *a* tomonli ko'pburchaklar diagonallari sonining nisbatini toping.

A) $\frac{n-3}{a-3}$ B) $\frac{n}{a}$

C) $\frac{n^2-3n}{a(a-4a)+a}$ D) $\frac{3n-n^2}{a(a-3)}$

7. (a1-g14-27) Ko'pburchakning ichki burchaklarining yig'indisi tashqi burchaklari yig'indisidan 3 marta katta bo'lsa, bu ko'pburchakning nechta tomoni bor?
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9

8. (a1-g17-27) Tashqi burchagi 40°ga teng bo'lgan muntazam ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 1260° B) 900°
C) 1080° D) 720°

9. (a2-g1-27) Tomonlari soni diagonallari sonidan 3 marta ko'p bo'lgan ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 9 B) 11 C) 8 D) 7

10. (a2-g2-28) Oltiburchakning eng katta diagonalining eng kichik diagonaliga nisbatini toping.

A) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$ B) $\sqrt{3}$

C) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$ D) $\sqrt{2}$

11. (a2-g3-36) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Uchburchakning ixtiyoriy 2 ta tomoni yig'indisi uning uchinchi tomonidan katta
B) Qavariq to'rtburchakning har bir uchidan bittadan olingan tashqi burchaklari yug'indisi 360° ga teng.
C) Paralellogramning tomonlari kvadratlarining yig'indisi uning diagonallari kvadratlari yig'indisidan 2 marta katta
D) Kubga ichki chizilgan sharning diametri uning tomoniga teng.

12. (a2-g4-28) Ichki burchaklari yig'indisi 2160° ga teng bo'lgan ko'pburchakning bir uchidan nechta diagonal chiqarish mumkin?
A) 14 B) 12 C) 11 D) 10

13. (a2-g5-27) Muntazam o'nburchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 63° B) 54° C) 36° D) 48°

14. (a2-g8-30) Muntazam 30 burchakning diagonallari sonining bir uchidan chiqqan diagonallar soniga nisbatini toping?
A) 27 B) 30 C) 15 D) 24

15. (a2-g9-28) Muntazam o'n ikki burchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 70° B) 45° C) 30° D) 60°

16. (a2-g11-28) Muntazam ko'pburchakning ichki burchagi tashqi burchagidan 5 marta katta. Bu ko'pburchak eng ko'p nechta diagonalga ega bo'lishi mumkin?
A) 54 B) 20 C) 35 D) 90

17. (a2-g15-28) Ichki burchagi tashqi burchagidan 8 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 90 B) 135 C) 170 D) 189

18. (a2-g16-27) Muntazam 18 burchakning bir uchidan chiqqan eng kichik diagonallar orasidagi burchak necha gradus?
A) 160° B) 75° C) 140° D) 150°

19. (a2-g16-29) Quyidagi mulohazalardan qaysilari noto'g'ri?
1) Uchburchakning ikki tashqi burchagi yig'indisi uchinchi ichki burchakka teng;
2) Paralellogramning bissektrisalari har doim to'g'ri burchak ostida kesishadi;
3) Aylananing vatari uzunligi uning radiusidan doimo kichik bo'ladi;
4) Rombning tomoni diagonallaridan doimo kichik bo'ladi; 5) Silindrning yoyilmasi to'g'ri to'rtburchak bo'ladi.
A) 2; 3; 4 B) 1; 3; 4
C) 1; 2; 4 D) 2; 3; 5

20. (a2-g17-28) Tomonlari 3:4 nisbatda bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydoni 48 sotix. Katta tomonga parallel qilib 0,5 m oraliqlar bilan ariqlar qazib chiqildi. Yer maydoni chekkalariga ariq qazilmagan bo'lsa, ariqlarning umumiy uzunligini toping.
A) 9600 m B) 9520 m
C) 9440 D) 9680 m

21. (a2-g19-27) Muntazam ko'pburchakning diagonallari soni 54 ta bo'lsa, bu ko'pburchakning bir ichki burchagi necha gradus?
A) 140° B) 150°
C) 144° D) 135°

22. (a2-g20-27) Ichki burchagi 160° bo'lgan muntazam ko'pburchakning bir uchidan nechta diagonal o'tkazish mumkin?
A) 15 B) 19 C) 18 D) 16

23. (a2-g22-27) Muntazam oltiburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'inidisi $9\sqrt{3}$ ga teng. Shu oltiburchakning eng katta diagonali uzunligini toping.
A) $6\sqrt{3}$ B) 6
C) 3 D) $3\sqrt{3}$

24. (a2-g23-27) Ichki burchaklari yig'indisi 1800° bo'lgan muntazam ko'pburchakning har bir tashqi burchagi necha gradus?
A) 36° B) 45° C) 24° D) 30°

25. (a2-g23-30) Qavariq ko'pburchakning yuzi 96 ga teng. Agar bu ko'pburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 6 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning perimetrini toping.
A) 32 B) 16 C) 24 D) 18

26. (a3-g1-27) ABCDEF muntazam oltiburchakning FB diagonali 6 ga teng. Shu oltiburchakning yuzasini toping.
A) 24 B) $18\sqrt{3}$
C) 36 D) $24\sqrt{3}$

27. (a3-g2-29) Muntazam o'nburchakning ichki burchaklari yig'indisining tashqi burchaklar yig'indisiga nisbatini toping.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 10

28. (a3-g3-30) Muntazam 30 burchakning nechta diagonali bor?
A) 810 B) 135 C) 405 D) 202

29. (a3-g4-27) Ichki burchagi tashqi burchagidan 6,5 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 54 B) 135 C) 90 D) 170

30. (a3-g4-35) Muntazam beshburchakli piramidaning yon sirti asos yuzasidan 2 marta katta. Piramida apofemasi 18 ga teng bo'lsa, balandligini toping.
A) $9\sqrt{3}$ B) 9
C) $6\sqrt{3}$ D) 12

31. (a3-g6-29) Muntazam o'ttizburchakning bir ichki burchagining bir tashqi burchagiga nisbatini toping.
A) 14:1 B) 15:1 C) 16:1 D) 12:1

32. (a3-g7-27) Muntazam ko'pburchakning bir ichki burchagi tashqi burchagidan 3,5 marta katta. Ko'pburchakning nechta tomoni bor?
A) 7 B) 8 C) 12 D) 9

33. (a3-g8-29) Ichki burchagi 144° va tomonining uzunligi 8 ga teng muntazam ko'pburchakning perimetri nechaga teng?
A) 72 B) 80 C) 48 D) 64

34. (a3-g9-27) Ko'pburchakning bir uchidan chiqqan diagonallar uni 16 ta uchburchakka ajratadi.
Bu ko'pburchakning nechta tomoni bor?
A) 19 B) 20 C) 17 D) 18

35. (a3-g10-28) Muntazam ko'pburchakning ichki burchagi tashqi burchagidan 4 marta katta. Bu ko'pburchak eng ko'p nechta diagonalga ega bo'lishi mumkin?
A) 54 B) 20 C) 35 D) 90

36. (a3-g11-29) Quyidagi keltirilgan mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Muntazam oltiburchakning tashqi burchagi ichki burchagining yarmiga teng.
B) Muntazam beshburchak ichki burchagining tashqi burchagiga nisbati 3:2.
C) Muntazam sakkizburchakning tashqi burchagi ichki burchagining uchdan biriga teng.
D) Muntazam o'nburchakning ichki burchagi tashqi burchagidan 5 marta katta.

37. (a3-g12-28) Ichki burchagi tashqi burchagidan 6,5 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 54 B) 135 C) 90 D) 170

38. (a3-g13-28) Muntazam ko'pburchakning bir tashqi burchagi 22,5° ga teng. Bu ko'pburchakda eng ko'pi bilan nechta diagonal o'tkazish mumkin?
A) 104 B) 20 C) 91 D) 65

39. (a3-g14-27) Muntazam 40 burchakning ichki burchagi necha gradus?
A) 162 B) 140 C) 175 D) 171

40. (a3-g15-29) Qavariq o'n oltiburchakning nechta diagonali bor?
A) 104 B) 96 C) 112 D) 120

41. (a3-g16-27) Har bir tashqi burchagi 36° bo'lgan muntazam ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 1800° B) 1440°
C) 2160° D) 1620°

42. (a3-g17-27) Tashqi burchagi 36° bo'lgan muntazam ko'pburchakning diagonallar soni tomonlari sonidan necha marta katta?
A) 7 B) 10 C) 3,5 D) 5

43. (a3-g18-27) 12 burchakning ichki burchaklari yig'indisining tashqi burchaklari yig'indisiga nisbatini toping.
A) 6 B) 5 C) 4 D) 8

44. (a3-g23-27) Ko'pburchakning diagonallari 54 ta bo'lsa, tomonlari sonini toping.
A) 9 B) 12 C) 10 D) 6

45. (a3-g24-27) Muntazam oltiburchakning eng katta diagonali 12 ga teng. Oltiburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisini toping.
A) 12 B) $6\sqrt{3}$
C) $18\sqrt{3}$ D) 6

46. (a4-g2-27) Muntazam 45 burchakning ichki burchagi necha gradus?
A) 172 B) 164 C) 135 D) 176

47. (a4-g3-27)



Yondagi chizmada muntazam yigirma burchak tasvirlangan. Bu yerda FEK burchak 8°. CPE burchakni toping.
A) 126 B) 134 C) 162 D) 140

48. (a4-g5-27) Ichki burchagi 135° va tomonining uzunligi 6 ga teng muntazam ko'pburchakning perimetri nechaga teng?
A) 36 B) 60 C) 48 D) 32

49. (a4-g6-27) Ichki burchagi tashqi burchagidan 7 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning diagonallari soni tomonlari sonidan necha marta ko'p?
A) 6,5 B) 3,5 C) 4 D) 16

50. (a4-g9-27) Muntazam ABCDE beshburchakning BE va AC diagonallari orasidagi o'tkir burchak necha gradus?
A) 36 B) 48 C) 56 D) 72

51. (a4-g10-27) Muntazam ko'pburchak tashqi burchaklarining har biri 30% kichraytirilsa, boshqa bir muntazam ko'pburchak hosil bo'ladi. Dastlabki ko'pburchak tomonlari sonining eng kichik qiymatini toping.
A) 10 B) 7 C) 12 D) 15

52. (a4-g15-27) Ko'pburchakning bir uchidan chiqqan diagonallar yordamida ko'pburchak 10 ta uchburchakka bo'lindi. Bu ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 1620° B) 2160°
C) 1980° D) 1800°

53. (a4-g16-27) ABCDE ... muntazam ko'pburchakda BDE burchak 135° bo'lsa, bu ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 12 B) 8 C) 18 D) 10

54. (a4-g20-27) Ichki burchagi 160° bo'lgan muntazam ko'pburchakning bir uchidan nechta diagonal o'tkazish mumkin?
A) 22 B) 16 C) 18 D) 15

55. (a4-g20-28)



Ushbu ABCDE beshburchakda A, B, E burchaklar to'g'ri burchak. $\angle C = 45°$, $|AE| = 2$ sm, $|AB| = 10$ sm va $|BC| = 6$ sm bo'lsa, beshburchakning perimetrini toping.
A) $24+4\sqrt{2}$ B) $28+4\sqrt{2}$
C) $30+2\sqrt{2}$ D) $4\sqrt{2}+32$

56. (a4-g22-29) Ichki burchaklari yig'indisi tashqi burchaklari yig'indisidan 5 marta ko'p bo'lgan ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 54 B) 35 C) 20 D) 77

57. (a4-g23-27) Ichki burchagi tashqi burchagidan 140° ga katta bo'lgan ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 27 B) 54 C) 90 D) 135

58. (a4-g25-29) Ichki burchagi 144° bo'lgan muntazam ko'pburchakning bir uchidan nechta diagonal chiqarish mumkin?
A) 27 B) 7 C) 10 D) 35

59. (a5-g3-27) 18 burchak va 24 burchaklarning diagonallari soni nisbatini toping.
A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{5}{7}$
C) $\frac{16}{21}$ D) $\frac{15}{28}$

60. (a5-g4-27) Muntazam 18 burchakning ichki va tashqi burchaklari ayirmasini toping.
A) 140° B) 160°
C) 180° D) 150°

61. (a5-g6-33) ABCD qavariq to'rtburchak bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?
A) $\overrightarrow{AB}+\overrightarrow{BC}=\overrightarrow{AD}+\overrightarrow{DC}$
B) $\overrightarrow{DA}+\overrightarrow{AB}=\overrightarrow{DC}+\overrightarrow{BC}$
C) $\overrightarrow{AB}+\overrightarrow{BC}+\overrightarrow{CA}=0$
D) $\overrightarrow{DB}+\overrightarrow{BC}=\overrightarrow{DC}$

62. (a5-g9-29) Muntazam o'nikkiburchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik ikki diagonali orasidagi burchakni toping.
A) 60° B) 45°
C) 67,5° D) 50°

63. (a5-g12-21) ABC muntazam uchburchak. AB tomondan D, BC tomondan E nuqta va AC tomondan F nuqta shunday tanlab olindiki, natijada DE, EF ga perpendikulyar bo'ladi. BDE va EFC burchaklar yig'indisini toping.
A) 150° B) 120°
C) 90° D) 135°

64. (a5-g13-23) ABCDE... muntazam ko'pburchakda BDE burchak 135° bo'lsa, bu ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 12 B) 8 C) 18 D) 10

65. (a5-g19-23) Bir ichki burchagi tashqi burchagidan 5 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning diagonallari sonini toping.
A) 35 B) 44 C) 54 D) 77

66. (a5-g25-23) ABCD... muntazam 24 burchakning AB va DC kesmalarini davom ettirganda A_1 nuqtada kesishadi. CA_1B burchak kattaligini toping.
A) 90° B) 30°
C) 120° D) 150°

67. (a6-g1-23) Muntazam 15 burchakning bir uchidan chiqqan ikki eng kichik diagonallar orasidagi burchakni toping.
A) 156° B) 144° C) 132° D) 168°

68. (a6-g10-24) Muntazam ko'pburchakning bir uchidan barcha qirralariga o'tkazilgan diagonallarning orasidagi har bir burchak 6° dan. Shu ko'pburchakning bir uchidagi tashqi burchagini toping.
A) 15° B) 9° C) 20° D) 12°

69. (a6-g23-30) ABCDE... muntazam ko'pburchakda ACD burchak 144° bo'lsa, bu ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 10 B) 16 C) 18 D) 15

137. Qavariq ko'pburchak xossalari

1. (a1-g2-31) Muntazam ko'pburchakning bir ichki burchagi bir tashqi burchagidan 5 marta katta. Bu ko'pburchakning diagonallari soni tomonlari sonidan necha marta ko'p?
A) 6 B) 4,5 C) 5 D) 2,5

2. (a1-g4-29) ABCD qavariq to'rtburchakda $|AB| = |AD| = 3\sqrt{2}$, $|BC| = |CD| = 5$, $AB \perp AD$ bo'lsa, ABCD to'rtburchakning yuzasini toping.
A) 27 B) 30 C) 21 D) 24

3. (a1-g6-28) Quyida keltirilgan mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Muntazam oltiburchakning tashqi burchagi ichki burchagining yarmiga teng.
B) Muntazam beshburchak ichki burchagining tashqi burchagiga nisbati 3:2.
C) Muntazam sakkizburchakning tashqi burchagi ichki burchagining uchdan biriga teng.
D) Muntazam o'nburchakning ichki burchagi tashqi burchagidan 5 marta katta.

4. (a1-g7-27) Har bir tashqi burchagi 60° ga teng bo'lgan qavariq ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 360° B) 720° C) 648° D) 540°

5. (a1-g10-30) Diagonallari soni 90 ta bo'lgan muntazam ko'pburchakning bitta tashqi burchagini toping.
A) 24° B) 20° C) 28° D) 48°

6. (a2-g6-27) Muntazam oltiburchakning tomoni $6\sqrt{6}$ ga teng.

Yuzasi shu oltiburchak yuzasining uchdan biriga teng bo'lgan teng tomonli uchburchakning tomoni nechaga teng?
A) $18\sqrt{2}$ B) $12\sqrt{3}$
C) 36 D) $24\sqrt{2}$

7. (a2-g10-30) Ichki burchaklari yig'indisi 1440° bo'lgan qavariq ko'pburchakning diagonallari sonini toping.
A) 35 B) 54 C) 20 D) 44

8. (a3-g5-27) Muntazam sakkizburchakning eng katta diagonali 8 ga teng. Shu sakkizburchakning yuzini toping.
A) $48\sqrt{2}$ B) $64\sqrt{2}$
C) $128\sqrt{2}$ D) $32\sqrt{2}$

9. (a3-g19-29) Muntazam o'nikkiburchakning ichki burchaklari yig'indisining bitta tashqi burchagiga nisbatini toping.
A) 80:1 B) 100:1
C) 60:1 D) 75:2

10. (a3-g20-27) Ko'pburchakning bir uchidan chiqqan diagonallar ko'pburchakni 12 ta uchburchakka ajratadi. Bu ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 2340° B) 1980°
C) 2160° D) 2520°

11. (a3-g21-27) Muntazam 18 burchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 80° B) 20° C) 70° D) 65°

12. (a3-g21-28) Qavariq to'rtburchakning ikki tashqi burchagi yig'indisi 255° ga teng. Shu to'rtburchakning boshqa ikki ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 105° B) 255° C) 75° D) 135°

13. (a3-g22-27) Ichki burchagi 160° bo'lgan ko'pburchakning bir uchidan eng ko'pi bilan nechta diagonal chiqarish mumkin?
A) 15 B) 18 C) 21 D) 24

14. (a4-g4-27) Qavariq beshburchakning bir tomoniga yopishgan ikki burchagi bissektrisalari orasidagi burchak 40° ga teng. Beshburchakning qolgan uchta burchagi yig'indisini toping.
A) 280° B) 260° C) 460° D) 500°

15. (a4-g7-27) Qavariq yettiburchakning burchaklari arifmetik progressiyaning ketma-ket hadlarini tashkil etadi. Shu yettiburchakning o'rtancha burchagi kattaligini toping.
A) $\frac{900^\circ}{7}$ B) $\frac{1080^\circ}{7}$
C) 130° D) 150°

16. (a4-g8-28) Ichki burchagi tashqi burchagidan 7 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 90 B) 135 C) 104 D) 20

17. (a4-g12-29) Ichki burchagi tashqi burchagidan 9 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta tomoni bor?
A) 18 B) 20 C) 10 D) 15

18. (a4-g17-27) Muntazam ko'pburchakning bir ichki burchagi 4 ta tashqi burchaklari yig'indisiga teng. Bu ko'pburchakning diagonallari soni nechta?
A) 35 B) 20 C) 9 D) 54

19. (a4-g17-31) ABCD qavariq to'rtburchakning A burchagi to'g'ri, AB = 6, BC = 24, AD = 8 bo'lsa, bu to'rtburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.
A) 4 B) 5 C) 4,5 D) 3

20. (a4-g19-27) Muntazam oltiburchakning ichki burchagi muntazam sakkizburchakning tashqi burchagidan qanchaga ortiq?
A) 60° B) 15° C) 75° D) 30°

21. (a4-g21-27) ABCDE... muntazam ko'pburchakda BDE burchak 126° bo'lsa, bu ko'pburchakning nechta tomoni mavjud?
A) 10 B) 8 C) 18 D) 12

22. (a4-g23-31) Sakkizburchakka ichki chizilgan aylana radiusining unga tashqi chizilgan aylana radiusiga nisbatini toping.
A) cos22,5° B) sin22,5°
C) tg22,5° D) ctg22,5°

23. (a4-g24-27) Diagonallari soni tomonlari sonidan 3 marta ortiq bo'lgan qavariq ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 1260° B) 1080°
C) 1440° D) 900°

24. (a5-g1-27) Ichki burchagi tashqi burchagidan 11 marta katta bo'lgan muntazam ko'pburchakning bir uchidan eng ko'p nechta diagonal chiqarish mumkin?
A) 9 B) 10 C) 12 D) 8

25. (a5-g2-27) Ko'pburchakning bir uchidan chiqarilgan diagonallar uni 12 ta uchburchakka ajratadi. Ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 1980° B) 1800°
C) 2340° D) 2160°

26. (a5-g5-27) Muntazam o'n ikki burchakning tomoni 8 ga teng bo'lsa, eng katta diagonali quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) $\frac{8}{\cos 15^\circ}$ B) $\frac{16}{\cos 15^\circ}$
C) $\frac{8}{\sin 15^\circ}$ D) $\frac{16}{\sin 15^\circ}$

27. (a5-g6-27) Ko'pburchakning bir uchidan 12 ta diagonal chiqarish mumkin bo'lsa, bu ko'pburchak ichki burchaklari yig'indisini toping.
A) 2160° B) 2340°
C) 2700° D) 2520°

28. (a5-g7-27) Diagonallari soni tomonlari sonidan 42 taga ortiq ko'pburchakning ichki burchaklari yig'indisi nechaga teng?
A) 2160° B) 1980°
C) 1800° D) 1620°

29. (a5-g8-27) Muntazam o'nsakkizburchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 20° B) 55° C) 60° D) 70°

30. (a5-g8-31) Muntazam o'nikkiburchakka tashqi chizilgan doira yuzining unga ichki chizilgan doira yuziga nisbatini toping.
A) tg15° B) $\frac{1}{\sin^2 15^\circ}$
C) $\sin^2 15^\circ$ D) $\frac{1}{\cos^2 15^\circ}$

31. (a5-g12-22) ABC muntazam uchburchakning AD va CE balandliklari K nuqtada kesishadi. Agar $AK = 4\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, BDKE to'rtburchak yuzini toping.
A) $7,5\sqrt{3}$ B) $7,2\sqrt{3}$
C) $12\sqrt{3}$ D) $15\sqrt{3}$

32. (a5-g12-23) Muntazam to'qqizburchakning bir uchidan chiqqan ikki eng kichik diagonallar orasidagi burchakni toping.
A) 140° B) 100°
C) 28° D) 44°

33. (a5-g14-23) Muntazam ko'pburchakning bir uchidan chiqqan eng katta va eng kichik diagonallari orasidagi burchak 70° ga teng. Shu ko'pburchakning nechta tomoni bor?
A) 10 B) 18 C) 12 D) 8

34. (a6-g4-23) Muntazam sakkizburchakning eng katta diagonali 24 ga teng. Shu sakkizburchakning yuzini toping.
A) $144\sqrt{2}$ B) $576\sqrt{2}$
C) $288\sqrt{2}$ D) $\frac{4\cos^2 3}{3}$

35. (a6-g16-1) ABCDEF muntazam oltiburchakning FB diagonali 12 ga teng. Shu oltiburchakning yuzasini toping.
A) $72\sqrt{3}$ B) 144
C) 108 D) $216\sqrt{3}$

138. Trapetsiya va uning xossalari

1. (a1-g3-29) ABCD trapetsiyaning AB va CD asoslari mos ravishda 15 va [illegible] bissektrisasi BC yon tomoniga perpendikulyar bo'lsa, AD yon tomon uzunligini toping.
A) 10 B) 13 C) 11 D) 8

2. (a1-g4-30) ABCD trapesiyaning A va B o'tkir burchaklari yig'indisi 160° ga teng. C va D burchaklarining bissektrisalari E nuqtada kesishsa, CED burchakning kattaligini toping.
A) 70° B) 80° C) 100° D) 50°

3. (a1-g13-27) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni 5 ga, balandligi 4 ga va katta asosi 9 ga teng. Uning o'rta chizig'ini toping.
A) 6 B) 8 C) 5 D) 4

4. (a1-g16-31) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni $4\sqrt{2}$ ga, kichik asosi 4 ga teng. Uning diagonali yon tomoni va katta asosi bilan mos ravishda 30^0 va α burchak tashkil qiladi. α burchakni aniqlang.
A) 60^0 B) 30^0 C) 90^0 D) 45^0

5. (a2-g13-22) Teng yonli trapetsiyaning diagonali uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'ladi. Agar trapetsiyaning perimetri 48 ga, katta asosi 18 ga teng bo'lsa, uning o'rta chizig'ini toping.
A) 16 B) 14 C) 10 D) 12

6. (a2-g14-33) Kichik asosi k ga teng bo'lgan teng yonli trapetsiyaga radiusi q ga teng bo'lgan aylana ichki chizilgan. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) $\frac{4q^2+k^2}{k}$ B) $\frac{4q^3+k}{k^2}\cdot q$
C) $\frac{4q^3}{k}+kq$ D) $\frac{4q^2}{k^2}+q^2$

7. (a2-g20-28) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyaning A va B burchaklari to'g'ri. B uchidan DC tomonga BH perpendikulyar chiqarilgan. Trapetsiyaning DC va BC tomonlari uzunliklari teng. Agar AD = 1 va AB = 5 sm bo'lsa, BH kesma uzunligini toping.
A) 5 B) 7 C) 12 D) 1

8. (a2-g21-28) Balandligi 6 ga va yuzi 39 ga teng bo'lgan trapetsiyaning asoslari ayirmasi 5 ga teng. Trapetsiya kichik asosi uzunligini toping.
A) 4 B) 7 C) 9 D) 13

9. (a3-g4-28) Trapetsiyaning o'rta chizig'idan diagonallar ajratgan kesmaning uzunligi 4 ga teng. O'rta chiziqning uzunligi esa 10 ga teng. Trapetsiyaning katta asosi uzunligini toping.
A) 14 B) 7 C) 12 D) 6

10. (a3-g8-27) Trapetsiya o'rta chizig'i uzunligi 12 ga, katta asosidagi burchaklari 30° va 60° ga teng. Trapetsiya asoslari o'rtalarini tutashtiruvchi kesmaning uzunligi 4 ga teng. Trapetsiyaning katta asosi uzunligini toping.
A) 14 B) 13 C) 12 D) 16

11. (a3-g9-34) Quyidagi mulohazalardan qaysilari doimo to'g'ri?
1) Trapetsiyaning diagonallari 90° burchak ostida kesishadi; 2) Aylanaga ichki chizilgan trapetsiya teng yonli bo'lishi shart; 3) Ikki vektor ayirmasining moduli shu vektorlar modullari ayirmasidan kichik bo'ladi; 4) Tekislikda yotuvchi chiziq og'maga perpendikulyar bo'lsa, shu chiziq og'maning proyeksiyasiga ham perpendikulyar; 5) To'g'ri burchakli trapetsiyani to'g'ri burchakli tomoni atrofida aylantirishdan kesik konus hosil bo'ladi.
A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5
C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 5

12. (a3-g15-28) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 30 va 50 ga, balandligi esa 30 ga teng. Trapetsiyaning diagonalini toping.
A) 56 B) 70 C) 60 D) 50

13. (a3-g18-28) Asoslari 4 va 18 ga, yon tomonlari 13 va 15 ga teng bo'lgan trapetsiyaning balandligi nechaga teng?
A) 5 B) 9 C) 12 D) 8

14. (a3-g19-28) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni diagonaliga perpendikulyar. Trapetsiya uchidan katta asosga tushirilgan balandligi asosni 16 va 4 ga teng kesmalarga ajratsa, trapetsiya balandligini toping.
A) 12 B) 8 C) 10 D) 9

15. (a3-g23-28) Balandligi 6 sm, yuzasi 96 sm^2 bo'lgan trapetsiyaning asoslari orasidagi farq 4 sm bo'lsa, trapetsiyaning katta asosi necha sm?
A) 20 B) 18 C) 12 D) 10

16. (a4-g1-28) ABCD teng yonli trapetsiyada DC kichik asos, AB katta asos. Katta asos kichik asosdan 6 ga ko'p. |AD| = 6 bo'lsa, ADC burchak kattaligini toping.
A) 60° B) 160° C) 150° D) 120°

17. (a4-g2-28) Asoslari 9 va 15 bo'lgan trapetsiyaning yuzi 72 ga teng. Shu trapetsiyaning 150° li burchagiga yopishgan yon tomoni uzunligini toping.
A) A) $4\sqrt{3}$ B) 6
C) C) $2\sqrt{3}$ D) 12

18. (a4-g3-31) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiya. A va D to'g'ri burchak. AB = 12, AD = 4 va $|BC| = 4\sqrt{2}$ ga teng. BCD burchakning qiymati necha gradus?
A) 135 B) 90 C) 120 D) 45

19. (a4-g4-29) AECD trapetsiyaning AE katta asosidan B nuqta olib, ABCD parallelogramm va BEC muntazam uchburchak hosil qilindi. DE diagonal BC tomonni F nuqtada teng ikkiga bo'ladi. Agar BE = 4 bo'lsa, ABFD to'rtburchakning yuzini toping.
A) $8\sqrt{3}$ B) $6\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{3}$

20. (a4-g5-28) Balandligi 6 ga va yuzi 39 ga teng bo'lgan trapetsiyaning asoslari ayirmasi 5 ga teng. Trapetsiya kichik asosi uzunligini toping.
A) 4 B) 7 C) 9 D) 13

21. (a4-g11-34) Balandligi 6 sm, yuzasi 96 sm^2 bo'lgan trapesiyaning asoslari orasidagi farq 4 sm bo'lsa, trapesiyaning katta asosi necha sm?
A) 20 B) 18 C) 16 D) 14

22. (a4-g16-28) Teng yonli trapetsiyaning diagonallari o'zaro perpendikulyar va har biri 12 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning balandligi necha sm?
A) $12\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{3}$
C) 12 D) $6\sqrt{2}$

23. (a4-g20-29) ABCE trapetsiyaning AE katta asosdan D nuqta olindi, natijada ABCD romb va DEC muntazam uchburchak hosil bo'ldi. Agar AC kesma uzunligi $7\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, ABCE trapetsiyaning perimetrini toping.
A) $21+14\sqrt{3}$ B) $35\sqrt{3}$
C) 42 D) 35

24. (a4-g21-28) Teng yonli trapetsiyaning diagonallari o'zaro perpendikulyar va har biri 16 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning balandligi necha sm?
A) $16\sqrt{2}$ B) $8\sqrt{3}$
C) 16 D) $8\sqrt{2}$

25. (a4-g23-28) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiya va BCDE to'g'ri to'rtburchak. AD = 5 va BC = 4. Agar ADE uchburchak va BCDE to'rtburchak perimetrlari teng bo'lsa, DC tomon uzunligini toping.
A) 2 B) 2,5 C) 3 D) 1,5

26. (a4-g23-29) Diagonallari bir-biriga perpendikulyar bo'lgan teng yonli trapetsiyaning yuzasi 100 ga teng. Shu tarpetsiyaning balandligini toping.
A) 12 B) 10 C) 8 D) 15

27. (a5-g1-29) ABCD trapetsiyaning AB katta asosi 45 ga teng. Asoslariga parallel EF kesma 36 ga teng va $\frac{DE}{DA}=\frac{2}{3}$ bo'lsa, CD kichik asos uzunligini toping.
A) 18 B) 22,5 C) 12 D) 30

28. (a5-g9-27) Teng yonli trapetsiyaning diagonali $12\sqrt{3}$ ga teng va u asosi bilan 30°li burchak tashkil etadi. Trapetsiyaning o'rta chizig'i nechaga teng ?
A) 18 B) 24 C) 6 D) 12

29. (a5-g10-27) Qavariq beshburchakning bir tomoniga yopishgan ikki burchaklari bissektrisalari orasidagi burchak 48° ga teng. Qolgan uchta ichki burchaklar yig'indisini toping.
A) 276° B) 26[illegible]
C) 396° D) 288°

30. (a5-g16-24) Teng yonli ABCD trapetsiyaning katta asosi AB dan E nuqta shunday tanlab olindiki, DEC burchak trapetsiya asosidagi burchakka teng bo'lib qoldi. DE = 6, EC = 4 bo'lsa, BE kesma uzunligini AE kesma uzunligiga nisbatini toping.

A) $\frac{8}{27}$ B) $\frac{2}{3}$ C) $\frac{4}{9}$ D) $\frac{1}{3}$

31. (a5-g18-24) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni 9 ga teng. 15 ga teng diagonali esa katta asosdagi burchakning bissektrisasi bo'lsa, shu burchakning kosinusini toping.

A) $\frac{7}{18}$ B) $\frac{5}{6}$

C) $\frac{10\sqrt{11}}{36}$ D) $\frac{\sqrt{11}}{6}$

32. (a5-g19-26) ABCD trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. ABCE esa (E nuqta CD tomon davomida) parallelogramm. Agar AB katta asos 13 ga va DE = 4 bo'lsa, trapetsiyaning perimetrini toping.

A) 34 B) 36 C) 44 D) 66

33. (a5-g20-24) ABCD teng yonli trapetsiyaning katta asosi AB = 11 sm, kichik asosi va yon tomonlari 5 sm dan. D uchidan DH balandlik tushirilgan va BC yon tomon o'rtasidan E nuqta olingan. DHE uchburchak yuzasi necha sm^2?

A) 19,5 B) 7,5 C) 13 D) 15

34. (a5-g22-23) ABCD trapetsiyaning A katta asosidagi burchak bissektrisasi BC yon tomonga perpendikulyar va BC tomonni C uchidan boshlab 2:5 nisbatda bo'ladi. Trapetsiya kichik asosi uzunligining katta asosi uzunligiga nisbatini toping.

A) aniqlab bo'lmaydi
B) 3:7
C) 3:10
D) 4:25

35. (a5-g23-23) Trapetsiyaning diagonallari o'zaro perpendikulyar, ularning har biri 24 ga teng. Trapetsiya balandligini toping.

A) $8\sqrt{3}$ B) 24

C) $12\sqrt{2}$ D) $16\sqrt{2}$

36. (a5-g24-24) ABCD trapetsiyaning AC diagonali A burchakni teng ikkiga bo'ladi va BC tomonga perpendikulyar. Trapetsiyaning AB katta asosining CD kichik asosiga nisbatini toping.

A) 2 B) 1,5
C) 3 D) aniqlab bo'lmaydi

37. (a6-g4-24) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyaning AC diagonali BC yon tomonga perpendikulyar. Agar trapetsiyaning asoslari 12 va 4 ga teng bo'lsa, BC yon tomon uzunligini toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) 8

C) $4\sqrt{3}$ D) $4\sqrt{6}$

38. (a6-g8-24) Teng yonli trapetsiyaning kichik asosining uzunligi b ga va yon tomoniga teng. Diagonali yon tomoniga perpendikulyar. Trapetsiya o'rta chizig'ining uzunligini toping.

A) 2b

B) $\frac{\sqrt{3}+1}{2}b$

C) $\sqrt{3}b$

D) $\frac{3b}{2}$

39. (a6-g9-22)



Rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagilardan qaysi biri to'g'ri ekanligini toping.

A) $a^2 = b$ B) $2a - b = 0$
C) $b + 3 = 2a$ D) $a^2 = 3b$

40. (a6-g14-20) ABCD teng yonli trapetsiyaning diagonallari o'zaro perpendikulyar va har biri 8 ga teng. Trapetsiyaning diagonallari o'rta chiziqdan ajratgan kesma uzunligini toping.

A) $2\sqrt{2}$
B) 1
C) aniqlab bo'lmaydi
D) $2\sqrt{2}-1$

41. (a6-g25-27) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni diagonaliga perpendikulyar. Trapetsiya uchidan katta asosga tushirilgan balandligi asosni 32 va 18 ga teng kesmalarga ajratsa, trapetsiya balandligini toping.

A) 24 B) 16 C) 12 D) 25

139. Trapetsiya yuzi

1. (a1-g7-30) Teng yonli trapetsiyaning perimetri 40 ga, unga ichki chizilgan aylananing radiusi 3 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) 40 B) 60 C) 80 D) 120

2. (a1-g8-29) ABCD trapetsiyaning AB katta asosi 15 ga, AD yon tomoni 10 ga teng. AC diagonal A burchakning bissektrisasi 16 ga teng. Trapetsiyaning yuzasini toping.

A) 96 B) 150 C) 120 D) 144

3. (a1-g9-29) Teng yonli trapesiyaning yon tomoni 13 ga teng. Diagonali esa o'rta chizig'ini 12 va 7 ga teng kesmalarga ajratdi. Trapesiyaning yuzini toping.

A) 224 B) 228 C) 256 D) 288

4. (a1-g10-28)



Rasmdagi parallelogramning asoslari teng bo'laklarga bo'lingan. Bo'yalgan soha yuzining parallelogramm yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{7}{12}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{5}{12}$ D) $\frac{2}{3}$

5. (a1-g12-20) Teng yonli trapetsiyaning katta burchagi 120°. Shu trapetsiyaga ichki chizilgan aylana radiusi 3 ga teng. Shu trapetsiya yuzini toping.

A) 48 B) $24\sqrt{3}$
C) 72 D) $16\sqrt{3}$

6. (a2-g1-28) Trapetsiyaning tomonlari orasida $(a+c)^2-(b+d)^2=36$ bog'lanish mavjud. Trapetsiyaning balandligi 3 ga, perimetri 18 ga teng. Agar *a* va *c* tomonlar trapetsiyaning asoslari bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.

A) 12 B) 15 C) 24 D) 21

7. (a2-g5-29) ABCD trapetsiyaning A va D burchaklari to'g'ri. Bu trapetsiyada AB//DC, AB = BC = 13 sm, DC = 8 sm bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.

A) 76 B) 92 C) 116 D) 126

8. (a2-g7-29) Trapetsiyaning yon tomonlari 13 va 15 ga, asoslari esa 6 va 20 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.

A) 117 B) 208 C) 195 D) 156

9. (a2-g12-24) ABCD trapetsiyada AB katta asos DAB burchak 30°, CBA burchak esa 45°, $|CB| = 6\sqrt{2}$ va $|DC| = 4$ bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping

A) $6\cdot(5+3\sqrt{3})$ B) $6\cdot(7+3\sqrt{3})$

C) $20+7\sqrt{3}$ D) $4\cdot(3+\sqrt{3})$

10. (a2-g22-28) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyada AB tomon AD va BC tomonlarga perpendikulyar. AB tomon 15 ga teng. AD va BC tomonlar mos ravishda 6 va 14 sm ga teng. Shu trapetsiyaning AB tomonidan E nuqta shunday tanlab olindiki, natijada $3|AE| = 2|EB|$ tenglik hosil bo'ldi. CDE uchburchakning yuzini toping.

A) 69 B) 75 C) 84 D) 98

11. (a2-g23-28) Teng yonli trapetsiyaning diagonali yon tomoniga perpendikulyar. Agar trapetsiyaning katta asosi 13 ga, o'rta chizig'i 9 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.

A) aniqlab bo'lmaydi
B) 36
C) 54
D) 99

12. (a3-g2-28) Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni diagonaliga perpendikulyar. Trapetsiya uchidan katta asosga tushirilgan balandligi asosni 12 va 3 ga teng kesmalarga ajratsa, trapetsiya yuzini toping.
A) 58 B) 96 C) 72 D) 48

13. (a3-g5-28) Teng yonli trapetsiyaning diagonali yon tomoniga perpendikulyar. Trapetsiyaning yon tomoni 15 ga, balandligi 12 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.
A) 192 B) 96 C) 144 D) 180

14. (a3-g9-31) Trapetsiyaga ichki va tashqi aylana chizish mumkin. Agar trapetsiyaning diagonallari bir-biriga perpendikulyar va yon tomoni 7 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 12,25
C) 24,5
D) 49

15. (a3-g13-30) Trapetsiyaning diagonallari 150° burchak ostida kesishadi. Agar bu diagonallar ko'paytmasi 76 ga teng bo'lsa, trapetsiyanng yuzini toping.
A) 76 B) 19 C) 38 D) 152

16. (a3-g14-28) Asoslari 11 va 5 bo'lgan trapetsiyaning yuzi 16 ga teng. Shu trapetsiyaning 150° li burchagiga yopishgan yon tomoni uzunligini toping.
A) 2 B) $2\sqrt{3}$ C) 4 D) $4\sqrt{3}$

17. (a3-g16-28) Teng yonli trapetsiyaning diagonallari bir-biriga perpendikulyar va uning o'rta chizig'i 8 ga teng. Shu trapetsiyaning yuzini toping.
A) 64
B) 36
C) aniqlab bo'lmaydi
D) 32

18. (a3-g20-29) Trapetsiyaning diagonallari 12 va 15 ga teng va ular orasidagi burchak 60° ni tashkil etadi. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) $45\sqrt{3}$ B) 45
C) $\frac{45}{2}$ D) $\frac{45\sqrt{3}}{2}$

19. (a3-g22-29) Diagonallari bir-biriga perpendikulyar va uzunliklari 12 va 9 ga teng bo'lgan trapetsiyaning yuzasini toping.
A) 108 B) 105 C) 54 D) 72

20. (a3-g24-28) Trapetsiyaning diagonallari 12 va 14 ga va ular orasidagi burchak 45° ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) $84\sqrt{2}$ B) 42
C) 84 D) $42\sqrt{2}$

21. (a4-g12-28) ABCD trapetsiyaning AB va CD asoslari 7 va 3 ga teng. BC yon tomonidagi E nuqtadan katta asosga EF kesma tushirildi. Agar CE = EB va EF//AD bo'lsa, trapetsiya yuzining BEF uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) 4:1 B) 8:1 C) 10:1 D) 14:1

22. (a4-g14-28) ABCD trapetsiyada AB kichik asos. Diagonallari O nuqtada kesishadi. AOB uchburchakning yuzasi 6 ga, AOD uchburchakning yuzasi 12 ga teng bo'lsa, $\frac{|DO|}{|OB|} = ?$
A) 4 B) 2 C) 0,5 D) $\sqrt{2}$

23. (a4-g18-28) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 15 va 9 ga teng. Diagonali yon tomoniga perpendikulyar. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 144
C) 72
D) 108

24. (a4-g19-28) Trapetsiyaning yon tomoni teng uch bo'lakka bo'lindi. Bu nuqtalardan asoslarga parallel kesmalar o'tkazildi. Bu kesmalarning uzunliklari 7 va 11 ga teng. Bu kesmalar orasidagi masofa 4 ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) 108 B) 54 C) 36 D) 72

25. (a5-g2-29) ABCD trapetsiyaning CD asosi 3 ga, AB asosi esa 8 ga teng. Trapetsiyaning diagonallari P nuqtada kesishadi. Agar DPC uchburchakning yuzi 6 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) $\frac{242}{3}$ B) $\frac{314}{9}$
C) $\frac{194}{3}$ D) $\frac{124}{9}$

26. (a5-g5-28) ABCD trapetsiyada AB ga parallel CE kesma o'tkazilganda tomoni 7 ga teng ABCE romb hosil bo'ldi. Rombning o'tkir burchagi 45° va DE = 4 bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) $\frac{63}{\sqrt{2}}$ B) $\frac{\sqrt{77}}{2}$
C) $57\sqrt{2}$ D) $29\sqrt{2}$

27. (a5-g6-28) ABCD trapetsiyaning AB va CD asoslari 14 va 8 ga teng. CD asosdan E nuqta tanlab olindi. ABE uchburchak yuzining trapetsiya yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{4}{7}$ B) $\frac{11}{14}$ C) $\frac{7}{11}$ D) $\frac{7}{22}$

28. (a5-g10-28) EF ABCD trapetsiyaning o'rta chizig'i. AB katta asos. DCF uchburchakning yuzi 4 ga, AEB uchburchakning yuzi 22 ga teng. DEBF to'rtburchakning yuzini toping.
A) 13 B) 26 C) 18 D) 30

29. (a5-g11-23) ABCD trapetsiyada BC AB va CD ga perpendikulyar. AC A o'tmas burchak bissektrisasi. BC = 7 va AD = 25 bo'lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) 600 B) 175 C) 91 D) 135

30. (a6-g2-23) ABCD trapetsiyaning CD kichik asosidan E nuqta olindi. Agar AB asos CD asosdan 3 marta katta bo'lsa, ADE va EBC uchburchaklar yuzalari yig'indisining AEB uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) $\frac{1}{9}$
C) $\frac{4}{9}$
D) $\frac{1}{3}$

31. (a6-g5-24) ABCD trapetsiyaning A uchidan BC va CD tomonlari o'rtasiga AE va AF chiziqlar o'tkazildi. AECF to'rtburchak yuzining trapetsiya yuziga nisbatini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) $\frac{1}{2}$
C) $\frac{1}{3}$
D) $\frac{2}{3}$

32. (a6-g5-26) ABCD trapetsiyaga ham ichki, ham tashqi aylana chizish mumkin. Agar AD bir yon tomoni 12 ga, kichik asosi 8 ga teng bo'lsa, shu trapetsiyaning yuzini toping.
A) 96 B) $48\sqrt{2}$
C) $96\sqrt{2}$ D) 100

33. (a6-g11-30) Teng yonli trapetsiyaning katta asosidagi burchagining bissektrisasi yon tomoniga perpendikulyar. Trapetsiyaning perimetri 44 ga, kichik asosi 4 ga teng bo'lsa, yuzasini toping.
A) $60\sqrt{3}$ B) $40\sqrt{3}$
C) $48\sqrt{3}$ D) $54\sqrt{3}$

34. (a6-g17-23) Teng yonli trapetsiyaning diagonali yon tomoniga perpendikulyar. Trapetsiyaning kichik asosi 10 ga va o'rta chizig'i 18 ga teng. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) 144 B) 288
C) 216 D) 108

35. (a6-g19-20) Trapetsiyaning asosiga parallel chiziqlar yon tomonini 2:3:5 nisbatda bo'ladi. Bu chiziqlar trapetsiya yuzini qanday nisbatda bo'ladi?
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 1:3:8
C) 4:9:25
D) 4:5:16

36. (a6-g26-23) Asoslari 27 va 6 ga, yon tomonlari 13 va 20 ga teng bo'lgan trapetsiya yuzini toping.
A) 198 B) 164
C) 396 D) 297

140. Ko'pburchak yuzasi. O'xshash ko'pburchaklarning yuzalari

1. (a1-g2-29) Uchburchakning asosiga parallel chiziqlar o'tkazildi. Bu chiziqlar uchburchakning yon tomonini asosidan boshlab, 2:4:5 sonlariga proporsional ravishda bo'ldi. Bu chiziqlar yordamida hosil qilingan sohalar yuzalarining nisbati qaysi javobda keltirilgan?
A) 4:16:25 B) 25:16:4
C) 4:32:85 D) 25:56:40

2. (a1-g4-28) ABCDEF muntazam oltiburchakning FB diagonali $4\sqrt{3}$. Shu oltiburchakning yuzasini toping.
A) 24 B) $\frac{1}{\sin 2\alpha}$
C) 36 D) $24\sqrt{3}$

3. (a1-g5-28) Muntazam oltiburchakning yuzi $24\sqrt{3}$ ga teng. Shu oltiburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisini toping.
A) $9\sqrt{3}$ B) $12\sqrt{3}$
C) 12 D) 9

4. (a1-g15-28) Muntazam oltiburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan tomonlarigacha bo'lgan masofalar yi'g'indisi 18 ga teng. Shu oltiburchakning yuzini toping.
A) 27 B) 36
C) $36\sqrt{3}$ D) $18\sqrt{3}$

5. (a2-g18-27) Muntazam oltiburchakning ichidagi ixtiyoriy nuqtadan uning tomonlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi 9 ga teng. Shu oltiburchakning yuzini toping.
A) $\frac{9\sqrt{3}}{2}$ B) $3\sqrt{3}$
C) $\frac{15\sqrt{3}}{2}$ D) $9\sqrt{3}$

6. (a4-g9-29) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB tomonidan E nuqta olindi. AE = 2EB. Agar EBCD to'rtburchakning yuzi 36 ga teng bo'lsa, ABCD to'rtburchakning yuzini toping.
A) 48 B) 54 C) 50 D) 44

7. (a4-g15-28) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AC diagonali 4 ga teng. Bu diagonal AB tomon bilan 22,5° burchak hosil qiladi. Shu to'rtburchakning yuzini toping.
A) $4\sqrt{2}$ B) 8
C) 4 D) $8\sqrt{2}$

8. (a4-g16-31) Ko'pburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 3 ga teng. Agar shu ko'pburchakning perimetri 24 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning yuzini toping.
A) 72 B) 48 C) 36 D) 54

9. (a4-g18-27) Muntazam sakkizburchak va oltiburchaklarning eng katta diagonallari teng. Ularning yuzlari nisbatini toping.
A) $\frac{\sqrt{6}}{2}$ B) $\frac{4\sqrt{6}}{9}$
C) $\frac{\sqrt{6}}{3}$ D) $\frac{2\sqrt{6}}{3}$

10. (a4-g25-28)



Rasmda kichkinagina Muhmudjon chizgan mashina va uning o'lchamlari tasvirlangan. Shu mashinaning yuzasini toping
A) 86 B) 93 C) 90 D) 114

11. (a5-g3-31) O'nikkiburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi 12 ga teng. O'nikkiburchak yuzini toping
A) $432\sqrt{3}$ B) $144\sqrt{3}$
C) 432 D) 144

12. (a5-g7-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan ikki kesuvchi o'tkazilgan. Birinchi kesuvchi A va B nuqtalarda, ikkinchi kesuvchi esa C va D nuqtalardan o'tadi. PA = 2x, AB = x, PC = x + 6 va CD = 2x + 6 bo'lsa, x ni toping.
A) 18 B) 12 C) 16 D) 9

13. (a5-g8-28) ABCD to'g'ri to'rtburchak. DC tomondan P va N nuqtalar, AB tomondan K va L nuqtalar olingan. AP va DK Q nuqtada, BN va CL M nuqtada kesishadi va KLMNPQ muntazam oltiburchak. Agar $AD = 2\sqrt{3}$ bo'lsa, oltiburchak yuzini toping.
A) $8\sqrt{3}$ B) $12\sqrt{3}$
C) $6\sqrt{3}$ D) $18\sqrt{3}$

14. (a5-g14-26) Qavariq to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari mos ravishda 8 va 7 ga teng. Agar shu to'rtburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 4 ga teng bo'lsa, bu to'rtburchakning yuzi nechaga teng?
A) 60
B) 30
C) 120
D) aniqlab bo'lmaydi

15. (a5-g15-1) ABCDEF muntazam oltiburchakning FB diagonali 12 ga teng. Shu oltiburchakning yuzasini toping.
A) $72\sqrt{3}$ B) 144
C) 108 D) $216\sqrt{3}$

16. (a5-g15-3) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AD tomonidan T nuqta olindi. TBC burchak 30°, CTD burchak 75° va to'rtburchakning perimetri 18 bo'lsa, bu to'rtburchakning yuzini toping.
A) 20,25 B) 20
C) 14 D) 18

17. (a5-g16-26) Qavariq ko'pburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi 3 ga teng. Agar ko'pburchakning perimetri 24 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning yuzini toping.
A) 72 B) 36 C) 18 D) 144

18. (a5-g17-3) Muntazam beshburchakning tomoni 6 ga teng. Quyidagilardan qaysi biri beshburchakning yuziga teng?
A) $45 \cdot \operatorname{tg}54°$ B) $90 \cdot \sin 72°$
C) $45 \cdot \sin 72°$ D) $90 \cdot \operatorname{tg}54°$

19. (a5-g18-19) To'g'ri to'rtburchakning tomonlarining o'rtalari tutashtirilib, qavariq to'rtburchak yasaldi. Qavariq to'rtburchakning yuzi to'g'ri to'rtburchakning yuzining necha foizini tashkil etadi?
A) 50 B) 25 C) 75 D) 37,5

20. (a5-g19-22) ABC uchburchakning A uchidan tushirilgan AD medianadan T nuqta tanlab olindi. 5AT = 2AD. AC to'g'ri chiziqdan M nuqta olindi. TM BC tomonga parallel bo'lsa, BTMA to'rtburchak yuzining BTMC to'rtburchak yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{39}{106}$ B) $\frac{1}{5}$
C) $\frac{7}{18}$ D) $\frac{5}{13}$

21. (a5-g20-23) ABCDEFG muntazam yettiburchak ichidan shunday H nuqta olindiki, natijada ABCH romb hosil bo'ldi. HCD burchak kattaligini toping.
A) $\frac{2\pi}{7}$ B) $\frac{5\pi}{7}$ C) $\frac{4\pi}{7}$ D) $\frac{3\pi}{7}$

22. (a5-g21-22) ABC uchburchakning AB tomonidan F, BC tomonidan D va AC tomonidan E nuqta olindi. 2BF = AF, 3BD = DC va AE = EC. AFDE to'rtburchak yuzining ABC uchburchak yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{13}{24}$ B) $\frac{7}{12}$ C) $\frac{5}{12}$ D) $\frac{5}{24}$

23. (a5-g21-23) ABCDE beshburchak. ED = BC = 6. AE = AB va DC = 14. Beshburchakning A burchagi to'g'ri, B va E burchaklari 105° dan. Berilganlardan foydalanib beshburchakning yuzini toping.
A) $100 + 51\sqrt{3}$ B) $51\sqrt{3} + 200$
C) $17\sqrt{3} + 200$ D) $34\sqrt{3} + 100$

24. (a5-g23-24) ABCD parallelogramning DC tomoni E va F nuqtalar (E, D ga yaqin) yordamida teng uchga bo'lingan. AF kesma esa K va L nuqtalar (K A ga yaqin) yordamida teng uchga bo'lingan. Agar parallelogramning yuzi 192 ga teng bo'lsa, BLFC to'rtburchak yuzini toping.
A) 48 B) 32 C) 64 D) 92

25. (a5-g25-25) Markazi O nuqtada bo'lgan aylanada AB va AC uzunligi 4 ga teng bo'lgan vatarlar. COB burchak 120° bo'lsa, ACOB botiq to'rtburchak yuzini toping.

A) $8\sqrt{3}$ B) $4\sqrt{3}$

C) $\frac{8\sqrt{3}}{3}$ D) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$

26. (a6-g6-24) ABCD kvadratning BC tomonidan E nuqta olindi. BC = 1,5BE. BD diagonal AE kesmani K nuqtada kesib o'tadi. DKEC to'rtburchak yuzining ABK uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{9}{4}$ B) $\frac{10}{3}$ C) $\frac{8}{3}$ D) $\frac{11}{6}$

27. (a6-g7-24) ABCD parallelogramning AD tomonidan K, BC tomonidan N nuqtalar olindi. CK||AN ga parallel. Agar BC = 4BN bo'lsa, ANCK to'rtburchak yuzining ABCD to'rtburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{3}{8}$ B) $\frac{2}{5}$ C) $\frac{4}{5}$ D) $\frac{3}{4}$

28. (a6-g9-23)



ABCD qavariq to'rtburchak, $A_1B_1C_1D_1$ shu to'rtburchak tomonlarining o'rtalari. $A_1C_1 = 2$, $A_1D_1 = 3$ va $B_1C_1A_1$ 15° bo'lsa, shtrixlangan soha yuzini toping.

A) $2\sqrt{2+\sqrt{3}}$ B) $3\sqrt{2+\sqrt{3}}$

C) $6\sqrt{2+\sqrt{3}}$ D) $3\sqrt{2-\sqrt{3}}$

29. (a6-g9-29) ABCDEF va $A_1B_1C_1D_1E_1F_1$ muntazam oltiburchakli prizmaning uchlari bo'lib, asosining tomoni 4 sm va balandligi 10 sm ga teng. ADE_1F_1 sohaning yuzini toping.

A) $48\sqrt{7}$ B) 60

C) $12\sqrt{7}$ D) $24\sqrt{7}$

30. (a6-g12-31) ABCD to'g'ri to'rtburchakning BC tomonidan F nuqta olindi. AF kesmadan K nuqta shunday tanlab olindiki, AK = 3KF tenglik o'rinli bo'ldi. AKD uchburchak yuzining ABCD to'rtburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{1}{8}$ D) $\frac{3}{8}$

31. (a6-g13-14) Qavariq to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari mos ravishda 7 va 9 ga teng. Agar shu to'rtburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 4 ga teng bo'lsa, bu to'rtburchakning yuzi nechaga teng?

A) 64 B) 32

C) 128 D) aniqlab bo'lmaydi

32. (a6-g13-24) ABCD parallelogramm DC tomonidan F va AF kesmadan L nuqta olingan. CD = 3FC, AL = 2LF va parallelogramning yuzi 144 sm^2 bo'lsa, BLFC to'rtburchak yuzini toping.

A) 36 B) 54 C) 24 D) 48

33. (a6-g14-9) ABCD to'g'ri to'rtburchakning B uchidan AD tomon o'rtasiga BM chiziq o'tkazildi. BC tomondan olingan N nuqta shu tomonni BN:NC = 3:1 nisbatda bo'ladi. AN va BM chiziqlar O nuqtada kesishadi va AOM uchburchakning yuzi 16 ga teng. NOMDC shakl yuzini toping.

A) 96 B) 44 C) 84 D) 72

34. (a6-g16-9) Muntazam uchburchakka aylana ichki chizilgan. Shu aylanaga esa muntazam oltiburchak ichki chizilgan. Uchburchak va oltiburchak yuzlarining nisbatini toping.

A) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ B) 4 C) $\frac{2}{3}$ D) 2

35. (a6-g19-4) ABCDE beshburchakda AB = AE = 4, BC = 6, CD = 3 va $DE = 5\sqrt{3}$. BAE va BCD burchaklar mos ravishda 120° va 60° ga teng bo'lsa, beshburchak yuzini toping.

A) $8,5\sqrt{3}+18$ B) 26,5

C) $26,5\sqrt{3}$ D) $18\sqrt{3}+8,5$

36. (a6-g22-14) Tomoni 8 ga teng muntazam ABCDEFGH sakkizburchakning kichik diagonallari hosil qilgan ACEG to'rtburchak yuzasini toping.

A) $64+128\sqrt{2}$

B) $64\sqrt{2}-64$

C) $128+64\sqrt{2}$

D) $64+64\sqrt{2}$

4-bob. Aylana va doira

141. Aylana, doira, radius, diametr, vatar

1. (a1-g3-30)



Rasmda PH kesma AB kesmaga perpendikulyar.
|PH| = 6 sm, |AH| = 4 sm bo'lsa, |AB| = ?

A) 13 B) 14 C) 15 D) 16

2. (a1-g4-31) Aylananing AB va CD vatarlari E nuqtada 90° burchak ostida kesishadi. |AE| = 2, |CE| = 4 va |ED| = 6 bo'lsa, aylananing radiusini toping.

A) 5 B) 6

C) $5\sqrt{2}$ D) $6\sqrt{2}$

3. (a1-g13-30) Vatar aylananing markaziy burchakka mos yoyining oltidan bir qismini tortib turadi. Shu vatar aylananing kichik yoyi ixtiyoriy nuqtasidan qaraganda qanday burchak ostida ko'rinadi?

A) 60 B) 120 C) 150 D) 30

4. (a2-g1-30) Aylananing vatari 120° li yoyni tortib turadi. Bu vatar aylaning kichik yoyining ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko'rinadi?

A) 60° B) 90°

C) 120° D) 30°

5. (a2-g8-31) Aylananing vatari radiusning to'rtdan biriga teng. Shu vatar tortib turgan markaziy burchak kosinusini toping.

A) $\frac{1}{32}$ B) $\frac{31}{32}$ C) $\frac{1}{16}$ D) $\frac{15}{16}$

6. (a2-g12-27) Shaklda markazlari O nuqtada bo'lgan aylanalar berilgan. Ularning radiuslari 6 va 10 ga teng. PN vatar kichik aylanaga urinadi va OF ga perpendikulyar. PF kesma uzunligini toping.



A) $\frac{20}{\sqrt{5}}$ B) $4\sqrt{3}$

C) $6\sqrt{5}$ D) $\frac{16}{\sqrt{3}}$

7. (a2-g15-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi (|PB| > |PA|). PT = 6 va PA = 4 bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.

A) 9 B) 10 C) 5 D) 6

8. (a2-g22-30) Vatar aylananing markaziy burchakka mos yoyining beshdan bir qismini tortib turadi. Shu vatar aylananing katta yoyining ixtiyoriy nuqtasidan qaraganda qanday burchak ostida ko'rinadi?

A) 72° B) 96° C) 48° D) 36°

9. (a3-g2-30) Radiuslari 20 sm li doiralarning markazlari orasidagi masofa 32 sm. Ularning umumiy vatari uzunligini toping.

A) 12 B) 18 C) 30 D) 24

10. (a3-g3-31) Aylananing vatari radiusning to'rtdan biriga teng. Shu vatar tortib turgan markaziy burchak kosinusini toping.

A) $\frac{1}{32}$ B) $\frac{31}{32}$ C) $\frac{1}{16}$ D) $\frac{15}{16}$

11. (a3-g5-34) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Aylananing vatari diametridan katta bo'la olmaydi.
B) Tekislikdagi ixtiyoriy chiziqqa perpendikulyar bo'lgan chiziq tekislikning o'ziga perpendikulyar bo'lmasligi mumkin.
C) Teng yonli uchburchakning bissektrisalari kesishish nuqtasidan 2:1 nisbatda bo'linadi.
D) Piramidaning uchi asosining tomonlardan bir xil uzoqlikda joylashgan bo'lsa, bu piramidaning balandligi asosidagi figuraga ichki chizilgan aylana markaziga tushadi.

12. (a3-g12-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi. (|PB| > |PA|). PT = 8 va PA = 4 bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.
A) 10 B) 12 C) 16 D) 6

13. (a3-g13-31) Aylana markazidan vatardagi A nuqtagacha bo'lgan masofa $\sqrt{41}$ ga teng. Agar A nuqta vatarni 8 va 16 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratsa, aylana radiusini toping.
A) 10 B) 25 C) 13 D) 20

14. (a3-g18-30) Aylananing markazidan uzunligi radiusga teng bo'lgan vatarigacha bo'lgan masofa 3 ga teng. Shu aylananing eng katta vatari uzunligini toping.
A) $2\sqrt{3}$ B) 6 C) $4\sqrt{3}$ D) 3

15. (a3-g22-30) Aylananing markazidan 6 sm uzoqlikda joylashgan ikki vatarning uzunliklar $2n + 4$ va $3n - 2$ ga teng. Aylananing radiusini toping.
A) 5 B) 10 C) 8 D) 15

16. (a4-g6-30) Markazlari bir nuqtada bo'lgan ikki aylana orasida qolgan soha yuzasi 56,25 ga teng. Kichik aylanaga urinadigan katta aylana vatarining uzunligini toping.
A) 7,5 B) 15 C) 30 D) 3,75

17. (a4-g8-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi (|PB| > |PA|). PT = 12 va PA = 8 bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.
A) 18 B) 10 C) 16 D) 9

18. (a4-g12-30) Radiusi 10 ga teng aylananing markazidan 8 ga teng masofada joylashgan nuqta orqali diametr va unga perpendikulyar vatar o'tkazilgan. Shu vatarning uzunligini toping.
A) 6 B) 10 C) 12 D) 16

19. (a4-g16-30) Diametri 22 sm bo'lgan aylanada AB vatar o'tkazilgan. C nuqta AB vatarni 10 va 6 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Aylana markazidan C nuqtagacha bo'lgan masofani toping.
A) $\sqrt{61}$ B) $\sqrt{73}$ C) $\sqrt{96}$ D) $6\sqrt{3}$

20. (a4-g21-30) Diametri 22 sm bo'lgan aylanada AB vatar o'tkazilgan. C nuqta AB vatarni 10 va 6 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Aylana markazidan C nuqtagacha bo'lgan masofani toping.
A) $\sqrt{61}$ B) $\sqrt{73}$
C) $\sqrt{96}$ D) $6\sqrt{3}$

21. (a5-g6-30) Aylana markazidan radiusning uchdan bir qismi uzoqlikdan AB vatar o'tkazildi. OD radius AB vatarga perpendikulyar bo'lsa, AD kesma uzunligining AB vatar uzunligiga nisbatini toping.
A) $\frac{\sqrt{6}}{4}$ B) $\frac{\sqrt{6}}{2}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{3}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{\sqrt{3}}$

22. (a5-g8-30) Aylananing AB va CD vatarlari O nuqtada kesishadi. AO = x, OB = $x + 2$, OD = $0{,}75x$ va OC = $1{,}5x$ bo'lsa, CD vatar uzunligini toping.
A) 36 B) 34 C) 16 D) 12

23. (a5-g9-30) Aylananing AB va CD vatarlari P nuqtada kesishadi va u AB vatarni |AP| = 48 va |BP| = 25 ga, CD vatarni uzunliklari nisbati 3:4 ga teng kesmalarga ajratadi. Shu kesmalardan kichigining uzunligini toping.
A) 20 B) 30 C) 40 D) 24

24. (a5-g12-25) Markazi O nuqtada bo'lgan aylanada CD vatar AB diametrga parallel. Agar CD vatar katta yoyning ixtiyoriy nuqtasidan 70° burchak ostida ko'rinsa, BCD burchak kattaligini toping.
A) 27,5° B) 20°
C) 12,5° D) 10°

25. (a5-g20-25) Radiusi R ga teng aylanadagi nuqtadan o'zaro teng ikki vatar o'tkazildi. Bu vatarlar orasidagi burchak 150° bo'lsa, ularning uzunligini toping.
A) $R\sqrt{2+\sqrt{3}}$ B) $R\sqrt{2-\sqrt{3}}$
C) $\frac{R\sqrt{2-\sqrt{3}}}{2}$ D) $\frac{R\sqrt{2+\sqrt{3}}}{2}$

26. (a5-g24-25) Aylananing AB va CD vatarlari kesishmaydi va mos ravishda 9 va 16 ga teng. BD va AC vatarlar O nuqtada kesishadi. BO ning CO ga nisbatini toping.
A) $\frac{9}{16}$ B) $\frac{16}{9}$ C) $\frac{8}{9}$ D) $\frac{9}{8}$

27. (a6-g1-25) Ikki kesishuvchi aylanalarning umumiy vatari aylanalar markazlaridan mos ravishda 60° va 90° burchak ostida ko'rinadi. Agar aylanalar markazlari orasidagi masofa $1+\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, aylanalar radiuslarini toping.
A) 3; $\sqrt{2}$ B) 2; $\sqrt{2}$
C) 3; $\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{2}$; 4

28. (a6-g2-25) A nuqta – aylanadan tashqaridagi nuqta. Bu nuqtadan AD urinma va aylanani B va C nuqtalarda kesib o'tadigan kesuvchi o'tkazildi. Agar AB = BC = 12 bo'lsa, DB vatarning DC vatarga nisbatini toping.
A) 1 B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{1}{2}$

29. (a6-g3-25) Aylananing vatari o'zi tortib turgan kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidan 124° burchak ostida ko'rinadi. Bu vatar uchidan o'tkazilgan urinma va ushbu vatar orasidagi burchakni toping.
A) 56° B) 62° C) 28° D) 31°

30. (a6-g9-25) Aylananing ikki vatari o'zaro 90° burchak ostida kesishadi. Ulardan birining uzunligi 11 ga teng, ikkinchisi esa kesishish nuqtasidan 10 va 3 ga teng kesmalarga bo'lindi. Aylananing radiusini toping.
A) $\frac{7}{\sqrt{2}}$ B) $4\sqrt{10}$
C) $\frac{\sqrt{170}}{2}$ D) $13\sqrt{2}$

31. (a6-g17-25) Diametri 32 sm bo'lgan aylanada AB vatar o'tkazilgan. C nuqta AB vatarni 14 va 6 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Aylana markazidan C nuqtagacha bo'lgan masofani toping.
A) $2\sqrt{37}$ B) $2\sqrt{43}$
C) $8\sqrt{3}$ D) $4\sqrt{10}$

32. (a6-g20-11) B, C, D va E nuqtalar aylanadagi, A esa aylanadan tashqaridagi nuqtalar. D nuqta AE kesmada, B esa AC kesmada yotadi. Agar AE = 12 va AC = 16 bo'lsa, BE vatar uzunligining CD vatar uzunligiga nisbatini toping.
A) $\frac{4}{3}$ B) $\frac{3}{4}$
C) $\frac{9}{16}$ D) aniqlab bo'lmaydi

33. (a6-g25-22) Aylana markazidan bir tarafda joylashgan ikki parallel vatarlar orasidagi masofa 8 ga teng. Bu vatarlar nisbati 4:3. Agar aylana radiusi 40 ga teng bo'lsa, katta vatar uzunligini toping.
A) 64 B) 32 C) 48 D) 80

34. (a6-g26-25) CDAB diametrga parallel vatar va 110° li yoyni tortib turadi. BCD burchakning qiymatini toping.
A) 35° B) 55° C) 17,5° D) 27,5°

142. Aylanaga o'tkazilgan urinma

1. (a2-g4-30) Aylanaga P nuqtadan PA va PB urinmalar o'tkazilgan. APB burchak 70° ga teng bo'lsa, aylananing AB vatari katta yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko'rinadi?
A) 110° B) 35° C) 70° D) 55°

2. (a3-g5-30) P nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmalar A va B nuqtada urinadi. Agar bu urinmalar orasidagi burchak 70° bo'lsa, AB vatar kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko'rinadi?
A) 55° B) 125°
C) 35° D) 145°

3. (a3-g16-32) Aylanadan tashqaridagi nuqtadan aylanaga o'tkazilgan eng qisqa va eng uzun masofalar mos ravishda 3 va 27 ga teng. Bu nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmaning urinish nuqtasigacha bo'lgan masofani toping.
A) $6\sqrt{2}$ B) 9 C) $3\sqrt{2}$ D) 15

4. (a3-g20-31) Aylananing ikki vatari bir-biriga perpendikulyar va ularning biri kesishish nuqtasidan 8 va 12 ga teng bo'laklarga, ikkinchisi esa 6 va 16 ga teng bo'laklarga bo'linadi. Shu aylananing radiusini toping.
A) $5\sqrt{5}$ B) $\frac{65}{8}$
C) $4\sqrt{2}$ D) 6

5. (a3-g21-30) Radiuslari nisbati 3 ga teng bo'lgan aylanalar bir-biriga urinadi. P nuqtadan bu ikki aylanaga umumiy urinmalar o'tkazilgan. Shu urinmalar orasidagi burchakni toping.
A) 30° B) arctg4
C) arctg2 D) 60°

6. (a4-g3-32) Radiusi 6 ga teng bo'lgan aylananing 60° li sektoriga boshqa bir doira ichki chizilgan. Shu doiraning yuzasi nechaga teng?
A) 4π B) 16π
C) $6{,}25\pi$ D) $2{,}25\pi$

7. (a4-g7-30) A nuqtadan, radiusi 7 ga teng bo'lgan aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofa 3 ga teng. A nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmaning urinish nuqtasigacha bo'lgan masofani toping.
A) $\sqrt{39}$ B) $\sqrt{42}$ C) $\sqrt{21}$ D) $\sqrt{51}$

8. (a4-g11-14)



5 va 12 sm radiusga ega bo'lgan ikkita aylana yonma-yon qo'yilgan. Bu ikkita aylanaga urinma shaklida d nur o'tgan. EAB burchak θ ga teng bo'lsa, $\sin\theta$ ning qiymatini toping.
A) $\frac{5}{7}$ B) $\frac{7}{17}$ C) $\frac{12}{13}$ D) $\frac{5}{13}$

9. (a4-g15-30) P nuqtadan aylanaga o'tkazilgan ikki urinma orasidagi burchak 54° ga teng. Bu urinmalar urinish nuqtalari orqali o'tkazilgan vatar va urinma orasidagi burchakni toping.
A) 27° B) 63° C) 36° D) 54°

10. (a4-g23-30) P nuqtadan aylanaga o'tkazilgan ikki urinma orasidagi burchak 54° ga teng. Bu urinmalar urinish nuqtalari orqali o'tkazilgan vatar va urinma orasidagi burchakni toping.
A) 27° B) 63° C) 36° D) 54°

11. (a5-g3-30) Radiusi 20 ga teng bo'lgan aylanaga urinma va shu urinmaga parallel vatar o'tkazildi. Agar urinma va vatar orasidagi masofa 32 ga teng bo'lsa, vatarning uzunligini toping.
A) 32 B) 16 C) 48 D) 24

12. (a5-g11-25) Aylana tashqarisidagi nuqtadan aylanagacha bo'lgan eng yaqin masofa va aylananing radiusi 5 ga teng. Shu nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmaning uzunligini toping
A) $5\sqrt{3}$ B) $5\sqrt{5}$
C) 10 D) $5\sqrt{2}$

13. (a5-g14-25) Aylanadan tashqaridagi nuqtadan aylanagacha bo'lgan eng qisqa va eng uzun masofalar mos ravishda 7 va 17 ga teng bo'lsa, shu nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmaning urinish nuqtasigacha bo'lgan masofasini toping.
A) $\sqrt{119}$ B) 13
C) $5\sqrt{5}$ D) 12

14. (a5-g17-6) P nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinma T nuqtada urinadi. Shu nuqtadan o'tkazilgan kesuvchi esa aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tadi. Agar PA = 8, PB = 18 vaTA = 6 bo'lsa, TB kesma uzunligini toping.
A) 9 B) $\frac{18}{\sqrt{5}}$
C) $3\sqrt{5}$ D) 12

15. (a5-g23-26) Aylananing AB vatari 48 sm va T nuqtadan o'tkazilgan urinmaga parallel. Agar vatar va urinma orasidagi masofa 7 ga teng bo'lsa, aylana radiusini toping.
A) $\frac{625}{14}$ B) $\frac{125}{7}$
C) $\frac{96}{7}$ D) $\frac{288}{7}$

16. (a6-g1-26)



Chizmada ABC burchak 60° va B nuqtadan katta aylana markazigacha masofa 6 ga teng bo'lsa, bo'yalgan sohaning yuzini toping.
A) $4\sqrt{3}-\frac{11\pi}{6}$ B) $8-\frac{11\pi}{3}$
C) $4-\frac{11\pi}{6}$ D) $8\sqrt{3}-\frac{11\pi}{3}$

17. (a6-g4-25) Radiusi 12 ga teng bo'lgan aylananing AB vatari 120° li yoyni tortib turadi. Ushbu vatarga va aylananing kichik yoyiga urinadigan aylana radiusini toping.
A) 6 B) 3
C) $3\sqrt{3}$ D) $1{,}5\sqrt{3}$

18. (a6-g6-25) Markazi O_1 nuqtada radiusi 8 ga teng bo'lgan aylanaga markazidan o'tib ichki tarafdan urinuvchi, markazi O_2 nuqtada bo'lgan aylana ichki chizildi. Aylanadan tashqarida P nuqta olindi. $PO_1 = 17$ ga teng va O_1 nuqtada O_2 markazli aylanaga urinadi. Shu nuqtadan O_2 nuqtagacha bo'lgan masofani toping.
A) $\sqrt{97}$ B) $\sqrt{273}$
C) 15 D) $\sqrt{305}$

19. (a6-g17-26) Aylananing AB vatari 24 sm va T nuqtadan o'tkazilgan urinmaga parallel. Agar vatar va urinma orasidagi masofa 9 ga teng bo'lsa, aylana radiusini toping.
A) 16,5 B) 12,5 C) 6,25 D) 8,25

20. (a6-g19-10) Radiusi 7 ga teng aylanaga P nuqtadan aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi kesuvchi o'tkazildi (PB > PA). PA = 8 va AB = 10. P nuqtadan o'tkazilgan ikki urinma orasidagi burchak tangensini toping.
A) $\frac{172}{195}$ B) $\frac{133}{75}$
C) $\frac{7}{6}$ D) $\frac{168}{95}$

21. (a6-g21-14) Aylana tashqarisidagi nuqtadan aylanaga ikki urinma o'tkazilgan. Agar urinmalar orasidagi burchak 72° bo'lsa, urinish nuqtalarining aylanadan ajratgan kichik va katta yoylar uzunliklarining nisbatini toping.
A) $\frac{3}{7}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{7}{11}$

22. (a6-g22-3) Radiusi 8 sm ga teng bo'lgan aylana tashqarisidagi nuqtadan aylanaga ikkita urinma o'tkazildi. Shu nuqtadan urinish nuqtalarigacha masofa 15 sm. Bir urinmaning urinish nuqtasidan ikkinchi urinmagacha bo'lgan masofani toping.
A) $\frac{2980}{289}$ B) $\frac{1920}{289}$
C) 16 D) $\frac{3600}{289}$

23. (a6-g24-5) Aylanadan tashqaridagi A nuqtadan aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofa 6 ga teng. Agar aylana radiusi 4 ga teng bo'lsa, A nuqtadan aylanaga o'tkazilgan urinmaning urinish nuqtasigacha bo'lgan masofani toping.
A) $4\sqrt{3}$ B) 10
C) $2\sqrt{21}$ D) $2\sqrt{6}$

143. Aylana va kusuvchi

1. (a2-g19-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi ($|PB| > |PA|$). $PT = 9$ va $PA = 3$ bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.
A) 15 B) 27 C) 24 D) 6

2. (a4-g4-30) Markazi O nuqtada bo'lgan aylanadan tashqaridagi A nuqtadan aylanani C va D nuqtalarda kesuvchi chiziq o'tkazilgan. $AC = 6$ va A nuqtadan aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofa 4 ga teng. CD kesma aylana radiusiga teng bo'lsa, aylana radiusini toping.
A) 10
B) 8
C) 6
D) aniqlab bo'lmaydi

3. (a4-g9-30) Markazi O nuqtada bo'lgan aylanadan tashqaridagi A nuqtadan aylanani C va D nuqtalarda kesuvchi chiziq o'tkazilgan. AO kesma esa aylanani B nuqtada kesadi. Agar $AC = 6$, $AB = 4$ va $CD = BO$ bo'lsa, aylananing radiusini toping.
A) 8 B) 6 C) 12 D) 10

144. Aylana uzunligi

1. (a1-g7-32) Markazi $\left(-2; \frac{1}{3}\right)$ nuqtada joylashgan va radiusi 4 ga teng bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $4x^2 + 4y^2 + 4x - 24y - 27 = 0$
B) $9x^2 + 9y^2 + 36x - 6y - 107 = 0$
C) $x^2 + y^2 + 4x - 6y - 3 = 0$
D) $9x^2 + 9y^2 - 36x + 6y - 107 = 0$

2. (a1-g8-31) Odam g'ildirakni aylantirib ketmoqda. U g'ildirakni 8 marta to'liq aylantirganda manzilga yana 12 metr qoladi, 15 marta to'liq aylantirganda esa manzildan 9 metr o'tib ketadi. G'ildirakning diametri necha metr? ($\pi = 3$)
A) 1,6 B) 1 C) 0,8 D) 0,5

3. (a1-g9-32) y o'qini (0;3), x o'qini (4;0) nuqtada va koordinatalar boshini kesib o'tuvchi aylananing radiusi nechaga teng?
A) 2,4 B) 2,5
C) 0,75 D) 0,4

4. (a1-g10-33) Markazi (3; –0,5) nuqtada joylashgan va radiusi 3 ga teng bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $9x^2 + 9y^2 - 6x + 36y - 45 = 0$
B) $4x^2 + 4y^2 + 24x - 4y + 1 = 0$
C) $x^2 + y^2 - 6x + 4y + 4 = 0$
D) $4x^2 + 4y^2 - 24x + 4y + 1 = 0$

5. (a1-g17-30) Aylananing uzunligi 10 ga teng bo'lgan vatari markazdan 12 sm uzoqlikda joylashgan. Shu aylana uzunligini toping.
A) 24π B) 20π C) 26π D) 30π

6. (a4-g13-16) $x^2 + y^2 - 6x + 8y = 0$ aylanaga konsentrik bo'lgan va radiusi uning radiusidan 1 birlik ko'p bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $(x-3)^2 + (y+4)^2 = 36$
B) $(x+3)^2 + (y-4)^2 = 36$
C) $(x+3)^2 + (y-3)^2 = 16$
D) $(x-3)^2 + (y-4)^2 = 16$

7. (a4-g13-29) a ning nechta qiymatida $x^2 + y^2 = 1$ va $x^2 + (y-a)^2 = 4$ aylanalar urinadi?
A) 4 B) 2 C) 1 D) 0

8. (a4-g14-32) Tenglamasi $4 + x^2 + y^2 + 25 - 10x - 4y = 29$ bo'lgan aylananing y o'qini kesib o'tgan nuqtalari o'rta geometrigini toping.
A) 2 B) 4 C) 0 D) 1

9. (a4-g16-32) $x^2 + y^2 + 6x + 9y + 5 = 0$ tenglama bilan berilgan aylana x o'qini A va B nuqtalarda kesadi. A va B nuqta o'rtasidan o'tuvchi vertikal to'g'ri chiziq tenglamasini ko'rsating.
A) $y = x - 3$ B) $x = 5$
C) $y = 4,5$ D) $x = -3$

10. (a4-g20-32) M(3; –1) nuqtadan $x^2 + y^2 + 4x - 8y = 16$ aylanagacha bo'lgan eng uzoq va eng qisqa masofalar yig'indisini toping.
A) 12 B) $10\sqrt{2}$
C) $6\sqrt{3}$ D) 10

11. (a4-g21-32) $x^2 + y^2 + 6x + 9y + 5 = 0$ tenglama bilan berilgan aylana OX o'qini A va B nuqtalarda kesadi. A va B nuqta o'rtasidan o'tuvchi vertikal to'g'ri chiziq tenglamasini ko'rsating.
A) $y = x - 3$ B) $x = 5$
C) $y = 4,5$ D) $x = -3$

12. (a4-g22-32) Koordinata boshidan $x^2 + y^2 + 10x - 10y + 41 = 0$ aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A) $5 - 3\sqrt{2}$ B) $5\sqrt{2} - 3$
C) $9 - 5\sqrt{2}$ D) $3\sqrt{2} + 2$

13. (a4-g23-12) Yettiga bo'lganda 4 qoldiq qoladigan dastlabki o'ttiz ikkita son yig'indisini toping.
A) 3600 B) 3824
C) 3985 D) 3271

14. (a5-g1-32) $x^2 + y^2 + 7x - 10y + 9 = 0$ tenglama bilan berilgan aylana y o'qini A va B nuqtalarda kesadi. A va B nuqta o'rtasidan o'tuvchi, gorizontal to'g'ri chiziq tenglamasini ko'rsating.
A) $y = x - 5$ B) $y = 5$
C) $y = 3,5$ D) $y = x + 3,5$

15. (a5-g3-32) $x^2 + y^2 - 6x + 4y - 12 = 0$ aylanani $y = 1$ to'g'ri chiziq kesib o'tishidan hosil bo'lgan vatar uzunligini toping.
A) 6 B) 4 C) 12 D) 8

16. (a5-g7-32) $x^2 + y^2 - 2x + 8y = 47$ tenglama bilan berilgan aylananing eng katta vatari uzunligini toping.
A) 16 B) 8 C) 12 D) 14

17. (a5-g20-27) $x^2 + y^2 - 6x + 10y + 9 = 0$ aylanani $\vec{a}$ vektor bo'ylab siljitish natijasida $x^2 + y^2 + 8x - 2y = 8$ aylana hosil bo'ldi. $\vec{a}$ ning koordinatalarini toping.
A) $\vec{a}(7; 6)$ B) $\vec{a}(6; -7)$
C) $\vec{a}(-7; 6)$ D) $\vec{a}(-6; 7)$

18. (a6-g9-27) Tenglamasi $(x-4)^2 + (y-a)^2 = R^2$ bo'lgan aylana OY o'qiga va $y = 2$ chiziqqa urinadi. Shu aylaning koordinata o'qining 4 choragida yotuvchi qismida hosil qilgan sohasi yuzini toping. (Aylana OX o'qini kesib o'tadi.)
A) $\frac{16\pi}{3} - 4\sqrt{3}$ B) $\frac{32\pi - 4\sqrt{3}}{3}$
C) $\frac{4\sqrt{3} + 16\pi}{3}$ D) $\frac{4(8\pi + 3\sqrt{3})}{3}$

19. (a6-g22-5) $y = x$ to'g'ri chiziqning $(x-5)^2 + (y-3)^2 = 34$ aylana ichida qolgan qismi uzunligini toping.
A) $7\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{2}$
C) $4\sqrt{2}$ D) $8\sqrt{2}$

20. (a6-g25-26) Markazi koordinata tekisligining to'rtinchi choragida yotgan aylananing radiusi 4 ga teng va u koordinata o'qlariga urinadi. Aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $x^2 + y^2 - 8x + 8y + 32 = 0$
B) $x^2 + y^2 + 8x - 8y + 16 = 0$
C) $x^2 + y^2 - 8x + 8y = 0$
D) $x^2 + y^2 - 8x + 8y + 16 = 0$

145. Aylana yoyi uzunligi

1. (a1-g14-30) To'rtta nuqta aylanani yoylarga ajratadi. Yoylarning uzunliklari 2:5:7:10 nisbatda bo'lingan. Shu to'rtta nuqtani ketma-ket tutashtirish natijasida hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 67,5° B) 72,5°
C) 75° D) 30°

2. (a2-g5-30) Aylananing uzunligi 24π ga teng. Shu aylananing 120° li yoyi uzunligi nechaga teng?
A) 9π B) 6π C) 8π D) 18π

3. (a3-g15-30) Radiusi 4 sm li aylananing markazidan 8 sm uzoqlikda joylashgan nuqtadan aylanaga ikki urinma o'tkazildi. Urinmalarning aylanadan ajratgan kichik yoyining uzunligini toping.
A) $\frac{2\pi}{3}$ B) $\frac{4\pi}{3}$ C) 2π D) $\frac{8\pi}{3}$

4. (a6-g7-25) AC va BD vatarlar va ular O nuqtada kesishadi. Agar AOD burchak 75° bo'lsa, BC va AD vatarlar tortib turgan yoylarning yig'indisini toping.
A) 210°
B) 150°
C) 105°
D) aniqlab bo'lmaydi

5. (a6-g11-24) Aylananing 90° li yoyini tortib turuvchi vatarning uzunligi $2x - 5$ ga, 120° li yoyini tortib turuvchi vatarning uzunli $2x + 4$ ga teng. Shu aylananing 60° li yoyini tortib turuvchi vatarning uzunligini toping.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) $\frac{18}{2\sqrt{3}-2\sqrt{2}}$
C) $\frac{5\sqrt{3}+2\sqrt{2}}{2\sqrt{2}+2\sqrt{3}}$
D) $\frac{5\sqrt{3}+4\sqrt{2}}{2\sqrt{3}-2\sqrt{2}}$

146. Ichki chizilgan burchaklar

1. (a2-g3-23) $|AO| = |AT| = 4$, $|AT| \perp |TC|$, $|OC| = ?$



A) $\frac{4}{5}\sqrt{3}$ B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$
C) $4\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{3}$

2. (a3-g8-30)



Shaklda AB = AC va BMC burchak 40° bo'lsa, ANB burchakni toping.
A) 60° B) 50° C) 80° D) 70°

3. (a3-g17-31)



$|AO| = |AT| = 6$, AO kesma OB kesmaga va AT kesma TC kesmaga perpendikular. OC ni toping.
A) $\frac{4}{5}\sqrt{3}$ B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$
C) $4\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{3}$

4. (a5-g1-30) Rasmda markazi O nuqtada joylashgan aylana tasvirlangan. Berilganlardan foydalanib x burchakning qiymatini toping.

A) 90° B) 120°
C) 150° D) 110°

5. (a5-g19-25) AE kesma yarim aylana diametri. Yarim aylanadan ketma-ket B, C va D nuqtalar olindi.
$\angle EAB + \angle AED + \angle BCD$ ni hisoblang.
A) aniqlab bo'lmaydi
B) 270°
C) 180°
D) 210°

147. Kesuvchi va urinma. Ular orasidagi burchak

1. (a1-g2-32)



Rasmdan foydalanib PT kesma uzunligini toping.
A) 9 B) 10 C) 12 D) 15

2. (a2-g18-30) Aylanadan tashqaridagi nuqtadan aylananing markazidan o'tuvchi kesuvchi va urinma o'tkazilgan. Aylananing radiusi 4,5 ga, nuqtadan urinish nuqtasigacha bo'lgan masofa 6 ga teng bo'lsa, nuqtadan aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A) 3 B) 1,5 C) 9 D) 12

3. (a3-g4-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi ($|PB| > |PA|$). $PT = 8$ va $PA = 4$ bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.
A) 10 B) 12 C) 16 D) 6

4. (a4-g5-30) Aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanaga PT urinma va aylanani A va B nuqtalarda kesib o'tuvchi chiziq o'tkazildi. ($|PB| > |PA|$). $PT = 8$ va $PA = 4$ bo'lsa, AB vatar uzunligini toping.
A) 10 B) 12 C) 16 D) 6

148. Doira yuzi

1. (a1-g10-29) Kesishuvchi ikki doiraning umumiy vatari 60° va 90° li yoylarni tortib turadi. Katta doira yuzining kichik doira yuziga nisbatini toping.
A) 4:1 B) 2:1 C) 9:4 D) 3:2

2. (a1-g10-31) Tomoni 6 ga teng bo'lgan kvadratga ichki va tashqi chizilgan aylanalar hosil qilgan halqaning yuzini toping.
A) 72π B) 36π
C) 18π D) 9π

3. (a1-g15-30) O_1 markazli aylana O_2 markazli aylanaga ichkaridan urinadi va O_2 aylana markazidan o'tadi. Agar O_1 markazli aylana radiusi 3 ga teng bo'lsa, bu ikki aylana orasida qolgan soha yuzini toping.
A) 18π B) 27π C) 15π D) 36π

4. (a1-g16-32) Diametri 50 ga teng to'rtta vodoprovod quvurini suv o'tkazish qobiliyati shu to'rt quvurnikiga teng bo'lgan bitta quvur bilan almashtirish kerak. Katta quvurning diametrini toping.
A) $50\sqrt{2}$ B) $50\sqrt{3}$
C) 100 D) 200

5. (a2-g3-33) Doira yuzini 96% ga orttirish uchun uning radiusini necha % ga orttirish kerak?
A) 40 B) 15 C) 20 D) 35

6. (a2-g5-31) Tomoni 6 ga teng bo'lgan kvadratga ichki va tashqi chizilgan aylanalar hosil qilgan halqaning yuzini toping.
A) 72π B) 36π C) 18π D) 9π

7. (a2-g7-30) Markazlari bir nuqtada bo'lgan ikki aylana yordamida halqa hosil qilindi. Agar katta aylananing 16 ga teng bo'lgan vatari kichik aylanaga urinsa, halqaning yuzini toping.
A) 256π B) 32π
C) 16π D) 64π

8. (a2-g10-29) Kesishuvchi ikki doiraning umumiy vatari 90° va 120° li yoylarni tortib turadi. Katta doira yuzining kichik doira yuziga nisbatini toping.
A) 4:3 B) 3:2 C) 16:9 D) 2:1

9. (a2-g14-24) Markazi bir nuqtada bo'lgan ikki doiradan kichigining radiusi kattasining radiusidan 10% ga kam. Ularning orasidagi halqaning yuzasi kichik doiraning yuzasidan necha marta ko'p?
A) $0,(21)$ B) $\frac{19}{3}$
C) $\left(\frac{81}{19}\right)^{1}$ D) 0,19

10. (a2-g19-36) Radiusi 20 sm bo'lgan sharning markazidan 10 sm uzoqlikdagi kesimda hosil bo'lgan doiraning yuzasi necha sm^2?
A) 225π B) 375π
C) 300π D) 100π

11. (a3-g1-30)



Yondagi shaklda markazlari bir chiziqda yotuvchi uchta aylana berilgan. $R_1 = 6$ va $R_2 = 5$ bo'lsa, bo'yalgan sohaning yuzini toping.
A) 56π B) 60π C) 28π D) 30π

12. (a3-g7-30) Aylananing vatari, shu aylanaga konsentrik bo'lgan boshqa aylanaga urinadi. Agar vatarning uzunligi 12 ga teng bo'lsa, aylanalar orasida qolgan halqaning yuzini toping.
A) 144π
B) 72π
C) 36π
D) aniqlab bo'lmaydi

13. (a3-g11-30) Kesishuvchi ikki doiraning umumiy vatari 90° va 120° li yoylarni tortib turadi. Katta doira yuzining kichik doira yuziga nisbatini toping.
A) 3:2 B) 4:3 C) 16:9 D) 2:1

14. (a3-g13-32) Doiraga ichki chizilgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlari 12 va 10 ga teng bo'lsa, doiraning yuzini toping.
A) 72π B) 244π
C) 122π D) 61π

15. (a3-g14-30) Markazlari bir nuqtada bo'lgan ikki aylanalardan kattasining 12 ga teng bo'lgan vatari kichik aylanaga urinadi. Aylanalar orasida qolgan halqa yuzini toping.
A) 36π B) 144π
C) 9π D) 18π

16. (a3-g17-30) Doira yuzini 125% ga orttirish uchun uning radiusini necha % ga orttirish kerak?
A) 25 B) 50
C) 20 D) $5\sqrt{5}$

17. (a3-g19-30) Radiusi 12 sm li doira o'zaro parallel ikki to'g'ri chiziq bilan kesildi. To'g'ri chiziqlar orasidagi masofa 6 sm va ularning biri markazdan o'tgan bo'lsa, doiraning shu ikki chiziq orasida qolgan qismi yuzini toping.
A) $24\pi + 36\sqrt{3}$
B) $72\pi + 24\sqrt{3}$
C) $48\pi + 36\sqrt{3}$
D) $18\pi + 24\sqrt{3}$

18. (a4-g1-30) Doira yuzini 32,25% ga orttirish uchun uning radiusini necha % ga orttirish kerak?
A) 5,5 B) 15 C) 25 D) 22,5

19. (a4-g1-36) Radiusi 20 sm bo'lgan sharning markazidan 14 sm uzoqlikdagi kesimda hosil bo'lgan doiraning yuzasi necha sm^2?
A) 204π B) 400π
C) 196π D) 51π

20. (a4-g2-30) Markazlari bir nuqtada bo'lgan ikki aylanalardan kattasining 14 ga teng bo'lgan vatari kichik aylanaga urinadi. Aylanalar orasida qolgan halqa yuzini toping.
A) 196π B) 100π
C) 49π D) 98π

21. (a4-g10-30)



Rasmda markazlari O nuqtada bo'lgan aylanalar tasvirlangan. CD katta aylanaga, CA kichik aylanaga urinma. Agar $CD = 4\sqrt{3}$ va $BC = 4$ bo'lsa, aylanalar orasida qolgan halqa yuzini toping.
A) 12π B) 8π C) 24π D) 16π

22. (a4-g19-30) Yarim aylana ichiga kichikroq yarim aylana ichki chizilgan. Kichik yarim aylana katta yarim aylana yuzini teng ikki bo'lakka bo'ladi. Bu yarim aylanalar radiuslari nisbatini toping.
A) 4 B) 2 C) $\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2}$

23. (a4-g24-30) Markazlari bir nuqtada bo'lgan katta aylananing 12 ga teng vatari kichik aylanaga urinadi. Bu aylanalar hosil qilgan halqaning yuzini toping.
A) 144π B) 36π
C) 48π D) 72π

24. (a5-g9-31) Tomoni 6 ga teng bo'lgan kvadratga ichki va tashqi chizilgan aylanalar hosil qilgan, halqaning yuzini toping.
A) 72π B) 36π C) 18π D) 9π

25. (a5-g15-30) Markazi bir nuqtada bo'lgan ikki doiradan kichigining radiusi kattasining radiusidan 30% ga kam. Ularning orasidagi halqaning yuzasi katta doira yuzasining qancha qismini tashkil etadi?
A) 0,51 B) 0,49
C) $\left(\frac{51}{49}\right)^{-1}$ D) 0,7

26. (a5-g16-25) Bir aylananing 60°li yoyi uzunligi, ikkinchi aylananing 120° li yoyi uzunligiga teng. Bu aylanalar hosil qilgan doiralar yuzlari nisbatini toping.
A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{1}{8}$ D) $\frac{1}{16}$

27. (a5-g23-25) Aylananing 2 ga teng vatari α yoyni, 6 ga teng vatari β yoyni tortib turadi. $\alpha + \beta = 180°$ bo'lsa, bu aylana hosil qilgan doira yuzini toping.
A) 8π B) 10π C) 20π D) 16π

28. (a6-g13-28) Kvadrat va doiraning perimetrlari teng. Doira yuzining kvadrat yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{\pi}{4}$ B) $\frac{\pi}{6}$ C) $\frac{4}{\pi}$ D) $\frac{6}{\pi}$

30. (a6-g14-6)



Rasmda keltirilgan uchburchak asosining uchlari aylana markazidan bir xil uzoqlikda yotadi. Agar aylananing radiusi 2 ga teng bo'lsa, shtrixlangan sohalar yuzalari yig'indisini toping.
A) $4 - \pi$ B) $2 - \frac{\pi}{2}$
C) $2 - \pi$ D) $8 - \pi$

31. (a6-g16-28) Markazi bir nuqtada bo'lgan ikki doiradan kichigining radiusi kattasining radiusidan 30% ga kam. Ularning orasidagi halqaning yuzasi katta doira yuzasining qancha qismini tashkil etadi?
A) 0,51 B) 0,49
C) $\left(\frac{51}{49}\right)^{-1}$ D) 0,7

32. (a6-g18-21) Tomonlari 5 sm va 4 sm ga teng bo'lgan parallelogramning 30° li o'tkir burchaklaridan biri aylana markazida, ikkinchisi esa aylanada yotibdi. Aylana hosil qilgan doiraning parallelogramm tashqarisida qolgan qismi yuzasini hisoblang. ($\pi = 3$ deb olinsin)
A) $113 + 60\sqrt{3}$
B) $113 - 60\sqrt{3}$
C) $183 - 30\sqrt{3}$
D) $63 + 60\sqrt{3}$

149. Sektor yuzi

1. (a2-g2-24) Hosilalar uchun formulalarning qaysilari to'g'ri?
1) $(u \cdot v)' = u' \cdot u + v' \cdot v$;
2) $\left(f(\varphi(x))\right)' = \varphi'(x) \cdot f'(\varphi(x))$;
3) $(u \pm v)' = u'v \pm uv'$;
4) $\left(\frac{u}{v}\right)' = \frac{u'v - uv'}{v^2}$
$(\operatorname{ctg} x)' = -\frac{1}{\sin^2 x}$.
A) 3; 4; 5 B) 2; 4; 5
C) 2; 3; 5 D) 1; 2; 3

2. (a2-g16-30) Radiusi $2\sqrt{3} + 3$ ga teng bo'lgan aylananing 120° li yoyiga uning ikki tarafi va yoyiga urinadigan aylana ichki chizilgan. Shu ichki chizilgan aylana radiusini toping.
A) $\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{3}$ C) 6 D) 3

3. (a2-g17-29) Ichki burchaklari yig'indisi tashqi burchaklari yig'indisidan 5 marta ko'p bo'lgan ko'pburchakning nechta diagonali bor?
A) 54 B) 35 C) 20 D) 77

4. (a2-g21-30) Yuzasi, radiusi 12 ga teng bo'lgan doiraning 40° li sektori yuziga teng bo'lgan doiraning perimetrini toping.
A) 12π B) 18π
C) 16π D) 8π

5. (a4-g17-30) Yondagi rasmda A markazli aylana chorak qismining AB va AC radiuslariga uringan aylana ichki chizilgan. $AC=2+2\sqrt{2}$ bo'lsa, shtrixlangan soha yuzini toping. ($\pi = 3$)

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{3}{2}$

C) 2 D) 1

6. (a4-g18-30) O markazli sektorning markaziy burchagi 120° va radiusi 3 ga teng, O_1 markazli aylana sektorning ikki yon tarafiga va katta aylanaga urinadi. Rasmdagi shtrixlangan soha yuzini toping.



A) $189\pi - 108\sqrt{3}\pi$

B) $3\sqrt{3}\pi\left(2-\sqrt{3}\right)$

C) $108\sqrt{3}\pi - 186\pi$

D) $144\sqrt{3}\pi - 216\pi$

7. (a4-g22-30) 50° li sektori yuzi 30π ga teng doiraning eng katta vatari uzunligini toping.

A) 12 B) $12\sqrt{6}$

C) 24 D) $6\sqrt{6}$

8. (a4-g25-30) Doiraning 20° li yoyining uzunligi 3 sm. Ushbu yoy ajratgan sektor yuzasini toping.

A) $\frac{9}{\pi}$ B) $\frac{27}{4\pi}$

C) $\frac{81}{2\pi}$ D) $\frac{9}{4\pi}$

9. (a5-g13-25) Doiraning 20° li yoyining uzunligi 3 sm. Ushbu yoy ajratgan sektor yuzasini toping.

A) $\frac{9}{\pi}$ B) $\frac{27}{4\pi}$

C) $\frac{81}{2\pi}$ D) $\frac{9}{4\pi}$

10. (a5-g22-25) Radiusi 6 ga teng aylanaga 5 ta teng vatarlar yordamida beshburchak ichki chizildi. Bu vatarlar hosil qilgan sektorlar yuzalari yig'indisini toping.

A) $18\pi - 45\sin 36°$

B) $36\pi - \sin 36°$

C) $18\pi - 45\sin 72°$

D) $36\pi - 90\sin 72°$

11. (a6-g15-22) Doiraning 40° li yoyining uzunligi 5 sm. Ushbu yoy ajratgan sektor yuzasini toping.

A) $\frac{25}{\pi}$ B) $\frac{25}{16\pi}$

C) $\frac{225}{4\pi}$ D) $\frac{125}{4\pi}$

150. Segment yuzi

1. (a1-g12-26) Aylananing radiusi 25 sm ga teng. Shu aylananing markazidan 12,5 sm uzoqlikda joylashgan vatari hosil qilgan segmentning yuzini toping.

A) $625\left(\frac{\pi}{3}-\frac{\sqrt{3}}{4}\right)$ B) $625\left(\frac{\pi}{6}-\frac{\sqrt{3}}{4}\right)$

C) $625\left(\frac{\pi}{6}-\frac{1}{4}\right)$ D) $625\left(\frac{\pi}{12}-\frac{1}{4}\right)$

2. (a2-g13-25) Radiusi R ga teng bo'lgan doiraning markazidan bir tomonda ikkita bir-biriga parallel vatarlar o'tkazildi. Bu vatarlardan biri 120°li yoyni, ikkinchisi 60°li yoyni tortib turibdi. Parallel vatarlar orasidagi sohaning yuzini toping.

A) $\frac{\pi R^2}{3}$ B) $\frac{\pi R^2}{8}$

C) $\frac{\pi R^2}{4}$ D) $\frac{\pi R^2}{6}$

3. (a2-g14-36) Radiusi 4 sm bo'lgan sharning markazidan 2 sm uzoqlikda joylashgan kesimning yuzasini toping.

A) $2\sqrt{2}\pi$ B) 12π

C) 8π D) $2\sqrt{3}\pi$

4. (a2-g20-30) Aylananing radiusi 2 ga teng. Radiusni teng ikkiga bo'luvchi vatar o'tkazilgan. Ushbu vatar hosil qilgan kichik yuzani toping. ($\pi = 3$)

A) $6-3\sqrt{2}$ B) $3-\sqrt{3}$

C) $4-\sqrt{6}$ D) $4-\sqrt{3}$

5. (a3-g9-30) Doiraning 120° li yoyini tortib turuvchi vatarining uzunligi 6 ga teng. Shu vatar hosil qilgan segmentning yuzini toping.

A) $12\pi - \frac{9\sqrt{3}}{2}$ B) $8\pi - 6\sqrt{3}$

C) $4\pi - 3\sqrt{3}$ D) $8\pi - 3\sqrt{3}$

6. (a3-g23-30) Aylananing radiusi 2 ga teng. Markazdan 1 ga teng masofadan vatar o'tkazilgan. Ushbu vatar hosil qilgan segment yuzini toping. ($\pi = 3$)

A) $6-3\sqrt{2}$ B) $3-\sqrt{3}$

C) $4-2\sqrt{3}$ D) $4-\sqrt{3}$

7. (a3-g24-30) Rasmda ko'rsatilgan aylananing radiusi 6 ga teng. Rasmda bo'yalgan soha yuzasini toping.



A) $12\pi - 6\sqrt{3}$ B) $6\pi + 9\sqrt{3}$

C) $6\pi + 6\sqrt{3}$ D) $9\pi - 3\sqrt{3}$

8. (a4-g20-30) Aylananing radiusi 4 ga teng. Radiusni teng ikkiga bo'luvchi vatar o'tkazilgan. Ushbu vatar hosil qilgan sohalardan kattasining yuzini toping. ($\pi = 3$)

A) $16-8\sqrt{3}$ B) $8\sqrt{3}$

C) 32 D) $32+4\sqrt{3}$

9. (a5-g5-30) Rasmda tasvirlangan α burchak 30°. Doiraning radiusi 12 ga teng bo'lsa, shtrixlangan soha yuzasini toping.



A) $36\sqrt{3}-12\pi$ B) $36\sqrt{3}+24\pi$

C) $72\sqrt{3}+48\pi$ D) $48\pi-24\sqrt{3}$

10. (a5-g18-31) Radiusi 6 ga teng bo'lgan aylananing bir nuqtasidan o'zaro teng ikki vatar chiqarildi. Bu ikki vatar orasidagi burchak 60° bo'lsa, bu vatarlar hosil qilgan segmentlar yuzalarining yig'indisini toping.

A) $12\pi-9\sqrt{3}$ B) $24\pi-18\sqrt{3}$

C) $6\pi-9\sqrt{3}$ D) $12\pi-18\sqrt{3}$

11. (a5-g21-25) Markazi E nuqtada bo'lgan kichik aylana markazi O nuqtadagi katta aylanaga ichki tomondan urinadi. $|AO| = 18$ va $AB \perp CD$ bo'lsa, bo'yalgan soha yuzasini toping.



A) $36\pi - 27\sqrt{3}$

B) $81\pi - 40{,}5\sqrt{3}$

C) $67{,}5\pi - 81\sqrt{3}$

D) $108\pi - 40{,}5\sqrt{3}$

12. (a6-g5-25) Aylana markazidan turli tomonlarda yotuvchi parallel vatarlardan biri 45° li yoyni, ikkinchisi esa 90° yoyni tortib turadi. Agar aylana radiusi R ga teng bo'lsa, bu ikki vatar orasidagi soha yuzini toping.

A) $\frac{5\pi+4+4\sqrt{2}}{4}R^2$

B) $\frac{3\pi+4\sqrt{2}+2}{8}R^2$

C) $\frac{5\pi+4}{8}R^2$

D) $\frac{5\pi+4+2\sqrt{2}}{8}R^2$

13. (a6-g8-25) Aylananing radiusiga teng vatari ajratgan yuzalar nisbatini toping

A) $\frac{2\pi-3\sqrt{3}}{10\pi+3\sqrt{3}}$

B) $\frac{2\pi+3\sqrt{3}}{10\pi-3\sqrt{3}}$

C) $\frac{2\pi-3\sqrt{3}}{10\pi-3\sqrt{3}}$

D) berilganlar yetarli emas

14. (a6-g18-10)



Rasmdagi aylananing radiusi R ga va AOB burchak α ga teng. OA = OB bo'lsa, bo'yalgan soha yuzini toping.

A) $\frac{\alpha}{2}R^2+\cos\alpha$

B) $\frac{\alpha}{2}R^2+R^2\sin\alpha$

C) $\alpha R^2+R^2\sin\alpha$

D) $\alpha R^2+R^2\cos\alpha$

15. (a6-g23-17) Rasmda ko'rsatilgan kvadratning tomoni 1 ga teng. Bo'yalgan sohaning yuzini toping.



A) $\frac{\pi-3-\sqrt{3}}{3}$

B) $\frac{\pi-\sqrt{3}}{3}$

C) $\frac{\pi+3-3\sqrt{3}}{3}$

D) $\frac{\pi+2-\sqrt{3}}{3}$

16. (a6-g23-29) Rasmda ACB burchak 30° va aylana radiusi 12 ga teng. Bo'yalgan soha yuzini toping.



A) $24\pi+36\sqrt{3}$

B) $12\pi+36\sqrt{3}$

C) $24\pi+48\sqrt{3}$

D) $36\pi+24\sqrt{3}$

151. Aylana tenglamasi

1. (a1-g8-32) $(x+1)^2+(y+3)^2=5$ aylananing y o'qidan ajratgan kesmasi uzunligini toping.
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4

2. (a1-g15-32) Markazi (1; –2) nuqtada joylashgan va koordinata boshidan o'tuvchi aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $x^2+y^2-2x+4y-5=0$
B) $x^2+y^2-2x+4y=0$
C) $x^2+y^2+2x-4y-5=0$
D) $x^2+y^2+2x-16y=0$

3. (a2-g3-21) A $x^2+y^2-6x+2y-26=0$ aylanadagi bir nuqta, B $x^2+y^2-6x+2y+6=0$ aylanadagi bir nuqta. |AB| ning eng kichik qiymati nechaga teng bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

4. (a2-g10-33) Markazi (0,25; –1) nuqtada joylashgan va radiusi 1 ga teng bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $16x^2+16y^2-8x+32y+1=0$
B) $x^2+y^2-8x+2y+16=0$
C) $16x^2+16y^2+8x-32y+1=0$
D) $4x^2+4y^2-2x+16y+2=0$

5. (a2-g17-31) Tomoni 4 ga teng rombga radiusi 1,5 ga teng aylana ichki chizilgan. Romb diagonallari yig'indisini toping.
A) $7\sqrt{4}$ B) $2\sqrt{14}$
C) $4\sqrt{7}$ D) $3\sqrt{10}$

6. (a2-g17-32) Koordinata boshidan $x^2+y^2+10x-10y+41=0$ aylanagacha bo'lgan eng qisqa masofani toping.
A) $5-3\sqrt{2}$ B) $5\sqrt{2}-3$
C) $9-5\sqrt{2}$ D) $3\sqrt{2}+2$

7. (a2-g18-32) Markazi $\left(-\frac{1}{3};2\right)$ nuqtada joylashgan va radiusi 4 ga teng bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $4x^2+4y^2+24x-4y-27=0$
B) $9x^2+9y^2+6x-36y-107=0$
C) $x^2+y^2+6x-4y-3=0$
D) $9x^2+9y^2-6x+36y-107=0$

8. (a2-g22-32) $(x-2)^2+(y+1)^2=4$ aylanaga konsentrik bo'lgan va A(3; 1) nuqtadan o'tuvchi aylana tenglamasini ko'rsating.

A) $(x+2)^2+(y-1)^2=\sqrt{5}$

B) $(x-2)^2+(y+1)^2=\sqrt{5}$

C) $(x+2)^2+(y-1)^2=5$

D) $(x-2)^2+(y+1)^2=5$

9. (a2-g23-31) Tenglamasi $x^2+y^2-10x+4y+13=0$ bo'lgan aylananing radiusini toping.
A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

10. (a3-g11-32) Markazi $\left(\frac{1}{3};-\frac{1}{2}\right)$ nuqtada joylashgan va radiusi 2 ga teng bo'lgan aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $36x^2+36y^2+24x-36y-131=0$
B) $36x^2+6y^2-4x+6y-19=0$
C) $36x^2+36y^2-24x+36y-131=0$
D) $x^2+y^2-6x+4y+9=0$

11. (a3-g17-32)
A $x^2+y^2-12x+2y-12=0$ aylanadagi bir nuqta,
B $x^2+y^2-12x+2y+21=0$ aylanadagi bir nuqta. |AB| ning eng kichik qiymati nechaga teng bo'lishi mumkin?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

12. (a3-g23-32) $(x-2)^2+(y+1)^2=4$ aylanaga konsentrik bo'lgan va A(3;1) nuqtadan o'tuvchi aylana tenglamasini ko'rsating.

A) $(x+2)^2+(y-1)^2=\sqrt{5}$

B) $(x-2)^2+(y+1)^2=\sqrt{5}$

C) $(x+2)^2+(y-1)^2=5$

D) $(x-2)^2+(y+1)^2=5$

13. (a5-g9-32) Markazi koordinata tekisligining to'rtinchi choragida yotgan aylananing radiusi 4 ga teng va u koordinata o'qlariga urinadi. Aylana tenglamasini ko'rsating.
A) $x^2+y^2-8x+8y+32=0$
B) $x^2+y^2+8x-8y+16=0$
C) $x^2+y^2-8x+8y=0$
D) $x^2+y^2-8x+8y+16=0$

14. (a5-g10-32) $(x-4)^2+(y+1)^2=16$ aylana $y=mx-3$ ga urinsa, m ning qiymatini toping.
A) –0,(6) B) –0,75
C) –0,5 D) –0,4

15. (a6-g14-11) Tenglamasi $x^2+y^2-4y-12=0$ bo'lgan aylananing OY o'qining musbat yo'nalishi hamda OX o'qining manfiy yo'nalishini kesib o'tuvchi nuqtalari orasidagi masofani toping.
A) $4\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{10}$
C) $2\sqrt{3}$ D) 4

16. (a6-g15-5) Quyida keltirilgan aylanalardan qaysi biri OY o'qi bilan 2 ta umumiy nuqtaga ega?
A) $4+x^2+y^2+25-10x-4y=29$
B) $9+x^2+y^2+36-12x+6y=16$
C) $25+x^2+y^2+8x-6y=16$
D) $16+x^2+y^2+21+8x+10y=0$

17. (a6-g26-27) $x^2+y^2-10y+12x=-37$ tenglama bilan berilgan aylana radiusini toping.
A) 9 B) $2\sqrt{6}$
C) $\sqrt{85}$ D) 7

5-bob. Aylana va ko'pburchak

152. Uchburchakka ichki chizilgan aylana

1. (a1-g3-7) Quyidagi tasdiqlarning qaysilari noto'g'ri?
1) Uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi bissektrisalar kesishgan nuqtada bo'ladi;
2) Teng yonli uchburchakning balandliklari kesishish nuqtasidan 2:1 nisbatda bo'linadi;
3) Qavariq n burchakning bir uchidan chiqarilgan diagonallar ko'pburchakni n – 3 ta uchburchakka ajratadi;
4) Trapetsiyaning diagonallari kesishish nuqtasidan diagonal teng ikki bo'lakka bo'linadi;
5) O'xshash figuralarning yuzlari nisbati chiziqli o'lchovlari nisbati kvadratiga teng.
A) 1; 3; 5 B) 2; 3; 5
C) 2; 3; 4 D) 1; 4; 5

2. (a2-g6-31) Uchburchak va aylana shunday chizilganki, markazi uchburchakning bir tomonida yotib, qolgan ikki tomonlariga urinadi. Agar uchburchakning yuzi 48, ikkita urinuvchi tomonlari esa 9 va 7 ga teng bo'lsa, aylananing radiusini toping.
A) 6 B) 4 C) 3 D) 8

3. (a2-g8-32) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 12 va 5 ga teng. ADC uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan B uchgacha bo'lgan masofani toping.
A) 13 B) 11
C) $\sqrt{85}$ D) $\sqrt{109}$

4. (a2-g12-26) Uchburchak va aylana shunday chizilganki, aylananing markazi uchburchakning bir tomonida yotib, qolgan ikki tomonlariga urinadi. Agar uchburchakning yuzi 26, ikkita urinuvchi tomonlari esa 6 va 7 ga teng bo'lsa, aylananing radiusini toping.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5. (a2-g15-31) Katetlari *a* va *b*, gipotenuzasi *c* ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (d) toping.
A) $d=(a+b-c)\sqrt{2}$
B) $d=\frac{a+b-c}{\sqrt{2}}$
C) $d=\frac{a^2+b^2+c^2}{9}$
D) $d=\frac{a+b+c}{\sqrt{3}}$

6. (a2-g16-31) To'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana gipotenuzani urinish nuqtasidan 6 va 10 ga teng bo'lgan kesmalarga ajratadi. Bu uchburchakning yuzini toping.
A) 60 B) 30 C) 45 D) 40

7. (a2-g19-31) Katetlari *a* va *b*, gipotenuzasi *c* ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (D) toping.
A) $d=\frac{a+b-c}{\sqrt{2}}$
B) $d=(a+b-c)\sqrt{2}$
C) $d=\frac{a+b+c}{\sqrt{3}}$
D) $d=\frac{a^2+b^2+c^2}{9}$

8. (a2-g22-31) Radiusi 5 ga teng bo'lgan doiraga uchburchak shunday ichki chizilganki, uchburchakning bir tomoni aylananing diametriga teng. Shu uchburchakka ichki chizilgan doiraning radiusi 1 ga teng bo'lsa, uchburchakning yuzini toping.
A) 22 B) 11
C) $8\sqrt{2}$ D) $6\sqrt{2}$

9. (a3-g3-32) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 12 va 5 ga teng. ADC uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan B uchgacha bo'lgan masofani toping.
A) 13 B) 11
C) $\sqrt{85}$ D) $\sqrt{109}$

10. (a3-g4-31) Katetlari *a* va *b*, gipotenuzasi *c* ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazida to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (*d*) toping.
A) $d=\frac{a+b-c}{\sqrt{2}}$
B) $d=(a+b-c)\sqrt{2}$
C) $d=\frac{a+b+c}{\sqrt{3}}$
D) $d=\frac{a^2+b^2+c^2}{9}$

11. (a3-g7-36) Uchburchakning tomonlari sharga urinadi. Sharning radiusi 4 ga teng. Shar markazidan uchburchak tekisligigacha masofa 3 ga teng bo'lsa, uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.
A) $\sqrt{7}$ B) 1 C) 5 D) 2

12. (a3-g12-31) Katetlari *a va b*, gipotenuzasi *c* ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (*d*) toping.
A) $d=\frac{a+b-c}{\sqrt{2}}$
B) $d=(a+b-c)\sqrt{2}$
C) $d=\frac{a-b+c}{\sqrt{3}}$
D) $d=\frac{a^2+b^2+c^2}{9}$

13. (a3-g18-31) Katetlari 3 va 4 ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (d) toping.
A) $\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{2}$ C) $4\sqrt{3}$ D) $\frac{50}{9}$

14. (a3-g20-32) To'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana gipotenuzaga urinish nuqtasidan gipotenuzani 4 va 21 ga teng bo'laklarga ajratadi. Aylananing radiusini toping.
A) 2 B) 3 C) 8 D) 6

15. (a3-g21-31) To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 7 va 24 ga teng. Shu uchburchakka ichki chizilgan aylana gipotenuzani urinish nuqtasidan qanday uzunliklardagi kesmalarga ajratadi?
A) 17 va 8 B) 10 va 15
C) 21 va 4 D) 20 va 5

16. (a4-g8-31) Katetlari *a* va *b*, gipotenuzasi *c* ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazida to'g'ri burchak uchigacha bo'lgan masofani (d) toping.
A) $d=\frac{a+b-c}{\sqrt{2}}$
B) $d=(a+b-c)\sqrt{2}$
C) $d=\frac{a+b+c}{\sqrt{3}}$
D) $d=\frac{a^2+b^2+c^2}{9}$

17. (a4-g11-12) Quyidagi tasdiqlarning qaysilari to'g'ri?
1) Uchburchakka ichki chizilgan doiraning yuzasi $\frac{\pi}{4}\left(\frac{4S}{a+b+c}\right)^2$ formula (*a*, *b*, *c* uchburchakning tomonlari, S uchburchakning yuzasi) yordamida ifodalanadi; 2) o'xshash figuralarning yuzlarining nisbati ularning mos burchaklari sinusi kvadratining nisbatiga teng;
3) balandliklari va asoslarining radiusi teng bo'lgan konus va silindrning hajmlari nisbati 3 ga teng; 4) silindrning yon sirti yuzasi $2\pi R(R+h)$ formula yordamida topiladi; 5) Ixtiyoriy ko'pburchakning ichki burchaklariga qo'shni bo'lgan burchaklar yig'indisi 360 ga teng.
A) 1, 5 B) 2, 3, 5
C) 3, 4 D) 1, 2, 5

18. (a4-g24-31) Rasmda muntazam uchburchakka ichki chizilgan aylana tasvirlangan.

Agar uchburchakning tomoni $4\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, bo'yalgan soha yuzini toping.



A) $\frac{12\sqrt{3}-4\pi}{3}$ B) $\frac{8\sqrt{3}-2\pi}{3}$

C) $\frac{6\sqrt{3}-2\pi}{3}$ D) $\frac{8\sqrt{3}-4\pi}{3}$

19. (a5-g4-31) ABC to'g'ri burchakli uchburchakning BC kateti aylana diametrida yotadi va diametrga teng. AB katet esa B nuqtada aylanaga urinadi. AC gipotenuza aylanani D nuqtada kesib o'tadi. Agar AB = 15 va DC = 16 bo'lsa, aylana radiusini toping.
A) 10 B) 9 C) 12 D) 6

20. (a5-g11-26) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB va BC tomonlari mos ravishda 8 va 15 ga teng. ADC uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan B uchgacha bo'lgan masofani toping.
A) $3\sqrt{2}$ B) 13
C) $5\sqrt{2}$ D) $8\sqrt{2}$

21. (a5-g15-11) Muntazam uchburchakka aylana ichki chizilgan. Shu aylanaga esa muntazam oltiburchak ichki chizilgan. Uchburchak va oltiburchak yuzlarining nisbatini toping.
A) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ B) 4
C) $\frac{2}{3}$ D) 2

22. (a5-g17-26) Teng yonli uchburchakka ichki chizilgan aylana yon tomonini urinish nuqtasidan, uchidan boshlab 3 va 7 ga teng kesmalarga ajratadi. Shu aylana radiusini toping.
A) $\frac{7\sqrt{51}}{17}$ B) 3
C) $\frac{7\sqrt{51}}{10}$ D) $\frac{3\sqrt{51}}{10}$

23. (a5-g24-26) Tomonlari 7, 9 va 12 bo'lgan uchburchakka aylana ichki chizilgan. Uchburchakning aylanaga urinish nuqtalarini ketma-ket tutashtirishdan hosil bo'lgan uchburchak yuzini toping.
A) $\frac{308\sqrt{5}}{27}$ B) $\frac{35\sqrt{5}}{18}$
C) $\frac{63\sqrt{5}}{14}$ D) $\frac{70\sqrt{5}}{27}$

24. (a5-g25-26) ABC to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana BC gipotenuzaga K nuqtada urinadi, BK = 4 va KC = 6. AK kesma uzunligini toping.
A) $\sqrt{\frac{116}{5}}$ B) $\sqrt{\frac{59}{3}}$
C) $\sqrt{\frac{127}{2}}$ D) $\sqrt{\frac{209}{3}}$

25. (a6-g4-26)



Rasmda berilgan to'g'ri burchakli uchburchakning AB va BC katetlari mos ravishda 9 va 12 ga teng bo'lsa, bo'yalgan soha yuzini toping.
A) 27 – 9arctg3 B) 18 – 9arcctg2
C) 27 – 9arcctg3 D) 18 – 9arctg2

26. (a6-g15-25) Tomoni 18 ga teng kvadratning diagonali uni ikki uchburchakka ajratadi. Shu uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.
A) $36-9\sqrt{2}$ B) $18+18\sqrt{2}$
C) $36-18\sqrt{2}$ D) $18-9\sqrt{3}$

27. (a6-g20-3) ABC uchburchakning AB, BC va AC tomonlari mos ravishda 9, 12 va 14 ga teng. Bu uchburchakka aylana ichki chizilgan. Aylanaga o'tkazilgan urinma AC tomonni M nuqtada, BC tomonni N nuqtada kesib o'tadi. CMN uchburchak perimetrini toping.
A) 11 B) 7 C) 17,5 D) 17

28. (a6-g22-21) Kateti 12 bo'lgan teng yonli to'gri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana markazidan o'tkir burchak uchigacha masofani toping.
A) 10 B) $6\sqrt{2+\sqrt{2}}$
C) $12\sqrt{2-\sqrt{2}}$ D) $12\sqrt{\sqrt{2}-1}$

29. (a6-g26-26) Tomonlari uzunliklari 11, 60 va 61 bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.
A) 5 B) 30,5 C) 55 D) 27,5

153. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana

1. (a1-g1-12) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi bissektrisalar kesishish nuqtasida bo'ladi.
B) Teng yonli uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi uning balandligiga teng bo'ladi.
C) Eng katta burchagi 96° bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazi uchburchak tashqarisida yotadi.
D) Tog'ri burchakli uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi gipotenuzaga tushirilgan medianaga teng.

2. (a1-g9-31) Uchburchakning kichik tomoni 3 ga teng. Unga tashqi chizilgan aylananing diametri esa $3\sqrt{2}$ ga teng. Uchburchakning kichik burchagini toping.
A) 45° B) 60° C) 120° D) 135

3. (a1-g13-31) Radiusi 5 ga teng bo'lgan doiraga uchburchak shunday ichki chizilganki, uchburchakning bir tomoni aylananing diametriga teng. Shu uchburchakka ichki chizilgan doiraning radiusi 1 ga teng bo'lsa, uchburchakning yuzini toping.
A) 11 B) 22
C) $8\sqrt{2}$ D) 12

4. (a2-g7-31) Tomonlari 10, 14 va 18 bo'lgan uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.
A) $\sqrt{\frac{160}{11}}$ B) $\sqrt{\frac{120}{11}}$
C) $\sqrt{\frac{240}{11}}$ D) $\sqrt{\frac{280}{11}}$

5. (a2-g14-32) Bir tomoni 20, unga yopishgan burchaklari 105° va 45°. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana diametrini toping.
A) 40 B) 30 C) 20 D) 10

6. (a3-g15-31) Quyidagi mulohazalardan qaysilari to'g'ri?
1) Uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi $R=\frac{abc}{2S}$ (a, b, c – uchburchakning tomonlari, S – uchburchak yuzasi) formula bilan hisoblanadi; 2) O'xshash figuralarning yuzlarining nisbati ularning mos chiziqli o'lchovlarining kvadratlari nisbatiga teng; 3) Bir tomoni a ga va shu tomon qarshisidagi burchagi α ga teng uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi $R=\frac{2a}{\sin\alpha}$ formula bilan hisoblanadi; 4) Tomonlari a, b va c bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi $r=\frac{2S}{a+b+c}$ formula bilan hisoblanadi (S – uchburchak yuzasi); 5) Katetlari a va b, gipotenuzasi c ga teng to'g'ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi $r=\frac{a+b-c}{2}$ formula bilan hisoblanadi.
A) 1, 2, 5
B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 4
D) 1, 4, 5

7. (a3-g23-31) To'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari 10; 24 va 26 bo'lsa, unga ichki va tashqi chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.

A) $2\sqrt{13}$ B) $\sqrt{65}$
C) $\sqrt{39}$ D) $\sqrt{78}$

8. (a4-g1-31) To'g'ri burchakli uchburchak katetlarining gipotenuzadagi proyeksiyasi 9 va 16 ga teng. Uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi shu uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusining necha foizini tashkil qiladi?

A) 20% B) 30%
C) 40% D) 60%

9. (a4-g2-31) Asosi 24 va yon tomonlari 13 bo'lgan teng yonli uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazidan uchburchakning yon tomonigacha bo'lgan masofani toping.



A) 15,6 B) 16,9 C) 13 D) 2,4

10. (a4-g10-31) Aylanadan A, B va C nuqtalar shunday tanlab olindiki, ABC muntazam uchburchak hosil bo'ldi. D nuqta esa BC kichik yoyda yotadi. BD = 3 va DC = 7 bo'lsa, AD kesma uzunligini toping.

A) 10 B) 9 C) 12 D) 14

11. (a5-g2-31) ABC uchburchakka aylana tashqi chizilgan. AB = 3, AC = 8 va AN bissektrisaning uzunligi 2 ga teng. AN bissektrisa davom ettirilganda aylanani D nuqtada kesib o'tadi. DN kesma uzunligini toping.

A) 10 B) 8 C) 9 D) 12

12. (a6-g2-26) ABC uchburchakda AB = 8, BC = 7 va sinA + sinC = 1,5 bo'lsa, uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) 4 B) 5 C) 10 D) 7,5

13. (a6-g19-28) Tomonlari uzunliklari 9, 40 va 41 bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) 20,5 B) 36
C) 4 D) 25

14. (a6-g21-27) Tomoni 15 ga, unga yopishgan ikki burchaklari 36° va 84° bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana diametrini toping.

A) $15\sqrt{2}$ B) 7,5
C) $7,5\sqrt{2}$ D) $10\sqrt{3}$

15. (a6-g25-10) To'g'ri burchakli uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar radiusi 2 va 5 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) 24 B) 40
C) $\sqrt{51}$ D) $4\sqrt{6}$

154. Kvadratga ichki chizilgan aylana. To'rtburchak va aylana

1. (a1-g4-32)



Rasmda ko'rsatilgan kvadratning tomoni 4 sm. Uning ichiga to'rtta bir xil aylananing chorak qismli yoylari chizilgan. Yoylar orasidagi sohaning yuzini toping.

A) 16 B) $16-4\pi$
C) $8-2\pi$ D) $16+\pi$

2. (a1-g5-30) Doira va kvadratning perimetrlari teng. Kvadrat yuzining doira yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{\pi}{8}$ B) $\frac{\pi}{4}$ C) $\frac{8}{\pi}$ D) $\frac{4}{\pi}$

3. (a1-g8-30)



ABCD kvadrat. Unga markazlari A va B nuqtada bo'lgan chorak doiralar ichki chizilgan va bu chorak doiralar E nuqtada kesishadi. Bo'yalgan soha yuzasini toping. ($\pi = 3$)

A) $16-4\sqrt{3}$ B) $16\sqrt{3}-8$
C) $16-8\sqrt{3}$ D) $8\sqrt{3}-8$

4. (a1-g14-31) Rasmdagi kvadrat radiusi 1 ga teng bo'lgan aylananing chorak qismlari yordamida kesilgan. Bo'yalgan sohaning yuzini toping.



A) $1-\frac{\pi}{4}$ B) $2-\frac{\pi}{2}$
C) $4-\pi$ D) $4-\frac{\pi}{2}$

5. (a1-g17-31) ABCD kvadrat tomonining uzunligi 6 sm. Unga markazlari B va D nuqtalarda bo'lgan aylanalarning chorak qismlar ichki chizilgan. Bo'yalgan soha yuzini toping ($\pi = 3$)



A) 36 B) 18 C) 12 D) 9

6. (a2-g2-31) Aylana tomonlari 8 va 6 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ikki kichik va bir katta tomoniga urinadi. Shu aylananing to'rtinchi tomondan ajratgan kesmasi uzunligini toping.

A) $2\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{2}$
C) $4\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{2}$

7. (a2-g10-31) Kvadratga ichki va tashqi chizilgan aylanalar hosil qilgan halqaning yuzi 16π ga teng bo'lsa, shu kvadratning perimetrini toping.

A) 48 B) 64 C) 16 D) 32

8. (a3-g5-31) Rasmda tomonining uzunligi 6 ga teng bo'lgan kvadrat va unga chizilgan chorak aylanalar ko'rsatilgan. Bo'yalgan sohaning yuzini toping.



A) $9\pi-18$ B) $18\pi-18\sqrt{2}$
C) $9\pi-9\sqrt{2}$ D) $18\pi-36$

9. (a3-g19-31) Tomoni 16 ga teng kvadratning diagonali uni ikki uchburchakka ajratadi. Shu uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.

A) $32+8\sqrt{2}$ B) $32-16\sqrt{2}$
C) $16-8\sqrt{2}$ D) $16+16\sqrt{3}$

10. (a4-g7-31) Rasmda tomoni 12 ga teng bo'lgan kvadrat hamda unga ichki chizilgan chorak aylanalar ko'rsatilgan. Bo'yalgan sohalar yuzalari yig'indisini toping.



A) $36\sqrt{3}-12\pi$ B) $48\pi-72\sqrt{3}$
C) $72\sqrt{3}-24\pi$ D) $24\pi-36\sqrt{3}$

11. (a5-g12-26) Rasmdagi ABCD to'g'ri to'rtburchakka ichki chizilgan yarim va chorak aylanalar K nuqtada urinadi. Agar AB = 8 bo'lsa, bo'yalgan soha yuzasini toping.



A) $32\sqrt{2}-10\pi$ B) $48\sqrt{2}-16\pi$
C) $32\sqrt{2}-12\pi$ D) $\frac{2\sqrt{2}}{5}$

12. (a6-g14-23) Mahsulotning narxi birinchi marta 20% ga, ikkinchi marta yangi bahosi yana 10% ga kamaytirildi. Mahsulotning oxirgi bahosi necha foizga oshirilsa, uning narxi dastlabki narxiga teng bo'ladi?

A) $24\frac{8}{33}$ B) 25

C) $38\frac{8}{9}$ D) 30

13. (a6-g16-3) Rasmda ko'rsatilgan kvadratning tomoni 8 sm. Uning ichiga to'rtta bir xil aylananing chorak qismli yoylari chizilgan. Yoylar orasidagi sohaning yuzini toping.



A) $64-15\pi$ B) $64-8\pi$

C) $64-8\pi$ D) $64-16\pi$

155. To'g'ri to'rtburchakka tashqi chizilgan aylana

1. (a1-g3-22) Yuzasi 225π bo'lgan doiraga to'g'ri to'rtburchak ichki chizilgan. Agar shu to'rtburchakning bir tomoni 24 ga teng bo'lsa, uning ikkinchi tomonini toping.

A) 18 B) $32\sqrt{2}$

C) 48 D) $16\sqrt{2}$

2. (a1-g6-31) Doiraga ichki chizilgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlari 4 va 6 ga teng bo'lsa, doiraning yuzini toping.

A) 12π B) 16π C) 13π D) 20π

3. (a1-g15-31) Tomonlarining nisbati 8:15 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak aylanaga ichki chizilgan. Agar aylana radiusi 34 sm bo'lsa, to'rtburchak perimetrini toping.

A) 92 B) 184 C) 46 D) 138

4. (a3-g7-31) Radiusi 25 sm bo'lgan aylana kichik tomoni 32 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning uchta tomoniga urinadi. To'g'ri to'rtburchakning to'rtinchi tomonidan aylanani kesib o'tgan qismi uzunligining tomoni necha sm?

A) 36 B) 48 C) 24 D) 40

5. (a3-g10-31) Aylana tomonlari 18 va 12 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ikki kichik va bir katta tomoniga urinadi. Shu aylananing to'rtinchi tomondan ajratgan kesmasi uzunligini toping.

A) $4\sqrt{3}$ B) $6\sqrt{2}$

C) $8\sqrt{3}$ D) $12\sqrt{2}$

6. (a3-g11-31) Tomonlari 10 va 8 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ikkita kichik va bir katta tomoniga urinadigan aylana chizilgan. Shu aylana to'rtburchakning ikkinchi katta tomonidan qanday uzunlikdagi kesma ajratadi?

A) 3 B) 4 C) 6 D) 8

7. (a4-g13-36) To'rtta nuqta aylanani 0,5; 1,5; 2,5; 5,5 sonlariga proporsional yoylarga ajratadi. Shu nuqtalarni ketma-ket tutashtirish natijasida hosil bo'lgan to'rtburchak diagonallari orasidagi o'tmas burchakni toping.

A) 54 B) 72

C) 108 D) 126

8. (a4-g18-31) Radiusi 8 ga teng bo'lgan aylanaga ichki chizilgan to'g'ri to'rtburchakning bir tomoni 12 ga teng. Shu to'rtburchakning ikki katta tomoniga urinadigan doira yuzini toping.

A) 28π B) 36π

C) 56π D) 144π

9. (a5-g6-31) ABCD to'g'ri to'rtburchakning A uchidan BD diagonaliga tushirilgan AH balandlik 6 ga teng. Agar AB = 10 bo'lsa, bu to'rtburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) 12,5 B) 4 C) 8 D) 6,25

10. (a5-g21-26) Tomonlari 10 va 24 ga teng to'g'ri to'rtburchakning katta tomonini diametr qilib aylana chizilgan. Aylananing to'rtburchak diagonalidan ajratgan kesmasi uzunligini toping.

A) $\frac{60}{13}$ B) $\frac{288}{13}$

C) $\frac{120}{13}$ D) $\frac{144}{13}$

11. (a5-g22-26) Rasmda $|AB| = 2|BC| = 4$ sm ABCD to'g'ri to'rtburchak. Rasmdagi shtrixlangan yuzalar yig'indisini toping.



A) $8+\frac{2\pi}{3}-4\sqrt{3}$ B) $8+\frac{4\pi}{3}-4\sqrt{3}$

C) $8+\frac{4\pi}{3}-2\sqrt{3}$ D) $8+\frac{2\pi}{3}-2\sqrt{3}$

12. (a6-g9-26) Aylanaga to'g'ri to'rtburchak ichki chizilgan va uning tomonlari 4:3 nisbatda. To'rtburchakning tomonlari va diagonali hosil qilgan uchburchakka ichki chizilgan doira yuzining katta aylanaga tashqi chizilgan muntazam uchburchak yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{16\pi}{225\sqrt{3}}$ B) $\frac{4\pi}{75\sqrt{3}}$

C) $\frac{64\pi}{225\sqrt{3}}$ D) $\frac{4\pi}{225\sqrt{3}}$

156. Aylana va romb

1. (a2-g17-30) 50° li sektori yuzi 30π ga teng doiraning eng katta vatari uzunligini toping.

A) 12 B) $12\sqrt{6}$

C) 24 D) $6\sqrt{6}$

2. (a2-g21-31) Rombning tomoni unga ichki chizilgan aylananing urinish nuqtasidan 5 va 20 ga teng kesmalarga bo'linadi. Ichki chizilgan aylana uzunligini toping.

A) 10π B) 20π C) 5π D) 40π

3. (a4-g5-31) Rombning tomoni unga ichki chizilgan aylananing urinish nuqtasidan 5 va 20 ga teng kesmalarga bo'linadi. Ichki chizilgan aylana uzunligini toping.

A) 10π B) 20π

C) 5π D) 40π

4. (a4-g22-31) Tomoni 4 ga teng rombga radiusi 1,5 ga teng aylana ichki chizilgan. Romb diagonallari yig'indisini toping.

A) $7\sqrt{4}$ B) $2\sqrt{14}$

C) $4\sqrt{7}$ D) $3\sqrt{10}$

5. (a5-g20-26) Radiusi 6 ga teng yarim aylanaga romb shunday ichki chizilganki, rombning bir uchi aylana markazida, qolgan uchlari esa aylanada yotadi. Yarim aylananing romb tashqarisida qolgan qismi yuzasini toping.

A) $18\cdot(\pi-\sqrt{3})$

B) $36\cdot(\pi-\sqrt{3})$

C) $18\cdot(\pi-1)$

D) $36\cdot(\pi-\sqrt{2})$

157. Trapetsiyaga tashqi chizilgan aylana. Trapetsiyaga ichki chizilgan aylana

1. (a1-g2-33) Teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan aylananing markazi trapesiya asoslarining uchlaridan 9 va 12 ga teng masofada joylashgan. Shu trapetsiyaga ichki chizilgan aylana uzunligini toping.

A) $9,6\pi$ B) $17,6\pi$

C) $19,2\pi$ D) $14,4\pi$

2. (a1-g11-31) Asoslari 10 sm va 16 sm bo'lgan teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.

A) 25π B) 36π C) 40π D) 80π

3. (a1-g16-33) Teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan aylananing markazi kichik asosining uchidan 3 ga, katta asosining uchidan 4 ga teng masofada joylashgan. Shu trapetsiyaga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.

A) $2,56\pi$ B) $4,84\pi$

C) $3,24\pi$ D) $5,76\pi$

4. (a2-g3-29) Radiusi $\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan doiraga o'tkir burchagi 60° bo'lgan teng yonli trapesiya tashqi chizilgan. Trapesiyaning o'rta chizig'ini toping.
A) 3 B) 4 C) 6 D) 8

5. (a2-g9-31) Asoslari 10 sm va 16 sm bo'lgan teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.
A) 20π B) 30π
C) 40π D) 80π

6. (a2-g20-31) Aylanaga tashqi chizilgan teng yonli trapesiyaning asoslari 8 va 18 ga teng. Aylananing diametrini toping.
A) 14 B) 12 C) 13 D) 11

7. (a3-g1-31) Aylanaga ichki chizilgan trapetsiyaning katta asosi aylana markazidan o'tadi. Trapetsiyaning o'tkir burchagi 60°. Agar aylananing radiusi 8 ga teng bo'lsa, trapetsiyaning perimetrini toping.
A) $24+16\sqrt{3}$ B) 48
C) $32+24\sqrt{3}$ D) 40

8. (a3-g11-33) xOy tekisligida yotgan $\vec{b}$ vektor $\vec{a}(2;-4;5)$ vektorga perpendikulyar. Agar $|\vec{b}|=4\sqrt{5}$ bo'lsa, uning absissasi va ordinatasi ko'paytmasini toping.
A) 32 B) 8 C) 36 D) 16

9. (a4-g3-33)



Rasmda ABCD to'g'ri burchakli trapetsiya. Bu trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. AD = 3 sm va AB = 4 sm bo'lsa, bo'yalgan sohaning yuzasi necha sm^2? ($\pi = 3$)
A) 6 B) 9 C) 4 D) 8

10. (a4-g6-31) Rasmda ko'rsatilgan trapetsiyaning uch tomoni yarim aylanaga urinadi. Shtrixlangan soha yuzini toping.



A) $40-8\pi$ B) $20-8\pi$
C) $40-16\pi$ D) $20+8\pi$

11. (a4-g9-31) ABCD parallelogrammda C o'tmas burchak va DC tomondan E nuqta olingan. ABCE trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. AB = 11 va DE = 5 bo'lsa, ABCE trapetsiyaning perimetrini toping.
A) 32 B) 30
C) 34 D) 22

12. (a4-g20-31) Aylanaga tashqi chizilgan teng yonli trapetsiyaning asoslari 32 va 18 ga teng. Aylananing diametrini toping.
A) 14 B) 24 C) 20 D) 28

13. (a5-g13-26) Asoslari a va c ($a > c$) ga teng bo'lgan teng yonli trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. Shu trapetsiya katta asosidagi burchak kosinusini toping.
A) $\frac{a-c}{2a+c}$ B) $\frac{a}{a+c}$
C) $\frac{c}{a+c}$ D) $\frac{a-c}{a+c}$

14. (a5-g18-2) Aylanaga ichki chizilgan trapetsiyaning asosidagi burchagi 60° va diagonallaridan biri $12\sqrt{3}$ ga teng. Aylananing radiusini toping.
A) 18 B) 36 C) 12 D) 24

158. Aylanaga ichki chizilgan ko'pburchak

1. (a1-g6-30) To'rtta nuqta aylanani 3; 4; 5 va 6 sonlariga proporsional yoylarga ajratadi. Shu to'rtta nuqtani ketma-ket tutashtirishdan hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi kichik burchakni toping.
A) 60° B) 80° C) 45° D) 90°

2. (a1-g11-30) Aylana yoyidan tanlab olingan to'rt nuqta aylanani uzunliklari 2; 5; 6 va 7 sonlariga proporsional yoylarga ajratadi. Shu to'rt nuqtani ketma-ket birlashtirishdan hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 84° B) 72°
C) 90° D) 60°

3. (a1-g12-33) Aylanaga ichki chizilgan to'rtburchakning tomonlari ketma-ket ravishda 3, 4, 4 va 5 ga teng. 3 va 4 ga teng tomonlar orasidagi burchak kosinusini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{4}$ C) $-\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{4}$

4. (a2-g4-31) Teng yonli trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. Trapetsiya diagonali o'rta chiziqni 7 va 3 ga teng kesmalarga ajratadi. Shu trapetsiyaning yuzasini toping.
A) 60 B) $20\sqrt{21}$
C) $40\sqrt{21}$ D) 80

5. (a2-g6-30) Aylanadan olingan to'rt nuqta aylanani 4; 5; 7 va 8 sonlariga proporsional ravishda bo'ladi. Bu nuqtalarni ketma-ket tutashtirish natijasida hosil bo'lgan to'rtburchak diagonallari orasidagi o'tkir burchakni toping.
A) 77,5 B) 82,5 C) 70 D) 65

6. (a2-g9-30) Aylana yoyidan tanlab olingan to'rt nuqta aylanani uzunliklari 2; 5; 6 va 7 sonlariga proporsional yoylarga ajratadi. Shu to'rt nuqtani ketma-ket birlashtirishdan hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi burchakni toping.
A) 84° B) 72° C) 90° D) 60°

7. (a2-g11-31) Aylana tomonlari 16 va 12 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning ikki kichik va bir katta tomoniga urinadi. Shu aylananing to'rtinchi tomondan ajratgan kesmasi uzunligini toping.
A) $4\sqrt{3}$ B) $6\sqrt{2}$
C) $8\sqrt{3}$ D) $9\sqrt{2}$

8. (a3-g6-31) Tomoni a ga teng beshburchakka tashqi chizilgan aylana uzunligini toping.
A) $\frac{\pi a}{\sqrt{2-2\sin 36^\circ}}$
B) $\frac{2\pi a}{\sqrt{2-2\cos 72^\circ}}$
C) $\frac{2\pi a}{\sqrt{1+2\cos 72^\circ}}$
D) $\frac{2\pi a}{\sqrt{1-\sin 36^\circ}}$

9. (a3-g16-30) Qavariq ko'pburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi 3 ga teng. Agar ko'pburchakning perimetri 24 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning yuzini toping.
A) 72 B) 36 C) 18 D) 144

10. (a5-g1-31) Tomoni 8 ga teng bo'lgan muntazam oltiburchakka aylana tashqi chizilgan. Aylana va oltiburchak orasida qolgan sohalar yig'indisini toping.
A) $64\pi-96\sqrt{3}$ B) $32\pi-48\sqrt{3}$
C) $64\pi-48\sqrt{3}$ D) $32\pi-32\sqrt{3}$

11. (a6-g8-26) Bir aylanaga ichki chizilgan muntazam uchburchak, kvadrat va muntazam oltiburchak yuzalarining nisbatini toping.,
A) $2\sqrt{3}:4:6\sqrt{3}$
B) $\sqrt{2}:\sqrt{3}:2$
C) $3\sqrt{3}:8:6\sqrt{3}$
D) $2\sqrt{3}:6:8\sqrt{3}$

159. Aylanaga tashqi chizilgan ko'pburchak

1. (a2-g1-31) Chizmada AB kesmaning uzunligi 8 ga teng. Agar BC tomon AD tomondan 4 marta katta bo'lsa, CD tomon uzunligini toping.



A) 15 B) 10 C) 12 D) 9

2. (a2-g14-26) $x^2 + y^2 = y - x$ tenglama bilan berilgan aylana markazining koordinatalari ko'paytmasini toping.

A) –0,25 B) $b = -\sqrt{15} - \sqrt{14}$

C) $\frac{1}{4}$ D) –0,5

3. (a2-g18-31) Tomonlari 10 va 8 ga teng bo'lgan to'rtburchakning ikkita kichik va bir katta tomoniga urinadigan aylana chizilgan. Shu aylana to'rtburchakning ikkinchi katta tomonidan qanday uzunlikdagi kesma ajratadi?

A) 3 B) 4 C) 6 D) 8

4. (a3-g24-31) Ko'pburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi 3 ga teng. Agar shu ko'pburchakning yuzasi 24 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning perimetrini toping.

A) 16 B) 8 C) 24 D) 12

5. (a4-g15-31) Sakkizburchakka ichki chizilgan aylana radiusining unga tashqi chizilgan aylana radiusiga nisbatini toping.

A) cos22,5° B) sin22,5°
C) tg22,5° D) ctg22,5°

6. (a4-g21-31) Ko'pburchakka ichki chizilgan aylana radiusi 6 ga teng. Agar shu ko'pburchakning perimetri 48 ga teng bo'lsa, ko'pburchakning yuzini toping.

A) 288 B) 92 C) 144 D) 216

7. (a5-g7-31) Muntazam ko'pburchakning tomoni a ga, unga ichki chizilgan aylana radiusi r ga teng bo'lsa, tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

A) aniqlab bo'lmaydi

B) $r^2 + a^2$

C) $r^2 - \frac{a^2}{4}$

D) $r^2 + \frac{a^2}{4}$

8. (a6-g6-26) Ikkita aylananing umumiy vatari aylanalardan biri uchun ichki chizilgan kvadratning tomoni, ikkinchisi uchun esa ichki chizilgan muntazam oltiburchakning tomoni bo'lib xizmat qiladi. Agar aylanalardan kichigining radiusi $\sqrt{6} - \sqrt{2}$ bo'lsa, ularning markazlari orasidagi masofani toping?

A) 4 B) B) $2\sqrt{2}$

C) C) $\sqrt{2}$ D) 2

9. (a6-g8-23) Muntazam sakkizburchak yuzining unga ichki chizilgan doira yuziga nisbatini toping.

A) $\frac{4(\sqrt{2}-1)}{\pi}$ B) $\frac{4(\sqrt{2}+1)}{\pi}$

C) $\frac{8(\sqrt{2}+1)}{\pi}$ D) $\frac{8(\sqrt{2}-1)}{\pi}$

10. (a6-g11-36) Quyidagi qaysi qavariq to'rtburchakka ham ichki, ham tashqi aylana chizish mumkin?

A) trapetsiya
B) to'g'ri to'rtburchak
C) romb
D) parallelogramm

11. (a6-g24-10) Ko'pburchakning perimetri 26 ga teng. Agar ko'pburchakning yuzi 78 ga teng bo'lsa, unga ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) $3\sqrt{2}$ B) 3

C) $3\sqrt{3}$ D) 6

6-bob. Koordinatalar sistemasi

160. Nuqta koordinatasi, kesma o'rtasi koordinatasi

1. (a2-g15-32) Quyidagi nuqtalardan qaysi biri OXY tekislikda yotadi?

A) (0; 0; 7) B) (3; 0; –2)
C) (–2; 3; 0) D) (0; –2; –3)

2. (a2-g19-32) Quyidagi nuqtalardan qaysi biri OXZ tekislikda yotadi?

A) (0; 5; 0) B) (3; 0; –2)
C) (–2; 3; 0) D) (4; –2; –3)

3. (a3-g10-21) Birlik aylanaga tegishli va radian o'lchovi $5\pi/6$ bo'lgan nuqtaning koordinatalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) $\left(\frac{1}{2}; -\frac{\sqrt{3}}{2}\right)$ B) $\left(-\frac{\sqrt{3}}{2}; \frac{1}{2}\right)$

C) $\left(-\frac{1}{2}; \frac{\sqrt{3}}{2}\right)$ D) $\left(\frac{\sqrt{3}}{2}; -\frac{1}{2}\right)$

4. (a4-g14-31) Rasmda ko'rsatilgan, tomoni 8 ga teng bo'lgan ABCD kvadratga O markazli doira E nuqtada urinadi. Shakldagi doira yuzasini toping.



A) 5π B) 25π C) 15π D) 16π

5. (a5-g2-32) A(2; 3; 5) va B(–4; 1; 1) nuqtalar o'rtasining koordinatasini toping.

A) (–2; 4; 6)
B) (6; 2; 4)
C) (–1; 2; 3)
D) (3; 1; 2)

6. (a5-g25-27) $y = 4$ to'g'ri chiziqda olingan nuqta B(–2; –3) va C(4; 2) nuqtalardan bir xil uzoqlikda joylashgan. Shu nuqtaning absissasini toping.

A) –3,(6) B) –2,75
C) 1,5 D) –2

7. (a6-g6-27) A(–6; 4) va B(2; –3) nuqtalar yordamida hosil qilingan kesmani A dan boshlab 4:5 nisbatda bo'luvchi nuqtaning koordinatalari x_0 va y_0 bo'lsa, $\frac{1}{x_0} + \frac{1}{y_0} = ?$

A) $\left(\frac{88}{63}\right)^{-1}$ B) $\left(\frac{63}{88}\right)^{-1}$

C) $\left(\frac{14}{88}\right)^{-1}$ D) $\left(-\frac{88}{14}\right)^{-1}$

8. (a6-g10-26) ABC muntazam uchburchak koordinatalar tekisligida shunday joylashganki, A uchi (–5, 5) nuqtada, B va C uchlari $y = -1$ to'g'ri chiziqda yotadi. B va C nuqtalarning absissalari yig'indisini toping.

A) –10 B) $4\sqrt{3}$

C) $5 - 2\sqrt{3}$ D) 0

9. (a6-g19-14) A(3; 5; –2) va C(7; –3; 6) kesmaning uchlari. A uchidan boshlab 1:3 nisbatda bo'luvchi B nuqtaning koordinatalarini toping.

A) (4; 3; 0) B) (6; –1; 4)
C) (5, 1; 2) D) (6; 0; 5)

161. Nuqtalar orasidagi masofa. Medianalar kesishish nuqtalarining koordinatalari

1. (a1-g1-13) Uchlari A(3; 4), B(–1; 2) va C(–3; –4) nuqtada bo'lgan uchburchakning AD medianasi uzunligini toping.

A) 5 B) 6
C) $5\sqrt{2}$ D) $6\sqrt{3}$

2. (a1-g3-9) Uchlari A(3; 4), B(–5; 6) va C(0; 0) nuqtalarda bo'lgan uchburchakning C uchidan chiqqan medianasi uzunligini toping.

A) 5 B) $\sqrt{17}$
C) $\sqrt{26}$ D) 6

3. (a1-g6-32) A(–4; 1; 3) va B(–2; 4; 5) nuqtalar orasidagi masofani toping

A) $\sqrt{17}$ B) $\sqrt{23}$ C) 3 D) $\sqrt{13}$

4. (a1-g16-25) M (2, 2) nuqtadan $y = x + 1$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa a ga va $y = -x - 2$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa b ga teng bo'lsa, $a + b$ ifodaning qiymatini aniqlang.

A) $\frac{6\sqrt{2}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

C) $\frac{7}{\sqrt{2}}$ D) $\frac{1}{2}$

5. (a1-g17-32) A(3; 2) va B(4; 1) nuqtalardan bir xil uzoqlikda joylashgan C(a; –1) nuqtaning abssisasini toping.

A) 1 B) 3 C) –5 D) –8

6. (a2-g1-32) Uchlari A(2; 4), B(–2; 3) va C(3; 2) joylashgan uchburchakning medianalar kesishish nuqtasi A nuqtadan qanday masofada joylashgan?

A) $\frac{4}{3}$ B) 2

C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

7. (a2-g2-32) A(–6; 4; 7) nuqtadan OZ o'qigacha bo'lgan masofani toping.

A) $\sqrt{39}$ B) $2\sqrt{13}$

C) $\sqrt{85}$ D) $\sqrt{63}$

8. (a2-g5-32) A(–4; 1; 3) va B(–2; 4; 5) nuqtalar orasidagi masofani toping

A) $\sqrt{17}$ B) $\sqrt{23}$ C) 3 D) $\sqrt{13}$

9. (a2-g6-32) A(–1, 2) va B(4, –3) nuqtalar berilgan. AB kesmada C nuqta olingan va $\frac{AC}{AB}=\frac{3}{5}$. C nuqta koordinatalari yig'indisini toping

A) 1 B) –1 C) 2 D) –2

10. (a2-g16-32) Uchlari A(1; 4; –2); B(3; –1; –2) va C(5; 3; 1) nuqtalarda bo'lgan uchburchakning B uchidan medianalar kesishgan nuqtagacha bo'lgan masofani toping.

A) 4

B) $2\sqrt{2}$

C) $\frac{1}{a}<\frac{1}{a+c}<\frac{1}{a+b}$

D) $\frac{1}{a+c}<\frac{1}{a+b}<\frac{1}{a}$

11. (a2-g23-33) ABCD parallelogramning uchlari A (4; 1), B (6; 3), D (7; $\sqrt{171}-1$) nuqtalar bo'lsa, AC diagonalning uzunligini toping.

A) 12 B) $\sqrt{140}$

C) $\sqrt{221}$ D) 14

12. (a3-g8-32) x ning qanday qiymatida $M(x; 0; 0)$ nuqta $M_1\left(1; 2; \sqrt{3}\right)$ va $M_2(-2; 1; 0)$ nuqtalar dan baravar uzoqlashgan?

A) 0,5 B) 0 C) –1 D) –2

13. (a4-g9-32) Uchburchakning uchlari A(1; 5), B(–2; 3) va C(4; 9) nuqtalarda joylashgan. A uchdan chiqqan mediana uzunligini toping.

A) 5 B) 1 C) 11 D) 3

14. (a4-g11-33) A(3; 4), B(3; 5), C(–5; 3) nuqtalar yordamida hosil qilingan ABC uchburchakning V_a medianasining uzunligi nechaga teng?

A) 1 B) 5 C) 3 D) 4

15. (a4-g12-32) M(x; y) nuqtaning koordinatalari yig'indisi 8 ga teng. Bu nuqta va koordinata boshi orasidagi eng qisqa masofa qanchaga teng bo'la oladi?

A) 4 B) $2\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{2}$ D) $3\sqrt{2}$

16. (a4-g15-32) A(1; –3; 4) va B(–5; –1; 0) nuqtalari o'rtasining koordinatasini toping.

A) (–4; –4; 4) B) (6; –4; 4)

A) $\frac{2\sqrt{3}}{3}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$
C) $\sqrt{3}$ D) 2

10. (a5-g17-14) ABCD to'g'ri to'rtburchakning AB tomoni 6 ga, AD tomoni esa 8 ga teng. Shu to'rtburchakni AD atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning to'la sirti S_1. Shu to'rtburchakni BD diagonal bo'yicha kesib tashlab, hosil bo'lgan ABD uchburchakni AD tomon atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning to'la sirti S_2. S_1 ning S_2 ga nisbatini toping.
A) $\frac{7}{4}$ B) $\frac{25}{14}$
C) $\frac{7}{6}$ D) 3

186. Silindr hajmi

1. (a1-g5-36) Tomonlari a va b ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak b tomoni atrofida aylantirilganda hosil bo'lgan jismning hajmi radiusi 3 ga teng bo'lgan sharning hajmiga teng. Quyidagi a va b orasidagi munosabatlardan qaysi biri to'g'ri?
A) $a^3b = 12$
B) $a^2b = 36$
C) $ab^2 = 36$
D) $ab^3 = 12$

2. (a1-g10-36) Silindrning o'q kesimi diagonali l ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat. Diagonal asos tekisligi bilan α burchak tashkil etadi. Silindrning hajmini toping.

A) $\frac{1}{4}\pi l^3\sin\alpha\cos 2\alpha$

B) $\frac{1}{4}\pi l^3\cos\alpha\sin^2\alpha$

C) $\frac{1}{8}\pi l^3\cos^2\alpha\sin\alpha$

D) $\frac{1}{8}\pi l^3\sin 2\alpha\cos\alpha$

3. (a1-g17-36) Radiuslar r ga teng bo'lgan silindr bilan sharning hajmlari teng. Silindrning balandligini toping.
A) $\frac{3r}{4}$ B) $4r$
C) $\frac{4r}{3}$ D) $\frac{r}{4}$

4. (a2-g8-35) Silindr asosining radiusi 10% ga kichraytirilsa va balandligi 20% ga kattalashtirilsa, uning hajmi qanday o'zgaradi?
A) 2,8% ga kamayadi
B) 1,4% ga kamayadi
C) 8% ga ortadi
D) o'zgarmaydi

5. (a2-g10-36) Silindrning o'q kesimi diagonali l ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat. Diagonal asos tekisligi bilan α burchak tashkil etadi. Silindrning hajmini toping.

A) $\frac{1}{4}\pi l^3\sin\alpha\cos 2\alpha$

B) $\frac{1}{4}\pi l^3\cos\alpha\sin^2\alpha$

C) $\frac{0,5}{1-\left(\frac{1}{2}\right)^2}+\frac{0,4}{1-\left(\frac{3}{5}\right)^2}-\frac{0,2}{1-\frac{6}{5}}$

D) $\frac{1}{8}\pi l^3\sin 2\alpha\cos\alpha$

6. (a3-g3-35) Silindr asosining radiusi 10% ga kichraytirilsa va balandligi 20% ga kattalashtirilsa, uning hajmi qanday o'zgaradi?
A) 2,8% ga kamayadi
B) 1,4% ga kamayadi
C) 8% ga ortadi
D) o'zgarmaydi.

7. (a3-g6-36) Silindr balandligi 16 marta orttirildi. Uning hajmi o'zgarmasligi uchun asos radiusini necha marta kamaytirish kerak?
A) 256 B) 16 C) 4 D) 8

8. (a3-g9-36) Silindr asosining radiusi 7 sm. Agar uning balandligi 6 sm uzaytirilsa, hajmi 75% ga ortadi. Dastlabki silindr hajmini toping.
A) 686π B) 392π
C) 224π D) 348π

9. (a3-g11-36) Silindrning o'q kesimi diagonali l ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat. Diagonal asos tekisligi bilan α burchak tashkil etadi. Silindrning hajmini toping.

A) $\frac{1}{4}\pi l^3\sin\alpha\cos 2\alpha$

B) $\frac{1}{4}\pi l^3\cos\alpha\sin^2\alpha$

C) $\frac{1}{8}\pi l^3\cos^2\alpha\sin\alpha$

D) $\frac{1}{8}\pi l^3\sin 2\alpha\cos\alpha$

10. (a3-g14-36) 0,5 metr uzunligidagi silindrik g'o'la 5 marta dumalaganda 3 metr masofani bosib o'tadi. G'o'la hajmini (m^3) toping. ($\pi = 3$)
A) 0,005 B) $\frac{25}{144}$
C) $\frac{25}{432}$ D) $\frac{3}{200}$

11. (a3-g21-36) Silindr o'q kesim diagonali 12 ga teng va asos tekisligi bilan 30° tashkil qiladi. Silindr hajmini toping.
A) 104π B) 162π
C) 112π D) 96π

12. (a4-g9-36) Silindr asosining radiusi 7 sm. Agar uning balandligi 6 sm uzaytirilsa, hajmi 75% ga ortadi. Dastlabki silindr hajmini toping.
A) 686π B) 392π
C) 224π D) 348π

13. (a4-g15-36) Silindrsimon stakanning ichiga sig'ishi mumkin bo'lgan eng katta hajmli yog'och to'g'ri burchakli to'g'ri parallelepiped solindi.

Agar stakanning asos radiusi 4 sm ga, balandligi 6 sm ga teng bo'lsa, yog'och solingan stakanga necha sm^3 suv sig'adi? ($\pi = 3$)
A) 96 B) 144 C) 72 D) 288

14. (a5-g2-36) Silindrsimon stakanning ichiga eng katta hajmli yog'och to'g'ri burchakli parallelepiped solindi. Agar stakanning asos radiusi 5 sm ga, balandligi 10 sm ga teng bo'lsa, yog'och solingan stakanga necha sm^3 suv sig'adi? ($\pi = 3$)
A) 750 B) 300 C) 150 D) 250

15. (a5-g5-36) Asosining uzunligi balandligiga teng bo'lgan silindrning yon sirti $36\pi^2$ bo'lsa, silindrning hajmini toping.
A) 54 B) 108π
C) $36\pi^3$ D) $54\pi^2$

16. (a5-g20-30) Ichki diametri 6 sm, umumiy balandligi 8 sm va qalinligi 0,5 sm bo'lgan silindr shaklidagi krujkani tayyorlash uchun qancha sm^3 material (chinni) ishlatilgan (eslatma: krujka tagining qalinligi ham 0,5 sm)?
A) 26π B) $30,5\pi$
C) $32,5\pi$ D) $28,5\pi$

17. (a6-g6-30) Silindrsimon stakanning ichiga eng katta hajmli to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi yog'och solindi. Agar stakanning asos radiusi 4 sm ga, balandligi 6 sm ga teng bo'lsa, yog'och solingan stakanga necha sm^3 suv sig'adi? ($\pi = 3$)
A) 96 B) 144 C) 72 D) 288

18. (a6-g7-30) Umidjonning choy ichadigan chashkasi silindrsimon bo'lib, uning diametri 7 sm va balandligi 14 sm. Umidjon chaskasining ichiga tomoni 3 sm bo'lgan kub shaklidagi qanddan 3 dona soldi. Umidjonga chashkasini to'ldirib choy damlab berish uchun necha millilitr qaynagan suv kerak bo'ladi ($\pi = 3$)?
A) 433,5 B) 487,5
C) 1977 D) 8151

19. (a6-g11-11) Asos radiusi 6 ga, balandligi 8 ga teng bo'lgan silindrsimon go'ladan eng katta hajmli kub yo'nib olindi. Hosil bo'lgan kub hajmining silindr hajmiga nisbatini toping.
A) $\frac{1,5\sqrt{2}}{\pi}$ B) $\frac{3\sqrt{2}}{\pi}$
C) $\frac{16}{9\pi}$ D) $\frac{8}{9\pi}$

20. (a6-g13-17) Muntazam to'rtburchakli piramidaning asos qirrasi 6 ga, balandligi 8 ga teng.
Shu piramida ichiga chizish mumkin bo'lgan eng katta hajmli silindrning asos radiusini toping.
A) 1,5 B) 1 C) 0,75 D) 2

21. (a6-g17-30) Silindr asosining radiusi 9 sm. Agar uning balandligi 8 sm uzaytirilsa, hajmi 75% ga ortadi. Hosil bo'lgan silindr hajmini toping.
A) 1512π B) 1176π
C) 972π D) 864π

22. (a6-g20-26) Silindr o'q kesimining perimetri 20 sm^2 ga teng. Uning radiusi necha sm bo'lganda u eng katta hajmga ega bo'ladi?
A) $\frac{10}{3}$ B) 5 C) $\frac{5}{2}$ D) $\frac{10}{6}$

23. (a6-g21-11) Silindr asosining radiusi 7 sm. Agar uning balandligi 6 sm uzaytirilsa, hajmi 75% ga ortadi. Dastlabki silindr hajmini toping.
A) 686π B) 392π
C) 224π D) 348π

24. (a6-g26-30) Silindr asosining radiusi 7 sm. Agar uning balandligi 6 sm uzaytirilsa, hajmi 75% ga ortadi. Dastlabki silindr hajmini toping.
A) 686π B) 392π
C) 224π D) 348π

187. Konus sirtining yuzi

1. (a1-g3-11) Radiusi 17 sm bo'lgan shar markazidan 8 sm uzoqlikdagi tekislik bilan kesildi. Asosi kesimdagi doira, uchi esa sharning markazida bo'lgan konusning yon sirti necha sm^2?
A) 120π B) 136π
C) 189π D) 255π

2. (a1-g13-36) Konusning o'q kesimi tomoni $\frac{4\sqrt{2}}{\sqrt{\pi}}$ ga teng muntazam uchburchakdan iborat. Konus yon sirti yuzini toping.
A) 12 B) 8 C) 6 D) 16

3. (a2-g3-34) Konusning balandligi asosining diametriga teng. Konusning asos yuzining yon sirti yuziga nisbatini toping.
A) 1 B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$
C) $\frac{\sqrt{7}}{7}$ D) $\frac{\sqrt{5}}{5}$

4. (a2-g6-36) Konusning balandligi asos radiusining yarmiga teng. Konus asos yuzining yon sirti yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{5}{4}$ B) $\frac{3}{2}$
C) $\frac{\sqrt{7}}{7}$ D) $\frac{2}{\sqrt{5}}$

5. (a2-g16-36) Konusning balandligi asosining diametriga teng. Konusning asos yuzi va yon sirti yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{5}{4}$ B) $\frac{3}{2}$
C) $\frac{\sqrt{7}}{7}$ D) $\frac{\sqrt{5}}{5}$

6. (a2-g23-36) Konusning yasovchisi 10 ga teng. Radiusi balandligidan 2 ga kichik. Konusning yon sirtini toping.
A) 60π B) 30π
C) 45π D) 90π

7. (a3-g16-36) Konusning radiusi 5 ga teng. Balandligi yasovchisidan 1 ga kichik. Konusning yon sirtini toping.
A) 156π B) 60π
C) 78π D) 65π

8. (a3-g17-34) Konusning balandligi asosining diametridan 2 marta katta. Konus asos yuzining yon sirti yuziga nisbatini toping.
A) $\frac{5}{2}$ B) $\frac{\sqrt{5}}{2}$
C) $\frac{\sqrt{17}}{17}$ D) $\frac{\sqrt{5}}{5}$

9. (a4-g11-23) Konusning o'q kesimi tomoni $\frac{6\sqrt{3}}{\sqrt{\pi}}$ ga teng muntazam uchburchakdan iborat. Konus yon sirti yuzini aniqlang.
A) 54 B) 36 C) 72 D) 108

10. (a4-g12-36) Konusning yasovchisi 25 ga, uning asos tekisligi bilan tashkil qilgan burchagining sinusi 0,6 ga teng. Konus o'q kesimining perimetrini aniqlang.
A) 80 B) 360 C) 90 D) 105

11. (a4-g17-36) Konusning to'la sirti asos yuzidan uch marta katta. Agar konusning balandligi $6\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, uning yon sirtini toping.
A) 36π B) 108π
C) 72π D) 48π

12. (a4-g24-36) Radiusi 10 sm bo'lgan shar markazidan 8 sm uzoqlikdan tekislik bilan kesildi. Kesimdagi doira asosi, sharning markazi uchi bo'lgan konusning yon sirti necha sm^2?
A) 48π B) 54π C) 60π D) 96π

13. (a6-g8-30) $R = \sqrt[3]{2}$ radiusli metall shar eritilib yon sirti asosi yuzidan 3 marta katta bo'lgan konus qilib quyildi. Konusning balandligini toping.
A) $\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{2}$
C) 4 D) 8

188. Konus hajmi

1. (a1-g7-35) To'g'ri konusning asos radiusi a marta, balandligi b marta kattalashsa hajmi 6 marta kattalashadi, shunga ko'ra b ning qiymati nimaga teng bo'ladi?
A) $\frac{6}{a^2}$ B) $\frac{4}{a^2}$ C) $\frac{18}{a^2}$ D) $\frac{12}{a^2}$

2. (a1-g9-36) Tomoni 6 sm bo'lgan muntazam ABC uchburchakning AB tomoni atrofida 360° aylantirilishi natijasida hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 54π B) 36π
C) 96π D) 72π

3. (a1-g12-23) Konus va silindrning asos radislari teng. Konusning o'q kesimi muntazam uchburchakdan, silindrniki esa kvadratdan iborat. Silindr hajmining konus hajmiga nisbatini toping.
A) 3 B) $3\sqrt{3}$
C) 6 D) $2\sqrt{3}$

4. (a1-g15-36) Konusning o'q kesimi kateti l ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Konusning hajmini toping.
A) $\frac{\sqrt{2}}{12}\pi l^3$ B) $\frac{1}{12}\pi l^3$
C) $\frac{1}{6}\pi l^3$ D) $\frac{\sqrt{3}}{12}\pi l^3$

5. (a2-g2-36) Muzqaymoq idishi konus shaklida bo'lib, uning asos radiusi 4 ga, balandligi esa 17 ga teng. Bu idishga radiusi 4 ga teng bo'lgan shar shaklidagi muzqaymoq solindi. Muzqaymoq erib ketsa, uning qanchasi idishdan toshib ketadi?
A) $16\pi/3$ sm^3 B) $4\pi/3$ sm^3
C) 16π sm^3 D) toshmaydi

6. (a2-g4-36) Konusning o'q kesimi to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat va bu uchburchakning yuzi 18 ga teng. Konusning hajmini toping.
A) $12\sqrt{2}\pi$ B) $9\sqrt{2}\pi$
C) $18\sqrt{2}\pi$ D) $24\sqrt{2}\pi$

7. (a2-g11-36) Muzqaymoq idishi konus shaklida bo'lib, uning asos radiusi 3 ga, balandligi esa 7 ga teng. Bu idishga radiusi 3 ga teng bo'lgan shar shaklidagi muzqaymoq solindi. Muzqaymoq erib ketsa, uning qanchasi idishdan toshib ketadi?
A) 27π sm^3 B) 15π sm^3
C) 4π sm^3 D) toshmaydi

8. (a3-g8-36) Konus asosiga tomoni $6\sqrt{3}$ bo'lgan muntazam uchburchak ichki chizilgan. Konus yasovchisi 10 bo'lsa, uning hajmini toping.
A) 48π B) 72π C) 96π D) 36π

9. (a3-g10-36) Muzqaymoq idishi konus shaklida bo'lib, uning asos radiusi 3 ga, balandligi esa 8 ga teng. Bu idishga radiusi 3 ga teng bo'lgan shar shaklidagi muzqaymoq solindi. Muzqaymoq erib ketsa, uning qanchasi idishdan toshib ketadi?
A) 2π B) 15π
C) 12π D) toshmaydi

10. (a3-g22-35) Hajmi va to'la sirtining son qiymati teng bo'lgan kubning ichiga joylashtirilgan konus yasovchisining uzunligini toping.
A) $3\sqrt{5}$ B) $3\sqrt{3}$ C) 6 D) 3

11. (a4-g8-36) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 9, BC = 13 va CD = 4. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 478π B) 586π
C) 532π D) 467π

12. (a4-g14-35) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyaning C burchagi 45° ga teng. AB = AD = $\sqrt{2}$. AD kichik asos. Shu trapetsiyani AB tomon atrofida 360° ga aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) $\frac{14}{3}\pi$ B) $\sqrt{392}\pi$
C) $\frac{14\sqrt{2}}{3}\pi$ D) 14π

13. (a5-g12-30) Radiusi 6 ga teng bo'lgan yarim sharga asosining markazi bilan ustma-ust tushadigan konus tashqi chizilgan. Konusning balandligi qanday bo'lganda, uning hajmi eng kichik bo'ladi?
A) $6\sqrt{3}$ B) $3\sqrt{3}$
C) $6\sqrt{2}$ D) $3\sqrt{2}$

14. (a5-g13-30) ABC teng yonli uchburchakning yon tomoni 6 ga teng va A burchagi 120°. Shu uchburchakning AC tomoni atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 54π B) 18π C) 27π D) 81π

15. (a5-g15-25) Konus asosining radiusi 6 ga, hajmi 48π ga teng. Shu konusning asosiga parallel tekislik bilan kesilishidan hosil bo'lgan aylananing radiusi 3 ga teng bo'lsa, kesilishdan hosil bo'lgan kichik konusning hajmini toping.
A) 24π B) 6π C) 18π D) 12π

16. (a6-g14-5) Yuzasi 36π ga teng bo'lgan doira teng olti sektorga bo'lindi. Hosil bo'lgan sektorlardan yasalgan konuslar hajmlari yig'indisini toping.
A) $\sqrt{140}\pi$ B) $\frac{\sqrt{35}\pi}{3}$
C) $\frac{16\sqrt{2}\pi}{3}$ D) $32\sqrt{2}\pi$

17. (a6-g16-22) Konus asosining radiusi 6 ga hajmi 48π ga teng. Shu konusning asosiga parallel tekislik bilan kesilishidan hosil bo'lgan aylananing radiusi 3 ga teng bo'lsa, kesilishdan hosil bo'lgan kichik konusning hajmini toping.
A) 24π B) 6π C) 18π D) 12π

18. (a6-g18-19) Konus hajmini 80% ga orttirish uchun balandligi 40% ga orttirilganda asos radiusi necha marta orttirilishi kerak?
A) $\frac{7}{3\sqrt{3}}$ B) 1,4
C) $\frac{9}{7}$ D) $\frac{3}{\sqrt{7}}$

19. (a6-g19-5)



Rasmda balandligi h ga teng bo'lgan konus o'rtasidan boshqa konus yasalgan. Bo'yalgan sohada (ikki kichik konus) suv bor. Agar ostdagi konus tagidagi jo'mrak ochib yuborilsa, suv konus balandligining qanday qismigacha ko'tariladi?
A) $h\left(1-\frac{\sqrt[3]{4}}{2}\right)$ B) $\frac{h}{2}$
C) $h\left(1-\frac{1}{\sqrt{2}}\right)$ D) $h\left(1-\frac{\sqrt[3]{6}}{2}\right)$

20. (a6-g23-19) ABC muntazam uchburchakning tomoni 2 ga teng. Shu uchburchakning A uchidan o'tuvchi va BC tomonga parallel o'q atrofida aylanishdan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 6π B) 4π C) $5{,}5\pi$ D) 8π

189. Kesik konus sirtlarining yuzi

1. (a2-g17-35) Asos yuzasi S_1, yon sirti S_2 bo'lgan piramida asosiga parallel tekislik bilan kesilganda hajmlari o'zaro teng bo'lgan piramida va kesik piramida hosil bo'ldi. Kesik piramidaning to'la sirtini toping.
A) $S_1+S_2-\frac{S_1+S_2}{\sqrt[3]{2}}$
B) $S_1+S_2+\frac{S_1-S_2}{\sqrt[3]{4}}$
C) $S_1+S_2+\frac{S_1-S_2}{8}$
D) $S_1+S_2-\frac{S_1+S_2}{\sqrt[3]{4}}$

2. (a2-g20-35) To'g'ri konus asosiga parallel tekislik bilan ikkita teng hajmli qismlarga bo'lindi. Kesik konus asos yuzlarining nisbatini toping.
A) 2 B) $\sqrt[3]{2}$ C) $\sqrt{2}$ D) $\sqrt[3]{4}$

3. (a4-g11-35) To'g'ri konus asosiga parallel tekislik bilan teng xajmlarga bo'lindi. Asos yuzlarining nisbati qancha?
A) $2\sqrt{2}$ B) $\sqrt[3]{2}$
C) $\sqrt{2}$ D) $\sqrt[3]{4}$

4. (a5-g3-36) Balandligi 12 ga teng bo'lgan konusning uchidan 3 ga teng masofadan asosiga parallel tekislik bilan kesildi. Hosil bo'lgan kesik konus yon sirtining dastlabki konus yon sirtiga nisbatini toping.
A) $\frac{7}{16}$ B) $\frac{15}{16}$
C) $\frac{1}{16}$ D) $\frac{9}{16}$

190. Kesik konus hajmi

1. (a1-g8-36) ABCD trapetsiyaning B va C burchaklari to'g'ri. AB = 8, BC = 6 va CD = 2. Bu trapetsiyani BC tomon atrofida 360° ga aylantirganda hosil bo'lgan jismning hajmi V_1 ga, AB tomon atrofida 360° ga aylantirganda hosil bo'lgan jismning hajmi V_2 ga teng. $V_1 - V_2$ ni toping.
A) 48π B) 24π C) 36π D) 12π

2. (a1-g11-36) Kesik konus asoslarining radiuslari r va $3r$ ga teng. Agar uning balandligi $2r$ ga teng bo'lsa, kesik konus hajmini toping.
A) $9\pi r^3$ B) $\frac{16}{3}\pi r^3$
C) $\frac{17}{3}\pi r^3$ D) $\frac{26}{3}\pi r^3$

3. (a2-g7-36) Teng yonli trapetsiyaning asoslari 4 va 10 ga teng. Yon tomoni esa 5 ga teng. Shu trapetsiyaning katta asosi atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 96π B) 64π C) 72π D) 80π

4. (a2-g9-36) Kesik konus asoslarining radiuslari r va $3r$ ga teng. Agar uning balandligi $2r$ ga teng bo'lsa, kesik konus hajmini toping.
A) $9\pi r^3$ B) $\frac{16}{3}\pi r^3$
C) $\frac{17}{3}\pi r^3$ D) $\frac{26}{3}\pi r^3$

5. (a2-g12-35) Ikkita bir xil hajmda to'ldirilgan piyola suvi bitta stakanga bo'shatildi. Piyolalar ichi asoslarining radiuslari 1 va 3 sm ga, balandligi esa 4 sm bo'lgan kesik konusdan iborat. Stakan esa radiusi 4 sm bo'lgan silindr shaklida. Stakanga quyilgan suvning balandligini toping.
A) $\frac{13}{12}$ B) $\frac{13}{6}$ C) $\frac{18}{16}$ D) $\frac{16}{18}$

6. (a2-g15-36) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 7, BC = 5 va CD = 3. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 79π B) 86π
C) 58π D) 67π

7. (a2-g16-35) Piramidaning balandligi o'rtasidan asosiga parallel tekislik o'tkazilgan. Hosil bo'lgan kesik piramida hajmining piramidaning kesilishdan oldingi hajmiga nisbatini toping.
A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{7}{8}$ C) $\frac{1}{8}$ D) $\frac{1}{4}$

8. (a2-g18-36) Konus asosining radiusi 6 ga, hajmi 48π ga teng. Shu konusning asosiga parallel tekislik bilan kesilishidan hosil bo'lgan aylananing radiusi 3 ga teng bo'lsa, kesilishdan hosil bo'lgan kichik konusning hajmini toping.
A) 24π B) 18π
C) 6π D) 12π

9. (a3-g4-36) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 9, BC = 13 va CD = 4. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 478π B) 586π
C) 532π D) 467π

10. (a3-g5-36) Konussimon stakanning tagi radiusi 8, usti radiusi 12 sm bo'lgan aylanalardan iborat. Balandligi 18 sm bo'lgan bu stakan suv bilan to'la. Agar bu suv asos radiusi 4 sm bo'lgan silindrsimon naychaga quyilsa, balandligi necha sm bo'ladi?
A) 114 B) 342 C) 228 D) 156

11. (a3-g12-36) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 9, BC = 13 va CD = 4. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 478π B) 586π
C) 532π D) 467π

12. (a3-g18-36) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 9, BC = 13 va CD = 4. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 478π B) 586π
C) 532π D) 467π

13. (a5-g6-36) ABCD to'g'ri burchakli trapetsiyaning A va D burchaklari to'g'ri. AD = 3, CD = 2 va AB = 5. Shu trapetsiyaning AB tomon atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 27π B) 39π
C) 45π D) 117π

14. (a5-g18-12) Balandligi 25 sm bo'lgan chelak kesik konus shaklida bo'lib, asos radiuslari 20 sm va 30 sm. Shu chelak yordamida hajmi 570 m^3 bo'lgan hovuzni to'ldirish uchun necha marta suv to'kish lozim? ($\pi = 3$ deb olinsin)
A) 6000 B) 1200
C) 600 D) 12000

15. (a5-g21-30) ABCD trapetsiyaning AD tomoni AB va DC tomonlarga perpendikulyar. AB = 9, BC = 13 va CD = 4. Shu trapetsiyaning AD tomoni atrofida aylantirilishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.
A) 478π B) 586π
C) 532π D) 467π

191. Sfera. Sfera sirti. Sfera tenglamasi. Shar. Shar hajmi

1. (a1-g1-33) Tomonlari 10, 24 va 26 bo'lgan uchburchakning uchlari shar sirtida yotadi. Agar sharning radiusi 15 ga teng bo'lsa, shar markazidan uchburchak tekisligigacha bo'lgan masofani toping.
A) $2\sqrt{14}$ B) $2\sqrt{13}$
C) $\sqrt{69}$ D) $\sqrt{47}$

2. (a1-g6-36) Sharning radiusi 1 birlikka orttirilganda, to'la sirti 44π ga ortgan bo'lsa, hosil bo'lgan sharning hajmini toping.
A) 144π B) 288π
C) 72π D) 108π

3. (a2-g5-36) Sharning radiusi 1 birlikka orttirilganda, to'la sirti 44π ga ortgan bo'lsa, hosil bo'lgan sharning hajmini toping.
A) 144π B) 288π
C) 72π D) 108π

4. (a2-g21-36) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 16π ga, ostki asosining yuzi esa 25π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 96π B) 77π C) 60π D) 80π

5. (a2-g22-36) Tomoni 4 sm bo'lgan mis kub eritilib, shar shakliga keltirildi. Hosil bo'lgan sharning radiusi necha sm? ($\pi = 3$)
A) $\sqrt[3]{2}$ B) $2\sqrt[3]{2}$
C) 2 D) $2\sqrt{2}$

6. (a3-g13-36) Sharning radiusi 2 birlikka orttirilganda, to'la sirti 64π ga ortgan bo'lsa, hosil bo'lgan sharning hajmini toping.
A) $\frac{256\pi}{3}$ B) $\frac{500\pi}{3}$
C) 100π D) $\frac{376\pi}{3}$

7. (a3-g20-36) Asos radiusi 4 sm va balandligi 6 sm bo'lgan, suv to'ldirilgan to'g'ri silindrga sharcha tashlanganda suvning to'qqizdan bir qismi toshib ketgan bo'lsa, sharchaning radiusi necha sm?
A) 1,(6) B) 1,(3) C) 2 D) 1,5

8. (a4-g3-36) Tomoni 8 sm bo'lgan mis kub eritilib, shar shakliga keltirildi. Hosil bo'lgan sharning radiusi necha sm? ($\pi = 3$)
A) $\sqrt[3]{4}$ B) $4\sqrt[3]{2}$
C) 4 D) 2

9. (a4-g11-13) Markazi OX o'qida, radiusi 3 ga teng bo'lgan aylananing chorak qismini OX o'qi atrofida 360° ga aylantirish natijasida hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) 54π B) 27π
C) 18π D) 16π

10. (a4-g19-36) Ikki sharning hajmlari nisbati k^2 bo'lsa, sharlarning sirtlari yuzalari nisbatini toping.
A) $k\sqrt[3]{k}$ B) $k\sqrt[3]{k^2}$
C) $k\sqrt{k}$ D) k^3

11. (a5-g7-36) Hajmining son qiymati to'la sirtining son qiymatidan 4 marta katta bo'lgan sharning radiusini toping.
A) 12 B) 16
C) 48 D) 6

12. (a5-g9-36) Radiusi 15 sm bo'lgan shar shaklidagi akvariumning yarmi suv bilan to'ldirilgan. Bu suv qirrasi 30 sm bo'lgan kub shaklidagi akvariumga solinsa, uning necha foizi to'ladi? ($\pi = 3$ deb olinsin)
A) 30% B) 25%
C) 50% D) 33,(3)%

13. (a5-g14-30) Sirti, asos radiusi 8 ga, balandligi 6 ga teng bo'lgan konusning to'la sirtiga teng bo'lgan sharning radiusini toping.
A) $2\sqrt{6}$ B) $4\sqrt{6}$
C) 6 D) $4\sqrt{3}$

14. (a5-g22-30) Qalinligi 3 sm ga teng bo'lgan kovak sharni quyish uchun 516π sm^3 metall ishlatildi. Bu kovak sharning tashqi radiusini toping.
A) 5 B) 6
C) 12 D) 8

15. (a6-g4-30) Radiusi 3 ga orttirilganda hajmi 876π ga ortadigan sharning sirtini toping.
A) 400π B) 256π
C) 196π D) 576π

16. (a6-g9-13) Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?
A) Parallelepiped diagonalining kvadrati qirralari kvadratlari yig'indisiga teng.
B) Sferaning hajmi $\frac{4}{3}\pi R^3$ formula orqali hisoblanadi.
C) Modulli funksiyaning hosilasi mavjud emas.
D) Funksiya argumentining bir qiymatiga funksiyaning ikkita qiymati to'g'ri kelmaydi.

17. (a6-g9-30)



Rasmda AE = EB, CD = 8 va AOB burchak 120° bo'lsa, bo'yalgan sohani DC kesma atrofida 180° ga aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.
A) $\frac{92\pi}{3}$ B) $\frac{116\pi}{3}$
C) $\frac{184\pi}{3}$ D) $\frac{232\pi}{3}$

18. (a6-g13-20) Mahmudjon qo'rodam yasamoqda. Qorodamning uchta shari radiuslari 50, 40 va 30 sm ga teng. Qorodamning hajmini toping.
A) 60000 sm^3 B) 30000 sm^3
C) 288000π sm^3 D) 144000π sm^3

192. Shar segmenti. Shar segmentining hajmi

1. (a3-g2-36) Radiusi 8 ga teng shar markazidan 5 ga teng masofadagi tekislik bilan kesildi. Hosil bo'lgan kesim yuzini toping.
A) 27π B) 39π C) 89π D) 41π

2. (a4-g23-36) Radiusi 25 sm bo'lgan shar markazidan 15 sm uzoqlikda tekislik bilan kesilishdan hosil bo'lgan doiraning yuzasini toping.
A) 200π B) 300π
C) 400π D) 600π

3. (a6-g8-28) Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?
A) Har qanday prizmaning diagonali mavjud.
B) Piramida eng kamida 5 ta yoqdan iborat bo'ladi.
C) Konusning yasovchisi asos diametridan hamma vaqt katta yoki teng bo'ladi.
D) Shardan olingan sektor shu shardan olingan segmentga tengdosh bo'lishi mumkin.

4. (a6-g10-30) Radiusi 5 ga teng bo'lgan yarimshar shaklidagi idishda suv bor. Suv yuzasidan idish tubining eng chuqur joyigacha bo'lgan masofa 3 ga teng. Bu idish yana qancha hajm birligidagi suvni o'z ichiga sig'dira oladi?
A) $\frac{142\pi}{3}$ B) $\frac{250\pi}{3}$
C) $\frac{214\pi}{3}$ D) $\frac{125\pi}{3}$

5. (a6-g24-24) Radiusi 25 sm bo'lgan shar markazidan 15 sm uzoqlikdagi kesishishda hosil bo'lgan doiraning yuzasini toping.
A) 200π B) 300π
C) 400π D) 600π

11-bob. Jismlar kombinatsiyasi

193. Prizmaga ichki chizilgan shar. Prizmaga tashqi chizilgan shar

1. (a2-g6-35) Muntazam tetraedrning qirrasi 2 ga teng. Shu tetraedrga tashqi chizilgan sharning radiusini toping.
A) $\frac{\sqrt{6}}{6}$ B) $\frac{\sqrt{6}}{4}$ C) $\frac{3}{\sqrt{6}}$ D) $\sqrt{6}$

2. (a2-g13-33) Radiusi 3 ga teng bo'lgan sfera asosining tomonlari 2 va 4 ga teng bo'lgan to'g'ri burchakli parallelipipedning barcha uchlaridan o'tadi. Shu parallelipipedning hajmini toping.
A) 32 B) 28
C) 26 D) 14

3. (a3-g15-36) Tomoni 13 sm bo'lgan romb to'g'ri prizmaning asosini tashkil etadi. Prizmaga radiusi 6 sm li shar ichki chizilgan bo'lsa, prizma hajmini toping.
A) 468 B) 1872
C) 2808 D) 780

4. (a5-g19-30) Radiusi 12 ga teng bo'lgan sharga balandligi 8 ga teng bo'lgan asosi muntazam uchburchakdan iborat prizma ichki chizilgan. Shu prizma asosi tomoni uzunligini toping.
A) $16\sqrt{6}$ B) $4\sqrt{5}$
C) $8\sqrt{5}$ D) $8\sqrt{6}$

194. Silindrga ichki chizilgan shar. Silindrga tashqi chizilgan shar

1. (a1-g4-36) Radiusi 3 ga teng bo'lgan sharni o'z ichiga sig'dira oladigan eng kichik hajmli silindrning hajmini toping.
A) 18π B) 36π C) 54π D) 48π

2. (a4-g4-36)



Rasmda ABCD to'g'ri to'rtburchak va unga ichki chizilgan ikki aylananing chorak qismlari tasvirlangan. Rasmda shtrixlangan sohani AB o'q atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.

A) $\frac{2\pi r^3}{3}$ B) $\frac{3\pi r^3}{4}$

C) $\frac{\pi r^3}{2}$ D) $\frac{\pi r^3}{3}$

3. (a4-g6-36) Radiusi 3 ga teng bo'lgan sharni o'z ichiga sig'dira oladigan eng kichik hajmli silindrning hajmini toping.
A) 18π B) 36π C) 54π D) 48π

4. (a4-g7-35) Sharni o'z ichiga sig'dira oladigan eng kichik hajmli silindr yasaldi. Agar silindr ichiga shu shar solinsa, silindr hajmining necha foizi ochiq qoladi?
A) 30% B) 27,(6)%
C) 33,(3)% D) 25%

5. (a4-g18-36) Silindrga shar ichki chizilgan. Asosi shar markazida joylashgan to'g'ri konusning uchi shar sirtida yotadi. Silindrning hajmi konusning hajmidan necha marta katta bo'ladi?
A) 6 B) 12
C) 2 D) 8

195. Konusga ichki chizilgan shar

1. (a4-g5-36) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 16π ga, ostki asosining yuzi esa 25π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 96π B) 77π C) 60π D) 80π

2. (a4-g16-36) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 25π ga, ostki asosining yuzi esa 81π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 180π B) 132π
C) 144π D) 192π

3. (a4-g21-36) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 25π ga, ostki asosining yuzi esa 81π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 180π B) 132π
C) 144π D) 192π

4. (a5-g1-36) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 16π ga, ostki asosining yuzi esa 25π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 96π B) 77π
C) 60π D) 80π

5. (a5-g8-36) Balandligi diametridan 2 marta katta bo'lgan silindr ichiga eng katta hajmli konus chizildi. Konusga esa shar ichki chizildi. Agar silindr asosining radiusi R ga teng bo'lsa, shar radiusini toping.

A) $\frac{3R}{4}$ B) $\frac{R}{4}$

C) $\frac{3R}{\sqrt{17}-1}$ D) $\frac{4R}{\sqrt{17}+1}$

6. (a5-g10-36) Radiusi 8 ga teng bo'lgan 270° li doira sektori buklanib konus yasaldi. Ushbu konusga ichki chizilgan shar radiusini toping.

A) $\frac{6\sqrt{7}}{7}$ B) $2\sqrt{7}$

C) $\frac{8\sqrt{7}}{7}$ D) $\frac{4\sqrt{7}}{3}$

7. (a5-g16-30) Balandligi diametridan 3 marta katta bo'lgan silindr ichiga eng katta hajmli konus chizildi. Konusga esa shar ichki chizildi. Agar silindr asosining radiusi R ga teng bo'lsa, shar radiusini toping.

A) $\frac{5R}{6}$ B) $\frac{R}{6}$

C) $\frac{6R}{\sqrt{37}+1}$ D) $\frac{4R}{\sqrt{37}-1}$

8. (a6-g22-16) Kesik konusga shar ichki chizilgan. Konus ustki asosining yuzi 25π ga, ostki asosining yuzi esa 49π ga teng. Shar sirtining yuzini toping.
A) 140π B) 128π
C) 120π D) 96π

196. Konusga tashqi chizilgan shar

1. (a2-g13-31) Radiusi 1 ga teng bo'lgan sharga yasovchi $\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Shu konus o'q kesimining asosidagi burchaklari yig'indisini toping.
A) 30 B) 60 C) 90 D) 120

2. (a3-g19-36) Asos radiusi 12 ga, balandligi 18 ga teng bo'lgan konus sharga ichki chizilgan. Shar to'la sirtini toping.
A) 900π B) 676π
C) 576π D) 1024π

3. (a3-g23-36) Sharga ichki chizilgan konusning o'q kesimi teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Konusning hajmi shar hajmining qanday qismini tashkil etadi?
A) 0,25 B) 1/3 C) 2/3 D) 0,75

4. (a4-g13-23) Sharga ichki chizilgan konusning o'q kesimi teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Konusning hajmi shar hajmining qanday qismini tashkil etadi?
A) 1/4 B) 1/3
C) 2/3 D) 1/6

5. (a5-g11-30) Asos radiusi 12 ga, balandligi 36 ga teng bo'lgan konus sharga ichki chizilgan. Shar to'la sirtini toping.
A) 576π B) 800π
C) 1600π D) 144π

6. (a5-g25-30) Asos radiusi 9 ga, balandligi 27 ga teng bo'lgan konus sharga ichki chizilgan. Shar to'la sirtini toping.
A) 600π B) 1296π
C) 576π D) 900π

7. (a6-g12-34) Sharga konus ichki chizilgan. Konus asosi uzunligining sharning eng katta aylanasi uzunligiga nisbati 1:3 kabi. Konus hajmining shar hajmiga nisbatini toping (konus balandligi shar radiusidan katta).

A) $\frac{4+\sqrt{2}}{27}$ B) $\frac{3+2\sqrt{2}}{108}$

C) $\frac{3+2\sqrt{2}}{54}$ D) $\frac{2\sqrt{2}+3}{27}$

8. (a6-g20-18) Radiusi 3 ga teng bo'lgan sharga yasovchisi 5 ga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Shu konusning asosidagi burchak sinusini toping.
A) $\frac{4}{5}$ B) $\frac{3}{5}$ C) $\frac{5}{6}$ D) $\frac{3}{4}$

9. (a6-g25-30) Sharga ichki chizilgan konusning o'q kesimi teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Konusning hajmi shar hajmining qanday qismini tashkil etadi?
A) 0,25 B) 0,(3)
C) 0,(6) D) 0,75

197. Kub va konus. Kub va shar

1. (a1-g2-36) Radiusi 9 ga teng bo'lgan shardan eng katta hajmdagi kub kesib olingan. Kubning qirrasini aniqlang.
A) $6\sqrt{3}$ B) $5\sqrt{3}$
C) $3\sqrt{6}$ D) $4\sqrt{6}$

2. (a1-g16-36) Radiusi 9 ga teng bo'lgan shardan eng katta hajmdagi kub kesib olingan. Kubning qirrasini aniqlang.
A) $6\sqrt{3}$ B) $3\sqrt{3}$
C) $3\sqrt{6}$ D) $4\sqrt{3}$

3. (a2-g1-35) To'la sirtining qiymati hajmining qiymatiga teng bo'lgan kubning ichiga ichki chizilgan eng katta konusning yasovchisi uzunligi nechaga teng?
A) $6\sqrt{6}$ B) $3\sqrt{5}$
C) $3\sqrt{3}$ D) 6

4. (a3-g17-36) Quyidagi mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Uchburchakning ixtiyoriy 2 ta tomoni yig'indisi uning uchinchi tomonidan katta.
B) Qavariq to'rtburchakning har bir uchidan bittadan olingan tashqi burchaklari yig'indisi 360° ga teng.
C) Parallelogramning tomonlari kvadratlarining yig'indisi uning diagonallari kvadratlari yig'indisidan 2 marta katta.
D) Kubga ichki chizilgan sharning diametri uning tomoniga teng.

5. (a4-g20-36) Diametri $2\sqrt{3}$ bo'lgan shar ichiga chizilgan eng katta hajmli kubning hajmi necha sm^3?

A) 27 B) $24\sqrt{3}$

C) 16 D) 8

6. (a5-g24-30) Rasmda ABCD tomoni 5 ga teng bo'lgan kvadrat va unga ichki chizilgan aylananing chorak qismi tasvirlangan. Ushbu shaklni AD tomon atrofida aylantirilganda shtrixlangan soha hosil qilgan jismning hajmini toping.



A) $62,5\pi - \frac{125\pi}{3}$ B) $125\pi - \frac{250\pi}{3}$

C) $62,5\pi - \frac{125\pi}{6}$ D) $125\pi - \frac{500\pi}{3}$

7. (a6-g2-30) Agar kvadratning tomoni $\sqrt[3]{\frac{60}{\pi\sqrt{2}}}$ bo'lsa uning diaganoli atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jism hajmini toping.

A) $15\sqrt{2}$ B) 10

C) 5 D) $10\sqrt{2}$

198. Prizma va silindr

1. (a4-g25-36) Asos radiusi R va balandligi H bo'lgan silindrga ichki chizilgan muntazam uchburchakli prizma to'la sirtini toping.

A) $S_t = 6\sqrt{3}R(R+H)$

B) $S_t = 3\sqrt{3}R\left(\frac{R}{2}+H\right)$

C) $S_t = \frac{3\sqrt{3}}{4}R^2 + \frac{3\sqrt{3}}{2}R\sqrt{4H^2+R^2}$

D) $S_t = 3\sqrt{3}R\left(\frac{R}{4}+H\right)$

199. Silindr va konus

1. (a3-g1-36) Yondagi rasmda silindr ichiga joylashtirilgan konus ko'rsatilgan. Silindrning balandligi 12 ga teng. Konus suv bilan to'la. Agar konusning tagi (uchli tarafi) teshib qo'yilsa, suv qanday balandlikka ko'tariladi?

A) 6 B) 9 C) 4 D) 8

2. (a3-g24-36) O't o'chiruvchilarning konussimon chelagi bilan silindrsimon chelakka teng miqdorda suv sig'adi. Agar ularning balandliklari teng bo'lsa, konus radiusining silindr radiusiga nisbatini toping.

A) 1 B) $\sqrt[3]{3}$ C) $\sqrt{3}$ D) 3

3. (a6-g1-30) Kesik konusning asos radiuslarining nisbati 2 ga teng. Shu konus ichiga sig'dira oladigan eng katta hajmli silindr hajmining kesik konus hajmiga nisbatini toping.

A) $\frac{3}{7}$ B) $24\sqrt{3}$

C) 24 D) $48\sqrt{3}$

200. Ko'pyoqlar kombinatsiyalari

1. (a1-g16-35) Qirrasi $3sm$ ga teng bo'lgan kubning yuqori asosidagi A uchi va pastki asosidagi A bilan umumiy qirraga ega bo'lmagan E, F va G uchlari hosil qiluvchi piramida hajmini hisoblang

A) $\frac{9}{2}sm^3$ B) $\frac{9}{5}sm^3$

C) $\frac{9}{4}sm^3$ D) $\frac{3}{2}sm^3$

2. (a5-g1-35) ABCDEFKL tomoni 4 ga teng kub. ABCDL piramidaning yon sirtini toping.

A) $16\left(\sqrt{2}+1\right)$

B) $8\left(\sqrt{3}+\sqrt{2}\right)$

C) $8\sqrt{3}$

D) $16\sqrt{2}$

INFORMATIKA

AXBOROT

1. Axborotning ko'rinishi, xossalari va turlari

1. (a5-g11-31) Axborot qanday ko'rinishida bo'la olmaydi?
A) videotasvir B) ramka
C) nutq D) jadval

2. (a5-g12-31) Axborotdan hayot faoliyatida foydalana olish uchun qaysi muhim xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?
A) qimmatli, to'liqlik va ishonchli
B) tushunarli, qisqa va ishonchli
C) foydali, qisqa va qimmatli
D) ortiqchalilik, to'liqlik va foydali

3. (a5-g17-2) Bilim – ...
A) darsliklar orqali o'rganilgan mavhum boylik
B) axborotlarni diskret uslubda qabul qilish
C) bog'langan axborot yig'indisi
D) axborotlarni analog uslubda qabul qilish

4. (a5-g21-31) Quyidagi keltirilganlardan qaysi biri hayot faoliyatida foydalana olish uchun axborotlar ega bo'lishi lozim bo'lgan xususiyatlarga kirmaydi?
A) ishonchli bo'lishi
B) to'liqlik xususiyatiga ega bo'lishi
C) uzluksiz bo'lishi
D) ma'lum darajada qimmatli bo'lishi

5. (a5-g22-31) Forobiyga ko'ra bilishning qanday bosqichlari mavjud?
A) hissiy va aqliy
B) tarixiy va mantiqiy
C) ilmiy va diniy
D) 5 sezgi organlari

6. (a5-g23-31) Bog'langan axborotlar qanday nomlanadi?
A) ma'lumot
B) ilm
C) bilim
D) axborot obyekti

7. (a5-g24-31) Quyidagilardan qaysi biri axborotning xususiyatlari emas?
A) foydalilik B) raqamlilik
C) to'liqlik D) qimmatlilik

8. (a6-g2-31) Inson quyidagilardan qaysi biri orqali axborotni qabul qila olmaydi?
A) tana sezgisi B) qon tomirlari
C) ko'zi D) burni

9. (a6-g3-31) Nuqtalar o'rniga mos so'zni tanlang. Axborot beradigan narsa va hodisalar axborot ... deyiladi.
A) manbalari B) antennalari
C) modulyatori D) obyektlari

10. (a6-g3-33) Kompyuterdan ma'lumotlarni baytlarda olib baytlarda uzatuvchi portlar qanday nomlanadi?
A) parallel B) ketma-ket
C) universal D) sun'iy

11. (a6-g7-32) Darsda o'qituvchi o'rgatgan mavzuni o'zlashtirish uchun qaysi sezgi organlardan foydalaniladi?
A) qo'l, burun, ko'z
B) quloq va ko'z
C) qo'l, ko'z va quloq
D) burun, ko'z va quloq

12. (a6-g14-32) Axborotlar ishlatish maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
A) qisqa, tushunarli, batafsil
B) foydalilik, ortiqchalilik
C) qimmatlik, to'liqlik, ishonchlilik
D) foydalilik, to'liqlik

13. (a6-g22-31) Klod Shennon fikriga ko'ra, axborot nima?
A) Axborot – bizning va sezgilarimizning, tashqi moslashuvimizdagi mazmunning ifodalash.
B) Bilmaslikdan bilishga, sababni bilishdan oqibatni bilishga intilish.
C) Axborot – narsa haqidagi bilimlarimizdagi noaniqlikning bartaraf etilishi.
D) Axborot – bilishning asosini tashkil etuvchi element.

14. (a6-g24-31) Quyidagilardan qaysi biri kibernetika fanining asoschisi?
A) Klod Shennon
B) Paskal
C) Abu Nasr Forobiy
D) Norbert Viner

2. Axboriy jarayonlar. Axborotni kodlash

1. (a5-g16-31) Axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallarni ko'rsating.
A) ko'chirish, nusxa olish va saqlash
B) qo'shish, ko'paytirish va bo'lish
C) eslab qolish, ishlatish va yig'ish
D) to'plash, qayta ishlash va uzatish

2. (a5-g16-35) 15 Gbt (gigabayt) necha baytdan iborat?
A) $15 \cdot 10^{12}$ B) $15 \cdot 2^{12}$
C) $15 \cdot 2^{30}$ D) $15 \cdot 8^{12}$

3. (a5-g18-8) 400 Kbit necha bayt bo'ladi?
A) 50000 B) 409600
C) 51200 D) 400000

4. (a5-g19-31) Gretsiya sarkardasi Lisandro o'ylab topgan kodlash usuli qanday nomlanadi?
A) tekis kodlash
B) notekis kodlash
C) axborotni surish
D) o'rin almashtirish

5. (a5-g21-32) Axborotlarni kodlashtirishning Samuel Morze tomonidan ishlab chiqilgan Morze usulida nechta belgi ishlatiladi?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

6. (a5-g21-35) 21 Gbt (gigabayt) necha bitdan iborat?
A) $21 \cdot 2^{33}$ B) $21 \cdot 2^{20}$
C) $21 \cdot 10^{23}$ D) $21 \cdot 10^{30}$

7. (a5-g23-32) Mobil telefon 20 daqiqada 300 MB informatsiyani qabul qildi. Bu telefonning informatsiya qabul qilish tezligi necha Kbod?
A) 256 B) 512
C) 2048 D) 1024

8. (a5-g23-33) ASCII jadvalida Ł belgisi C-qator, 4-ustunda joylashgan. Shu belgining kompyuterga uzatilish kodi qanday bo'ladi?
A) 01001100 B) 11110010
C) 11010100 D) 11011100

9. (a5-g24-32) «ABITURIYENT» so'zini ASCII kodi yordamida ifodalash uchun nechta raqamdan foydalaniladi?
A) 11 B) 44 C) 88 D) 176

10. (a6-g1-34) Foydalanuvchi internetdan 330 MB hajmli filmni yuklash jarayonining dastlabki ikki daqiqasini 256 kilobayt/sekund bilan, keyingi 6 daqiqasini esa aloqa sifati yaxshilanishi hisobiga 384 kilobayt/sekund tezlik bilan amalga oshirgach, foydalanuvchi hisobidagi trafik miqdori tugagan bo'lsa, u filmning necha foizini yuklashga muvaffaq bo'lgan?
A) 37,5% B) 50%
C) 75% D) 22,5%

11. (a6-g5-31) Quyidagilardan qaysi biri axborotni qayta ishlashga misol bo'la oladi?
A) savol bergan odamga javob berish
B) o'qituvchi o'rgatgan mavzuni daftarga yozish
C) internet orqali maktub jo'natish
D) yosh bolaga ertak aytib berish

12. (a6-g5-32) Umidaning telefoni 3,6 MB lik videorolikni 2 daqiqada ko'chirib oldi. Umidaning telefoni bu videorolikni o'rtacha necha Kbod tezlikda ko'chirib olgan?
A) 30 B) 30,72
C) 30720 D) 30 000

13. (a6-g6-31) Quyidagilardan qaysi biri axborotli jarayon emas?
A) Avtobuslardagi yo'nalish nomeri va boradigan manzillar ro'yxatining yozilishi.
B) O'quvchining darsda mavzularni o'rganishi.
C) Futbolchining jarima to'pini tepishi.
D) CD (kompakt disk)ga yangi qo'shiqlarni yozish.

14. (a6-g9-32) HP rusumli kompyuter 3 daqiqada axborotni ko'chirib oldi. Agar kompyuterning o'rtacha tezligi 45,2 Kbod bo'lsa, film necha Mbaytligini toping.
A) $\frac{2034}{2^8}$ B) $\frac{2034}{2^{11}}$
C) $\frac{1017}{2^8}$ D) $\frac{135,6}{2^{18}}$

15. (a6-g10-31) Qaysi fikr noto'g'ri?
A) Morze kodlash usuli tekis kodlash usuli hisoblanadi.
B) ASCII kodlash jadvali yordamida 256 ta belgini kodlash mumkin.

C) 16 xil rangni kodlash uchun 4 bit informatsiya hajmi kerak bo'ladi.
D) 1PB = 2^{50} bayt

16. (a6-g11-26) Axborotni maxfiy saqlash maqsadida kodlash nima deyiladi?
A) o'rin almashtirish
B) shifrlash
C) raqamlash
D) tekis kodlash

17. (a6-g13-8) Axborotni qayta ishlash vositalari to'g'risidagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?
A) Ular inson tomonidan ishlab chiqilgan.
B) Ularning eng samaradori – kompyuter.
C) Ular axborotni to'playdi.
D) Ular axborot ustida arifmetik amallarni ham bajaradi.

18. (a6-g15-32) 36 Kbt axborotni 153,6 bod tezlik bilan necha minutda uzatish mumkin?

A) 32 B) 4 C) $\frac{64}{15}$ D) $\frac{128}{15}$

19. (a6-g17-33) ASCII jadvalida «л» belgisi B-qator, A-ustunda joylashgan. Shu belgining kompyuterga uzatilish kodi qanday bo'ladi?
A) 00101111 B) 11110010
C) 10101011 D) 11011100

20. (a6-g18-31) Morze kodlash usulida kodlash qanday uchta belgi yordamida amalga oshiriladi?
A) tire, bo'shliq, undov
B) qo'shish, bo'shliq, nuqta
C) tire, ikki nuqta, undov
D) tire, bo'shliq, nuqta

21. (a6-g18-32) Bir kitobda 220 ta sahifa bo'lib, har bir sahifa 28 ta satrdan va har bir satr 68 ta belgidan iborat bo'lsa, kitobdagi axborot hajmini hisoblang.
A) 418,8 Kbayt B) 52360 bayt
C) 418880 bayt D) 3351040 bayt

22. (a6-g20-32) 3000 MB hajmli axborot 5 minutda uzatilgan bo'lsa, axborot uzatish tezligini (bod) aniqlang.
A) $10 \cdot 2^{23}$ B) 10^7
C) $10 \cdot 2^{20}$ D) $10 \cdot 2^{30}$

23. (a6-g21-31) Qaysi javobda axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallar ko'rsatilgan?
A) eshitish, tahlil qilish, uzatish
B) sezgi organlari orqali qabul qilish, uzatish
C) to'plash, qayta ishlash, uzatish
D) to'plash, tahlil qilish, saqlash

24. (a6-g24-32) 12 Megabayt necha bitga teng?
A) $3 \cdot 2^{25}$ B) $12 \cdot 2^{20}$
C) $96 \cdot 10^6$ D) $3 \cdot 2^{15}$

25. (a6-g25-34) Axborotni qayta ishlash vositasi – ...
A) kompyuter.
B) tabiatda mavjud narsalar.
C) inson tomonidan qurilgan qurilmalar.
D) biologik sistema.

26. (a6-g26-31) Axborotni kodlash deganda nima tushuniladi?
A) axborotlarning maxfiyligini ta'minlash
B) axborotlarni viruslardan himoya qilish
C) axborotni boshqa ko'rinishga o'tkazish
D) ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazish

3. Sanoq sistemasi. Turli xil sanoq sistemalari bilan ishlash

1. (a5-g11-35) Ikkilik sanoq sistemasida berilgan yig'indini hisoblang.
$11010011_2 + 1001110_2$
A) 110111101_2 B) 100100001_2
C) 100010001_2 D) 11011001_2

2. (a5-g12-32) Ikkilik sanoq sistemasida berilgan 1101110001111 sonini o'n oltilik sanoq sistemasiga o'tkazing.
A) 7055 B) 111815
C) FB81 D) 1B8F

3. (a5-g13-35) Ikkilik sanoq sistemasida berilgan 1101_2 va 1010_2 sonlari ko'paytmasi quyidagilardan qaysi biriga teng?
A) 11010010_2 B) 10100010_2
C) 10000010_2 D) 10101011_2

4. (a5-g16-33) Ikkilik sanoq sistemasida berilgan 1101001110101 sonini 8 lik sanoq sistemasiga o'tkazing.
A) 15165 B) 7064
C) 17076 D) 64721

5. (a5-g17-10) Ikkilik sanoq sistemasidagi 1101011100111001 sonini 16 lik sanoq sistemasiga o'tkazing.
A) D73A B) C83A
C) 9867 D) D739

6. (a5-g19-32) Ikkilik sanoq sistemasidagi 110100111 + 1000110111 yig'indini sakkizlik sanoq sistemasida tasvirlang.
A) 1736 B) 1664
C) 2017 D) 2006

7. (a5-g20-32) O'nlik sanoq sistemasida keltirilgan 5967 sonini sakkizlik sanoq sistemasida tasvirlang.
A) 71531 B) 13517
C) 3191 D) 15731

8. (a5-g21-33) Ikkilik sanoq sistemasida qo'shish amalini bajaring.
$10110_2 + 101011_2 = ?$
A) 1001001 B) 1101001
C) 1100100 D) 1000001

9. (a5-g21-34) O'nlik sanoq sistemasida berilgan sonni ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing. $139_{10} \rightarrow ?_2$
A) 10010001 B) 100010101
C) 10001011 D) 100100110

10. (a5-g22-32) Yig'indining ikkilik sanoq sistemasidagi qiymatini toping.
$175_8 + 1010111_2$
A) 1010100_2 B) 11010100_2
C) 11010001_2 D) 1100110_2

11. (a6-g3-32) Ikkilik sanoq sistemasidagi hisoblashlarni bajaring.
111001,101 – 10011,01
A) 100110,011 B) 10111,100
C) 101001,101 D) 11110,011

12. (a6-g6-1) a va b noldan farqli raqamlar bo'lsa, $\overline{abababab}$ sonini $\overline{ab}$ soniga bo'lgandagi qiymatini toping.
A) 1101101
B) aniqlab bo'lmaydi
C) 1010101
D) 10101010

13. (a6-g6-32) 8 lik sanoq sistemasida berilgan 61273 sonini 16 lik sanoq sistemasida ifodalang.
A) EF59 B) 5F9C
C) 25275 D) 62BB

14. (a6-g7-31) Pozitsiyasiz sanoq sistemasida sanoq sistemasi asosi nechtalik bo'ladi?
A) 10
B) 100
C) 54
D) asosga ega emas

15. (a6-g8-31) Qaysi raqamlar guruhi pozitsiyali sanoq sistemasi hisoblanadi?
A) Rim raqamlari
B) Arab raqamlari
C) Asteklar raqamlari
D) Bobilliklar raqamlari

16. (a6-g16-32) Quyidagilardan qaysi biri pozitsiyali bo'lmagan sanoq sistemasi hisoblanadi?
A) arab raqamlari
B) asteklar raqamlari
C) o'nlik sanoq sistemasi
D) ikkilik sanoq sistemasi

17. (a6-g17-32) Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonni 16 lik sanoq sistemasiga o'tkazing. 110111011000011
A) FAB3 B) AB67
C) 6EC3 D) 7D6B

18. (a6-g20-31) Bo'shliqlarni to'ldiring:
Sonlar alifbosiga kiritilgan bir xonali belgilar ... va ular yordamida hosil qilingan boshqa ko'p xonali belgilar ... deyiladi.
A) sonlar, raqamlar
B) raqamlar, sonlar
C) razryadlar, sanoq sistemalari
D) xona birliklari, sonlar

19. (a6-g21-34) O'n oltilik sanoq sistemasidagi 248A sonini sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.
A) 7615 B) 1245
C) 6712 D) 22212

20. (a6-g23-33) O'nlik sanoq sistemasidagi 2047 sonini sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.
A) 6777
B) 3777
C) 4567
D) 1234

21. (a6-g25-32) Ikkilik sanoq sistemasidagi sonlarning ayirmasini toping $11101,01_2 - 1011,1_2$.
A) 11101,01 B) 1110,11
C) 10001,11 D) 10110,01

AXBOROT TEXNOLOGIYASI

4. Axborot texnologiyasi

1. (a5-g12-35) Internet tarmog'idagi ma'lumotlar saqlanuvchi kompyuter qanday nomlanadi?
A) gipertekst
B) world wide web
C) web server
D) internet server

2. (a5-g14-35) Signalni ham raqamli ko'rinishdan analog ko'rinishga, ham analog ko'rinishdan raqamli ko'rinishga o'tkazuvchi qurilma qanday nomlanadi?
A) demodulyator B) modem
C) modulyator D) hub

3. (a5-g22-35) Gipermatn nima?
A) Internetdagi faol sahifaning boshqa qismiga yoki boshqa sahifaga yo'naltiruvchi
B) Juda ham katta hajmni egallovchi matn
C) Bir necha shaklda tovlanuvchi animatsion matn
D) Veb sahifadagi reklama roliklari

4. (a5-g23-34) IP protokolining vazifasi ...
A) axborotni paketlarga ajratish
B) barcha paketlarni qabul qiluvchiga uzatish
C) komputerlarga maxsus nomer berish
D) gipermatnlarni saqlash

5. (a5-g25-34) Kompyutening raqamli signali ko'rinishini analog ko'rinishga o'tkazuvchi qurilma ... deyiladi.
A) modulyator B) demodulyator
C) modem D) server

6. (a6-g2-33) Tarmoqdagi kompyuterlarning o'zaro ulanish tuzilmasi ... deyiladi
A) internet
B) tarmoq topologiyasi
C) tarmoq adapteri
D) tarmoq texnologiyasi

7. (a6-g5-35) Nuqtalar o'rniga mos so'zni tanlang. Internetda ma'lumotlarni uzatish qoidalari ... deyiladi.
A) nizom B) WWW
C) protokollar D) browserlar

8. (a6-g7-35) Quyidagilardan qaysi biri axborot texnologiyasining ichki omili hisoblanadi?
A) dars o'tish B) radio
C) kompyuter D) mobil telefon

9. (a6-g8-35) Tarmoq topologiyasi nima?
A) kompyuter tarmoqlarining ulanish tuzilmasi
B) kompyuterning tarmoqlararo o'zaro bog'liqligi
C) tarmoqlararo o'zaro bog'lanish
D) mintaqaviy tarmoq hosil qilish

10. (a6-g9-31) Axborot manbayidan axborotni qabul qilish vositasiga yetkazib beruvchilar qanday nomlanadi?
A) antenna
B) aloqa vositalari
C) axborot jarayonlari
D) axborot tashuvchi vosita

11. (a6-g10-33) Veb saytlar manzili hisoblanmish URL yoyilmasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Universal Recalling Language
B) United Remainder Language
C) Uniform Resource Locator
D) Unique Rendering Liability

12. (a6-g17-34) Veb sahifalar saqlanuvchi maxsus kompyuter ... deyiladi.
A) veb-server B) veb sayt
C) Arpanet D) www

13. (a6-g25-31) ... – bu minglab lokal va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi tizim.
A) Modem B) Web site
C) Internet D) ijtimoiy tarmoq

14. (a6-g26-34) Lokal tarmoqda asosiy kompyuterga ulangan kompyuterlar qanday nomlanadi?
A) fayl server
B) provayder
C) stansiya
D) lokal stansiya

5. Internet ishini ta'minlovchi dasturlar

1. (a5-g25-33) Internet Explorer brauzerida Veb sahifalardagi ma'lumotlardan nusxa olish va ko'chirish qaysi menyu buyruqlari asosida amalga oshiriladi?
A) Fayl
B) Tahrir (Правка)
C) Servis
D) Ma'lumot (Справка)

2. (a6-g12-8) Quyidagilarning qaysi biridan veb-brauzer sifatida foydalanilmaydi?
A) AdWiper
B) Mozilla Firefox
C) Mosaic
D) AVP Platinium

3. (a6-g13-32) Nuqtalar o'rniga mos so'zni toping. WWWda axborot ... da saqlanadi.
A) veb brauzer B) veb sahifa
C) veb-sayt D) URL

4. (a6-g15-31) Quyidagi keltirilganlardan qaysi biri Internet Explorer dasturi menyusiga kirmaydi?
A) Jadval B) Tanlangan
C) Ma'lumot D) Servis

5. (a6-g20-33) Quyidagilardan qaysi biri Internet tarmog'idan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish uchun xizmat qiladigan qidiruv tizimlaridan biri emas?
A) Yandex B) Yahoo
C) Linux D) Rambler

6. Axborot xavfsizligi va antivirus

1. (a5-g17-25) .com, .dll va .exe kengaytmali fayllarga zarar keltiruvchi virus turlari qanday nomlanadi?
A) tarmoq viruslari
B) makroviruslar
C) boot viruslar
D) fayl viruslari

2. (a5-g24-33) Operatsion sistema yuklanishini taqiqlovchi virus turini ko'rsating.
A) fayl viruslar
B) tarmoq viruslari
C) boot viruslar
D) makroviruslar

3. (a6-g3-34) O'zaro bog'langan kompyuterlarni zararlovchi virus turi qanday nomlanadi?
A) boot viruslar
B) makroviruslar
C) fayl viruslar
D) tarmoq viruslari

4. (a6-g6-35) TR viruslar guruhi qaysi davlatda ishlab chiqarilgan deya tahmin qilinadi?
A) Turkiya B) Turkmaniston
C) Vengriya D) Bolgariya

5. (a6-g8-34) Operatsion sistemaning 0 treyiga yozilib oladigan viruslar qanday nomlanadi?
A) spam B) avenger
C) fayl viruslari D) boot viruslari

6. (a6-g14-35) 1988-yilda ishga tushib ko'pgina kompyuterlarni zararlagan «Morissa» nomli virus qaysi turga mansub?
A) fayl virusi B) boot virusi
C) tarmoq virusi D) makroviruslar

7. (a6-g16-35) Tarmoqqa ulangan barcha yoki ba'zi abonentlarga zarar keltiruvchi viruslar qanday nomlanadi?
A) replikatorlar B) netvirus
C) avenger D) datacrime

8. (a6-g19-32) Quyidagilardan qaysi biri antivirus dasturlari?
1) DrWeb; 2) McAfee; 3) Avast;
4) Ms Internet Explorer; 5) Netscape Navigator; 6) Nod32.
A) 1, 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 1, 2, 3, 6 D) 2, 3, 4, 6

9. (a6-g22-32) Quyidagilardan qaysi biri internet orqali yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan hisoblanmaydi?
